

**ENGLISH-UZBEK  
DICTIONARY**

**INGLIZCHA-O'ZBEKCHA  
LUG'AT**

TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»  
2013



УДК: 811.111'374.822

811.512.133'374.822

81.2 Ingl

E56

**Tuzuvchilar:**

Sanjar Nazarov, Feruza Nazarova,  
Nigora Adizova, Dilbar Poltayeva

**Taqrizchilar:**

J.J. Jalolov, Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti professori  
H.A. G'aniyeva, Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

E56 **English-uzbek dictionary. Inglizcha-o'zbekcha lug'at – T.:**  
**«Niso Poligraf», 2013.–816-b.**

Qo'lingizdagi «Inglizcha-o'zbekcha lug'at» cho'ntak kitobi yaqin ikki-uch yil davomida nashr etilgan lug'atlardan keskin farq qilib turadi. Bu, avvalo, tuzuvchilar tomonidan leksikografiya ilmining ilg'or an'analariغا rioya qilishga bo'lgan urinishda o'z ifodasini topgan. Lug'at ingliz tili mutaxassislari va tili o'rganuvchilar tomonidan yuksak qadrlanadigan Oksford lug'atshunoslik maktabi an'analari da tuzilgan.

Lug'at ingliz tilining faol qalamini to'liq qamrab olgan. Tarjima-ning aniqligi va foydalanish uchun qulaylik tuzuvchilar tomonidan bosh maqsad qilib olingan. Lug'atning so'z boyligi 35 000 dan ortiq so'z va iboralar hamda 60 000 dan ziyod tarjima birliklaridan iborat. Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, lug'atdagi tarjima birliklarini hisoblash ham asosan Oksford lug'atlarida uchraydigan holat.

Ushbu lug'at o'quvchilarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

УДК: 811.111'374.822

811.512.133'374.822

КБК 81.2 Ingl

**Alisher Navoiy**

nomidagi

**O'zbekiston MK**

2013/ISBN 978-9943-4044-4-1  
A  
10438

© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2013-y.

№ 42122  
1 q.

## LUG'ATDAN FOYDALANISH TARTIBI

Lug'at maqolalari alifbo tartibida berilgan.

Kitobning hajmi oshib ketmasligi uchun bir necha o'zak-dosh yoki shaklan o'xshash bosh so'zlar bitta lug'at maqolaning tarkibiga kiritilgan. Bosh so'zlar qoraytirilgan harflar bilan yozilib, bir-biridan nuqta bilan ajratilgan. Iboralar va misollar ham qoraytirilgan harflar bilan yozilgan hamda bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratilgan.

Bosh so'z ibora yoki misolda takrorlanganda uning o'rniga to'liqinli chiziq (-) ishlatilgan. Omonim so'zlar bir-biridan tepasiga raqam yozish bilan farqlangan. Ularning ma'nosi esa qavs ichidagi yordamchi so'z bilan aydinlashtirilgan. Masalan: **bank<sup>1</sup> n. (of river)**, **bank<sup>2</sup> n. (econ.)**. Ushbu usuldan o'zbek tilidagi so'zlarning ma'no jilolari yaqqol anglashilishi uchun ham foydalanilgan, ya'ni qavs ichida so'zning aniq ma'nosini ochib beruvchi inglizcha so'z yoki ibora keltirilgan.

Lug'at maqolalarning boshidagi so'zning transkripsiyasi keltirilgan. (*Quyida Xalqaro Fonetik Alifbo jadvali ilova qilinmoqda.*) Kitob hajmlining ixchamligini saqlab qolish uchun bosh so'zning transkripsiyasiga qiyosan talaffuzi ayonlashishi mumkin bo'lgan so'zlarga alohida transkripsiya berilmadi. Transkripsiyasi berilmagan so'zda ta'kid urg'usi o'zgargan hollarda, urg'u tushgan bo'g'inning oldiga (') belgisi qo'yilgan.

So'zlarning grammatik xususiyatlari tarjima qilingan so'zdan oldin, qisqartma shaklda, qiyshaytirilgan harflarda keltirilgan. (*Quyida qisqartmalar ro'yxati ilova qilinmoqda.*)

Tarjima qilingan baynalminal so'zlar va ilmiy atamalarga izoh keltirilgan.

## PHONETIC SYMBOLS

## Consonants

æ	cat	ʌ	run	eə	hair
d:	arm	ʊ	put	ɪə	near
e	bed	u:	too	ɔɪ	boy
ɜ:	her	ə	ago	ʊə	poor
ɪ	sit	aɪ	my	aɪə	fire
i:	see	aʊ	how	aʊə	sour
ɒ	hot	eɪ	day		
ɔ:	saw	aʊ	no		

## Vowels

b	but	n	no	ʒ	decision
d	dog	p	pen	θ	thin
f	few	r	red	ð	this
g	get	s	sit	ŋ	ring
h	he	t	top	x	loch
j	yes	v	voice	tʃ	chip
k	cat	w	we	dʒ	jar
l	leg	z	zoo		
m	man	ʃ	she		

## O'ZBEK TILI ALIFBOSI

Aa	Li	Vv
Bb	Mm	Xx
Dd	Nn	Yy
Ee	Oo	Zz
Ff	Pp	O'o'
Gg	Qq	G'g'
Hh	Rr	Shsh
li	Ss	Chch
Jj	Tt	Ngng
Kk	Uu	

## ABBREVIATIONS

a.	accusative	cul.	culinary
abbr.	abbreviation		
(of)		d.	dative
abs.	absolute	def.	definite
adj., adjs.	adjective(s)	det.	determinate
adv., advs.	adverb(s)	dim.	diminutive
aeron.	aeronautics	dipl.	diplomacy
agric.	agricultural		
anat.	anatomy	eccl.	ecclesiastical
approx.	approximate(ly)	econ.	economics
archaeol.	archaeology	elec.	electrical
astron.	astronomy	emph.	emphatic
attr.	attributive	esp.	especially
aux.	auxiliary	etc.	etcetera
bibl.	biblical	f.	feminine
biol.	biology	fig.	figurative
bot.	botany	tut.	future (tense)
c.g.	common gender	g.	genitive
chem.	chemistry	geog.	geography
cin.	cinema(tography)	geol.	geology
coll.	colloquial	geom.	geometry
collect.	collective(ly)	gram.	grammar
comb.	combination		
comin.	commerce	hist.	historical
com p.	comparative	hort.	horticulture
comput.	computing		
conj., conjs.	conjunction(s)	i.	instrumental;

	intransitive	nom.	nominative
imper.	imperative	nt.	neuter
impers.	impersonal		
impf.	imperfective	o.s.	oneself
indecl.	indeclinable		
indef.	indefinite	p.	prepositional
indet.	indeterminate	parl.	parliamentary
inf.	infinitive	part.	particle
int.	interjection	pej.	pejorative
interrog.	interrogative	pers.	person
		pf.	perfective
journ.	journalism	phon.	phonetics
		phot.	photography
leg.	legal	phys.	physics
ling.	linguistics	pl.	plural
liter.	literary	poet.	poetical
loc.	locative	pol.	political
		poss.	possessive
m.	masculine	pred.	predicate;
math.	mathematics		predicative
med.	medicine	pref.	prefix
meteor.	meteorology	prep.	preposition
mil.	military	pres.	present (tense)
min.	mineralogy	print.	printing
mus.	music	pron., prons.	pronoun(s)
myth.	mythology	propr.	proprietary term
		psych.	psychology
n.	noun		
naut.	nautical	rail.	railway
neg.	negative	refl.	reflexive
nn.	nouns	rel.	relative

relig.	religion; religious	trig.	trigonometry
Russ.	Russian	univ.	university
		usu.	usually
sb.	substantive	v.	verb
sg.	singular	var.	various
sl.	slang	v.aux	auxiliary verb
s.o.	someone	vbl.	verbal
sth.	something	vet.	veterinary
superl.	superlative	v.i.	intransitive verb
		voc.	vocative
t.	transitive	v.t.	transitive verb
tech.	technical	vv.	verbs
theatr.	theatre		
theol.	theology	zool.	zoology



## A

**A** [eɪ] *n.* (*mus.*) *lya (nota); from A to Z* boshidan oxirigacha, lpidan ignasigacha.

**a** [ə, eɪ], *an* [æn, ən] *article, not usu. translated; adj.* *allakim, biroq, qandaydir, allaqanday; fifty miles an hour* soatiga ellik mil; *twice a week* haftada ikki marotaba.

**AA** *abbr. (of Automobile Association)* Avtomobilchilar uyushmasi.

**aback** [ə'bæk] *adv.*: *take - hayron qoldirmoq, lol qoldirmoq; bexosdan bostirib kelib qolmoq.*

**abacus** [æ'bəkəs] *n.* cho't.

**abandon** [ə'bænd(ə)n] *v.* (*leave*) qoldirmoq; (*desert*) tark etmoq; (*give up*) tashlab kelmoq; - *o.s.* to berilmoq. **abandoned** *adj.* tashlandiq, tark etilgan; (*profligate*) buzuq, badaxloq; suyuqyoq, fohisha. **abandonment** *n.* (*action*) qoldirib kelmoq, tashlab ketmoq; esdan chiqarib qoldirib kelmoq; (*state*) xarobalik, tashlandiqlik.

**abase** [ə'beɪs] *v.* xo'r-lamoq, lah-qirlamoq. **abacement** *n.* xo'r-lash.

**abate** [ə'beɪt] *v.* (*lessen*) kichik-lashmoq, maydalashmoq; (*wea-*

*ken*) kuchsizlanmoq; (*calm*) tinchlanmoq; (*die down*) jim bo'lib qolmoq; ovozi o'chmoq; uni o'chmoq. **abatement** *n.* kamaytirish, kichraytirish.

**abattoir** [æbɛ.twa:(r)] *n.* kushxona.

**abbess** [æbɪs] *n.* abbat ayol (*katolik ayollar monastirining boshlig'i*). **abbey** [æbɪ] *n.* abballik.

**abbot** [æbət] *n.* abbat.

**abbreviate** [æbrɪ:vɪət] *v.* qisqartirmoq. **abbreviation** *n.* qisqartirma.

**ABC** [æbɪ:'si] *n.* alifbe; alifbo.

**abdicate** [æbdɪ:kət] *v.* taxtdan, hokimiyatdan voz kechmoq, yuz o'girmoq. **abdication** *n.* voz kechish, yuz o'girish (taxtdan, hokimiyatdan).

**abdomen** [æbdəmən] *n.* qorin bo'shlig'i; (*anatom.*) qorin (hayvonlarda). **abdominal** [æb'dɒmɪn(ə)l] *adj.* qorin..., qoringa oid.

**abduct** [æb'dʌkt] *v.* zo'rlik ishlatib olib kelmoq, o'g'irlamoq. **abduction** *n.* zo'rlik bilan olib ketish, o'g'irtash.

**aberration** [æbɛ'reɪʃ(ə)n] *n.* aberratsiya (*optik asboblarda hosil bo'lgan tasvirning noaniqligi yoki buzilishi; yerning Quyosh atrofiga aylanishi natijasida yulduzlarning o'z joyidan siljiganga o'xshab ko'rinishi*); (*mental*) fikrda

- yanglishish; es og'lishi.
- abet** [ə'bet] *v.* undamoq (*jinoyat sodir etishga*); sodir etishga ko'maklashmoq (*jinoyatni*).
- abhor** [əb'hɔ:(r)] *v.* jirkanmoq, nafratlanmoq; (*hate*) yomon ko'rmoq, toqat qila olmaslik.
- abhorrence** [əb'hɔ:rəns] *n.* nafrat, jirkanish. **abhorrent** *adj.* jirkanch.
- abide** [ə'baɪd] *v.* (*tolerate*) olib chiqmoq, chiqarib tashlamoq; (*remain*) qolmoq; ~ *by* (*promise etc.*) bajarmoq.
- ability** [ə'bɪlɪtɪ] *n.* iqtidor, iste'dod; uquv.
- abject** [æbdʒekt] *adj.* (*miserable*) ayanchli, bechorahol; razli, qabih; (*low*) past; (*craven*) qo'rqoq, jur'atsiz; ruhsiz.
- abjure** [əb'dʒʊə(r)] *v.* yuz o'girmoq, voz kechmoq.
- ablative** ['æblətɪv] *n.* ablyativ, o'rin-payt kelishigi.
- ablaze** [ə'bleɪz]: *be* - yonmoq; yarqiramoq.
- able** ['eɪb(ə)] *adj.* iqtidorli, uquvli; (*talented*) iste'dodli; *be* ~ *to* qila olmoq, kuchi yetmoq, imkon topmoq; qodir bo'lmoq; (*know how to*) eplamoq, qila olmoq.
- abnormal** [æb'nɔ:m(ə)] *adj.* g'ayritabiiy, odatdan tashqari, anormal. **abnormality** [æb'nɔ:'mæɪtɪ] *n.* g'ayritabiiylik,

- anormallik.
- aboard** [ə'bo:d] *adv.* kemada; (*train*) poezdda.
- abolish** [ə'bɒlɪʃ] *v.* bekor qilmoq, qoldirmoq; yo'q qilmoq, mahv etmoq. **abolition** [æbə'ɪʃ(ə)n] *n.* bekor qilish; mahv etish.
- abominable** [ə'bɒmɪnəb(ə)] *adj.* jirkanch, qabih; (*bad*) yomon; **the A-Snowman** «qor odam», yeti. **abomination** *n.* jirkanish, nafrat; (*also object of* ~) jirkanchlik, qabihlik, tubanlik, pastkashlik.
- aboriginal** [æbə'rɪdʒɪn(ə)] *adj.* azalgi, qadimgi, yerli, mahalliy; *n.* aborigen, yeri aholi, mahalliy xalq. **aborigines** *n.* aborigenlar, mahalliy xalqlar.
- abort** [ə'bo:t] *v.* (*med.*) bola tashlamoq, bola tushirmoq; (*terminate*) tugalmoq, barmam bermoq, to'xtatmoq; uzmoq. **abortion** *n.* abort, chala tug'ilgan bola; **backstreet** - yashirin abort. **abortive** *adj.* amalga oshmagan, muvaffaqiyatsiz.
- abound** [ə'baʊnd] *v.* ko'p miqdorda bo'lmoq; ~ *in* mo'l-ko'l, serob bo'lmoq; to'lib-toshib yotmoq; ~ *with* g'ij-g'ij qaynamoq.
- about** [ə'baʊt] *adv.* & *prep.* yonida, oldida, yaqinida; (*concerning*) haqida, xususida, to'g'risida; *be* ~ *to* to'planmoq, yig'ilmoq.

**above** [ə'baʊ] *adv.* tepada; (*higher up*) baland, yuqori; *from* – tepadan; yuqoridan. **above-board** *adj.* odil, to'g'ri. **above-mentioned** *adj.* mazkur, yuqorida aytilgan.

**abrasion** [ə'breɪʒ(ə)n] *n.* tekislamoq, tozalamoq; (*wound*) shilingan joy. **abrasive** [ə'breɪsɪv] *adj.* abrazivli; *n.* abraziv, pardoz beradigan, silliqaydigan material.

**abreast** [ə'breɪst] *adv.* (*in line*) qatorda, qatorasiga, yonmayon; (*on a level*) darajada.

**abridge** [ə'brɪdʒ] *v.* qisqartirmoq. **abridgement** *n.* qisqartirish, kamaytirish, ozaytirish.

**abroad** [ə'brɔ:d] *adv.* chet elga, xorijga; chet elda, xorijda; *from* – chet eldan, xorijdan.

**abrupt** [ə'brʌpt] *adj.* (*steep*) tikka kesib lushgan jarlik, tik; (*sudden*) bexosdan, qo'qqisdan; (*manner*) keskin, birdan.

**abscess** [æbsɪs] *n.* abscess, yiringli shish, yiringli yara.

**abscond** [əb'skɒnd] *v.* yashirinmoq, berkinmoq; qochib ketmoq.

**absence** [æbs(ə)ns] *n.* yo'qlik, g'oyiblik; (*temporary*) ketib qolish, g'oyib bo'lish; (*from work*) ishga chiqmaslik; – *of mind* parishonxotirlik. **absent** [æb-

s(ə)nt; əb'sent] *adj.* g'oyib, ketib qolgan; g'oyiblikda; *be* – yo'q bo'lmoq, mavjud emaslik; *v.*: ~ *e.s.* kelmoq, g'oyib bo'lmoq, vaqtincha yo'q bo'lmoq. **absentee** [æbsen'ti:] *n.* yo'q kishi, kelmagan kishi; (*habitual*) sababsiz ishga (o'qishga) kelmagan kishi. **absenteeism** *n.* sababsiz ishga (o'qishga) kelmaslik, absenteizm (*majlis, saylov kabilarda* ishtirok etishdan bosh tortish). **absent-minded** *adj.* parishonxotir.

**absolute** ['æbsə.lu:t, -'lju:t] *adj.* mutlaqo; (*complete*) to'liq, to'kis, mukammal; (*unrestricted*) mutlaq, qat'iy; cheksiz, chegarasiz; (*rire*) toza, sof: ~ alcohol toza spirt; – *pitch (of sound)* mutlaq balandlik, yuksak parda (ovozda); (*in person*) mukammal eshitish qobiliyati; ~ *proof* qat'iy dalil; – *zero* mutlaq nul.

**absolution** [æbsə'lu:ʃ(ə)n, 'lju:ʃ(ə)n] *n.* rohibning gunohlarini kechirishi (nasroniylikda).

**absolve** [əb'zɒlv] *v.* kechirmoq.

**absorb** [əb'sɔ:b, -'zɔ:b] *v.* (*take in*) shimmoq; (*swallow, also fig.*) yulmoq; (*suck in*) so'rmoq; (*tech.*) absorbsalya qilmoq, singdirmoq; (*engross*) egallamoq. **absorbed** *adj.* berilib ketgan, sho'ng'ib kelgan. **absor-**

- bent** *adj.* shimadigan; yuladigan, **absorption** *n.* shimish; so'rish; yulish; singdirish; (*mental*) berilib ketganlik, sho'ng'ib ketganlik.
- abstain** [əb'steɪn] *v.* o'zni tiymoq, o'zni tortmoq. **abstemious** [æb'sti:mjəs] *adj.* bosiq, tiyilgan. **abstention** [əb'stenʃ(ə)n] *n.* o'zni liyish, o'zni tortish; (*from vote*) ovoz berishdan bo'yin tovlamoq, bosh tortmoq; (*person*) bosh tortgan, bo'yin tovlagan kishi. **abstinence** [æb'stɪnəns] *n.* o'zni tiyish, o'zni tortish; (*total* -) hushyorlik. **abstinent** *adj.* bosh tortgan, bo'yin tovlagan.
- abstract** ['æbstrækt; əb'strækt] *adj.* mavhum, umumiy; *n.* konspekt, referat; *In the* - mavhum tarzda, umumiy ravishda; (*journal of*) ~(-s) referativ jurnal; *v.* (*steal*) o'g'irlamoq; o'g'irlik qilmoq; (*make - of*) konspekt qilmoq. **abstracted** *adj.* o'ylga cho'mgan, parlashxotlr. **abstraction** *n.* mavhumlik, umumiylik; (*abstractedness*) o'ychanlik, parlashxotirlik; (*theft*) o'g'irlik.
- absurd** [əb'sɜ:d] *adj.* bema'ni, behuda. **absurdity** *n.* bema'ni-lik, behudalik.
- abundance** [ə'bʌnd(ə)nə] *n.* mo'llik, to'kinchilik. **abundant** *adj.* mo'l, to'kin.
- abuse** [ə'bju:z; ə'bju:s] *v.* (*revile*) so'kmoq, haqorat qilmoq, tahqirlamoq. **abusive** [ə'bju:sɪv] *adj.* tahqirovchi, haqorat qiluvchi.
- abul** [ə'bat] *v.* borib taqalmoq, chegaradosh bo'lmoq.
- abysmal** [ə'bɪzm(ə)l] *adj.* tubsiz, chuqur, (*bad*) dahshatli. **abyas** [ə'bɪə] *n.* tubsiz chuqurlik, jar, choh.
- AC** *abbr.* (*of alternating current*) o'zgaruvchan tok.
- a/c** [ə'kaʊnt] *n. abbr.* (*of account*) joriy hisob.
- acacia** [ə'keɪʃə] *n.* akas daraxtl, akatsiya.
- academia** [ˌæke'di:mɪə] *n.* akademik olam; olimlar doirasi. **academic** [ˌæke'demɪk] *adj.* akademik, akademiya oid, universitetga oid; (*abstract*) quruq nazariy, amaliy ahamiyatsiz.
- academicians** *n.* akademik. **academy** [ə'kædemɪ] *n.* akademiya; o'quv muassasasi.
- accede** [æk'ɛsɪd] *v.* kirmoq, kirishmoq; (*assent*) rozilik bermoq.
- accelerate** [æk'selə'reɪt] *v.* tezlash(tir)moq; qadamni tezlashtirmoq. **acceleration** *n.* tezlashish. **accelerator** *n.* tezlatgich; (*pedal*) akselerator.
- accent** [æks(ə)nt, -sənt; æk'sənt] *n.* aksent; (*stress*) urg'u, urg'u

belgisi; *v.* urg'u bermoq; urg'u belgisini qo'ymoq. **accentuate** [æk'sentʃu, eɪt] *v.* ta'kidlamoq. **accentu'ation** *n.* ta'kidlash.

**accept** [æk'sept] *v.* qabul qilmoq; (*agree*) rozi bo'lmoq. **acceptable** *adj.* ma'qul, muvofiq keladigan; (*pleasing*) yoqadigan, ko'ngildagi. **acceptance** *n.* qabul qilish. **accept-ation** *n.* qabul qilingan ma'no. **accepted** *adj.* (umum)qabul qilingan.

**access** [ækses] *n.* kirish yo'li, kiriladigan joy; (*attack*) hujum. **accessary** *n.* (*after the fact*) sherik, birga ishtirok qilgan (*birin voqeadan keyingi jinoyatda*). **ac'cessible** *adj.* hamma-bop, tushunarli. **accession** *n.* o'tirmoq, minmoq (*taxtga*); (*acquisition*) olish, orttirish, ega bo'lish. **accessories** *n.* buyumlar. **accessory** *adj.* qo'shimcha, yordamchi.

**accidence** [æksɪd(ə)nə] *n.* morfologiya.

**accident** ['æksɪd(ə)nɪ] *n.* (*chance*) voqea, hodisa, tasodif; (*misshap*) baxtsiz hodisa; (*crash*) avariya, halokat; **by** - tasodifan. **accidental** *adj.* tasodifiy; *n.* (*mus.*) alteratsiya belgisi.

**acclaim** [ə'kleɪm] *v.* olqishlamoq; *n.* olqish.

**acclimatization** [ə,kli:mə'taɪz-

zeɪ(ə)n] *n.* akklimatizatsiya, iqlimga moslashish. **ac'climatize** *v.* akklimatizatsiyalashtirish, iqlimga moslashtirish..

**accommodate** [ə'kɒmə,deɪt] *v.* joylashtirmoq; moslashtirmoq. **accommodating** *adj.* xizmatga tayyor. **accommo'dation** *n.* bino; (*lodging*) turar joy; ~ **lad-der** tashqi narvon.

**accompaniment** [ə'kɒmpəni-ment] *n.* kuzatish; (*mus.*) jo'r bo'lish. **accom-panist** *n.* jo'rlik qiluvchi. **accompany** *v.* kuzatib qo'ymoq; (*mus.*) jo'rlik qilish.

**accomplice** [ə'kɒmplɪs, -kɒm-] *n.* sherik, tili bir.

**accomplish** [ə'kɒmplɪʃ, ə'kɒm-] *v.* qilmoq. **accomplished** *adj.* tugallangan; (*skilled*) a'lo, juda yaxshi. **accomplishment** *n.* qilish, tugatish; fazilat, kamolot.

**accord** [ə'kɔ:d] *n.* rozilik; **of one's own** - o'z ixtiyori bilan; **of its own** - o'z holicha, o'z-o'zicha; **with one** - yakdillik bilan. **ac-cordance** *n.*: **in** - with muvofiq, binoan. **according** *adv.*: - **to** muvofiq ravishda; ~ **to him** uning gapiga qaraganda. **accord-ingly** *adv.* tegishlicha, yarasha, loyiq.

**accordion** [ə'kɔ:dɪən] *n.* garmon, akkordeon.

**account** [ə'kaunt] *n.* hisob raqa-

- mi; hisoblash; hisobot; (*description, narrative*) tasvir, hikoya; **call to** - javob berishga chaqir-moq; **keep** - of hisob yuritmoq; **not on any** -, **on no** - zinhor, hech qachon; **on** - hisobga taalluqli bo'lgan summa; **on** - of tufayli, sababli; **settle** -s with hisoblashmoq, qasdini olmoq; **take into** - hisobga, e'tiborga olmoq; **turn to (good)** - o'z foydasiga aylantirmoq; *v.*: - for tushuntirmoq. **accountable** *adj.* mas'ul, hisobot beradigan. **accountancy** *n.* buxgalleriya. **accountant** *n.* buxgaller, hisobchi.
- accredited** [ə'kreditɪd] *adj.* akkreditatsiyadan o'tgan.
- accretion** [ə'kri:(ə)n] *n.* o'sib borish.
- accrue** [ə'kru:] *v.* ko'paymoq; -d interest ko'paygan foizlar.
- accumulate** [ə'kju:mju,leɪt] *v.* to'pla(n)moq; yig'(il)moq.
- accumulation** *n.* to'plash, yig'ish, jamlash. **accumulator** *n.* akkumulyator.
- accuracy** [ækjʊərəsɪ] *n.* aniqlik, to'g'rilik. **accurate** *adj.* aniq, to'g'ri, tayin, muayyan.
- accursed** [ə'kɜ:sɪd, ə'kɜ:sɪ] *adj.* la'nali, mal'un.
- accusation** [ækju:'zeɪʃ(ə)n] *n.* ayblov. **accusative** [ækju:'zətɪv] *adj.* (n.) tushum (kelishigi). **accuse** [ə'kju:z] *v.* ayblamoq; **the** -d ayblanuvchi, sudlanuvchi.
- accustom** [ə'kʌstəm] *v.* o'rgatmoq. **accustomed** *adj.* odatiy, oddiy; **be, get** - odatlanmoq.
- ace** [eɪs] *n.* (cards) tuz; (expert) mohir.
- acetic** [ə'si:tɪk] *adj.* sirkali. **acetylene** [ə'setɪli:n] *n.* atsetilen (*uglerod bilan vodorod birikmasidan iborat hidsiz va tuzsuz yanuvchi gaz*); *adj.* atsetilenli.
- ache** [eɪk] *n.* og'riq; *v.* og'rimoq.
- achieve** [ə'tʃi:v] *v.* erishmoq, qo'lga kiritmoq. **achievement** *n.* yutuq.
- acid** [æsɪd] *n.* kislota; *adj.* nor-don; ~ rain kislotali yomg'ir.
- acidity** *n.* kislota, kislotalilik.
- acknowledge** [ək'nɒlɪdʒ] *v.* (*admit*) tan olmoq; anglamoq; (*express gratitude*) minnatdorchi-lik bildirmoq; (~ *receipt of*) ol-ganlikni tasdiqlamoq. **acknowledgement** *n.* e'tirof; minnatdor-lik; tasdiq; **in** - of minnatdorlik beigisi o'laroq.
- acme** [ækmi] *n.* cho'qqi, ust, tepa, yuqori nuqta.
- acne** [ˈæknɪ] *n.* husunbuzar.
- acorn** [ˈeɪkɔ:n] *n.* cho'chqa yong'oq.
- acoustic** [ə'ku:stɪk] *adj.* (of sound) akustik, tovushga oid; (of hear-ing) eshitishga oid; (*sound-ab-*

- sorbing*) ovozni yutadigan.  
*acoustics* *n.* akustika.
- acquaint** [ə'kwɛɪnt] *v.* tanishtirmoq. *acquaintance* *n.* tanishuv; (*person*) tanish. *acquainted* *adj.* tanikli.
- acquiesce** [ækwɪ'ɛs] *v.* rozi bo'lmoq. *acquiescence* *n.* (islari-stamas) rozilik berish. *acquiescent* *adj.* (jimgina) rozilik beruvchi.
- acquire** [ə'kwɪə(r)] *v.* qo'lga kiritmoq, egalik qilmoq; (*habit etc.*) egallamoq. *acquired* *adj.* egallangan. *acquisition* [ækwɪ'zɪʃ(ə)n] *n.* egalik qilish, qo'lga kiritish. *acquisitive* [ə'kwɪzɪtɪv] *adj.* xasis.
- acquit** [ə'kwɪt] *v.* oqlamoq; - o.s. o'zini tutmoq. *acquittal* *n.* oqlash.
- acre** [eɪkə(r)] *n.* akr (0.4047 gektarga teng yer o'lchovi); yerlar, yer mulki. *acres* [eɪkə(r)ɪz] *n.* akrdagi o'lchangan maydon.
- acid** [ækrɪd] *adj.* o'tkir.
- acidulous** [ækrɪ'mɛnɪəs] *adj.* zaharli, serzarda.
- acrobat** [ækrə,bæt] *n.* akrobat.  
*acrobatic* *adj.* akrobatik. *acrobatics* *n.* akrobatika.
- acronym** [ækronɪm] *n.* akronim, abbreviatura, qisqartma.
- across** [ə'krɒs] *adv. & prep.* orqali; ko'ndalangiga; (*to, on, other side*) u, bu tomonga, u tomondagi; (*crosswise*) chillaq qilib.
- across-the-board** *adj.* yalpi, hamma, umuman.
- acrylic** [ə'krɪlɪk] *n.* akril; *adj.* akrilli.
- act** [ækt] *n.* (*deed*) harakat, jarayon; (*law*) qonun; (*of play*) harakat; **A-s** (*of the Apostles*) Apostollarning qilmishi; *v.* yo'l tutmoq; harakat qilmoq; o'ynamoq. **acting** *n.* sahnadagi o'yin; *adj.* vazifasini bajaruvchi. **action** [æktʃ(ə)n] *n.* harakat, qilmish; (*leg.*) da'vo, (sud) jarayoni; (*battle*) jang. **active** *adj.* faol, serharakat; - *service* haqqoniy xizmat. **activity** *n.* faoliyat; faollik; harakatchanlik. **actor** [æktə(r)] *n.* aktyor. **actress** *n.* aktrisa.
- actual** [æktʃʊəl, æktʃʊəl] *adj.* haqiqiy, bor narsa. **actuality** [æktʃʊ'æltɪ, æktʃʊ] *n.* haqiqat, voqelik. **actually** *adv.* haqiqatda, aslida.
- actuate** [æktʃʊ'eɪt] *v.* harakatga keltirmoq.
- acuity** [ə'kjʊ:ɪtɪ] *n.* o'tkirlik.
- acupuncture** [ækju:pʌŋktʃə(r)] *n.* akupunktura, nina bilan davolash.
- acute** [ə'kj:ɪt] *adj.* o'tkir; (*penetrating*) sezgir, o'tkir farosalli.
- AD** *abbr.* (*of Anno Domini*) eramizdagi, milodiy (vaqt hisobi).

**adamant** [ædəmənt] *adj.* qat'iy, amin.

**adapt** [ə'dæpt] *v.* moslashtirmoq; (*for stage etc.*) sahnalashtirmoq; - *o.s.* moslashmoq; uyg'unlashmoq, moslanmoq.

**adaptable** *adj.* moslashadigan.

**adaptation** *n.* uyg'unlashtirish, moslashtirish, o'zgartirish, tuza-tish; sahnalashtirish.

**add** [æd] *v.* qo'shmoq; qo'shimcha qilmoq, ulamoq; - *together* yig'moq; - *up to* -ga aylanmoq, -ga borib yetmoq. **addenda**

[ə'dendə] *n.* qo'shimcha, ilova.

**adder** [ædə(r)] *n.* zaharli qora ilon.

**addict** [ædɪkt] *n.* (*drug* -) narkoman, giyohvand. **addicted** *adj.*: *be* - *to* qul bo'lmoq; - *to drink* ichkilikbozlikka berilib ketguvchi. **addiction** *n.* zararli odat; (*to drugs*) narkomaniya, giyohvandlik.

**addition** [ə'dɪʃ(ə)n] *n.* qo'shish; to'ldirish; (*math.*) qo'shish, qo'shuv; *In* - buning ustiga, hoz ustiga, qo'shimcha qilib. **additional** *adj.* qo'shimcha, ilova. **additive** *n.* ustama, qo'shimcha.

**address** [ə'dres] *n.* adres, manzilgoh; (*speech*) murojaatnoma, nutq; *v.* yo'naltirmoq, yo'llamoq; (*apply*) murojaat qilmoq; - *a meeting* yig'ilishda nutq so'zla-

moq. **addre'ssee** *n.* adresal, oluvchi (*xel, telegramma kabi-larni*).

**adept** [ædept; ə'dept] *n.* mutaxassis, ekspert; *adj.* bilimdon.

**adequacy** [ædɪkwəsi] *n.* yetaril-lik. **adequate** *adj.* yetarli, talab-ga javob beradigan.

**adhere** [əd'hɪə(r)] *v.* yopishmoq; (*fig.*) ergashmoq. **adherence** *n.* tarafdorlik, sadoqat. **adherent** *n.* tarafdor, muxlis; ergashuvchi, izbosar. **adhesion** [əd'hɪ:ʒ(ə)n] *n.* yopishish, yelimlanish. **adhesive** [əd'hɪ:ʒɪv] *adj.* yopishqoq, yelimshak; - *tape* skotch; *n.* yelim.

**adjacent** [ə'dʒeɪs(ə)nt] *adj.* tutash.

**adjectival** [ədʒɪk'tɪv(ə)] *adj.* si-falga oid. **adjective** *n.* sifal

**adjoin** [ə'dʒɔɪn] *v.* yondosh, che-garadosh bo'lmoq.

**adjourn** [ə'dʒɔ:n] *v.* ortga surmoq, keyinga qoldirmoq; *tanaffus* e'lon qilmoq; (*to another place*) o'lmoq, ko'chmoq.

**adjudicate** [ədʒu:dɪ,keɪt] *v.* (sud, arbitraj) qarorini chiqarmoq; bahsni yechmoq; lahni ko'rib chiqmoq.

**adjust** [ədʒʌst] *v.* moslas(tir)moq, uyg'unlash(tir)moq; moslamoq, sozlamoq, to'g'rilamoq; (*regu-late*) sozlamoq, to'g'rilamoq. **adjustable** *adj.* to'g'rilanadigan,



tartibga solinadigan. **adjustment** *n.* to'g'rilash, tartibga solish.

**adjutant** [ædʒʊt(ə)nt] *n.* adyutant (*harbiy rahbar yoki shtab topshiriqlarini bajaruvchi zabit*).

**administer** [əd'mɪnɪstə(r)] *v.* (*manage*) boshqarmoq; (*dispense*) jo'natmoq; (*give*) bermaq. **administration** *n.* ma'muriyat, boshqaruv; (*government*) hukumat. **administrative** *adj.* ma'muriy, boshqaruvga oid. **administrator** *n.* ma'mur, administrator.

**admirable** [əd'mɪrəb(ə)l] *adj.* maqtovg'a sazovor; (*excellent*) a'lo.

**admiral** [əd'mɪr(ə)l] *n.* admiral. **Admiralty** *n.* admirallik.

**admiration** [əd'mɪ'reɪʃ(ə)n] *n.* zavqlanish, qoyil qolish, shavq.

**admire** [əd'maɪə(r)] *v.* zavqlanmoq, qoyil qolmoq. **admirer** *n.* muxlis, ixlosmand.

**admissible** [əd'mɪsɪb(ə)l] *adj.* yo'l qo'ysa bo'ladigan, qabul qilsa bo'ladigan. **admission** *n.* ruxsat, ijozat, kinsh; (*confession*) tan olish, qabul qilish. **admit** *v.* Ichkariga kirgizmoq; (*show*) yo'l qo'ymoq; (*accept*) qabul qilmoq; (*confess*) tan olmoq, qabul qilmoq. **admittance** *n.* kirish huquqi, kirish uchun ruxsat. **admit-**

**tedly** *adv.* iqror bo'lmoq, e'tirof etmoq.

**admixture** [əd'mɪkstʃə(r)] *n.* aralashma, qorishma, omixta.

**adolescence** [ədə'lesəns] *n.* o'smirlilik, yoshlik. **adolescent** *adj.* o'smirlarga oid; *n.* o'smir.

**adopt** [ə'dɒpt] *v.* (*child*) bola asrab olmoq; (*thing*) o'zlashtirmoq; (*approve*) qabul qilmoq. **adopted**, **adoptive** *adj.* asrab olingan, asrandi. **adoption** *n.* bola asrab olish; qabul qilish.

**adorable** [ə'dɔ:rəb(ə)l] *adj.* jozibador, maftunkor, ko'rkam, go'zal. **adoration** *n.* ortiq darajada sevish, juda muhabbat qo'yish. **adore** *v.* juda sevmok. **adorer** *n.* ortiq darajada sevguvchi.

**adorn** [ə'dɔ:n] *v.* bezamoq, ziynatlamok. **adornment** *n.* bezak, zab-ziyat.

**adroit** [ə'drɔɪl] *adj.* epchil, chaqqon.

**adult** [ə'dʌlt, 'ædʌlt] *adj. & n.* yetuk, balog'atga yetgan kishi.

**adulterate** [ə'dʌltə'reɪt] *v.* qalbakilash-tirmok. **adulteration** *n.* qalbakilash-tirish.

**adultery** [ə'dʌltəri] *n.* zino, turmush o'rtog'iga xiyonat qilish, benikoh aloqa.

**advance** [əd'vɑ:ns] *n.* (*going forward*) harakatlanish (*oldinga*);

2013/234

A 10438

Alisher Navoiy

nomidagi

O'zbekiston MK

(*progress*) taraqqiyot; (*mil.*) hujum; (*rise*) yuksalish; (*of pay etc.*) bo'nak, avans; (*loan*) qarz, asuda; *in* - oldindan; bo'nak tarzida, avans qilib; *make* - a to parvarishlamoq; - *information* dastlabki ma'lumotlar, taxminiy ma'lumotlar; - *copy* na'munaviy nusxa, dastlabki nusxa; *v. (go forward)* oldinga harakatlantirish; oldinga bormoq; (*mil.*) hujum qilmoq; *olg'a bormoq*; (*put forward*) siljitmoq, surib, tortib chiqarmoq; (*promote*) yuqori lavozimga ko'tarmoq; (*pay in* -) bo'nak qilib to'lamoq. *advanced* *adj.* ilg'or, yetakchi; - *In years* qariya; - *studies* oliy kurs. *advancement* *n.* ilgariylash, ilg'a yurish.

*advantage* [əd'vɑ:nɪdʒ] *n.* ustivorlik; (*profit*) foyda; *take* - of foydalanmoq; *to* - foydali; foydali tarzda; *to the best* - juda foydali tarzda. *advantageous* *adj.* foydali.

*adventure* [əd'ventʃə(r)] *n.* sarguzasht; - *story* sarguzasht roman. *adventurer* *n.* avantiyurist, tavakkalchi (shubhali, qal'is ishga qo'l uruvchi). *adventurers* *n.* firibgar ayol. *adventurism* *n.* avantiyurizm. *adventurist* *n.* avantiyurist, tavakkalchi. *adventurous* *adj.* (rash) qal'is, xatar-

li; (*enterprising*) uddaburon, ustomon.

*adverb* [ædvɜ:b] *n.* ravish. *adverbial* *adj.* ravishli, hoill.

*adversary* [ædvəsəri] *n.* raqib. *adverse* *adj.* yomon, nobop; - *wind* ro'paradan esgan shamol. *adversity* *n.* baxtsizlik.

*advert* [ædvɜ:t] *e'lon*, reklama. *advertise* *v.* reklama qilish; namoyishkarona e'lon qilavermok; e'lon joylashtirmok, e'lon bermoq. *advertisement* *n.* e'lon, reklama.

*advice* [əd'vaɪs] *n.* nasihat; (*specialist*) maslahat, kengash; (*notice*) avizo (yuborilgan mol yoki pul haqida oluvchiga yuboriladigan xabaromom); a piece, word of ~ maslahat. *advisability* [əd'vaɪzə'bɪlɪtɪ] *n.* maqsadga muvofiqlik. *advisable* *adj.* tavsiya qilingan, istalgan. *advise* [əd'vaɪs] *v.* maslahat bermoq; tavsiya qilmoq; (*notify*) xabar bermoq; -*dly adv.* puxta o'ylab, ataydan. *adviser* *n.* maslahatchi; konsultant; legal - maslahatchi yurist; medical - vrach, tabib. *advisory* *adj.* maslahatli, kengashli; konsultativ.

*advocacy* [ædvəkəsi] *n.* (*profession*) advokatura; (*support*) tashviqol. *advocate* *n.* advokat,

Handwritten notes and stamps at the bottom of the page, including a date stamp "1952" and a signature.

oqlovchi, himoyachi; tarafdor; v. fashviq qilmoq; himoya qilib chiqmoq.

**aerial** ['æəriəl] *n.* antenna; *adj.* havoga oid.

**aero-** ['eərə] *in comb.* avia...

**aero...** **aerobics** *n.* aerobika,

aerobik gimnastika. **aerodrome**

['æərə,drəʊm] *n.* aerodrom. **aerody-**

**namics** *n.* aerodinamika,

**aero-engine** *n.* avlatsion dvigal-

el. **aero'nautical** *adj.* avlatsion.

**aeroplane** *n.* samolyot, uchoq.

**aerosol** ['eərə,səʊl] *n.* aerosol

**aerospace** *adj.* avlatsion-ko-smik.

**aesthetic** [i:s'tetɪk] *adj.* estetik.

**affable** ['æfəb(ə)] *adj.* xushmuomala. **affability** *n.* xushmuomalalik.

**affair** [ə'feə(r)] *n.* (*business*) ish; (*love*) ishqiy sarguzasht.

**affect** [ə'fekt] *v.* harakat qilish;

ta'sir qilish; (*touch*) tegmoq, te-

gizmoq; salgina tegib ketmoq;

(*concern*) tegishi bo'lmoq, taalu-

qli bo'lmoq; *it doesn't - me* bu

menga taaluqli emas. **affecta-**

**tion** *n.* mug'ambirlik, munofiqlik,

ayyorlik, noz-karashma. **af-**

**fectad** *adj.* mug'ambir, ayyor,

munofiq, noz-karashmal. **affect-**

**ing** *adj.* ta'siril. **affection** *n.* meh-

ribonlik, muhabbat; (*malady*)

kasallik. **affectionate** *adj.* meh-

ribon, muhabballi, sevguvchi.

**affiliate** [ə'fɪli,et] *v.* bo'lim, sho"ba

sifatida qo'shib olmoq. **affiliated**

*adj.* bo'limga oid. **affiliation** *n.*

bo'lim sifatida qo'shib olish: (*of*

*child*) otalikning aniqlanishi.

**affinity** [ə'fɪnɪti] *n.* (*relationship*)

qarindoshlik; (*resemblance*)

o'xashlik, yaqinlik; (*attraction*)

qiziqish, berilib ketish, ishqivo-

zlik.

**affirm** [ə'fɜ:m] *v.* tasdiqlamoq.

**affirmation** *n.* tasdiq. **affirma-**

**tive** *adj.* tasdiqlovchi.

**affix** [ə'fɪks; 'æfɪks] *v.* biriktirmoq;

*n.* affiks, qo'shimcha.

**afflict** [ə'fɪkt] *v.* xafa qilmoq, ozor

yetkazmoq. **affliction** *n.* xafalik.

**affluence** [æ'fluəns] *n.* boylik. **af-**

**fluent** *adj.* boy, badavlat; ~ **so-**

**ciety** boyiyotgan jamiyat.

**afford** [ə'fɔ:d] *v.* o'ziga ep

ko'rmoq; biror narsa qilish uchun

yeterli imkoniyatga ega

bo'lmoq; (*supply*) taqdim elmoq;

qurbi yetmoq; *I can't - it* bunga

mening qurbim yetmaydi.

**afforeat** [ə'fɔ:st, æ-] *v.* daraxt

ekmoq; o'rmonzorlashtirmoq.

**affore'estation** *n.* daraxt ekish,

o'rmonzorlashtirish.

**affront** [ə'frʌnt] *n.* haqorat qilish,

xafalik; *v.* haqorat qilmoq.

**Afghan (hound)** [æ'fgʌn] *n.* af-

g'on to'zai (*it zoi*).

**afoot** [ə'fʊt] *adv.*: aet – ishga solmoq.

**aforsaid** [ə'fɔ:sed] *adj.* yuqorida eslatib o'tilgan, mazkur. **aforethought** [ə'fɔ:θɔ:t] *adj.* oldindan o'ylab (qaaddan) qilingan.

**afraid** [ə'freɪd]: **be** ~ qo'rqmoq, cho'chimoq, hayiqmoq.

**afresh** [ə'frefʃ] *adv.* yangidan, qaytadan.

**Africa** [æ'frɪkə] *n.* Afrika. **African** *adj.* Afrikaga oid; *n.* afrikalik.

**Afro-American** [æ'frəu-] *adj.* afroamerikan.

**after** [ɑ:fte(r)] *adv.* keyinchalik; keyin, so'ng; ~ **all** oxir-qibat; **day** – **day** kundun-kunga; **long** – **midnight** yarim kechadan ancha keyin.

**after-** [ɑ:fte(r)] *in comb.* -dan so'ng, -dan keyin. **afterbirth** *n.* yo'ldosh, esh. **after-dinner** *adj.* tushlikdan keyingi. **afterlife** *n.* narigi dunyodagi hayot. **aftermath** [ɑ:fte,mæθ, -mə:θ] *n.* oqibat. **afternoon** *n.* kunning ikkinchi yarmi; **In the** – kunduzi, kunduz kuni, tushdan keyin. **aftershock** *n.* takroriy silkinish. **afterthought** *n.* kechikkan g'oya.

**afterwards** [ɑ:ftewədz] *adv.* keyinchalik; keyin, so'ng.

**again** [ə'geɪn, ə'gen] *adv.* yana; (*once more*) yana bir mara; (*anew*) qaytadan, boshqatdan.

**against** [ə'geɪnst, ə'genst] (*opposed to*) -ga qarshi, -ga qarama-qarshi; (~ *background of*) -ning fonida.

**agate** [ægət] *n.* aqiq (*mineral*).

**age** [eɪdʒ] *n.* yosh; (*period*) asr, davr; *v.* qarimoq. **aged** [eɪdʒɪd] *adj.* keksaygan, qarigan, yoshi qaytgan; **the** ~ keksaygan kishilar, juda keksayganlar. **ageism** *n.* yosh nuqtayi nazardan kamситish. **ageist** *n.* yosh nuqtayi nazardan kamситish tarafdori.

**agency** [eɪdʒənsɪ] *n.* agentlik; (*mediation*) vositachilik; **by, through the** – of vositasida, yordamida, ko'magida. **agenda** [eɪdʒənde] *n.* kun tartibi. **agent** *n.* agent, vakil.

**agglomerate** [ə'glɒməreɪt] *n.* yig'moq, to'plamoq. **agglomeration** *n.* yig'ilish, to'planish, aglomeratsiya.

**aggravate** [æ'grɛvət] *v.* yomonlashtirmoq; (*annoy*) xafa qilmoq. **aggravation** *n.* yomonlashtirish; xafa qilish.

**aggregate** [ægrɪ'geɪt] *adj.* umumiy, yalpi, jami; *n.* umumiylik, agregat; **in the** ~ jami bo'lib, umuman olganda.

**aggression** [ə'grɛʃ(ə)n] *n.* tajovuz, agressiya; tajovuzkorlik, aggressivlik. **aggressive** *adj.* tajovuzkorona, aggressiv. **aggressor**

*n.* tajovuzkor, agressor.  
**aggravated** [e'grɪ:vɪd] *adj.* xafa, xafa bo'lgan.  
**aghost** [e'gɔ:st] dahshatdan lol qolgan; qo'rquvda.  
**agile** [ædʒaɪl] *adj.* epchil, chaqqon. **agility** [e'dʒɪlɪtɪ] *n.* epchillik, chaqqonlik.  
**agitate** [ædʒɪteɪt] *v.* to'lqinlantirmoq; *v.* tashviq qilmoq. **agitation** *n.* to'lqinlanish, hayajon; tashviqol.  
**agnostic** [æɡ'nɒstɪk] *n.* agnostik; *adj.* agnostikaga oid. **agnosticism** *n.* agnostitsizm (*ob'ektiv dunyoni va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta'limot*).  
**ago** [e'gəʊ] *adv.* (bundan) oldin; long - ilgari, burun.  
**agonizing** [æɡeːnɪzɪŋ] *adj.* azobli, qiynoqli. **agony** *n.* azobli og'riq; (*of death*) o'lim talvasasi, o'lim azobi.  
**agrarian** [e'ɡri:ən] *adj.* qishloq xo'jaligiga oid, yerga oid.  
**agree** [e'ɡri:] *v.* rozil bo'lmoq; va'dalashmoq, kelishib qo'yimoq. (*reach agreement*) shartlashmoq; (*gram.*) moslashmoq. **agreeable** *adj.* ma'qul, maqbul; (*pleasing*) yoqimli. **agreed** *adj.* moslashtirilgan, shartlangan. **agreement** *n.* rozilik, kelishish, shartnoma; (*gram.*) moslashish;

in - rozil.

**agricultural** [ægrɪkʌltʃə(r)] *adj.* qishloq xo'jaligiga oid, dehqonchilikka oid. **'agriculture** *n.* qishloq xo'jaligi, dehqonchilik; (*science*) agronomiya.  
**aground** [e'graʊnd] oq'ir ahvol; *adv.:* run - juda mushkul ahvoldga tushmoq, «o'tirib qolmoq».  
**ahead** [ə'hed] *adv.* (*forward*) olg'a, oldinga; (*in front*) oldinda; - of time muddaldan ilgari.  
**aid** [eɪd] *v.* yordam bermoq; *n.* yordam; (*teaching*) qo'llanma; - **agency** yordam ko'rsatish tashkiloti; in - of foydasiga; come to the ~ of yordamga kelmoq.  
**aide-de-camp** [eɪd də 'kɑːp] *n.* (*generaining*) adyutant(i).  
**AIDS** [eɪdz] *n. abbr.* (*of acquired immune deficiency syndrome*) OITS (*orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi*).  
**alleron** [ə'tle:ron] *n.* eleron (*samo-lyot qanotlarining buriladigan qismi*).  
**ailing** [eɪlɪŋ] *adj.* (*ill*) kasal; (*sickly*) zaif, so'lg'in.  
**ailment** feilmant] *n.* kasailik.  
**aim** [eɪm] *n.* (*aiming*) nishon; (*purpose*) maqsad, niyat; *v.* mo'ljallamoq, nishonga olmoq, poylamoq; nishonga olmoq; (*also fig.*) to'g'rilamoq, mo'ljalga olmoq. **aimless** *adj.* maqsadsiz.

**air** [æ(r)] *n.* havo; (*look*) ko'rinish; (*mus.*) qo'shiq, musiqa, chang; - *crash* aviahalokat; - *force* HHK (harbiy-havo kuchlari); ~ *hostess* styuardessa; ~ *piracy* havo bosqinchiligi; *by* - samolyot vositasida, samolyot bilan; *change of* - vaziyatning o'zgarishi; *on the* - radio orqali; havo atraksioni; *v.* (*ventilate*) shamollatmoq, havosini tozalamoq; (*make known*) biron narsani namoyishga qo'ymoq; ham-maga eshittirib xabar bermoq.

**air-** [æ(r)] *in comb.* alborne [æbo:n] *adj.* (*mil.*) havo-desant; havoda. **air-conditioner** *n.* havo konditsioner. **air-conditioning** *n.* havo haroratini bir me'yorda saqlash. **air-cooled** *adj.* havoni sovutish bilan. **aircraft** *n.* samolyot; (*collect.*) samolyotlar, aviatsiya. **aircraft-carrier** *n.* avianosets (samolyotlar qo'nishi va uchishi uchun moslangan harbiy kema).

**airless** [æals] *adj.* (*stuffy*) dim; havosiz. **airlift** *n.* havo tashuvi; *v.* havo orqali tashish. **airline** *n.* havo yo'li. **airlock** *n.* havo liqini (probkasi). **airmail** *n.* havo pochasi. **airman** *n.* uchuvchi. **airport** *n.* aeroport. **airship** *n.* dirijabl. havo kamasi **airspeed** *n.* havo tezligi. **airstrip** *n.* uch-

ish, qo'nish yo'li. **airlight** *adj.* havo kirmaydigan. **airworthy** *adj.* uchishga yaroqli.

**aisle** [aif] *n.* yo'lak, yo'lka; (*passage*) kirish, chiqish yo'lagi.

**alabaster** ['æle, bɑ:stə(r), 'bæstə(r), 'æləb-] *n.* alebastr.

**alacrity** [ə'lækrɪtɪ] *n.* teitlik; (*readiness*) tayyorlik.

**alarm** [ə'lɑ:m] *n.* vahima, qo'rqish; *v.* bezovta qilmoq, qo'rqitmoq; - *clock* budilnik (qo'ng'iroqlil soat). **alarming** *adj.* vahimali, qo'rqinchli. **alarmist** *n.* vahimakash; *adj.* vahimakashlarcha.

**alas** [ə'læs, ə'lɑ:s] *int.* afsusl, atlang!

**Alaska** [ə'læske] *n.* Alyaska.

**albatross** ['ælbɑ:trɒs] *n.* albatros (*katta dengiz qushi*).

**albino** [æbi:neɪ] *n.* albinos (*albinizm kasaliga yyoliqqan kishi yoki hayvon*).

**album** ['ælbəm] *n.* albom.

**alchemist** [ælkemɪst] *n.* alximik. **alchemy** *n.* alximiya.

**alcohol** ['ælkə, hɒl] *n.* alkogol, spirt; spirtli ichimliklar. **alcoholic** *adj.* alkagolli, spirtli; *n.* alkagolik, ichkilikka ruju qo'ygan kishi.

**alcove** [ælkəʊv] *n.* tokcha, taxmon.

**alder** ['ɔ:lde(r)] *n.* olxa (daraxti va butasi).

**alderman** [ˈɑːldəməŋ] *n.* shahar boshqarmasining a'zosi.

**ale** [eɪ] *n.* piva, el.

**aleri** [eɪˈlɑːrɪ] *adj.* hushyor, serg'ayrat; qorovulda; *n.* xavf ishorasi (irevoga); *v.* ogohlantirish.

**algebra** [ˈældʒɪbrə] *n.* algebra. **algebraic** [ˈældʒɪbrɪk] *adj.* algebraga oid. **algorithm** [ˈælgə,rɪθ(ə)m] *n.* algoritm.

**allem** [ˈeɪlɪəs] *adv.* o'zgacha, boshqacha (nomlanadigan); *n.* laqab, qalbaki ism.

**alibi** [ˈæɪlɪ,bɪ] *n.* alibi.

**alien** [eɪlɪən] *n.* chet ellik kishi; (*extraterrestrial*) o'zga sayyoralik; *adj.* xonjiy, yot, begona; (*extraterrestrial*) yerlik bo'lmagan. **alienate** *v.* begonalashtirish; uzoqlashtirish. **alle'nation** *n.* begonalashish, sovush; (*insanity*) aqldan ozish.

**alight** [eɪˈlaɪt] *v.* tushmoq; (*come down*) o'lrmoq, minmoq; (*dis-mount*) tushmoq, tushib piyodaga aylanmoq (*biro-bir ulovdan*).

**alight** [eɪˈlaɪt] yondirilgan, kuydirilgan; *be* ~ yonmoq; (*shine*) charaqlab turmoq.

**align** [eɪˈlaɪn] *v.* bir chiziqqa joylashtirmoq; safga tizmoq. **alignment** *n.* bir qator qilib joylashtirish.

**alike** [eɪˈlaɪk] *pred.* o'xshash, bir xil; *adv.* bir xil, xuddi shunday.

**alimentary** [æɪˈlɪməntɪ] *adj.* yegulikka oid, ozuqaga oid; ~ canal ovqal hazm qilish kanali.

**alimony** [ˈæɪməni] *n.* aliment, nafaqa.

**alive** [eɪˈlaɪv] tirik, tiriklar qatorida; (*brisk*) telik; ~ with to'lib-loshgan.

**alkali** [ˈæɪkə,lɪ] *n.* ishqor, alkaline *adj.* ishqori.

**all** [ɔːl] *adj.* hamma, barcha; har bir; *n.* hamisha, hamma; *adv.* butunlay, to'latilgicha; butunlay, butkul; ~ along hamma vaqt; ~ but deyarli, ... sal qoldi; ~ In o'ta charchagan; ~ over hamma yerda; ~ right yaxshi, bo'пти; (*satisfactory*) shunchaki; yomon emas; ~ the same baribir; In ~ hammasi bo'lib; love ~ hammasi tamom; two, etc., ~ ikkitadan va h.k.; not at ~ hech qancha; on ~ foura to'rd oyoqda, emaklab. **all-round** *adj.* har tomonlama.

**Allah** [ˈæɪlə] *n.* Alloh, Xudo, Tangri.

**allay** [eɪˈleɪ] *v.* yengillashtirmoq; tinchlantirmoq; qondirmoq.

**allegation** [æɪˈlɪɡeɪʃ(ə)n] *n.* da'vo, bayonot. **allege** [eɪˈledʒ] *v.* bildirmoq ma'lum qilib qo'yimoq; tasdiqlamoq. **allegedly** *adv.* go'yoki.

**allegiance** [ə'li:dʒ(ə)ns] *adv.* sadoqat.

**allegorical** [æli'gɔrɪk(ə)l] *adj.* allegorik, kinoyaviy. **allegory** [æli'gɔrɪ] *n.* allegoriya, kinoya.

**allegretto** [æli'gretto] *adv. (n.)* allegretto. **allegro** [ə'leɪgrəʊ, ə'leg-] *adv. (n.)* allegro.

**allergen** [ælədʒ(ə)n] *n.* allergen.

**allergic** [ə'li:dʒɪk] *adj.* allergiyaviy. **allergy** *n.* allergiya.

**alleviate** [ə'li:vɪeɪt] *v.* yengillash-tirmoq; yumshatmoq. **alleviation** *n.* yengillashish, yumshash.

**alley** [æli] *n.* xiyobon.

**alliance** [ə'laɪəns] *n.* ittifoq. **allied** [ælaɪd] *adj.* ittifoqdosh.

**alligator** [æli'geɪtə(r)] *n.* alligator, timsoh.

**allocate** [ælə'keɪt] *v.* joylashtirmoq; tayinlamoq. **allo'cation** *n.* joylashtirish; tayinlash.

**allot** [ə'lɒt] *v.* beqilamoq; joylashtirmoq; tayinlamoq; taqsimlamoq, ajratmoq. **allot-ment** *n.* ajratish; (*plot of land*) yer uchastkasi.

**allow** [ə'laʊ] *v.* ijozat bermoq; ruxsat bermoq; ~ **for** e'tiborga, hisobga olmoq; ko'zda tutmoq.

**allowance** *n.* (*financial*) qo'llanma; (*expenses*) cho'ntak puli, kundalik xarajatlar uchun mo'ljallangan pul; (*deduction, also fig.*) chegirma; **make** ~(**s**)

for e'tiborga, hisobga olmoq; chegirma qilmoq.

**alloy** [æləɪ; ə'lɔɪ] *n.* qotishma; *v.* qotishtirmoq.

**allude** [ə'lu:d, ə'lju:d] *v.* dalil qilmoq; ishora qilmoq. **kinoya** qilmoq.

**allure** [ə'ljuə(r)] *v.* qiziqtirib o'ziga tortmoq; jaleb etmoq. **allurement** *n.* qiziqtiradigan, e'tiborni tortadigan narsa. **alluring** *adj.* qiziqarli, jozibali.

**allusion** [ə'lu:ʒ(ə)n, ə'lju:-] *n.* ishora, kinoya.

**alluvial** [ə'lu:vɪəl] *adj.* allyuvial, o'trindi, cho'kindi.

**all-weather** *adj.* barcha ob-havoga xos.

**ally** [ælaɪ] *n.* ittifoqdosh; *v.* birlashtirmoq.

**almanac** ['ɑ:lmə'næk, 'ɒl-] *n.* taqvim, kalendar.

**almighty** [ɑ:l'maɪtɪ] *adj.* har narsaga qodir.

**almond** [ɑ:mənd] *n.* (*tree*) bodom (*daraxti*); (*nut*) bodom (*mavasi*); bodom ... bodomga oid.

**almost** [ɑ:lməʊst] *adv.* deyarli, sal bo'lmasa.

**alms** [ɑ:mz] *n.* xayr-ehson. **almshouse** *n.* xudoyixona, g'aribxona.

**aloe(s)** [æləʊ] *n.* aloë, sabur.

**aloft** [ə'lɒft] *adv.* tepada, yuqorida.



**alone** [ə'leɒn] yagona, bir; yolg'iz; *adv.* faqat; o'z-o'zicha; ~ **with** yakka-yolg'iz; **leave** ~ tinch qo'ymoq; **let** ~ bu haqda gapirmasdan.

**along** [ə'lɒŋ] *prep.* bo'ylab, yoqalab; *adv.* (onward) so'ngra, shundan keyin, yana, oldinda; (with o.s.) o'zi bilan; **all** ~ hamma vaqt; ~ **with** bilan birga. **along'side** *adv.* yanma-yon, yondosh.

**aloof** [ə'lu:ʃ] *adv.* (apart) chelda, uzoqda; (distant) sovuq (munosabatda), befarq.

**aloud** [ə'laʊd] *adv.* eshittirib, baland ovozda.

**alphabet** [æ'lʃə,bet] *n.* alifbo, alifbe. **alphabetical** *adj.* alifboga oid. **alphanumeric** [æ'lʃənju:'mɛrɪk] *adj.* alifboli-raqamli.

**alpine** [æ'lpaɪn] *adj.* Alpga, baland tog'larga xos.

**Alps** [ælpz] *n.*: the ~ Alp tog'lari

**already** [ɔ:l'reɪdɪ] *adv.* allaqachon.

**also** ['ɔ:lsəʊ] *adv.* shuningdek, ham.

**altar** ['ɔ:lte(r), 'ɒl-] *n.* altar, mehrob (cherkovda). **altar-piece** *n.* mehrob ortidagi tasvir.

**alter** ['ɔ:lte(r), 'ɒl-] *v.* qayta yasamoq; *v.* o'zgartirmoq.

**alter'ation** *n.* yangidan yasash; o'zgartirish.

**altercation** [ɔ:lte'keɪʃ(ə)n, 'ɒl-] *n.*

munozara, tortishuv.

**alternate** [ɔ:l'tɜ:nət, 'ɒl-; 'ɔ:lte'nət, 'ɒl-] *adj.* navbatma-navbat keladigan, o'zgarib (almashinib) luradigan; *v.* navbatma-navbat kel(tir)moq; **alternating current** o'zgaruvchan tok; **on** ~ **days** bir kundan so'ng. **alternation** [ɔ:l'te'nəɪʃ(ə)n, 'ɒl-] *n.* navbatma-navbat kelish. **al'ternative** *n.* muqobil; *adj.* muqobilli; ~ **medicine** muqobil tibbiyot; ~ **technology** muqobil texnologiya.

**although** [ɔ:l'dəʊ] -ga qaramay, -sa ham, garchi.

**altimeter** [æltɪ'mi:tə(r)] *n.* altimetr, balandlik o'lchagich. **altitude** [æltju:d] *n.* balandlik. **alto** *n.* alt; kontralto (musiqatamolari); alta oid; kontraltga oid.

**altogether** [ɔ:l'təgeðə(r)] *adv.* (fully) tamoman, bulunlay; (in total) hammasi, barchasi; (wholly) butkul, tamomila.

**alum** [æləm] *n.* achchiqtoshlar. **aluminium** [æljʊ'mɪniəm] *n.* alyuminiy; alyuminiyli.

**always** ['ɔ:lweɪz] *adv.* doimiy; (constantly) hamisha.

**Alzheimer's disease** [æltz,ha:məz] *n.* Altsgeymer kasalligi.

**a.m.** *abbr.* (of ante meridiem) ertalab; 6 ~ ertalabgi soat 6.

**amalgamate** [ə'mælgə'meɪt] *v.*

- birlash(lir)moq. **amalgamatlon** *n.* birlashish.
- amanuensis** [ə,mænju:'ensɪs] *n.* nusxa ko'chiruvchi.
- amass** [ə'mæəs] *v.* yig'moq, to'plamoq.
- amateur** ['æmətə(r)] *n.* havaskorlik; *adj.* havaskorlikka oid.
- ama-teurish** *adj.* havaskorona.
- amatory** ['æmətəri] *adj.* Ishqiy, muhabbatga oid.
- amaze** [ə'meɪz] *v.* taajjublantirmoq; lol qoldirmoq. **amazement** *n.* taajjub, hayrat. **amazing** *adj.* ajoyib, hayratda qolarlik.
- Amazon** ['æməz(e)n] *n.* Amazonka.
- ambassador** [æm'bæsədə(r)] *n.* elchi. **ambassadorial** [æmbæsə'dɔ:nəl] *adj.* elchiga oid.
- amber** [æmbe(r)] *n.* qahrabo; *adj.* qahraboga oid; (*coloured*) sariq.
- ambergris** [æmbəgrɪs, -grɪs] *n.* anbar (xushbo'y modda).
- ambidextrous** [æmbɪ'dekstrəs] *adj.* ikkala qo'lini ham bir xilda ishlata oladigan odam.
- ambiguity** [æmbɪ'gju:ɪtɪ] *n.* noaniqlik. **ambiguous** *adj.* noaniq.
- ambition** [æm'bɪʃ(ə)n] *n.* shuhratparastlik. **ambitious** *adj.* shuhratparast.
- amble** ['æmb(ə)l] *v.* (*horse*) yo'rg'alab chopmoq; (*ride*) yo'rg'a ol minib yurmoq; (*on foot*) shoshmasdan qadam tashlamoq; *n.* yo'rg'a ol.
- ambrosia** [æm'brəʊzɪə, -ʒjə] *n.* yunon afsonalarida ilohlarning ovqati, ozuqa.
- ambulance** [æm'bju:ləns] *n.* tez yordam mashinas; tez yordam; air - sanitar samolyoti.
- ambush** [æm'bʊʃ] *n.* pistirma; *v.* pistirmadan hujum qilmoq; pistirma qo'ymoq.
- amellorate** [ə'mi:lɪ'reɪt] *v.* yaxshilamoq. **amelloration** *n.* yaxshilash.
- amen** [ɑ:'men, eɪ-] *Int.* omini
- amenable** [ə'mi:nəb(ə)] *adj.* gapga ko'nadigan, muomalaga yuradigan.
- amend** [ə'mend] *v.* tuzatmoq; o'zgarish, tuzatish kiritmoq.
- amendment** *n.* o'zgarish, tuzatish. **amends** [ə'mendz] *n.* *make ~ for* tuzatmoq, to'g'rilamoq
- amenities** [ə'mi:nɪtɪz, ə'menɪtɪz] *n.* go'zalliklar, qulayliklar.
- America** [ə'merɪkə] *n.* Amerika.
- American** *adj.* Amerikaga oid; *n.* amerikalik. **Americanism** *n.* amerikanizm. **Americanization** [ə'merɪkənəɪ'zəɪʃ(ə)n] *n.* amerikalashuv. **Americanize** *v.* amerikalashtirish.
- amethyst** [æmɪθɪst] *n.* ametist

- (*safsar yoki ko'kish safsar rangli mineral, qimmatbaho tosh*).
- amiallity** [æimɪə'bɪlɪtɪ] *n.* mehribonlik. **'amiable** *adj.* mehribon.
- amicability** [æmɪkə'bɪlɪtɪ] *n.* mehribonlik, do'stlik. **'amicable** *adj.* do'stona, mehribonlik ruhidagi.
- amid(st)** [ə'mɪdɪst] *o'*rtasida (*biror narsaning*).
- amias** [ə'mɪs] *adv.* yomon, nojo'ya; *take it - xafa bo'lmoq*.
- amity** [æmɪtɪ] *n.* do'stona munosabatlar.
- ammonia** [ə'maʊniə] *n.* ammiak; (*liquid -*) nashatir spirli.
- ammoniac(al)** *adj.* ammiakli.
- ammunition** [æmju'nɪʃ(ə)n] *n.* o'q-dorilar.
- amnesty** [æmnɪstɪ] *n.* amnistiya; **'A-Inter-national** «Xalqaro amnistiya»; *v.* amnistiya qilmoq.
- among(st)** [ə'mʌŋst] *prep.* o'rtasida, orasida (*uch va undan ortiq narsa yoki kishilarga nisbatan*).
- amoral** [ə'mɔr(ə)l] *adj.* axloqsiz.
- amorous** [æməərəs] *adj.* tez oshiq bo'ladiga; (*in love*) oshiq.
- amorphous** [ə'mɔ:ʃəs] *adj.* amorf, shaklsiz.
- amortization** [ə,mɔ:tə'zeɪʃ(ə)n] *n.* amortizatsiya (*iqtisodiyotda: bino, uskuna, mashina va sh.k. qimmatining eskirish, to'zish natijasida kamayib borishi va uni qoplash uchun belgilangan chegirma; texnikada: unilish zarbini kamaytirish*).
- amortize** [ə'mɔ:tə'zɪz] *v.* amortizatsiya qilmoq.
- amount** [ə'maʊnt] *n.* son, miqdor; *v.:* - **to** tashkil qilmoq; tenglashmoq; teng kuchli bo'lmoq.
- amp** [æmp] *n. abbr. (of ampere)* A, (ampere). **ampere** [æmpeə(r)] *n.* amper (*elektr toki kuchining o'ichov birligi*).
- amphibian** [æm'fɪbiən] *n.* amfibiya. **amphibious** *adj.* suvda va qurqlikda yashovchi.
- amphitheatre** [æmfɪ,θiətr(ə)n] *n.* amfiteatr.
- ample** [æmp(ə)] *adj. (enough)* (tamomila) yetarli darajada; (*abundant*) mo'l, ko'p; (*spacious*) keng, katta, ko'p. **amplification** [æmplɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n.* kuchayish, zo'rayish, oshish.
- amplifier** [æmplɪ,faɪə(r)] *n.* kuchaytirgich. **amplify** *v. (strengthen)* kuchaytirmoq, zo'raytirib yubormoq; (*enlarge*) kengaytirmoq. **amplitude** [æmplɪ,tju:d] *n.* kattalik, kenglik. **amply** *adv.* yetarlicha.
- ampoule** [æmpu:l] *n.* ampula.
- amputate** [æmpju,teɪt] *v.* amputatsiya qilish. **amputation** *n.* amputatsiya (*biron-bir a'zoni jarrohlik yo'li bilan kesib tashlash*).
- amuse** [ə'mju:z] *v.* o'ynatmoq.

- ovuntirmoq; ko'ngilni ochmoq, tomosha qildirmoq. **amusement** *n.* ermak, ko'ngilkushlik; attrak-sionlar. **amusing** *adj.* qiziq, g'alati; (*funny*) kulgill.
- anachronism** [ə'nækronɪz(ə)m] *n.* anaxronizm (*yil hisobi yoki tarixiy sanani ko'rsatishda, xronologiyada yo'l qo'yilgan xatolik; o'z zamonasiga mos kelmaydigan qarash va urf-odatlar, eskilik, sarqit*). **anachronistic** *adj.* xronologiya jihatdan nolo'g'ri; o'z zamonasiga mos bo'lmagan, eski.
- anaemia** [ə'ni:mɪə] *n.* kamqonlilik, anemiya. **anaemic** *adj.* kamqonli, anemiyaga oid.
- anaesthesia** [ˌæni'sθi:ziə] *n.* anesteziya, og'riqsizlantirish. **anaesthetic** [ˌæni'sθetɪk] *n.* anesteziyalaydigan, og'riqni qoldiradigan vosita; *adj.* anesteziyalovchi, og'riqni qoldiruvchi. **anaesthetist** [ə'ni:sθə,tɪz] *n.* narkolizator, narkoz qiluvchi. **anaesthetize** [ə'ni:sθə,tɪz] *v.* anesteziya qilmoq, og'riqsizlantirmoq.
- anagram** [ˌænəgræm] *n.* anagramma.
- anal** ['æɪn(ə)] *adj.* anal, orqa chiqazish teshigiga oid.
- analogical** [ˌænə'lɒdʒɪk(ə)] *adj.* analogik, mutanosib, o'xshash.
- analogous** [ə'næləgəs] *adj.* o'xshash, monand. **analogue** [ˌænə'lɒg] *n.* o'xshash, mutanosib; ~ **computer** elektron hisoblash mashinasi, EHM. **analogy** *n.* o'xshashlik.
**convection** [kən'vekʃ(ə)n] *n.* konveksiya (*makroskopik zarralarning* harakati).

**convene** [kən'veɪn] *v.* chaqimoq, chorlamoq; xabarlab yig'moq; o'tkazmoq.

**convenience** [kən'veɪniəns] *n.* sharoit, qulaylik; (*public* →) hojalxona; — *foods* yarim tayyor mahsulotlar. **convenient** *adj.* qulay.

**convent** [kɒnv(ə)nt, -vent] *n.* ayollar monastiri.

**convention** [kən'venʃ(ə)n] *n.* (*assembly*) s'ezd, qurultoy, majlis; (*agreement*) konvensiya, bilim

(*ma'lum bir masala yuzasidan tuzilgan xalqaro shartnoma*); (*practice, use, custom*) urf-odat, rasm, qoida. **conventional** *adj.* rasm-odat bo'lib qolgan qoida; — *weapons* qurollarning oddiy turlari.

**converge** [kən'vɜːdʒ] *v.* bitta nuqtada kesilishmoq. **converging** *adj.* bir nuqtada kesilishdigan.

**conversant** [kən'vɜːs(ə)nt] *pred.:* — with xabardor; tanish.

**conversation** [kɒnve'seɪʃ(ə)n] *n.* gap, so'z, gapirish, so'zlash, suhbat. **conversational** *adj.* so'zlashuvga oid. **con'verse'** *v.* so'zlashmoq, suhbatlashmoq.

**converse'** [kɒnvɜːs] *adj.* teskari, orqa; qarshidagi, ro'paradagi. **conversely** *adv.* teskarligiga,

aksincha; qaylaga. **conversion** [kən'vɜːʃ(ə)n] *n.* (*change*) aylantirish, o'zgartirish, boshqa shaklga kirish; (*of faith*) bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish; (*of building*) qayta qurish; o'zgacha tuzish. **con'vert** *v.*

(*change*) aylantirmoq, o'zgartirmoq; (*to faith*) qaratmoq, jalb etmoq; (*a building*) qaytadan qurmoq, o'zgartirib qurmoq.

**convertible** *adj.* qaytarish mumkin bo'lgan; *n.* kabriolet.

**convex** ['kɒnveks] *adj.* do'ng, do'mboq, do'ppaygan, qabariq.

**convey** [kən'veɪ] *v.* (*transport*)

boshqa joyga ko'chimoq, tashimoq; (*communicate*) xabar qilmoq, bildirmoq, darak bermoq, ma'lum qilmoq; (*transmit*) aytmoq, topshirmoq, xabar qilmoq, ma'lum qilmoq. **conveyance** *n.* ko'chirish, tashib keltirish; o'tkazish, uzatish, topshirish. **conveyancing** *n.* ko'chmas mulk huquqining boshqaga o'tishini rasmiylashtirish. **conveyor** *n.* konveyer (*ishlanayotgan materialni bir ishchidan ikkinchi ishchiga to'xtovsiz yetkazib turadigan maxsus qurilma*).

**convict** ['kɒnvɪkt; kən'vɪkt] *n.* hukm qilingan, surgunga yuborilgan kishi; *v.* hukm qilmoq, kesmoq, jazo bermoq. **conviction** *n.* (*leg.*) hukm, jazo; (*belief*) ishonch, maslak. **convince** *v.* ishontirmoq, inontirmoq, ko'ndirmoq, isbot etmoq. **convincing** *adj.* ishonchli, ishonarli, ishontiradigan, asosli.

**convivial** [kən'vɪvɪəl] *adj.* vaqti chog', shod, quvnoq.

**convocation** [kən'vekʃ(ə)n] *n.* chaqirish, chortlash, xabarlab yig'ish; chaqiriq; yig'ilish; (*ecccl.*) sinod (*pravoslav cherkovining oliy idorasi*). **convoke** [kən'veək] *v.* chaqirmoq, chortlamoq; xabarlab yig'moq.

**convoluted** ['kɒnvə,lʊ:tɪd] *adj.*

burama qilib o'ralgan; egri-bugri, qing'ir-qiyshiq.

**convolvulus** [kən'vɒlvjʊləs] *n.* pechak o't, pechak gul, chimovuuq.

**convoy** [kɒnvoɪ] *n.* konvoy (*qo'riqlab, kuzatib boruvchi soqchilar guruhi*; *qo'riqlab, kuzatib boruvchi kemalar yoki samolyotlar*); *v.* qo'nqlab bormoq, soqchilik qilib bormoq.

**convulse** [kən'vʌls] *v.:* **be convulsed** wltth titrab ketmoq, sapchib tushmoq. **convulsion** *n.* (*med*) tomir tortishi, talvasa.

**coo** [ku:] *n.* g'uv-g'uvlashish; *v.* g'uv-g'uvlamoq (*kaplar haqida*).

**cooe** [ku:ɪ] *inf.* voy!

**cook** [kʊk] *n.* oshpaz, oshpaz ayol; *v.* pishirmoq, tayyorlamoq; (*roast*) qovurmoq; (*boil*) qaynatib pishirmoq. **cooker** *n.* plita, pechka, o'choq. **cookery** *n.* pazandalik, oshpazlik. **cooling** *adj.* oshxonaniki, oshxonaga oid; - salt osh tuzi.

**cool** [ku:l] *adj.* salqin, sovuq; (*of persons*) sovuqqon, og'ir labitali; *v.* sovutmoq; yaxna qilmoq, salqin qilmoq; - down, off sovib qolmoq, qolib qolmoq. **coolant** *n.* ham moylaydigan, ham sovutadigan suyuqlik. **cooler** *n.* sovutgich. **cooling** *adj.* sovutadigan.

- coop** [ku:p] *n.* tovuqxona; *v.*: ~ up pana joyda ushlamoq; yopiq joyda ushlamoq.
- cooper** [ku:pe(r)] *n.* bochkasoz, bochka yasovchi usta.
- cooperate** [kə'ɒpe,reit] *v.* hamkorlik qilmoq; kooperatsiyaga a'zo bo'lmoq. **cooperation** *n.* birga ishlash, hamkorlik; kooperatsiya. **cooperative, co-op** *n.* kooperativ; *adj.* qo'shma, kooperativ. **co-operator** *n.* kooperatsiya xodimi.
- co-opt** [kə'ɒpt] *v.* to'ldirmoq.
- coordinate** [kə'ɔ:dɪneɪt] *v.* koordinatsiya qilmoq; bir-biriga muvofiqlashtirmoq, moslamoq; *n.* koordinata (*nuqtaning tekislik yoki fazodagi vaziyatini belgilovchi raqamlardan bin*); *adj.* koordinatsiya qilingan, bir-biriga muvofiqlashtirilgan. **coordination** *n.* koordinatsiya, muvofiqlash, moslash, uyg'unlash.
- co-owner** [kə'əʊnə(r)] *n.* biror mulkka boshqa kishi bilan birga ega bo'lgan shaxs.
- cop** [kɒp] *n.* politsiyachi, mirshab; *v.* tutmoq.
- cope**<sup>1</sup> [kəʊp] *n.* riza (*poplarning ibodat vaqtida kiyadigan to'ni*).
- cope**<sup>2</sup> [kəʊp] *v.*: ~ with eplamoq, uddalamoq.
- Copenhagen** [kə'ɒpen'hæɪgən] *n.* Kopengagen.
- copious** [kə'piʊs] *adj.* serob, mo'l.
- copiousness** *n.* mo'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik.
- copper** [kɒpe(r)] *n.* (*metall*) mis; (*vessel*) qozon; (*coin*) chaqa; (*policeman*) politsiyachi. **copperplate** *n.* (*handwriting*) xushxal, xati chiroyli.
- copple** ['kɒpl], **copse** [kɒps] *n.* kichkina o'mon, chakalak.
- Copt** [kept] *n.* kopt (*nasroniylikka amal qiladigan misrlik arablar*).
- Coptic** [kɒptɪk] *adj.* kaptlarga oid, xos.
- copulate** [kɒpjʊ,leɪt] *v.* juftlashmoq, qo'shilmq, chapmoq, qochmoq (*mol haqida*) **copulation** *n.* kopulyatsiya (*sodda organizmlarda hujayralarning juft-juft qo'shilihidan iborat jinsiy jarayon*).
- copy** [kɒpi] *n.* nusxa, ko'chma; (*specimen of book etc.*) nusxa, dona; fair - oqqa ko'chirilgan; rough - qoralama (*hali oqqa ko'chirilmagan*); *v.* nusxa ko'chirmoq, nusxa olishmoq; (*transcribe*) qaytadan yozmoq. **copy-book** *n.* daftar. **copyright** *n.* mualliflik huquqi.
- coquetry** [kɒkɪtri, 'kæk-] *n.* tannozlik, nozu karashma. **coquette** [kə'ket, kə'ket] *n.* tannoz, salang. **coquettish** *adj.* tannoz, salang, nozu ishvali.

**coracle** [kɔrək(a)] *n.* chamlar yoki kanopli mato bilan tortilgan tol novdali qayiq.

**coral** [kɔr(ə)] *n.* marjon; *adj.* marjondan qilingan.

**corbel** [kɔ:b(ə)] *n.* do'ng, turtib chiqib turgan joy, tumshuq.

**cord** [kɔ:d] *n.* bog'ich, ip, arqon; **umbilical** – klinik, kesilmagan kindik; **vocal cords** ovoz pardalari; *v.* arqon bilan bog'lamoq. **cordage** *n.* abzal, arqon (kemada), takelaj (kemaning hammasi asbob-uskuna va jihozlari).

**cordial** [kɔ:diəl] *adj.* chin ko'ngildan, sildqidil bilan, samimiy; *n.* (drink) mevali sharbat. **cordiality** *n.* samimiylik.

**corduroy** [kɔ:de,rɔɪ] *n.* chiyduxoba; chiy baxmal; chiyduxoba shim.

**core** [kɔ:(r)] *n.* o'zak, mag'iz; (*fig.*) mohiyat; *v.* mag'izni ...dan chiqarib tashlamoq.

**cork** [kɔ:k] *n.* (stopper) po'kak, tiqin; (*float*) poplavok (suvda kemalarga yo'l ko'rsatib turadigan qalqib yuruvchi belgi); *attr.* probka ..., po'kak qilinadigan; *v.* zichlab bekilmoq, tiqinlab qo'yimoq. **corkcrew** *n.* shtopor (shisha tiqinini ochadigan parmasimon asbob); *v.* spiral bo'ylab harakatlanmoq.

**cormorant** [kɔ:mərənt] *n.* bak-

lan, qorabuzov (o'rdaksimon yirtqich qush).

**corn**<sup>1</sup> [kɔ:n] *n.* g'alla, don; (*wheat*) bug'doy; (*oats*) suli; (*maize*) makkajo'xori. **corn-cob** *n.* makkajo'xori so'tasi, dumbuli. **cornflakes** *n.* bodroq. **cornflour** *n.* makkajo'xori uni. **cornflower** *n.* bo'lako'z. **corny** *adj.* g'allaga (donga) oid; (*coll.*) alyqa, bemaza, bema'ni.

**corn**<sup>2</sup> [kɔ:n] *n.* (*on foot*) qadoq, qabariq.

**corn**<sup>3</sup> [kɔ:n] *v.* tuzlamoq, tuzlab qo'yimoq; **-ed beef** tuzlangan go'sht.

**cornea** [kɔ:njə] *n.* mo'giz pardasi.

**cornelian** [kɔ:'ni:liən] *n.* serdolik (qizil yoki qizg'ish rangli qimmatbaho tosh).

**corner** [kɔ:nə(r)] *n.* burchak; *v.* burchakka haydab kirgizmoq. **cornerstone** *n.* negiz, asosiy g'oya.

**cornet** [kɔ:nɪt] *n.* (*mus., mil.*) kornet (*pullama* musiqa asbobi; *revolyutsiyagacha* otliq askarlarda eng kichik ofitserlik unvoni); (*paper*) voronkaga o'xshab o'ralgan qog'oz; (*ice-cream*) muzqaymoq.

**cornice** [kɔ:nɪs] *n.* karniz, pira-mon.

**cornucopia** [kɔ:njɔ'keɒpiə] *n.* mo'l-ko'llik.

**corolla** [ke'rola] *n.* gultaj, gulkosa.

**corollary** [ke'rolari] *n.* tergov; natija, xulosa.

**corona** [ke'rotina] *n.* toj, gulchambar. **coronary (thrombosis)**

[ 'koreneri] *n.* yurak tomirlari.

**coronation** *n.* toj kiydirish marosimi.

**coroner** [ 'korene(r)] *n.* tergovchi.

**coronet** [ 'koreni, -

nei] *n.* katta bo'lmagan toj; (garland) gulchambar.

**Corp. abbr.** (of Corporation)

korporatsiya, jamiyat, uyushma,

birlashma.

**corporal**<sup>1</sup> [ 'ko:pr(ə)l] *n.* kapral

(ba'zi chat mamlakatlardagi

armiyalarda kichik qo'mondan).

**corporal**<sup>2</sup> [ 'ko:pr(ə)l] *adj.* badan-

ga, langa, jismga oid; jismoniy;

moddiy; - punishment jismoniy

jazo.

**corporate** [ 'ko:paret] *adj.* korp-

rativ. **corporation** *n.* korp-

ratsiya, jamiyat, uyushma,

birlashma.

**corps** [ko:(r)] *n.* korpus (hay'at,

jamo).

**corpse** [ko:ps] *n.* o'lik, jasad,

murda; o'limtik, o'leksa.

**corpulence** [ko:pjələns] *n.* se-

mizlik, yo'g'onlik. **corpulent** *adj.*

semiz, to'ladan kelgan.

**corpuscle** [ko:pas(ə)l] *n.* zarra,

bo'lak, parcha.

**corral** [ko'ra:l] *n.* molxona; v.

molxonaga haydab kirgizmoq.

**correct** [ke'rekt] *adj.* to'g'ri; (con-

duct) xushmuomala, xushfe'l,

odobli, tarbiyali; v. **correction**

*n.* to'g'niymoq. **corrective** *adj.*

axloq tuzatishga oid; tuzatish.

**corrector** *n.* korrektor, museh-

hih (terilgan matndagi xatalarni

tuzatuvchi).

**correlate** [ 'kore,leit, 'kəri-] v.

o'zaro munosabatda bo'lmoq.

**correlation** *n.* nisbat, o'zaro

munosabat.

**correspond** [kəri'spond] v. mu-

nosib bo'lmoq, loyiq bo'lmoq;

(by letter) xat yozishib turmoq.

**correspondence** *n.* muvofiqlik,

moslik, loyqlik; xat-xabar, maqo-

lalar. **correspondent** *n.* mux-

bir. **corresponding** *adj.* muvo-

fiq, loyiq, tegishli.

**corridor** [ 'kəri,də:(r)] *n.* koridor,

yo'lak.

**corroborate** [ke'robe,reit] v. tas-

diqlamoq. **corroboration** *n.* tas-

diqlash.

**corrode** [ke'raad] v. yemoq, ichi-

ni kemimoq. **corrosion** *n.* kor-

roziya (yaralanish yoki zaharli

moddalar ta'siri ostida to'qima-

larning yemirinishi). **corrosive**

*adj.* achchiq, achishtiradigan,

o'tkir, o'yuvchi; *n.* o'tkir yemiru-

vchi modda.

**corrugate** [ 'kbrə,geit] v. burma



- shaklida yasamoq, taram-taram qilmoq; ~d Iron taram-taram navli temir.
- corrupt** [ke'raɪpt] *adj.* buzuz, buzilgan; yomon yo'lga kirgan; *v.* buzmoq, yo'ldan ozdirmoq, fahsh yo'lga salmoq. **corruption** *n.* xarob qilish, ishdan chiqarish; buzilish; fahsh yo'lga kirganlik; sotqinlik, poraxo'rlik.
- corsage** [ko:'sɑ:ʒ] *n.* korsaj (*xotin-qizlar ko'ylagining yoqadan belgacha bo'lgan qismi; yubkaning belidagi keng belbog'i*).
- corsair** [ko:'seə(r)] *n.* dengiz bosqinchisi, qarog'chi.
- corset** ['ko:sɪt] *n.* korset (*beini xipcha qilish uchun ichidan kiyiladigan keng belbog'*).
- corset** [ko:'teɪz] *n.* kortej, tantanali yurish.
- cortex** ['ko:teks] *n.* po'stloq, po'st; qobiq, qallam, po'stloq.
- corundum** [ke'raʊndəm] *n.* korund (*qattiq mineral; la'l, yoqut — korundning turlari hisoblanadi*).
- corvette** [ko:'vet] *n.* uch machtali qadimgi urush kemasi; korvet (*soqchi yoki konvoychi yengil harbiy kema*).
- cos** [kɒs] *n.* romen salati.
- cosh** [kɒʃ] *n.* to'qmoq; *v.* to'qmoq bilan urmoq.
- cosine** ['keʊsaɪn] *n.* kosinus (*trigonometriyada qo'shimcha burchakning sinusi*).
- cosmetic** [koz'metɪk] *adj.* kosmetikaga (pardoz-andozga) oid; *n.* kosmetika, pardoz-andoz.
- cosmic** [koz'mɪk] *adj.* kosmosga (koinotga) oid. **cosmonaut** [kozme'nɔ:t] *n.* kosmonavt.
- cosmopolitan** [kozme'pɒlɪt(ə)n] *adj.* kosmopolitik; *n.* kosmopolit, bewatan (*vatanparvarlik hissini yo'qotgan, o'z vatani manfaatlaridan yiroqlashgan kishi*).
- Cossack** ['kɒsæk] *n.* kazak (*harbiylashgan dehqonlar jamiyatining a'zosi*); *adj.* kazaklarga oid.
- cosset** ['kɒstɪ] *v.* erkalatmoq, erkalamoq.
- cost** [kɒst] *n.* baho, narx; (*feg.*) sud chiqimlari; ~ price tannarx; *v.* turmoq (*baho haqida*).
- costermonger** ['kɒstə,mɒŋgə(r)] *n.* ko'chada savdo-soliq qiluvchi savdogar.
- costly** ['kɒstli] *adj.* qimmat, qimmatbaho.
- costume** ['kɒstju:m] *n.* kostyum, kiyim; ~ jewelry qimmatbaho toshlarni ishlatmasdan yasalgan zargarlik zeb-ziynatlar; ~ play tarixiy asar.
- cosy** ['keʊzi] *adj.* shinam, qulay.
- cot** [kɒt] *n.* (*child's*) balalar karavoti; (*hospital bed*) yotoq, koyka.
- cottage** [kɒlɪdʒ] *n.* kottedj; sha-

hardan tashqaridagi uy; dala hovil.

**cotton** [kɒt(ə)n] *n.* paxta; (*cloth*) ip gazlama; (*thread*) ipdan to'qilgan; - *plant* g'o'za, paxta (*o'simlik*); - *wool* chigitsiz paxta, momiq; *adj.* paxta  $\rightarrow$  paxtaga oid, ip gazlamaga oid.

**couch** [kaʊtʃ] *n.* kushetka (*yumshoq uzun kursl*).

**couch-grass** [ku:tʃ] *n.* bug'doylik, g'allasimon o'l.

**cough** [kɒf] *n.* yo'tal, yo'talish; *v.* yo'talmoq.

**council** ['kaʊns(ə)] *n.* kengash; (*eccl.*) bosh cherkov, jome'. *councillor n.* maslahatchi; kengash a'zosi.

**counsel** ['kaʊns(ə)] *n.* (*consultation*) muhokama, muzokara; (*advice*) maslahat; (*lawyer*) advokat; - *for the defence* himoyachi; - *for the prosecution* ayblovchi; *v.* maslahat bermoq.

**count'** [kaʊnt] *n.* (*title*) graf (*nasidan-nasiga o'tib borgan oqsuyaklik unvoni*).

**count'** [kaʊnt] *v.* hisoblamoq; *n.* hisob, hisob-kitob, *countdown n.* yuqoridan pastga qarab sanash, nolga qarab sanash.

**countenance** ['kaʊntɪnəns] *n.* o'zini tuta bilish, o'zini yo'qolmaslik; chehra, qiyofa; *v.* ma'qullamoq, yoqtirib, maqtamoq.

**counter** ['kaʊntə(r)] *n.* peshtaxta; (*token*) flashka, jalon; *adj.* toskari, qarama-qarshi; *adv.*: run - to -ga qarshi harakat qilmoq; *v.* zarbani, hamiani qaytarmoq. **counte'ract** *v.* qarshilik qilmoq. **counte'raction** *n.* qarshi harakat. **counterbalance** *n.* qarama-qarshi, zid, aks; *v.* muvozanallashtirmoq, baravarlashtirmoq. **counterfeit** *adj.* soxta, qalbaki. **counterintelligence** *n.* kontrazvedka (*dushman razvedkasiga qarshi kurash olib boruvchi tashkilot*). **counte'rmand** *v.* bekor qilmoq. **counterpane** *n.* choyshab. **counterpart** *n.* o'xshash qism; dublikat. **counterrevolutionary** *n.* aksilinqilobchi; *adj.* aksilinqilobiy. **countersign** *n.* parol (*yashirin shartli so'z yoki ibora*).

**countess** ['kaʊntɪs] *n.* graf xonim (*nasidan-nasiga o'tib borgan dvoryanlik unvoni*).

**counting-house** ['kaʊntɪŋ] *n.* buxgalteriya, hisobchilik, hisobchilik ilmi.

**countless** ['kaʊntlɪs] *adj.* sanog'i yo'q, beaded

**countrified** ['kʌntrɪfaɪd] *adj.* qishloqqa oid, qishloqdagi. **country** *n.* (*nation*) mamlakat, yurt, el; (*land of birth*) vatan; (*rural areas*) qishloq; *adj.* qishloqqa oid, qish-

loqdagi. **countryman**, -woman *n.* yurtdosh, hamshahar, ham-qishloq; qishloq aholisi.

**county** ['kauntɪ] *n.* grafik (1. *graflik unvon*; 2. *Angliyada ma'muriy bo'linish - viloyat*; 3. *feodalizm davrida graf tesarufidagi yer-mulk*).

**coup** [d'etat] [ku: dɛ'tɑ:] *n.* davlat to'ntarilishi; putch, fitna.

**couple** ['kʌp(ə)] *n.* juft, ikkita, qo'shaloq; married - er-xotin; *v.* ulamoq, tirkamoq. **couplet** *n.* bayt, ikki misrali she'r. **coupling** *n.* ulash, birlashtirish; qo'shish.

**coupon** [ku:pɒn] *n.* kupon; talon.

**courage** ['kʌrɪdʒ] *n.* botirlik, mardlik, jasurlik. **courageous** [kə'reɪ-dʒəs] *adj.* botir, jasur.

**courier** ['kʌrɪə(r)] *n.* (messenger) kurer, xat olib boruvchi vakil, chopar; (guide) gid.

**course** [kɔ:s] *n.* kurs, yo'l, yo'nalish; (of meal) taom, ovqat; of - albatta; *v.* -dan quvlamoq. **courseing** *n.* itlar yordamida ov qilish.

**court** [kɔ:t] *n.* saroy; hovli, qo'ra; (sport) kort, maydon; (few) sud; - martial harbiy tribunal; *v.* -ga qaramoq, -ni parvarishlamoq. **courteous** ['kɔ:tɪəs] *adj.* odobli, xushmuomala, xushxulq, xushfe'l. **courtesy** ['kɔ:tɪsɪ] *n.* odoblik,

xushmuomallik, nazokat. **courtier** *n.* saroy ahli, podsho saroyidagi amaldor.

**cousin** [kʌz(ə)n] *n.* amakining (ammaning, tog'aning, xolaning) o'g'li (qizi); second - amakivachchening o'g'li (qizi).

**cove** [keɪv] *n.* kichik ko'rfaz.

**covenant** ['kʌvənənt] *n.* shartnoma, kelishuv, ahdnoma, ahd; *v.* shartnoma tuzmoq.

**cover** ['kʌvə(r)] *n.* qopqoq; qoplam, parda, qattam; bekilish, pana qilish; g'ilof, jild; (bed) choyshab; (book) muqovalash, muqova; under separate - alohida konvertida; *v.* qoplamoq; yashirmoq, bekilmoq. **coverage** *n.* reportaj, axborot, ma'lumot. **covering** *n.* qopqoq, qobiq, parda; *adj.* qoplayotgan; - letter llova qog'ozi (xat). **covert** *adj.* yashirin, sirli, maxfiy.

**coveit** ['kʌvɪt] *v.* zo'r berib qistamoq, shilqimlik qilmoq, xiralik qilmoq; tilamoq, islamoq, xohlamoq. **covetous** *adj.* hasadchi, ichi qara.

**covey** ['kʌvɪ] *n.* onasidan ajralmagan, hayvon yoki parranda bolasi.

**cow** [kəʊ] *n.* sigir. **cowboy** *n.* kavboy, otliq (podasi) cho'pon. **cowshed** *n.* oq'il, molxona.

**cow<sup>2</sup>** [kəʊ] *v.* qo'rqitmoq.

**coward** [kaʊəd] *n.* qoʻrqqoq, yuraksiz. **cowardice** *n.* qoʻrqqoqlik, nomardlik. **cowardly** *adj.* qoʻrqqoq, yuraksiz, nomard.

**cower** {ˈkaʊə(r)} *v.* bunshmoq, junjimoq, junjikmoq.

**cowl** [kaʊl] *n.* (hood) kapyushon (ustki kiyim yoqasiga biriktirib tikilgan qalpoq); (of chimney) moʻrining qopqogʻi.

**cowslip** [kaʊslɪp] *n.* navroʻzgul.

**cox** (swain) [kɒksweɪn, -s(ə)n] *n.* ruhl boshqaruvchi kishi.

**coxcomb** [ˈkɒkskəʊm] *n.* olifta, havoyi odam.

**coy** [kɔɪ] *adj.* kamtar, kamsuqim, odobli.

**crab** [kræb] *n.* krab (dengiz qisqichbaqasi); **catch a -** leshni (baliqning bir tun) tutmoq.

**crab-apple** [kræb] *n.* (fruit) yovvoyi olma; (tree) yovvoyi olma daraxti.

**crack** [kræk] *n.* yoriq, yorilgan yer, darz; qasir-qusir, charchura; zarba; urilish; *adj.* ajoyib, qoyilmaqom; *v.* (break) yormoq, maydalamoq; *v.* (sound) yorilmoq, darz ketmoq.

**cracker** [ˈkræke(r)] *n.* (Christmas -) qarsildoq; (firework) mushakbozlik, mushak. **crackle** *v.* tarsiillamoq; gʻarchillamoq; *n.* tirsillash; gʻarchillash. **crackpot** *n.* aqldan ozgan, jinni.

**cradle** [kreɪd(ə)l] *n.* beshik, belanchak; *v.* allalamoq, allalab uxlatmoq.

**craft** [kro:ft] *n.* (trade) kasb, hunar; (boaf) kema. **craftiness** *n.* ayyorlik, hiyla, hiylakorlik. **craftsman** *n.* kosib, hunarmand.

**crafty** *adj.* ayyor, mugʻombir.

**crag** [kræg] *n.* qoya, tikka togʻ. **craggy** *adj.* qoyaga oid, qoyali, serqoya.

**cram** [kræm] *v.* toʻldirmoq, tiqmoq, joylamoq; tiqishtirmoq; (coach) yuzakl (chala) oʻqitmoq. **crammed** *adj.* zich, toʻla.

**cramp**<sup>1</sup> [kræmp] *n.* (med.) pay tortishi, tirishish, changak; talvasa.

**cramp**<sup>2</sup> [kræmp] *n.* qisqich; iskanja; skoba (yogʻoch qismlari bir-biriga mahkamlaydigan ikki uchi bukik temir); *v.* siqmoq, qismoq; chegaralamoq, cheklamoq. **cramped** *adj.* qisilgan, siqilgan; cheklangan, chek qoʻyilgan.

**cranberry** [ˈkrænbəri] *n.* klyukva (qizil, nordon mevali oʻsimlik va uning mevasi).

**crane** [kreɪn] *n.* (bird) tuma; (machine) kran (ogʻir yuklarni koʻtaradigan mashina, koʻtarish mashinasi); *v.* boʻyinni choʻzmoq.

**cranium** [ˈkreɪnɪəm] *n.* bosh suy-

agl.

**crank**<sup>1</sup> [kræŋk] *n.* burab qo'yiladigan ruchka; *v.* harakatga keltirmoq, yurgizmoq, burab qo'ymoq.

**crank**<sup>2</sup> [kræŋk] *n.* (*eccentric*) g'alati odam, jinni, tentak.

**crankshaft** [kræŋkʃɑ:ft] *n.* tirsakli val.

**cranky** *adj.* liqillaydigan, shaloq (*mexanizm haqida*).

**cranny** [krænt] *n.* tirqlik yoriq.

**crape** [kreɪp] *n.* krep (*qora yupqa mata*); (*mourning*) molam; molam kiyimi.

**crash** [kræʃ] *n.* (*noise*) gumburlash, qasir-qusir, chars-churs; (*accident*) halokal, avariya, muvaffaqiyatsizlik; (*financial*) sinish, barbod bo'lish, qulash; - *helmet* saqlaydigan shlem (*temir qalpoq*); - *landing* noilojlikdan biror joyga qo'nish; *v.* qasir-qusir bo'lib tushmoq; sinmoq, parchalanmoq

**crass** [kræs] *adj.* ahmoq, ahmoqlarcha; mullaqo, to'la, borib turgan, butunlay.

**crate** [kreɪt] *n.* qull, yashik.

**crater** [k'reɪtə(r)] *n.* krater, vulqon (*yanartog'*) oq'zi.

**crave** [kreɪv] *v.* juda xohlamoq, istamoq; - *for* zorliqmoq, qo'nsamoq. **craving** *n.* zo'r havas bilan qo'nsamoq.

**craven** ['kreɪv(ə)n] *adj.* qo'rqoq, yuraksiz, jur'atsiz.

**crawl** [kro:l] *v.* emaklamoq, o'malamoq; sudralmoq, sudralib bormoq, ergashib bormoq; *n.* sudralish; sekin yurish, arang yurib borish.

**crayfish** [kreɪfɪʃ] *n.* daryo qisqichbaqasi.

**crayon** [kreɪən, -ən] *n.* rangli bo'r bo'lagi, rangli qalam; (*drawing*) pastel (*surat soladigan bo'yoq qalamlar, bo'yoq qalam bilan chizilgan rasm*); *v.* rangli bo'r (qalam) bilan chizmoq.

**craze** [kreɪz] *n.* savdoyilik, vasvasa. **crazy** *adj.* aqldan ozgan.

**creak** [kri:k] *n.* g'arch, g'archillagan tovush; *v.* g'archillamoq, g'ichillamoq, g'ijilamoq. **creaking**, **creaky** *adj.* g'ijiraydigan, g'achitlaydigan.

**cream** [kri:m] *n.* qaymoq, krem; - **cheese** qaymoqli pishloq; **sour** - smelana; *v.* ko'pirtirmoq; qaymog'inl ajratib olmoq. **creamed** *adj.* ko'pirtirilgan, ishqalangan. **creamy** *adj.* qaymoqdan qilingan; kremli; quyug.

**crease** [kri:s] *n.* g'ijimlangan, qatqat burma; *v.* ezib (g'ijimlab, mlijqlab) yubormoq, mijiq qilib qo'ymoq. **creased** *adj.* g'ijimlangan, mijig'langan.

**create** [kri:'eɪt] *v.* yaratmoq, du-

- nyoga keltirmoq; bunyod qilmoq. **creation** *n.* asar, ijod; yaratish, vujudga keltirish. **creative** *adj.* ijodiy, bunyodkor; *n.* yaratuvchi, dunyoga keltiruvchi, ijod atuvchi. **creature** ['kri:tʃə(r)] *n.* maxluq, jon, zol.
- creche** [krɛʃ, kreiʃ] *n.* bolalar yashisi.
- credence** [kri:d(ə)ns] *n.* ishonch; letter of ~ tavsiyanoma, tavsiya xali; give ~ ishonmoq. **credentia** [kri'den](ə)l] *n.* vakolatnoma, guvohnoma, mandat; shaxsiy guvohnoma; ishonch yorlig'i. **credibility** [kredi'bɪləti] *n.* haqiqatga o'xshashlik. 'credible *adj.* ishonchga loyiq. 'credibly *adv.* aniq, to'g'ri, ishonchli.
- credit** ['kredi] *n.* ishonch; kredit, qarz, nasiya; kirim, daromad; ~ card kredit kartochkasi; *v.:* ~ with ro'yxatga o'lmoq, qayd etmoq; give ~ mablag' ajratmoq; qoyil bo'lmoq; It is to your ~ bu ish hurmatingizni oshirmoqda. **creditable** *adj.* maqtashga arziydigan. **creditor** *n.* kreditor (kredit beruvchi, qarz beruvchi). **creditworthy** *adj.* qarzni qaytarishga layoqatli.
- credulity** [kri'dju:li] *n.* ishonuvchanlik, laqmalik. 'credulous *adj.* ishonuvchan, laqma.
- creed** [kri:d] *n.* ishonitirish, inonitirish; (*eccl.*) lyman, e'tiqod.
- creep** [kri:p] *v.* o'rmalamoq, sudralmoq; pusib kirmoq. **creeper** *n.* (*plant*) sudraluvchi o'simlik. **creeping** *adj.* emaklovchi, sudraluvchi, o'rmalovchi.
- cremate** [kri'meɪt] *v.* o'likni kuydirmoq. **cremation** *n.* krematsiya (*murdati maxsus pechda kuydirish*). **crematorium** [kreme'to:riəm] *n.* krematoriy (*murdatlar kuydiriladigan muassasa*).
- Creole** ['kri:əʊ] *n.* kreol (*Lotin Amerikasidagi ispan va portugal mustamlakachilarning avlodi*)
- crepe** [kreɪp] *n.* krap (*yupqa qora mato; yupqa g'ijim gazmol*): ~ de Chine krepdashin.
- crescendo** [kri'jendəʊ] *adv., adj.* & *n.* kreshendo (*labora avjga chiqadigan musiq*).
- crescent** ['krez(ə)nt, 'kres-] *n.* yarim oy, to'lmagan oy; *adj.* o'roqqa o'xshash, o'roqsimon.
- crest** [krest] *n.* qirra; cho'qqi; toj. **crestfallen** *adj.* g'amgin, ma'yus.
- cretin** ['kretɪn] *n.* ahmoq.
- cretonne** [kre'tɒn, 'kre-] *n.* kreton (*qalin ip gazlama*).
- crevasse** [kre'væs], **crevice** ['krevɪs] *n.* qalin muzdagi yoriq.
- crew** [kru:] *n.* brigada; (*of ship*) ekipaj, jamoa.
- crib** [kri:b] *n.* (*bed*) bolalar kara-

- voll; (*in school*) shpargalka; v. ko'chimoq.
- crick** [krɪk] *n.* mushaklarning cho'zilishi.
- cricket**<sup>1</sup> ['krɪkɪt] *n.* (*sport*) kriket (to'p o'yinining bir turi); - bat bila, to'qmoq (*o'yinlarda qo'llaniladigan yog'och to'qmoq*).
- cricket**<sup>2</sup> ['krɪkɪt] *n.* (*insect*) qora chigirtka, chirildoq.
- crier** [kraɪə(r)] *n.* jarchi, xabarchi.
- crime** [kraɪm] *n.* jinoyat.
- Crimes** [kraɪmz] *n.* Qrim.
- criminal** ['krɪmɪn(ə)] *n.* jinoyatchi; *adj.* jinoyi, jinoyatkorona.
- crimp** [krɪmp] *v.* o'rmoq, mayda o'rmoq (*soch haqida*).
- crimson** ['krɪmz(ə)n] *adj.* to'q qizil rang.
- cringe** [krɪndʒ] *v.* (*cower*) burishmoq, junjikmoq; (*of behaviour*) xushomadgo'ylik qilmoq, tiz cho'kib sajda qilmoq. **cringing** *adj.* qullarcha bosh eguvchi, itoatgo'y.
- crinkle** ['krɪŋk(ə)] *n.* ajin, g'ijim.
- crinoline** ['krɪnəlɪn] *n.* krinolin (*darya kemalarida palubaning quyruq qismidan osilib turadigan qism*).
- cripple** ['krɪp(ə)] *n.* cho'ltoq, mayib, nogiron; *v.* mayib qilmoq, nogiron qilmoq, buzmoq, ishdan chiqarmoq; (*fig.*) shikast yetkazmoq.
- crisis** ['kraɪsɪs] *n.* tang ahvol, muhtojlik, pulsizlik.
- crisp** [krɪsp] *adj.* (*brittle*) qarallaydigan, g'ichirilaydigan; (*fresh*) yangi; (*abrupt*) qattiq, keskin; *n.*: chipai (*qovurilgan kartoshka*).
- criss-cross** ['krɪskrɒs] *adv.* ko'ndalang qilib, chillak qilib.
- criterion** [kraɪtɪərɪən] *n.* mezon, o'lchov.
- critic** ['krɪtɪk] *n.* tanqidchi. **critical** *adj.* tanqidiy; (*dangerous*) xavfli, xatarli, tahlikali. **criticism** *n.* tanqid. **criticize** *v.* tanqid qilmoq.
- critique** [krɪ'ti:k] *n.* tanqid.
- croak** [krəʊk] *n.* qurullash, vaqirlash; vaqvaqlash; *v.* qurullamoq, vaqiramoq; xirillamoq, xir-xir qilmoq.
- crochet** ['krəʊʃet, -ʃɪ] *n.* to'qish; *v.* to'qimoq (*plittkashsimon nina (spitsa) bilan*).
- crock** [krɒk] *n.* (*broken pottery*) sopol parcha, sopol sinig'i.
- crockery** *n.* sopol idish.
- crocodile** ['krɒkədaɪl] *n.* timsoh.
- crocus** ['krɒkəs] *n.* boychechak.
- croft** [krɒft] *n.* kichkina ferma.
- crofter** *n.* mayda ijarachi.
- croissant** ['krwɑsɑ] *n.* shox shaklidagi shirin kulcha.
- crone** [krəʊn] *n.* munkillab qolgan kamplr; qaril alvasti.
- crony** [krɒnɪ] *n.* qadrdon do'st,

jonajon og'ayni.

**croak** [kruk] *n.* (*staff*) tayoq, hasa; (*band*) muyulish, eglilish, qayrilish, burilish; (*swindler*) muttaham, aldoqchi, toviamachi; *v.* bukmoq, egmoq, qayirmoq. **crooked** *adj.* qiyahiq; (*dishonest*) noinsof, vijdonsiz, g'irrom. **crookedness** *n.* qiyshilik, egribukrilik; (*dishonesty*) tovlamachilik, muttahamlik.

**croon** [kru:n] *v.* xirgoyi qilmoq, xirgoyi qilib ashula aytmoq.

**crooner** *n.* estrada xonandasi.

**crop** [krop] *n.* (*yield*) hosil, unum; ekinlar; (*bird's*) jig'ildon, putanak; (*haircut*) kalta soch; *v.* (*cut*) kaltalalmoq; — *up* kutilmaganida paydo bo'lmoq.

**croquet** [kraukeɪ, -ki] *n.* krocket (*sharlarni to'qmoqchalar bilan urib sim darvozalaridan o'tkazish o'yini*).

**cross** [kros] *n.* xoch, salib; (*biol.*) (*action*) chalishish, chalishtirish. (*result*) duragay, chalishma; *adj.* (*transverse*) ko'ndalang, ko'ndalangiga tushgan; (*angry*) jahldor; *v.* kesib o'lmoq; (*biol.*) chalishtirmoq, qovuhtirmoq; ~ **off**, **out** o'chirmoq, o'chirib tashlamoq; ~ **o.s.** cho'qinmoq; ~ **over** o'tmoq. **crossbar** *n.* ilgak. **crossbow** *n.* qo'ndonli kamon. **cross-breed** *n.* duragay,

chalishma; *v.* chalishtirmoq, qovuhtirmoq. **cross-country** *adj.*: ~ **race** kross (*yo'l-siz, pastbaland joylarda yugurish*). **cross-examination** *n.* bir necha tomonlama so'roq qillish. **cross-examine**, **cross-question** *v.* bir necha tomonlama birdan so'roq qilinishga duchor bo'lmoq. **cross-eyed** *adj.* g'ilay. **cross-legged** *adj.*: **sit** ~ bir oyog'ini ikkinchi oyog'i ustiga qo'yib o'tirish. **cross-reference** *n.* havola, dastak, dalil. **crossroad(s)** *n.* chorraha, yo'l ayrilishi; (*fig.*) ora yo'l. **cross-section** *n.* ko'ndalang kesim. **crossways**, **crosswise** *adv.* ko'ndalang qilib, chillak qilib. **crossword (puzzle)** *n.* krossvard, boshqotirma. **crossing** *n.* (*intersection*) chorraha; (*foot*) o'tish joyi; (*transport; rail.*) ko'chish.

**crotch** [krotʃ] *n.* (*anal.*) chot, chot orasi, ayri.

**crotchet** ['krotʃɪt] *n.* (*mus.*) chorak nota.

**crotchety** ['krotʃɪtɪ] *adj.* ming'ir-ming'ir, quloqni tinchitmaydigan, mijg'ov, janjalkash.

**crouch** [krautʃ] *v.* egilmoq, bukilmoq.

**croup** [kru:p] *n.* krup, tomoq og'rig'i (*tomoq yallig'lanishi*); sag'ri, olning sag'risi.



**crow** [kroʊ] *n.* qarg'a; as the - flies to'g'ri chiziqdan; *v.* qichqirmoq; (*exult*) shodlanmoq, sevinmoq, quvonmoq. **crowbar** *n.* misrang; lo'm.

**crowd** [kraʊd] *n.* olomon, yig'in, to'da; *v.* siqilmoq, qisilmoq; ~ into suqilib kirmoq; ~ out siqib chiqarmoq. **crowded** *adj.* to'lib ketgan, liq to'la.

**crow** [kraʊn] *n.* toj, gulchambar; (*tooth*) koronka (*lish qoplamasi*); (*head*) boshning qoq o'rtasi, miya; (*hat*) bosh kiyimning tepa qismi; (*coin*) krona (*pul birligi*); *v.* toj klydirmoq; (*fig.*) taqdirarmoq.

**crucial** ['kru:ʃ(ə)] *adj.* (*decisive*) hal qiluvchi, ajrim qiluvchi; (*critical*) tanqidiy.

**crucible** ['kru:stɪb(ə)] *n.* tigel (*metall eritadigan gilvata idish*).

**crucifix** ['kru:sɪfɪks], **crucifixion** *n.* xochga tortilgan Iso surati solingan but.

**crucify** *v.* oyoq-qo'lidan mixlab qo'ymoq.

**crude** [kru:d] *adj.* (*rude*) qo'pol, qo'rs; (*raw*) xomashyo. **crudeness**, **crudity** *n.* qo'pollik, qo'rslik.

**cruel** ['kru:əl] *adj.* rahmsiz, shafqatsiz, bag'ritosh. **cruelty** *n.* shafqatsizlik, rahmsizlik.

**cruet** [kru:t] *n.* grafin (*suv yoki*

*ichimlik soladigan idish*).

**cruise** [kru:z] *n.* kruiz, dengiz sayohati; *v.* qatnamoq, qatnab turmoq; **cruising speed** o'rtacha iqtisodiy sur'at; **cruising taxi** bo'sh taksi. **cruiser** *n.* kreyser (*tez yurar katta harbiy kema*).

**crumb** [krʌm] *n.* ushoq, uvoq; *v.* ushoq sochmoq.

**crumble** ['krʌmb(ə)] *v.* maydalamoq, uvatmoq, ushatmoq, to'g'ramoq; *v.* yiqilmoq, ag'darimoq, qulamoq. **crumbling** *adj.* to'kilyotgan, sochilayotgan; ag'darilayotgan. **crumbly** *adj.* uvalanib ketadigan.

**crumpet** ['krʌmpɪt] *n.* yog'lik kulcha, shirmoy non.

**crumple** ['krʌmp(ə)] *v.* ezmoq, lylamoq; pachoqlamoq, zaxa qilmoq; g'ijimlamoq, g'ijim-g'ijim qilmoq.

**crunch** [krʌntʃ] *n.* g'arch-g'urch; qasir-qusir, chars-churs; *v.* kemimoq, g'ajimoq, chaqmoq; *v.* g'archillamoq, g'arch-g'urch qilmoq, qarsillamoq, qars-qurs qilmoq.

**crusade** [kru:'seɪd] *n.* salb yurishlar (*11-12 asrlarda nitsarlam-ing Sharqqa yurishi*); (*fig.*) kurashmoq (*kimningdir yoki nimaningdir himoyasi uchun*). **cruader** *n.* salb yurishi qatnashchisi.

**crush** [kraʃ] *n.* tiqilinch, tirband; (*infatuation*) kuchli havas; *v.* bosmoq, og'irligi lushmoq; ezmoq; pachaqlamoq. **crusher** *n.* droblika (*tosh va sh.k.larni maydalaydigan mashina*). **crushing** *adj.* qaqshatqich, yo'q qiladigan, tor-mor keltiradigan.

**crust** [krʌst] *n.* (*of earth*) qobiq; (*bread etc.*) po'stloq, po'st, po'choq.

**crustacean** [krʌ'steɪʃ(ə)n] *n.* qisqichbaqasimon.

**crusty** ['krʌstɪ] *adj.* qattiq po'stloqli; (*irritable*) mijg'ov, jan-jakash.

**crutch** [krʌʃ] *n.* qo'lliqitayoq.

**crux** [krʌks] *n.* qiyin, og'ir savol; - *of the matter* ishning mag'zi.

**cry** [kraɪ] *n.* fig'on, nola; baqiriq; *a far - to* -dan uzoq; *v.* (*weep*) yig'lamoq; (*shout*) baqirmoq; ~ *off* bosh tortmoq, voz kechmoq; tonmoq. **crying** *adj.* yig'layotgan; g'azablantiradigan, chidab bo'lmaydigan; *it's a - shame* sharmandali; ayanch bir holda.

**crypt** [krɪpt] *n.* yer ostidagi sag'ana. **cryptic** *adj.* sirdi. **cryptogram** *n.* maxfiy belgilar bilan yozilgan xat, ramz bilan yozilgan xat.

**crystal** ['krɪstl(ə)] *n.* kristall, billur (*tashqi ko'rinishi to'g'ri, ko'p qirrali shakldagi qattiq jism*); (*mi-*

*neraf*) billur (*eng a'lo sifatli shisha*). **crystallize** *v.* kristallash-(tir)moq, kristalga aylanmoq; *v.* (*fruit*) ahakar-qiyomda qaynatib qotirmoq.

**cub** [kʌb] *n.* hayvonlarning yangi tug'ilgan bolasi; *bear* - ayiq bolasi; *fox* - tuiki bolasi; *lion* - arslon (sher) bolasi; *wolf* - bo'ri bolasi.

**cubby-hole** ['kʌbɪ-] *n.* kichkina ombor, qaznoqcha.

**cube** [kju:b] *n.* kub. **cubic** *adj.* kubga oid; kub shaklidagi.

**cubicle** ['kju:bɪk(ə)l] *n.* kabina, hujra, bo'lma; boks.

**cuckoo** [kʊku:] *n.* (*bird*) kakkuqush; (*fool*) ahmoq; *v.* kakkuqlamoq.

**cucumber** ['kju:kʌmbə(r)] *n.* bodring.

**cud** [kʌd] *n.* saqich.

**cuddle** ['kʌd(ə)] *v.* quchoqlamoq, quchoqlab bag'riga bosmoq; *v.* quchoqlashmoq.

**cudgel** ['kʌdʒ(ə)] *n.* cho'qmor, tay-oq, so'yil.

**cue** [kju:] *n.* (*theatr.*) replika (*ikkinchi artist gapirishidan oldin birinchi artistning aytadigan so'nggi so'zlar*).

**cue** [kju:] *n.* (*billiards*) kiy (*billiard tayog'i*).

**cuff** [kʌf] *n.* ko'ylak yengiga tikib yoki qadab qo'yiladigan yeng

uchi, yeng qaytarmasi; **off the** ~ ekspromi tarzida, tayyorlanmasdan.

**cuff** [kʌf] *v.* (*h/f*) tarseki tushirmoq

**cuff-link** [kʌfɪŋk] *n.* ilma tugma.

**cul-de-sac** [kʌldə,sæk, 'kɒl-] *n.* boshi berk ko'cha.

**cullinary** [kʌlɪnəri] *adj.* pazandalik ..., pazandalikka oid.

**cull** [kʌl] *v.* torib olmoq, zo'riab olmoq, qaytarib olmoq.

**culminate** [kʌlmɪneɪt] *v.* maqsadga erishmoq, yuqori cho'qqini zabt etmoq. **culmɪ'natlon** *n.* eng yuqori nuqta.

**culottes** [kju:'lɒts] *n.* yubka-shim.

**culpability** [kʌlpə'bɪlɪtɪ] *n.* aybdorlik, gunohkorlik. **'culp-able** *adj.* aybdor, aybli. **'culprit** *n.* aybdor, gunohkor.

**cult** [kʌlt] *n.* sajda qilish, ibodat, sig'inish; ~ **of personality** shaxsga sig'inish.

**cultivate** ['kʌltɪ'veɪt] *v.* (*land*) Ishlamoq, ishlov bermoq, ishlab tayyorlamoq; (*crops; fig.*) ekmoq, o'stirmoq; taraqqiy qildirmoq; rasm qitmoq; (*develop*) rivojlantirish. **cultivated** *adj.* (*land*) ishlov berilgan; (*plants*) ko'kartirilgan, o'stirilgan; (*person*) madaniyatli; ~ **crop** yumshatishni (chopishni) talab qiladigan ekin. **cultivatlon** *n.* Ishlov

berish, haydash chopish; kultivatsiya qilish (*yerni texnika yordamida yumshatish*); o'stirish, ko'kartirish, yetishtirish; **area under** ~ ekin maydoni. **cultivator** *n.* kultivator (*ekinining tagini yumshatadigan mashina*).

**cultural** [kʌltʃərə] *adj.* madaniy, madaniyatga oid, madaniyatli, ma'rifalli, keng ma'lumotli. **culture** *n.* madaniyat; (*of land*) yerni ishlash, haydash, ekish; (*of animals*) urchitish, ko'paytirish, bolalatish; (*of bacteria*) o'stirish, tarbiyalab yetishtirish. **cultured** *adj.* madaniyatli; rivojlangan, taraqqiy etgan; ~ **pearls** sun'iy dur, o'stirilgan marvarid.

**culvert** [kʌlvət] *n.* suv o'tkaziladigan quvur.

**cumbersome** [kʌmbəsəm] *adj.* og'ir, qiyin; bahaybat, katta beso'naqay.

**cumulative** ['kju:mjʊlətɪv] *adj.* asta-sekin ortadigan. **cumulus** [kju:mjʊləs] *n.* to'p-to'p bulut.

**cunelform** [kju:nɪ,fo:m] *adj.* ponasimon; *n.* mixxat.

**cunning** ['kʌnɪŋ] *n.* ayyorlik, mug'ombirlik; *adj.* hiylakor, quv, makkor.

**cup** [kʌp] *n.* piyola, kosacha; (*prize*) kubok.

**cupboard** ['kʌbəd] *n.* javon.

**Cupld** ['kju:pɪd] *n.* Kupidon (*af-*

- sonaviy muhabbat tangrisi).*  
**cupidity** [kju:'pidɪtɪ] *n.* ochko'zlik, tamagirlik.  
**cupola** [kju:pələ] *n.* gumbaz, qubba.  
**cur** [kɜ:(r)] *n.* (dog) ko'ppak; (person) qo'pol, pasikash odam.  
**curable** ['kjʊərəb(ə)] *adj.* sog'ayadigan, davolab tuzatsa bo'ladigan.  
**curate** ['kjʊeret] *n.* (kichik martabali) ruhoni.  
**curative** ['kjʊeretɪv] *adj.* shifobaxsh, davo bo'ladigan.  
**curator** [kjʊə'reɪtə(r)] *muzey* qo'riqlovchisi.  
**curb** [kɜ:b] *v.* jilovlamoq, yuganlamoq; *n.* (check) jilovlash, yuganlash; jilov, yugan; (karb) yo'lakning cheli.  
**curd** [kɜ:d] (*cheese*) *n.* Ivorog, suzma. *curdle* *v.* quyil(tir)moq, ivi(t)moq; *v.* (blood) ivimoq, qotmoq.  
**cure** [kjʊə(r)] *n.* (treatment) davolash; (means) -ga qarshi vosita; *v.* (person) davolamoq, boqib tuzatmoq; (smoke) dudlamoq, islatib qoqlamoq, dudga tutib qoraytirmoq; (salt) tuzlamoq.  
**curfew** [kɜ:fju:] *n.* komendantlik soati.  
**curling** ['kjʊərɪŋ] *n.* davolash; (*cut.*) dudlash, tuzlash.  
**curio** ['kjʊəriəʊ] *n.* kamyob qadimiy buyum, antiqa narsa.  
**curiosity** [kjʊəri'ɒsɪtɪ] *n.* sinchkovlik, har narsaga qiziqish. 'curious *adj.* sinchkov, har narsaga qiziquvchan.  
**curl** [kɜ:l] *n.* (hair) zulf, gajak, kokli; (*spiral; hair*) jingala, o'ram, chimoq; *v.* jingalak qilmoq, gajak qilmoq; buramoq, aylantirmoq.  
**curlew** [kɜ:lju:] *n.* kronshnep (*bird* turlik qush).  
**curly** [kɜ:lɪ] *adj.* chirmashadigan, chirmashgan; jingalak. *curly-haired, curly-headed* *adj.* jingalak.  
**curmudgeon** [kə'mʌdʒ(ə)n] *n.* qizg'anchilik, xasla, baxil.  
**currants** ['kʌrəntz] *n.* (*collect.*) korinka (*uzum nav*).  
**currency** ['kʌrənɪ] *n.* valyuta; (*prevalence*) tarqalganlik, yoyilganlik, rasm bo'lganlik. **current** *adj.* joriy, shu kundagi, galdagi; *n.* oqish, borish; (*air*) oqim; (*water, elec.*) tok (*elektr quvvati*).  
**curriculum** [kə'rɪkjələm] *n.* o'quv kursi. **curriculum vitae** *n.* qisqacha tarjimai hol, biografiya.  
**curry**<sup>1</sup> [kʌrɪ] *n.* ot qashlag'ich.  
**curry**<sup>2</sup> [kʌrɪ] *v.:* ~ favour with birovning oldida xu'omadga'ylik, laganbardorlik qilmoq.  
**curse** [kɜ:s] *n.* la'nat, la'nat o'qish,

qarg'ash, so'kish, so'kinish; v. la'nallamoq; v. janjallashmoq, so'kinlahmoq. **cursed** *adj.* la'natli, la'nallangan, mal'un, baltol.

**curse** ['kɜ:sɪv] *n.* tez yozuv; *adj.* tez yozilgan.

**curse** ['kɜ:səri] *adj.* ildam, lez; yuzaki.

**curl** [kɜ:l] *adj.* qisqa, kalta; qatliq, keskin.

**curtain** [kɜ:'teɪn] *v.* qisqartirimoq, qisqartirish. **curtainment** *n.* qisqartirish.

**curtain** ['kɜ:l(ə)n] *n.* parda. **curtain-call** *n.* aktyorni sahnaga chaqirish; *v.* parda tutmoq.

**curtsey** ['kɜ:tsɪ] *n.* tiz bukib la'zim qilish.

**curvature** ['kɜ:vətʃə(r)] *n.* qiyshilik, egnilik; qiyshaytirish, egish, bukish; qiyshayish, egilish, bukilish. **curve** [kɜ:v] *n.* muyulish, egilish, egik, bukik; (*math. etc.*) qiyshiq; *v.* egmoq, bukmoq; egilmoq, bukilmoq. **curvilinear** [kɜ:'vɪ'lɪnɪə(r)] *adj.* egri chiziqli.

**cushion** [kʊʃ(ə)n] *n.* yostiq; *v.* yumshatmoq.

**cusp** [kʌsp] *n.* o'tkir tumshuq, keskin tarzda turtib chiqib turgan joy; (*geom.*) ikkita egri chiziqning kesilish nuqtasi.

**custard** [kʌstəd] *n.* shirin krem.

**custodian** [kʌ'stəʊdɪən] *n.* qo'riqlovchi; qorovul. **custody** [kʌstədɪ] *n.* tarbiya, g'amxo'riik; saqlash, asrash; (*of police*) qamoq; **to be in** - qamoqda, hibsdan saqlanmoq; **to take into** - qamoqqa olmoq, hibs etmoq. **custom** ['kʌstəm] *n.* urf-odat; odat; (*customers*) mijozlar; (*duty*) bojxona bojlari; **to go through the** - bojxona ko'rigidan o'tmoq. **customary** *adj.* odaliy. **customer** *n.* mijoz; xaridor; buyurtmachi. **custom-house** *n.* bojxona.

**cut** [kʌt] *v.* kesmoq; (*hair*) qirqmoq, kesmoq; (*hay*) o'rmoq; (*price*) pasaytirmoq, tushirmoq; (*cards*) qaradani bo'lmoq, kesmoq (*ustidan olib tagiga qo'ymoq*); - **down** kesib tashlamoq; - **off** (qir-qib, qiyib) olmoq, kesib (bo'lib, ajratib) bermoq; (*interrupt*) uzmoq, kesmoq, to'xtatmoq; - **out** kesib olmoq, qirqib olmoq; bichmoq; - **up** kesmoq, tilmoq, kesib (tilib) qo'ymoq; *n.* kesish, tilish, qirqish; bichim, andaza; pasayish, kamayish; *adj.* kesilgan, tilingan; (*glass etc.*) qirrali; - **out** bichilgan; - **rate** pasaytirilgan narx; - **up** xafa, ranjigan, qayg'uli, alamli. **cute** [kju:l] *adj.* yoqimtoy, istarasi issiq.

cuticle [ˈkju:tɪk(ə)] *n.* yuqqa teri, po'st, po'silloq.

cutlass [ˈkʌtləs] *n.* abordaj qilichi (ikkil kema bir-biriga yopishib jang qilganda ishlatiladigan qilich).

cutler [ˈkʌtlə(r)] *n.* arrakash. cutlery *n.* pichoq buyumlari; pichoqlar, sanchqilar va qoshiqlar. cutlet [ˈkʌlɪt] *n.* to'qmoqlangan kotlet.

cut-out [ˈkʌtaʊt] *n.* (switch) saqlovchi (elektr moslamalarida), yondirgich (elektr tokini ulaydigan va ayradigan asbob); (figure) o'ymakor shakl.

cutter [ˈkʌtə(r)] *n.* (tailor) bichiqchi; (naut.) kater.

cutthroat [ˈkʌθrəʊt] *n.* kallakesar; *adj.* shiddatli, qattiq, ahafqatsiz.

cutting [ˈkʌtɪŋ] *n.* kesish; kesib qo'yish; (press) parcha, lavha; (from plant) qalamcha; cho'p, band; (rail.) o'yilgan joy, o'pqon, kovak; *adj.* keesadigan; o'tkir; shiddatli, achchiq.

cuttlefish [ˈkʌt(ə)lɪfɪʃ] *n.* karakatit-sa (yumshoq badanli dengiz molluskasi).

*c.v. abbr.* (of curriculum vitae) qisqacha tarjimayi hol, biografiya.

cwt [ˈhʌndrəd,weɪt] *abbr.* (of hundredweight) (Imperial – approx. 50.8 kg) ingliz sentneri;

(US – approx. 45.4 kg) ameri-kancha sentner.

cyanide [ˈsaɪə,naɪd] *n.* sianid (kimyoviy modda).

cybernetics [ˌsaɪbəˈnetɪks] *n.* kibernetika (avtomatik boshqarish tizimlari va usullari haqidagi fan).

cyclamen [ˈsaɪkləmən] *n.* Alp binafshasi.

cycle [ˈsaɪk(ə)] *n.* sikl, davr, davra; (elec.) geris (tebranish tezligining o'chov birligi); (bicycle) velosiped; *v.* velosipedda uchmoq. cyclic(al) [ˈsaɪklɪk(ə)], 'sɪk-] *adj.* davrly. cycling *n.* velosipedda uchish; velosport. cyclist *n.* velosipedchi.

cyclone [ˈsaɪkləʊn] *n.* siklon; bo'ron, dovul.

cyclotron [ˈsaɪkləˌtrɒn] *n.* siklotron (yadro tadqiqotida zaryadlangan og'ir mikrozarrachalarni tezlatadigan qurilma).

cygnet [ˈsaɪnɪt] *n.* oqqush jo'jasl.

cylinder [ˈsaɪlɪndə(r)] *n.* silindr (ichki yonish dvigatellarining ichida parshen yuradigan qismi). cylindrical *adj.* silindr, silindrshaklidagi.

cymbals [ˈsaɪmb(ə)lz] *n.* likopchalar.

cynic [ˈsaɪnɪk] *n.* uyatsiz, beadab, surbat. cynical *adj.* beadab, uyatsiz, hayosiz. cynicism *n.*

uyatsizlik, beadablik, surbetlik.  
**cynosure** [ˈsaɪnəˌzʃe(r), ˈsɪn-] *n.*  
 diqqat markazi.

**cypress** [ˈsaɪprəs] *n.* sarv daraxti.

**Cyriot** [ˈɪprɪət] *n.* kiprlik; **Greek**  
 (Turkish) – kelib chiqishi grek  
 (turk) boʻlgan kiprlik.

**Cyprus** [ˈsaɪprəs] *n.* Kipr.

**Cyrillic** [sɪˈrɪlɪk] *n.* kiril alifbosi.

**cyst** [saɪt] *n.* kista (*sariq suv*  
*yigʻilgan shish*).

**czar**, **czarina** *see* tsar, tsarina

**Czech** [tʃek] *n.* chex, chexiyalik; *adj.*  
 chexlarga, Chexiyaga oid; – **Re-**  
**public** Chexiya Respublikasi.

## D

**D** [di:] *n.* (*mus.*) re (*nota*).

**dab<sup>1</sup>** [dæb] *n.* yangil legib  
 qoʻyish, sekingina leginish;  
 uzib-uzib boʻyoq berish; *v.*  
 yangil legmoq; – on ustiga  
 qoʻyib surtmoq.

**dab<sup>2</sup>** [dæb] *adj.*: be a – hand at  
 oʻz ishining ustasi.

**dabble** [ˈdæb(ə)] *v.* shapllatmoq,  
 sachratmoq; – In yuzaki, yangil-  
 elpi, chala-chulpa ... ehugʻullan-  
 moq. **dabbler** *n.* dilstani, havas-  
 kor.

**dachshund** [ˈdæksʰʊnd] *n.* tak-  
 sa (*oyoqlari qlyshiq kichkina ov-*

*chl yoki xonaki il*).

**dad** [dæd], **daddy** *n.* ota, dada.  
**daddy-long-legs** *n.* uzunoyoq  
 (*tuxumdan chiqib qurtga aylan-*  
*gan vaqtida karam va lavlagi*  
*bagʻlarini yeb qoʻyadigan may-*  
*da pashsha*).

**dado** [ˈdeɪdəʊ] *n.* Ichki panel (*xona*  
*devorlarining pastki qismiga tax-*  
*ta qoplash yoki uni taxtaga oʻx-*  
*shatib boʻyash*).

**daffodil** [ˈdæfədəɪl] *n.* sariq nargis  
 (*gul*).

**daff** [do:ft] *adj.* tentak, ahmoq,  
 aqlsiz; bemaʼni; maʼnosiz,  
 mazmunsiz, nomaʼqul.

**dagger** [ˈdæɡə(r)] *n.* xanjar.

**dahlia** [ˈdeɪliə] *n.* kartoshkagul.

**daily** [ˈdeɪli] *adv.* har kun, kun  
 sayin, kunda; *adj.* kunda  
 boʻladigan, kundalik; – **bread**  
 tiriklik uchun nihoyatda zarur  
 boʻlgan narsa, rizq-roʻz; – **doz-**  
**en** badantarbiya, gimnastika; *n.*  
 (*charwoman*) kelib ketadigan uy  
 xizmatkori; (*newspape* r) kunda-  
 lik gazeta.

**daintiness** [ˈdeɪntɪnɪs] *n.* nafis-  
 lik, goʻzallik, noziklik. **dainty** *adj.*  
 nafs, goʻzal, nozik.

**dairy** [ˈdeəri] *n.* moy ishlab chiqa-  
 radigan korxonasi; (*shop*) sut  
 doʻkoni; – **farm** sutchilik xoʻjaligi.  
**dairymaid** *n.* elgir sogʻuvchi  
 xotin yoki qiz.

- dals** [deɪnz] *n.* taxta supa, taxta ko'prikcha.
- dalsy** [deɪzɪ] *n.* dastorgul.
- dale** [deɪl] *n.* vodiya.
- dalliance** [dæɪləns] *n.* behuda vaqt o'tkazish. **dally** *v.* ko'ngil ochmoq, uyin-kulgi bilan vaqt o'tkazmoq.
- Dalmation** [dæɪ'meɪʃ(ə)n] *n.* dalmat dogi (*it zoti*).
- dam'** [dæm] *n.* (*barrier*) to'g'on; g'ov; to'siq; *v.* to'g'on bilan to'smoq; dam qilmoq, bog'lamoq.
- dam<sup>2</sup>** [dæm] *n.* (*animal*) urg'ochi, moda, ona hayvon.
- damage** [dæmɪdʒ] *n.* ziyon, zarar, shikast; zararlanish, buzilish, shikastlanish; zarar, zarar ko'rmoq; *v.* zarar bermoq, shikast yetkazmoq; buzmoq, ishdan chiqazmoq.
- damascene** [dæmə'si:n, ,dæmə'si:n] *v.* tilla, kumush bilan o'y-moq.
- damask** [dæməsk] *n.* shlof (*mebellarni qoplash uchun ishlatiladigan qalin gazlama*).
- damn** [dæm] *v.* qarg'amoq, la'nat-lamoq, so'kmoq; (*censure*) yomonlamoq, ayblamoq, qoralamoq. **damnable** *adj.* jirkanch, qabih, xunuk, iflos, juda yomon.
- dam'nation** *n.* qarg'ish.
- damned** *adj.* la'natlangan.
- damp** [dæmp] *n.* zaxlik, namlik; *adj.* zax, nam; *v.* ho'llamoq, ivitmoq; namlamoq, ho'llamoq.
- dampcourse** *n.* gidrozolyatsiya, suv (nam) o'tkazmaydigan qilish. **damp-proof** *adj.* namlik o'tkazmaydigan.
- damson** [dæmz(ə)n] *n.* tikano'ri.
- dance** [da:ns] *v.* raqsga tushmoq, o'ynamoq; *n.* raqs, o'yin; (*party*) raqs oqshomi. **dancer** *n.* raqqos, raqqosa, o'yinchi; (*ballet*) o'yinchi; baterina.
- dandelion** [dændɪˌleɪən] *n.* qoqi o't, momaqaymoq.
- dandruff** [dændrʌf] *n.* qazg'oq.
- dandy** [dændɪ] *n.* olifta, po'rim.
- Dane** [deɪn] *n.* daniyalik kishi; **Great** - dog (*tumshug'i qisqa katta it*). **Danish** *adj.* Daniyaga va daniyaliklarga oid; daniyaliklar tili.
- danger** [deɪndʒə(r)] *n.* qo'rqinch, xavf, xatar, tahlika. **dangerous** *adj.* xalari.
- dangle** [dæŋg(ə)] *v.* osilib turmoq, osilib tushmoq; osillirib turmoq, tebrantirib turmoq.
- dank** [dæŋk] *adj.* nam, zax.
- Danube** [dænju:b] *n.* Dunay.
- dapper** [dæpə(r)] *adj.* batartib, saranjom; olifta.
- dappled** [dæp(ə)ld] *adj.* olachipor.
- dare** [deɪ(r)] *v.* botinmoq, jur'at



qilmoq, betlamoq; I - say mo'jallab turibman; *n.* chaqirish, chaqirdirish. **daredevil** *n.* o'ktam, dovyurak. **daring** *n.* qo'rqmaslik, dadillik, jasurlik, botirlik; *adj.* dadil, jasur, qo'rqmas.

**dark** [do:k] *adj.* qorong'i, qoramliq tusdagi; **D~ Ages** o'rta asrdam-ing boshlarida; - **secret** buyuk sir; *n.* qorong'ilik, zulmat. **dark-en** *v.* qorong'i qilmoq, qorong'lashirmoq. **darkly** *adv.* qorong'i, mudhish. **darkness** *n.* qorong'ilik, zulmat. **dark-room** *n.* qorong'i xona.

**darling** ['do:klɪŋ] *n.* qimmatli, qadri, aziz; *adj.* qadri, suyukli.

**darn** [do:n] *v.* yamab qo'ymoq, to'qib yamab qo'ymoq. **darning** *n.* to'rlash, to'rlab (to'qib) yamash; *adj.* to'rlaydigan, to'rlab (to'qib) yamaydigan; - **thread, wool** to'rlash, to'rlab (to'qib) yamash.

**dart** [do:t] *n.* o'q (kamon o'qi), nayza, nish; mil, ko'rsatgich; (**tuck**) vitachka (kiyimni bichimga to'g'riyib tikish uchun ichdan qoldirilgan chok); *v.* tamg'alamoq, tamg'a bosmoq, belgi qo'ymoq; yugurib yurmoq, uchib yurmoq, chopib yurmoq.

**dash** [dæʃ] *n.* (**hyphen**) tire, tire belgisi (-); (**admixture**) aralash, aralashma, qotishma, omixta;

(**rush**) sapchish; bir zarb bilan bosh uzra ko'tarish; *v.* irg'ilmoq, itqitmoq, otmoq, otqilamoq, uloqlirmoq; lashlanmoq, otilmoq; yugurib yurmoq, uchib yurmoq, chopib yurmoq, chopmoq, yugurmoq, juda tez yugurmoq; juda tez ketmoq, shamoldek tez bormoq. **dashboard** *n.* asbob-uskuna taxtasi. **dashing** *adj.* botir, mard, shijoalli, dov-yurak, chaqqon, epchil.

**data** *n.* ma'lumot, ma'lumotlar, ko'rsatkich, ko'rsatkichlar; faktlar. **database** *n.* ma'lumotlar bazasi.

**date** [deɪt] *n.* sana, vaqt; (**engagement**) ko'rishish, uchrashish; **out of** - eskigan, eskib qolgan; qarigan, keksaygan; (**overdue**) muddatidan o'tkazib yuborilgan, kechiktirilgan; **up to** - zamonaviy; xabardor bo'lmoq; *v.* sana qo'y(dir)moq, vaqtini ko'rsat(lir)moq; (**make engagement**) uchrashuvni belgilamoq.

**date**² [deɪt] *n.* (**fruit**) xurmo (mevasi).

**dative** [deɪtɪv] *adj.* (*n.*) jo'nalish kelishigi.

**daub** [dɔ:b] *v.* shuvamoq, surtmoq, moylamoq; bo'yamoq, bo'yab lashlamoq; o'xshovsiz sural chizmoq; *n.* yomon sural.

**daughter** ['dɔ:tə(r)] *n.* qiz. **daughter-in-law** *n.* kelin, kelinchak (*in relation to mother*).

**dauntless** ['dɔ:ntlɪs] *adj.* qo'rq-maydigan, dovyurak, jasratli.

**davit** ['dævɪt, 'deɪvɪt] *n.* shlyup-balka (*kema qayig'ini suvga tushiradigan va kemaga oladigan maxsus qurilma*).

**dawdle** ['dɔ:d(ə)l] *v.* bekor yurmoq, tanballik qilmoq.

**dawn** [dɔ:n] *n.* tong, tongotar; shafaq; *v.* (*day*) tong otmoq, tong yorishmoq; — (*up*) *on* *bir* *dan* xayolga kelmoq, birdan miyaga urmoq; *It —ed on me* miyaga bir fikr keldi, bir fikr kal-lamga urdi.

**day** [deɪ] *n.* kun; (*working ~*) ish kuni; (*24 hours*) sutka, bir kecha-kunduz; (*period*) vaqt, zamon, muddat; — *after ~* kundan kunga; *the ~ after tomorrow* Indinga, Indin, birisi kuni; *all ~* long kun-kunday; *the ~ before* kechagina, yaqindagina, tunov kuni; *the ~ before yesterday* o'lgan kuni; *by ~* ertalab; *every other ~* kunora; — *off* dam olish kuni; *one ~* kunlardan bir kuni, bir kuni; *this ~* week bir haftadan so'ng; *carry, win, the ~* g'alaba qozonmoq, yengib chiqmoq; *lose the ~* mag'lubiyatga uchramoq, *day-*

*break* *n.* tong, tong payti. *day-dreams* *n.* orzu, shirin xayollar. *day-labourer* *n.* kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor. *daylight* *n.* kunduzgi yorug'lik; *in broad ~* kupa-kunduzi.

**daze** [deɪz] *v.* hayratda qoldirmoq, dovdlatib qo'yimoq, esankiratib qo'yimoq. **dazed** *adj.* ajablangan, hayratlangan.

**dazzle** ['dæz(ə)l] *v.* ko'zni qamashirmoq. **dazzling** *adj.* yarqiragan, chaqnagan, yorqin, porloq.

**DC** *abbr.* (*of direct current*) o'zgarmas tok.

**deacon** [di:kən] *n.* dyakon (*pravoslav cherkovida eng quyi darajadagi ruhoni*).

**galaxy** ['gæləksɪ] *n.* galaktika; (**G-**) (*Milky Way*) Somon yo'li; (*fig.*) zumra (*bir davrda yashab biror sohada faoliyat ko'rsalgan atoqli odamlar guruhi*).

**gale** [geɪl] *n.* kuchli shamol; (*naut.*) dengizdagi po'rtana, kuchli dovul.

**gall** ['gɔ:l] *n.* (*bile*) safro, o't; (*bit-terness*) sərzardalik, qo'rslik, badjahllik.

**gall**<sup>2</sup> [gɔ:l] *n.* (*sore*) shilingan joy; (*irritation*) og'ritish, qichitish, yallig'lantirish; yallig'lanish; *v.* (*vex*) g'ashini keltirmoq, joniga tegmoq, bazor qilmoq.

**gallant** ['gælənt; ge'lænt] *adj.* (*brave*) botir, dovyurak, qo'rq-mas; (*courty*) nazokatli, xushmuomala, sipo. **gallantry** *n.* botirlik, dovyuraklik; nazokəllilik, xushmuomalalik, sipolik.

**gall-bladder** [gɔ:blædə(r)] *n.* o't pufagi.

**gallery** ['gæləri] *n.* galereya (*ko'rgazma*); (*theatr.*) galereya (*teatrning yuqoridagi qatorlari*).

**galley** [gæli] *n.* (*ship*) galera (*ko'p eshkakli katta kema bo'lib, unda hukm qilinganlar eshkakchilik qilishgan*); (*kitchen*) kambuz, kema oshxonasi.

**gallon** [gælen] *n.* gallon (*suyuq va to'kma jismlar o'chovi*).

**gallop** [gælep] *n.* o'ning sakrab chopishi; *v.* sakratib chopmoq (*chavandozga niabalan*).

**gallows** [gæləuz] *n.* dor (*odam osadigan dor*).

**gallstone** ['gɑ:lsteun] *n.* o't pufagidagi tosh.

**galore** [gə'lo:(r)] *adv.* mo'l-ko'l, serob.

**galosh** [gə'loʃ] *n.* kalish.

**galvanic** [gæl'vænɪk] *adv.* galvanizatsiya ..., galvani ... (*galvanizatsiya – biror narsa orqali elektr tokini o'tkazish*). **galvanize** [gælvə,naɪz] *v.* galvanizatsiya qilmoq; (*coal with zinc*) ruxlamoq, rux yugurdimok.

**gambit** ['gæmbɪt] *n.* gambit (*shaxmatda biron tashni qurbon keltirish*).

**gamble** ['gæmb(ə)] *n.* qimor; (*undertaking*) xatarli tashabbus; *v.* qimor o'ynamoq; xavf ostiga qo'yimoq, favakkal qilmoq; – away yulqizmoq, mag'lub bo'lmoq. **gambler** *n.* o'yinchi; qimorboz. **gambling** *n.* qimor.

**gambol** [gæmb(ə)] *v.* quvnab o'ynamoq, sho'xlik qilmoq.

**game** [gæm] *n.* o'yin; (*single –*) bir davra o'yin, bir qur o'yin; (*collect., animals*) yovvoyi qushlar; *adj.* (*ready*) tayyor. **gamekeeper** *n.* o'rmon qorovuli. **gambling-house** *n.* o'yinxona (*turtli o'yinlar tashkillashtiriladigan muassasa*); qimorxona. **gambling-table** *n.* o'yin stoli.

**gammon** [gæmən] *n.* son qo'shti.

**gamut** [gæmət] *n.* gamma (*ketma-ket avjga chiqadigan yoki pasayib boradigan tovushlar qatori; bir jinsdagi qator narsalarning turtli-luman tusda bir-biriga uyg'unligi*), diapazon (*musiqqa asbobi yoki ashula ovozining eng past va eng yuqori chegarasi doirasidagi hajmi*).

**gander** [gændə(r)] *n.* g'oz (nari)

**gang** [gæŋ] *n.* to'da, banda (*bosqinchilar, bosmachilar to'dasi*).

**gangrene** [gæŋgrɪ:n] *n.* gangrena (*organizmda to'qimalarning chirib, o'lik holga kelishi*).

**gangster** [gæŋstə(r)] *n.* bosqinchi, talonchi, yo'to'sar, bosmachi.

**gangway** [gæŋweɪ] *n.* (*passage*) yo'lka; (*naut.*) ko'chma ko'priki.

**gaol see jail.** **gaoler see jailer.**

**gap** [gæp] *n.* (*breach*) teshik (*zambarak o'qi kelib urilishi natijasida devorda hosil bo'lgan*

- teshik*), teshik, o'pirilgan joy, yoriq; (*crack*) yoriq, tirqish, teshik; (*blank space*) oraliq, ochiq joy, bo'sh qolgan joy.
- gape** [gəɪp] *v.* (person) og'izni katta ochmoq; angrayib (anqayib) qolmoq; (*chasm*) ochilib turmoq, og'zi ochilib turmoq (*jar haqida*); — at -ga anq'ayib qaramoq.
- garage** [gə'reɪ:dʒ, -rɪdʒ] *n.* garaž.
- garb** [gɑ:b] *n.* libos, sarpa.
- garbage** [gɑ:bɪdʒ] *n.* axlat; (*fig.*) bo'lmag'ur gap, safsata.
- garble** [gɑ:b(ə)l] *v.* atayin soxtalashtirmoq, qasddan buzib ko'rsatmoq.
- garden** ['gɑ:d(ə)n] *n.* bog', bog'cha; (*kitchen* ~) poliz; is-tirohat bog'i; bog'..., bog'ga oid.
- gardener** *n.* bog'bon, bog'ahunos, bog'dorchilik mutaxassisi.
- gardening** *n.* bog'dorchilik, bog'shunoslik.
- gargle** [gɑ:g(ə)l] *n.* chayqash, chaysh; *v.* tomoqni chayqamoq.
- garish** [gə'ɪʃ] *adj.* ravshan, porloq, yaqqol, yorqin, savlatil, manaman deb turgan.
- garland** ['gɑ:lənd] *n.* girlyanda, gul chamberak, gulchambar; *v.* gul chamberaklar bilan bezamoq.
- garlic** [gɑ:lɪk] *n.* sarimsoq, sarimsoq pilyoz.

- garment** ['gɑ:mənt] *n.* kiyimbosh, libos, sarpa; kiyinmoq.
- garnish** [gɑ:nɪʃ] *n.* (*dish*) gamir (*go'sht yoki baliqdan tayyorlangan ovsqatlarga qo'shib beriladigan sabzavot, guruch, makaron va h.k.*); (*embellishment*) bezak, zeb-zlynat; *v.* garnirlamoq, gamir qo'ahmoq, garnir solmoq; bezamoq, yasamoq, bezalmoq, yasatmoq.
- garret** ['gærtt] *n.* mansarda (*odam yashaydigan, shifti qiya boloxona*).
- garrison** ['gærɪs(ə)n] *n.* garnizon (*shahar yoki qal'ada joylashgan askariy qism*).
- garrulous** [gærʊləs] *adj.* ezma, sérgap, bijildoq, vaysaqi, mahmadona; og'zi bo'sh.
- garter** [gɑ:tə(r)] *n.* bog'ich (*paypoqni tutib turadigan rezina bog'ich*).
- gas** [gæs] *n.* gaz; gazga oid; ~ *cooker* gaz plita (*gaz bilan yondiradigan plita*); — *main* gaz o'tkazgich; — *mask* protivogaz, gazniqob (*zaharli gazlardan saqlanish uchun yuzga kiyiladigan maxsus niqob*); *v.* gaz bilan zaharlamoq, gaz bilan zaharlab o'ldirmoq. **gaseous** [gæsɪəs] *adj.* gazsimon, gazga o'xshash.
- gash** [gæʃ] *n.* chuqur yara, kesilgan joy.

**gasket** [ˈgæskɪt] *n.* oraliq narsa, qisirma.

**gasp** [gɑːsp] *v.* bo'g'ilmoq, dimiqmoq; (*exclaim*) "oh!" yoki "voy!" deb yubarmoq.

**gastric** [ˈgæstrɪk] *adj.* ma'daga, oshqozonga oid.

**gasworks** [ˈgæswɜːks] *n.* gaz zavodi.

**gate** [geɪt] *n.* (large) darvoza, qopqa; (*small*) eshik, ko'cha eshigi. **gatekeeper** *n.* darvoza-bon. **gateway** *n.* (gate) darvoza; (*entrance*) kirish, kiraverish, kiradigan joy, yo'l (eshik, darvoza ma'nosida).

**gather** [ˈgæðə(r)] *v.* to'plamoq, yig'moq, termoq, yig'ishtirmoq; to'ldirmoq, tiqmoq, joylamoq; (*infer*) xulosa chiqarmoq; to'planmoq, yig'ilmoq. **gathering** *n.* (*action*) to'plash, yig'ish; (*assembly*) yig'ilish, majlis.

**gaudy** [ˈɡɑːdi] *adj.* did bilan bezalgan, dabdabali.

**gauge** [geɪdʒ] *n.* (*measure*) o'lchov; (*instrument*) kalibr (ko'plab chiqariladigan buyumlarning katta kichikligini aniq belgilash uchun qo'llaniladigan andaza), o'lchov asbobi; (*rail*) g'ildirak izi; (*criterion*) kriteriy, mezon, o'lchov; *v.* o'lchab chiqmoq, o'lchamoq, chamalamoq; (*estimate*) baho qo'ymoq, ba-

holamoq.

**gaunt** [ɡɑːnt] *adj.* ozg'in, ariq, qotma.

**gauntlet** [ˈɡɑːntlɪt] *n.* qo'lqop.

**gauze** [ɡɔːz] *n.* marli, doka; harir, hihila (*juda yupqa ipak gazlama*).

**gay** [geɪ] *adj.* xursand, vaqli chog', shod, quvnoq; (*bright*) guldor, rang-barang; (*homosexual*) gomoseksualizmga, gomoseksuallarga oid; *n.* gomoseksualist (o'z jinsdoshlari bilan jinsiy aloqa qiladigan odam).

**gaze** [geɪz] *n.* diqqat bilan tikilish; *v.* diqqat bilan tikilmoq.

**gazelle** [ˈɡæzəl] *n.* ohu; kiyik; g'azel.

**gazetteer** [ˈɡæzɪteɪ(r)] *n.* jo'g'rofiy ma'lumotnoma.

**GB** *abbr.* (*of Great Britain*) Buyuk Britaniya.

**GCSE** *abbr.* (*of General Certificate of Secondary Education*) o'rta ma'lumot haqidagi shahodatnoma.

**gear** [ɡɪə(r)] *n.* (*appliance*) asbob, mexanizm, mashina, qurilma; (*in motor*) o'tkazma (*harakatni mashinaning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tkazib beruvchi mexanizm*); (*high, low, - etc.*) tezlik, sur'at; *ln* - qo'shilgan, ulangan. **gearbox** *n.* uzatmalar korobkasi. **gearwheel** *n.*

- tishli parrak, shesternya, lishli g'ildirak.
- geld** [geld] *v.* axlalamoq, bichmoq, **gelding** *n.* axla ol.
- gelignite** [dʒelɪg.naɪt] *n.* gelignit (*aviafsiya afamasi*).
- gem** [dʒem] *n.* qimmatbaho tosh; (*fig.*) bebaho.
- Gemini** [dʒemɪ.naɪ. -,ni:] *n.* Javzo (*o'n ikki burjning biri*).
- gender** [dʒendə(r)] *n.* jins, rod.
- gene** [dʒi:n] *n.* gen (*irsiyatning elementar birligi*).
- genealogical** [dʒi:nɔ'lɔdʒɪk(ə)] *adj.* nasl-nasabga oid, shajaraga oid, kelib chiqishga oid. **genealogy** *n.* nasabshunoslik, nasabnoma, shajara.
- general** [dʒenərə] *n.* general; *adj.* umumiy; (*chief*) bosh, asosiy; *in* - umuman. **generality** *n.* umumiylik; (*majority*) ko'pchilik. **generalization** *n.* umumlashtirish. **generalize** *v.* umumlashtirmoq; mujmal, dudmol, noaniq gapirmoq. **generally** *adv.* odatda, doim, hamma vaqt.
- generate** [dʒenə.reɪt] *v.* sabab bo'lish, tug'dirmoq; qilmoq, o'tkazmoq, ishlamoq, paydo qilmoq. **generation** *n.* ishlab chiqarish, yelishtirish; (*in descent*) avlod. **generator** *n.* generator (*maxanik quvvatni elektr quvvatiga aylantiradigan mashina*).
- generic** [dʒɪ'nerɪk] *adj.* uruqqa oid, urug'dosh; (*general*) umumiy.
- generosity** [dʒenə'rosɪtɪ] *n.* (*magnanimity*) muruvvat, himmat, olijanoblik, tantilik; (*munificence*) saxiylik, ochiq qo'llik. **generous** *adj.* muruvvatli, olijanob, himmalli, tanti, vallahat; saxiy, qo'lli ochiq; (*abundant*) serob, mo'l, ko'p.
- genesis** [dʒenɪsɪs] *n.* kelib chiqish, nasl-nasab, paydo bo'lish; (*G-*) Borliq Kitobi (*Nasroniylikda* - "Qadimiy ahd" birinchi kitobining nomi).
- genetic** [dʒɪ'netɪk] *adj.* genetik, genetikaga oid. **genetics** *n.* genetika (*biologiyaning irsiyat hodisalarini va irsiyatning o'zgarib turishini o'rganadigan sohasi*).
- Geneva** [dʒɪ'ni:və] *n.* Jeneva.
- genial** [dʒi:nɪəl] *adj.* (*of person*) ko'ngilchan, oq ko'ngil, marhamatli. **geniality** *n.* ko'ngilchanlik, oq ko'ngillik.
- genital** [dʒenɪt(ə)] *adj.* jinsiy. **genitals** *n.* jinsiy a'zolar.
- genitive** [dʒenɪtɪv] *adj.* (*n.*) qaratqich kelishigi.
- genius** [dʒi:nɪəs] *n.* (*person*) geniy, daho, ulug'iste'dod; (*ability*) geniallik, iste'dodlilik, has-soslik, daholik; (*spirit*) ruh, ar-voh.

**genocida** ['dʒenəsaɪd] *n.* genotsid (*aholining bir toifasini qirishga qaratilgan siyosat*).

**genre** [ʒɔrə] *n.* janr (*san'at asarlarining alohida va o'ziga xos bir turi*).

**genteel** [dʒen'ti:l] *adj.* adabli, axloqli, tarbiyali.

**gentian** ['dʒenʃ(ə)n, -ʃɪən] *n.* gazak o't, gajak o't.

**gentile** [dʒentəl] *adj.* butparastlik, majusiylik; *n.* butparast, majusiy.

**gentility** [dʒen'tɪlɪtɪ] *n.* adabillik, axloqlilik, tarbiyalilik.

**gentle** [dʒent(ə)l] *adj.* (*mild*) yuvosh, yumshoq; (*mEEK*) muloyim, beozor, ko'ngli bo'sh; (*quiet*) tinch, bayov; (*light*) yangil. **gentleman** *n.* jentlman, janob. **gentleness** *n.* yumshoqlik, muloyimlik.

**genuine** [dʒenjuɪn] *adj.* (*authentic*) asl, chin, haqiqiy; (*sincere*) samimiy, sofdil, soddadil, sodiq, ochiq ko'ngilli. **genuineness** *n.* asllik, chinlik, haqiqatlik; samimiyat, sofdillik, sodiqlik, ochiq ko'ngillilik.

**genus** [dʒi:nəs, 'dʒenəs] *n.* zot, nasl; tur, xil.

**geo-** [dʒi:əʊ] *in comb.* geo... (*yer va uni o'rganishga oid qo'shma so'zlarning bosh qismi*). **geographer** [dʒi'ɒgrəfə(r)] *n.* geograf,

geografiya mutaxassisi. **geographical** *adj.* geografik,

jo'g'rofiy, geografiyaga oid, jo'g'rofiyaga oid. **geography** *n.*

geografiya, jo'g'rofiya. **geological** *adj.* geologik, geologiya-

ga oid. **geologist** *n.* geolog, geologiya mutaxassisi. **geology** *n.* geologiya (*yer to'g'risidagi fan*).

**geo'metric(al)** *adj.* geometrik, geometriyaga oid. **geometrician** *n.* geometriya mutaxassisi. **geometry** *n.* geometriya.

**Georgia** [dʒɔ:dʒɪə] *n.* Gruzliya. **Georgian** *n.* (*Caucasian*)

gruzin, gruziyalik; *adj.* Gruzliyaga, gruzinlarga oid.

**geranium** [dʒərəniəm] *n.* yorungul.

**germ** [dʒɜ:m] *n.* mikroob (*mikroskopdagina ko'rinadigan juda mayda tirik organizm*); (*fig.*) boshlang'ich, kurtak.

**German** [dʒɜ:mən] *n.* nemis, nemis ayoli; *adj.* nemis ...; ~ measles qzilcha (*bolalarda uchraydigan yuqumli kasallik*).

**germane** [dʒɜ:'meɪn] *adj.* o'dinli, jo'yali.

**Germanic** [dʒɜ:'mænik] *adj.* Germaniyaga, german xalqiga oid.

**Germany** [dʒɜ:məni] *n.* Germaniya.

**germinate** [dʒɜ:mɪneɪt] *v.* unib chiqmoq, o'sib chiqmoq, ko'karmoq.

**gesticulate** [dʒə'strɪk(j)ə,leɪt] v. imo-  
ishora qilmoq; gapirganda qo'l  
va gavdani har maqomda  
qimirlatmoq. **gesticulation** n.  
Imo-ishora; qo'l va gavdani  
qimirlatib so'zlash. **'gesture** n.  
Imo-ishora (gapirayotganda qo'l  
va boshqa a'zolar bilan qilingan  
harakat).

**get** [geɪ] v. (obtain) solib olmoq,  
topmoq, olmoq; erishmoq,  
yetishmoq, qozonmoq, muvaf-  
faq bo'lmoq; (receive) olmoq,  
qabul qilmoq; (understand) tush-  
unmoq, anglamoq, fahmlamoq,  
bilib olmoq; (disease) kasal yu-  
qitmoq; (Induce) unatmoq, rozi  
qilmoq, ko'ndirmoq; (become)  
bo'lmoq, bo'lib qolmoq; **have  
got** (have) ega bo'lmoq; olmoq;  
bo'lmoq; olib kelmoq, tutmoq;  
**have got to** bo'lmoq'i lozim,  
bo'lishi shart; ~ **about** (spread)  
tarqatilmoq, yoyilmoq, kengay-  
moq; ~ **away** birg'anib chiqib  
ketmoq, chiqib ketmoq; ~ **back**  
(recover) qaytadan olmoq; (re-  
turn) qaytmoq, qaytib kelmoq;  
~ **down to** kirishmoq, boshlam-  
oq, tulinmoq; ~ **off** -dan tush-  
moq; ~ **on** -ga minmoq, -ga  
o'tirmoq; (prosper) o'lg'a silji-  
moq, muvaffaqiyat qozonmoq;  
~ **on with** (person) bilan chl-  
qishmoq; ~ **out of** (avoid) -dan

qutilmoq; ~ **to** (reach) erishmoq,  
qozonmoq; ~ **up** (from bed) tur-  
moq, uyg'onmoq.

**geyser** [geɪzə(r), 'gl:] n. (spring)  
geyzer (ahyon-ahyonda otilib  
chiqadigan qaynar buloq); (wa-  
ter-heater) (gaz) kolonkasi, gaz  
yordamida suv qaynatadigan  
qozon.

**ghastly** [gɑ:stli] adj. qo'rqinchli,  
dahahtli, vahimasi.

**gherkin** [gɜ:kɪn] n. bodring.

**ghetto** [gɛtəʊ] n. getto (irqiy, mil-  
liy yoki diniy jihatdan kamsitila-  
digan aholi uchun ajratilgan ma-  
halla).

**ghost** [gəʊst] n. arvoq, ruh,  
sharpa, soya; ~ **writer** boshqa  
inson uchun yozib beruvchi  
kishi. **ghostly** adj. arvoqga  
o'xshagan; xayoliy.

**giant** [dʒaɪənt] n. alp, ulkan odam,  
polvon; gigant, juda kalta, ul-  
kan, azamat; adj. juda katta,  
buyuk, azamat, ulkan.

**glibberish** n. tushunib bo'lmaydi-  
gan gap, tushunib bo'lmaydi-  
gan narsa, bema'nilik.

**gibbet** [dʒɪbrɪt] n. dor (odam osila-  
digan dor).

**gibe** [dʒaɪb] n. birovning ustidan  
kulish, masxara (mazax, kulgi)  
qilish; v. masxara qilmoq, kulgi  
(mayna, kalaka) qilmoq.

**giblets** [dʒɪbrɪts] n. ichak-chavoq,

qorin.

**Gibraltar** [gɜr'brɔ:lɪtə] *n.* Gibraltar;

**Strait of** – Gibraltar bo'g'ozī.

**giddiness** [ˈɡɪdɪnɪs] *n.* bosh ay-

lanishi, esankirash, miya aynishi, gangish; (*frivolity*) kal-

ta o'ylik, yengiltaklik, kaltafahmlik.

**gliddy** *adj.* (*frivolous*)

yengiltak, kaitafahm; I am, feel,

– mening boshim aylanayapti.

**gift** [ɡɪft] *n.* (*present*) tortliq,

sovg'a, hādya; (*donation*) tuh-

fa, armug'on; (*talent*) qobiliyat,

iste'dod; (*ability*) salohiyat.

**gifted** *adj.* iste'dodli, qobiliyatli.

**gig** [ɡɪɡ] *n.* (*carriage*) kabriolet

(*ikki g'ildirakli yengil arava*);

(*boat*) gichka (*tor enli, tez suz-*

*adigan qayiq*).

**gigantic** [dʒɪtə'ɡæntɪk] *adj.* juda

katta, buyuk, azamat, ulkan.

**giggle** [ˈɡɪɡ(ə)] *n.* qiqirlab kulish,

qiqir-qiqir kulish; *v.* qiqirlab kul-

moq, qiqir-qiqir kulmoq.

**gild** [ɡɪld] *v.* oltin suvi yuritmoq,

lilla suvi bermoq, zar qoplamoq.

**gill** [ɡɪl] *n.* (*of fish*) oyquloq (*suv*

*hayvonlarining nafas a'zolari*).

**gilt** [ɡɪlt] *n.* zarhal, tillahal (*sirtga*

*yugurtirilgan lilla suvi*); *adj.* lilla

qoplangan, zarrin; zarhallan-

gan, lillahal yugurtirilgan.

**gimlet** [ˈɡɪmlɪt] *n.* parmalovchi,

burg'ulovchi.

**gin** [dʒɪn] *n.* (*snare*) qopqon, lu-

zoq; (*winch*) lebedka (*og'ir*

*narsalarni yuqoriga ko'taradigan*

*chig'ir*); (*cotton*–) jin (*chigiddan*

*paxlarni ajratadigan moslama*).

**gin** [dʒɪn] *n.* (*spirit*) jin, ajina,

arvoh; dev.

**ginger** [ˈdʒɪndʒə(r)] *n.* zanjabil;

zanjabilli, zanjabilidan qilingan,

zanjabilga oid; (*in colour*) sariq,

malla. **gingerbread** *n.* zanjabil-

li shirinkulcha.

**gingerly** [ˈdʒɪndʒəli] *adv.* ehtiyot-

lik bilan, avaylab, ehtiyol qilib.

**gipsy** [ˈdʒɪpsɪ] *n.* lo'li; lo'licha, lo'li

... lo'lilarga oid.

**giraffe** [dʒɪ'rɑ:f, -ræf] *n.* jiraf (*Af-*

*rikada yashaydigan bo'yni va*

*oyoqlari uzun, olachipor hayvon*).

**gird** [ɡɜ:d] *v.* belbog' bog'lamoq,

kamar bog'lamoq; (*encircle*)

o'rab olmoq, qurshab olmoq;

atrofini to'sib olmoq. **girder** *n.*

to'sin, ustun, xan; ferma (*alo-*

*hida usul bilan yotqizilgan va*

*uchlari bir-binga qo'shib qurilgan*

*ustun, xanilar*).

**girdle** *n.* belbog',

kamar; belbog' bog'lamoq,

(*birovning*) belini bog'lamoq.

**girl** [ɡɜ:l] *n.* qiz bola, qiz, bo'yi

yetgan qiz. **girlfriend** *n.* dugo-

na. **girlish** *adj.* qizlarga oid.

**girth** [ɡɜ:θ] *n.* (*band*) pushtan,

ayil; (*measurement*) quloch, qu-

choq.

**glat** [dʒɪst] *n.* mohiyat, asl, ma'no.



mag'iz, asos.

**give** [gɪv] *v.* bermaq; lortiq qilmoq, hadya qilmoq; --away oshkor etmoq; ~ back egasiga qaytarmoq; ~ in (*yield*, *v.*) lan bermaq, yon bermaq; (*hand in*, *v.*) topshirmoq; ~ out ishdan chiqarmoq, buzilmoq (*mashinalarga nisbatan*); (*distribute*) tarqatmoq, ulashmoq; (*cease*) bitmoq, tugamoq, tamom bo'lmoq; ~ up -dan voz kechmoq; (*habit etc.*) odatni tark etmoq, odatni tashlamoq; ~ o.s. up taslim bo'lmoq. **given** (*inclined*) moyil, mayli (havasi, ishtiyoqi) bo'lgan; (*devoted*) berilgan, sodiq, sadoqatli, fidokor.

**gizzard** ['gɪzəd] *n.* (*of bird*) jig'ilidon, ikkinchi oshqozon (*qushlarda*).

**glacial** [gl'eɪʃ(ə)l, -sɪəl] *adj.* muzlikka oid, muzga oid; (*fig.*) juda sovuq, muzday sovuq. **glacier** ['glæsiə(r)] *n.* muzlik, muz xarsangi.

**glad** [glæd] *adj.* shod, xursand, sevinchli, quvonchli. **gladden** *v.* xursand qilmoq, sevinfirmoq, shodlantirmoq, quvontirmoq. **gladness** *n.* xursandlik, shodlik, sevinch, quvonch.

**glade** [gleɪd] *n.* yalanglik, ochiq joy, o'tloq, chimzor.

**gladiolus** [glædri'əʊləs] *n.* shpa-

jniq (*o'rmonda o'sadigan o't lun*), **glamorous** ['glæməərəs] *adj.* (*charming*) jozibador, yoqimli, dilbar; (*attractive*) jozibali, ko'rkam, chiroyli, istarasi issiq, yoqimli.

**glamour** [glæmə(r)] *n.* jozibadorlik, o'ziga tortish; yoqimlilik, jozibalilik, dilbarlik, istarasi issiqlik, ko'rkamlik.

**glance** [glɑ:ns] *n.* (*look*) ko'z tashlash; ~ at -ga boqmoq, nazar tashlamoq; ~ off yuzada sirganmoq, sathi uzra sirpanmoq.

**gland** [glænd] *n.* bez (*odam yoki hayvonlarning tirikligi uchun zarur moddalar ishlab chiqaradigan a'zo*). **glandular** *adj.* bez ..., bezga oid.

**glare** [gleə(r)] *n.* (*light*) yارقiragan jilva, porloq jilva, ko'z tindradigan tovlanish; (*look*) sinchiklab, yovuz nigoh bilan qarash; *v.* yارقirab jilva qilmoq, porloq jilva qilmoq, ko'zni tindirib tovlanmoq; sinchiklab, yovuz nigoh bilan qaramoq. **glaring** *adj.* (*bright*) yorug', charaqlagan, ravshan; (*dazzling*) yارقiragan, ko'z tindradigan; (*mistake*) qo'pol.

**glassnost** ['glæznɒst, 'glɑ:s-] *n.* oshkoralik, ochiqlik.

**glass** [glɑ:s] *n.* (*substance*) sh-

- isha; (*drinking vessel*) qadah; (*glassware*) shisha idish; (*mirror*) oyna; (*spectacles*) ko'z-oyinak; shisha..., shishadan yasalgan, shishali; ~ *fibra* shisha tola. **glass-blower** *n.* shishasoz (*shisha sanoatida ishlaydigan kishi*). **glasshouse** *n.* is-siqxona; shisha zavodl. **glassy** *adj.* (*of glass*) shishadan qilingan; (*water*) shishasifat, oynadek, shaffof (*suvga nisbatan*); (*look*) xira, nursiz, so'nliq.
- glaze** [glɛz] *n.* sir; sopol va chinni idishlarga surkaladigan sir; *v.* (*picture*) oyna solmoq; (*cover with ~*) sir bilan qoplamoq. **glazier** *n.* oynachi, oynasoz.
- gleam** [gli:m] *n.* kuchsiz nur, xira yorug'lik; (*also of hope etc.*) yaltirash, nur sochish, shu'la; *v.* nur sochmoq, yop-yorug' bo'lib turmoq.
- glean** [gli:n] *v.* elchiklab yig'ishtirmoq, diqqat bilan to'plamoq; bashoqlarni yig'ib-terib olmoq.
- glee** [gli:] *n.* xursandlik, shodlik; o'yin-kulgi. **gleeful** *adj.* xursand, vaqli chog', shod, quvnoq.
- glib** [gli:b] *adj.* ildam, epchil, chaqqon, tetik, o'ktam.
- glide** [glɑ:d] *v.* toymoq, sirpanmoq, sirg'anmoq; (*aeron.*) samolyotni yerga qo'ndirish

- uchun sekin pastlab uchmoq. **gilder** *n.* (*aircraft*) planyor (*motorsiz uchadigan moslama*); (*person*) planyorchi (*planyorde uchuvchi*).
- glimmer** [gli:m(r)] *n.* millillash, jimillash, g'ira-shira ko'rinish; *v.* millillamoq, jimillamoq, millillab, jimillab ko'rinmoq, g'ira-shira ko'rinmoq.
- glimpse** [gli:mps] *n.* (*appearance*) yaltirash, nur sochish, tovlanish, shu'la; (*view*) yuzak qarash; *v.* ko'z qiri bilan ko'rmoq.
- glint** [gli:nt], **glitter** [gli:te(r)] *n.* yaraqlash, yaltirash, jilva, tovlanish; *v.* yarqiramoq, portamoq, nur sochmoq; yiltirab ketmoq, yarqirab ketmoq, chaq nab (portab) turmoq.
- gloat** [gləʊt] *v.* suqlanib qaramoq, yeb qo'ygudek bo'lib termulmoq; (*maliciously*) bironing baxtsizligidan sevinmoq, ichiqorlik qilmoq, badxohlik qilmoq.
- global** [gləʊb(ə)] *adj.* (*world-wide*) butun dunyoga, butun jahonga oid; jahonshumul, olamshumul; (*total*) umumiy. **globe** *n.* (*sphere*) shar, soqqa, zoidir, (*the earth*) yer shari; (*chart*) globus.
- globular** [ˈglɒbjʊlə(r)] *adj.* dumaloq, sharga o'xshagan, sharsimon. **globule** *n.* soqqacha,

pufakcha.

**gloom** [glu:m] *n.* qorong'ilik, zulmat. **gloomy** *adj.* qorong'i, muhdiah.

**glorification** [glɔ:ntʃɪk(ə)n] *n.* maqtash, mashhur qilish. **glorify** *v.* maqtamoq, ko'klarga ko'tarmoq, mashhur qilmoq, dong chiqarmoq. **glorious** *adj.* shonli, sharafli, mashhur, dongdor; (*splendid*) savlatli, hashamatli, dabdabali. **glory** *n.* shon, dong, shuhrat, nom; *v.* tantana qilmoq, bayram qilmoq.

**gloss** [glɔs] *n.* (*lustre*) yaltiroq, jilo, pardoz, sayqal; (*appearance*) ko'rinish; tus, surat; *v.* yarqiratmoq, sayqal, jilo bermoq; ~ *over* ustidan bo'yamoq.

**glossary** ['glɔsəri] *n.* glossariy (*qadimgi qo'lyozmalardagi eskirgan va tushunilishi og'ir so'zlarga izoh berilgan lug'at*), lug'at, so'zlik.

**glove** [glɔv] *n.* qo'lqop. **glover** *n.* qo'lqop tikuvchi.

**glow** [gləʊ] *n.* qizish; cho'g'lanish; ravshanlik darajasi; shu'la, yalig', shafaq; (*of cheeks*) yuzning qizilii; (*ardour*) cho'g', o't, olov; *v.* (*incandescence*) qizimoq, qizib cho'g' bo'lmoq; (*shine*) nur sochmoq, charaqamoq, porlamoq. **glow-worm** *n.* yaltiroq qurt, yonarqurt (*kehasi yaltirab*

*ko'tinadigan qurt*).

**glucose** ['glu:kəʊs, -keʊz] *n.* glyukoza (*uzum shirasi*).

**glue** [glu:] *n.* yelim, shirach; *v.* yelimlamoq, shirachlamoq; (*attach*) yopishtirmoq, yelimlamoq, yelimlab (*shirachlab*) yopishtirib qo'ymoq.

**glum** [glʌm] *adj.* badqovoq, qovog'i soliq, g'amgin, xafa.

**glut** [glʌt] *n.* (*surfeit*) to'yish, to'yinish, to'yib ketish; (*excess*) ortiqcha, ortiq, orlib qolgan; (*in market*) molning sotilmay yolib qolishi (*bozorda*); *v.* to'ydirmoq, zeriktirmoq, bezdirmoq; (*overstock*) mollarni sotmasdan bosib qo'ymoq, mollarni sotmay yig'ib qo'ymoq.

**glutton** ['glʌt(ə)n] *n.* yeb to'ymas, ochofat, mechkay, yuho. **gluttonous** *adj.* yeb to'ymaydigan, ochofat, mechkay, yuho. **gluttony** *n.* yeb to'ymaslik, ochofatlik, mechkaylik, yuholik.

**GMT** *abbr.* (*of Greenwich Mean Time*) Grinvlch vaqti.

**gnarled** [nɑ:ld] *adj.* (*hands*) serqadoq, g'adir-budur; (*tree*) sershox, serbuloq.

**gnash** [næʃ] *v.* g'ijirlamoq. **gnashing** *n.* g'ijirlash, g'ijirdagan ovoz.

**gnat** [næt] *n.* chivin.

**gnaw** [nɔ:] *v.* kemirmoq, g'ajimoq, chaqmoq.

**gnome** [nəʊm] *n.* gnom (Yevropa mitologiyasida yer osti boyliklarini qo'riqlovchi odamsimon pakana mavjudot).

**go** [gəʊ] *n.* (movement) harakat; (energy) energiya, quvvat; (attempt) sinash, urinish, harakat qilib ko'rish; **be on the** - harakatda bo'lmoq; **have a** - urinib ko'rmoq, tirishmoq, sinab ko'rmoq; *v.* yurmoq; (work) ishlamoq; (become) bo'lmoq; **be -ing (to do)** layyorlanmoq, hozirlanmoq; o'tlanmoq; - **about** (set to work st) -ga kirishmoq; -ni tutishmoq; -ni ushlashmoq; (wander) adashib sarson-sargardon bo'lib yurmoq, yo'ldan ozmoq; - **at** (attack) -ga hujum qilmoq, -ga tashlanmoq, -ga chovut solmoq; - **away** ketmoq, jo'nab ketmoq, ketib qolmoq; - **down** tushmoq, pasaymoq; qo'nmoq; - **into** (enter) kirmoq; (investigate) har yoqlama tekshirmoq; - **off** (go away) ketmoq, ketib qolmoq, jo'namoq; (deteriorate) buzilmoq, ishdan chiqmoq, aynimoq; - **on** (continue) davom et(tir)moq, cho'z(il)moq, uzay(tir)moq, sur(il)moq; - **out** chiqmoq, chiqib ketmoq, tashqariga chiqmoq; (flame etc.) o'chmoq; - **over** (inspect) qarab chiqmoq,

yana bir ko'rib chiqmoq; (rehearse) takror qilmoq, takrorlamoq, qaytarmoq; (change allegiance etc.) o'zgartirmoq, o'lmoq (masalan, boshqa davlat fuqaroligiga); - **through** (scrutinize) diqqat bilan, tekshirmoq, sinchiklab aniqlamoq; - **through with** oxiriga yetkazmoq, yakunigacha olib bormoq; - **without** shundoq ham amallamoq, -siz ham eplamoq.

**goad** [geɪd] *v.* qistovga solmoq, tezlamoq, jadallatmoq; - **on** (instigate) ruhlantirmoq, qiziqitirmoq.

**go-ahead** ['geɪəhed] *n.* ruxsat, ijozat; *adj.* tashabbuskor, epchil, uddaburon, serharakat.

**goal** [geɪl] *n.* (aim) mo'ljal, nishon; (sport) darvoza, (also point(s) won) gol; **score a** - gol urmoq. **goalkeeper** *n.* darvozbol.

**goat** [geɪt] *n.* echki, taka; *abbr.* echki ..., echkiga oid. **goatherd** *n.* echkiboqar cho'pon.

**gobble**<sup>1</sup> ['gɒb(ə)l] *v.* (eat) yemoq, ovqatlanmoq; ko'p yemoq; - **up** ochofallarcha yemoq, paqqos tushirmoq.

**gobble**<sup>2</sup> ['gɒb(ə)l] *v.* (of turkeys) qult-qultlamoq (kurkaning ovozi).

**go-between** ['geɪbɪ,twi:n] *n.*

dallo, vositachi, o'rtakash.

**goblet** [gobliz] *n.* qadah, kosa (*may kosasi*), jom.

**god** [god] *n.* xudo; (*idol*) bul, sanam; (**G-**) Alloh, Xudo, Tangri (*islom, nasroniylik va yahudiylik-da*); (*theatr.*) galereya, (*teatrda-gi eng yuqori joy*). **godchild** *n.* tutingan o'g'il (*cho'qintirgan kishiga nisbatan*). **god-daughter** *n.* tutingan qiz (*cho'qintirgan xotinga nisbatan*). **goddess** *n.* iloha, ma'buda. **godfather** *n.* tutingan, cho'qintirgan ota. **God-fearing** *adj.* Xudodan qo'rqadigan. **godless** *adj.* xudosiz, imonsiz. **godlike** *adj.* xudosifat, xudoga o'xshash. **godly** *adj.* xudojo'y, dindor, nomozxon. **godmother** *n.* tutingan, cho'qintirgan ona. **godparent** *n.* tutingan, cho'qintirgan. **godson** tutingan o'g'il, cho'qintirilgan o'g'il.

**goggle** [gog(a)] *v.* ko'z olaytirmoq, o'qraymoq. **goggle-eyed** *adj.* ola ko'z, qurbaqa ko'z, ukki ko'z. **goggles** *n.* himoya ko'zoynagi.

**going** [gəʊɪŋ] *adj.* joriy, amaldagi. **goingson** *n.* xulq-odat, fe'l-atvor, xatti-harakat, turmush tarzi.

**goltre** [gɔltə(r)] *n.* buqoq.

**gold** [gəʊld] *n.* oltin, tilla, zar; *adj.* oltin tusli, tilla rang, oltinga oid,

tilladan qilingan; - leaf zar qog'oz; - plate tilla idish. **gold-bearing** *adj.* oltinli, oltin chiqadigan. **gold-beater** *n.* oltin gultoj. **gold-digger** *n.* oltin izlovchi kishi; multaham, firibgar, qallob. **gold-dust** *n.* oltinli qum; oltin zarra. **golden** *adj.* oltin..., tilla, oltindan qilingan, oltinrang, tillarang, zarhal; - eagle burgut. **gold-field** *n.* oltin koni. **goldfinch** *n.* olifta, bashang. **goldfish** *n.* oltin baliq, tilla baliq. **goldmine** *n.* oltin koni; (*fig.*) serdaromad joy. **gold-plate** *v.* oltin suvi yugurtirmoq, tilla suvi bermoq, zar qoplamoq. **goldsmith** *n.* zargar, zarshunos.

**golf** [gɒlf] *n.* golf (*sport o'yini*). **golfer** *n.* golf o'yinchisi.

**gondola** [gɒndələ] *n.* gondola (*Venetsiya qayig'i*). **gondolier** *n.* gondoler, gondola haydovchi.

**gong** [gɒŋ] *n.* bong (*misdan yasalgan va zarb bilan unib chal-nadigan asbob*).

**good** [gʊd] *n.* yaxshi ish, yaxshilik, baxt-saodat; (*wares*) mahsulotlar; *do* - (*benefit*) foyda bermoq, foyda keltirmoq; *adj.* yaxshi, durust, soz, ko'ngilchan, ezgu; - morning xayrli tong!; - night xayrli tun! **good'bye** xayr!; ko'rishgunchal **good-humoured** *adj.* xushfe'l, mu-

- loyim; ko'ngilchan, oqko'ngil, marhamatli. **good-looking** *adj.* chiroyll, go'zal, xushro'y, ko'rkam. **goodness** *n.* ezgulik, yaxshilik, mehribonlik.
- goose** [gu:s] *n.* g'oz, urg'ochl g'oz; (*cul.*) g'oz go'shti. **goose-flesh** *n.* g'oz terisi.
- gooseberry** [gbzberɪ] *n.* krijovnik (*qarag'atlar oilasiga mansub tikontli buta o'simlik va uning mevasi*) (*plant or collect.*) berries).
- gore**<sup>1</sup> [gɔ:(r)] *n.* (*blood*) yaralangan yoki kesilgan joydan oqqan qon.
- gore**<sup>2</sup> [gɔ:(r)] *v.* (*pierce*) suzmoq, shoxlamoq.
- gorge** [gɔ:dʒ] *n.* tomoq, xalqum, bo'g'iz; (*narrow opening*) dara; *v.* ko'p yemoq, bo'kib yemoq.
- gorgeous** [gɔ:dʒəs] *adj.* hashamatli, dabdebali, serhasham, savlatli.
- gorilla** [gə'ri:lə] *n.* gorilla (*odamsimon katta maymun*).
- gormless** [gɔ:mɪs] *adj.* befahm, befarosat, anqov, uquvsiz.
- gorse** [gɔ:s] *n.* sarliq gulli dukakli cho'l o'simligi.
- gory** [gɔ:rɪ] *adj.* qonga belangan.
- gosh** [gɔʃ] *int.* yo tabiat
- goshawk** ['gɔʃhɔ:k] *n.* yirik qirg'iy.
- gosling** ['gɔzɪŋ] *n.* g'oz bolasi, g'oz jo'jasi.
- Gospel** ['gɔsp(ə)] *n.* Injil (*nasroniytlarning diniy kitobi*).
- gossamer** [gɔsemə(r)] *n.* (*web*) o'rgimchak uyasi, ini; (*gauze*) harir mato, yupqa mato.
- gossip** ['gɔsɪp] *n.* (*talk*) yolg'on-yashiq, g'lybat, bo'hton, fisq-fasod gap; (*person*) ig'vogar, chaqimchl; *v.* g'lybat qilmoq, bo'hton qilmoq, gap tashimoq.
- Goth** [gɔθ] *n.* got (*qadimgi german qabilalaridan biri*). **Gothic** got tili; (*archit.; print.*) gotik, gotik uslubidagi (*me'marchilik namunasi yoki yozuv*).
- gouache** [gɔ:ɑ:ʃ, gwa:ʃ] *n.* guash (*bo'yoq*).
- gouge** [gɑudʒ] *v.:* ~ out teshmoq, o'ymoq; (*eyes*) sanchmoq, suqmoq.
- goulash** ['gu:læʃ] *n.* gulyash (*go'shtli ovqat tun*).
- gourd** [gɔəd] *n.* qovoq, oshqovoq.
- gourmand** ['gʊəmənd] *n.* shirin-tomoq, mazaxorak.
- gourmet** ['gʊəmə:] *n.* gurman, ovqat shinavanda (*yeyishni yaxshi ko'radigan va yeguliklarni yaxshi tushunadigan qiladigan odam*).
- gout** [gaut] *n.* podagra, bod (*oyoq va qo'l bo'g'inlarining zirqlab og'ishi*). **gouty** *adj.* podagra ...

podagruga oid.

**govern** [gav(ə)n] v. idora qilmoq; boshqamoq. **governess** n. murabbiya, tarbiyachi xotin. **government** n. (of state) hukumat, hokimiyat, davlat. **governamental** adj. hukumatga oid. **governor** n. hokim, hukmdor; idora qiluvchi, boshqaruvchi; (*head of institution*) mudir.

**gown** [gaun] n. (woman's) xotinqizlar ko'ylagi, libos; (*official's*) mantiya (*serbar uzun ust kiyim*).

**grab** [græb] n. (*grasp*) bosib olish, qo'lga olish, ishg'ol qilish; (*device*) cherpak; cho'milch; v. tutmoq, ushlamoq; olmoq.

**grace** [greis] n. (~fulness) latofat, nazokat, xushqadlik, chiroyli harakat; (*refinement*) nafislik, go'zallik, noziklik; (*kindness*) iltifot, marhamat, mehribonlik; (*favour*) marhamat, iltifot, muruvvat; (*theol.*) xudoning marhamati; v. (*adorn*) bezatmoq, yasatmoq; (*confer*) sazovor qilmoq, munosib ko'rmoq. **graceful** adj. nafis, go'zal, nozik, chiroyli.

**gracious** [greiʃəs] adj. rahmdil, shafqatli, mehribon.

**gradation** [gre'deiʃ(ə)n] n. gradatsiya (*bir holatdan ikkinchi holatga o'tishdagi izchilik*).

**grade** [greid] n. (*level*) daraja;

(*quality*) sifat; (*sort*) sort, xil, nav, tur; (*slope*) nishablik; qiyalik; nishab, qiya; v. guruh (*daraja*)larga ko'ra taqsimlamoq; naviarga ajratmoq, saralamoq; (*road etc.*) nivelirovka qilmoq; lekisiamoq, barobarlamoq.

**gradient** [greidiənt] n. gradient (*biror kattalikning masofa birligiga siljish mobaynidagi o'zgarishlari birligi*).

**gradual** ['grædʒuəl] adj. tadrjijiy, asta-sekin bo'ladigan.

**graduate** ['grædʒuət; 'grædʒu,ei] n. oliy o'quv yurtini tamomlagan; v. gradatsiya qilmoq (*oddiydan murakkabga, arzondan qimmatga va h.k. o'tmoq*).

**graffiti** [græ'fi:ti] n. (devordagi) yozuv va rasmlar.

**graft** [grɑ:ft] n. (*agric.*) novdasi yoki kurtagi boshqa o'simlikka payvand qilingan o'simlik, payvand qilish; (*med.*) kesib boshqa joyga ulash (*to'qima, teri yoki suyakni*); v. (*agric.*) payvand qilmoq, ulamoq; (*med.*) kesib boshqa joyga ulamoq

**graft**<sup>2</sup> [grɑ:ft] n. (*bribe*) pora, birovni pulga sotib olish, birovni pora bilan o'ziga og'dirish; v. (*give*) pora bermoq; (*take*) pora olmoq.

**grain** [greɪn] n. (*seed; collect.*) g'alla, don; (*particle*) zarra, zarracha; (*of sand*) qum dona-

- si, qum zarrasi; (*measure*) gran (*gramming* 0,0622 bo'lagiga baravar o'tchov); (*smallest amount*) zarracha; (*of wood*) (yog'och) tola; *against the ~* mohiyatga ters, ko'ngilga qarshi.
- gram(me)** [græm] *n.* gramm.
- grammar** [græmə(r)] *n.* grammatika (*til ilmi*); — school gimnaziya. **grammarian** [græmeəriən] *n.* tilshunos. **grammatical** *adj.* grammatik.
- gramophone** ['græmə.fəʊn] *n.* grammaton (*plastinkalarni o'quvchi moslama*); — record gramplastinka.
- grampus** [græmpəs] *n.* kul rang delfin.
- granary** ['grænəri] *n.* ombor.
- grand** [grænd] *adj.* (*In titles*) buyuk, ulug'; (*main*) bosh, asosiy; (*majestic*) dabdabali, shavkatli; muhtasham; (*splendid*) savlatli, hashamatli, dabdabali; — *duke* buyuk gersog; (*in Russia*) buyuk knyaz; — *master grossmeister*; — *piano royal*. **grandchild** *n.* nevara, nabira; navaralar, nabiralar, nevarachevaralar. **granddaughter** *n.* nabira qiz. **grandfather** *n.* bobo. **grand-mother** *n.* buvi. **grandparents** *n.* buvi va bobo. **grandson** *n.* nabira. **grand**
- stand** *n.* minbar, tribuna.
- grandee** [græn'di:] *n.* (*Spanish, Portuguese*) mansabdor, katta amaldor, to'ra.
- grandeur** ['grændʒə(r), -ndʒə(r)] *n.* ulug'vorlik, ulug'lik, azamatlik.
- grandiloquence** [græn'dila-kwəns] *n.* manmanlik, takabburlik, mag'rurlik. **grandiloquent** *adj.* manman, takabbur, mag'rur.
- grandiose** [grændr,i:əs] *adj.* juda katta, buyuk, ulkan.
- grange** [greɪndʒ] *n.* ferma; qishloqcha, qo'rg'oncha.
- granite** ['grænɪt] *n.* granit (*rangdor, qattiq tog' jinsi*), metin; granitdan qilingan.
- grannie, granny** ['græni] *n.* buvi, momo.
- grant** [grɑ:nt] *n.* tuhfa, hadya, tortiq; (*financial*) dotatsiya (*korxon va muassasalarga ba'zi xarajatlarni qoplash uchun davlat tomonidan beriladigan yordam pulli*), subsidiya, yordam pulli; *v.* baxsh etmoq, hadya etmoq; bermoq, topshirmoq, laqdim qilmoq; (*concede*) yo'l qo'ymoq, ijazat bermoq, ruxsat etmoq; *take for -ed* o'z-o'zidan ma'lum deb hisoblamoq.
- granular** ['grænju:lə(r)] *adj.* donador, dona-dona; mag'izli.
- granulate** ['grænju:leɪt] *v.* granu-



lyalsiyalamoq, dona-dona qilib maydalamoq; -d sugar shakar.  
**granula** [grænju:l] *n.* donacha, urug' donasi, mag'iz.

**grape** [greɪp] *n.* tok (*collect.*).  
**grapefruit** *n.* greyppfrut (*sitrussimonlar turkumiga mansub meva daraxti va mevasi*). **grapeshot** *n.* kartech (*xambarakning sochma o'qi; yirik pitra, sochma o'q*).  
**grapevine** *n.* tok novdasi.

**graph** [gra:f, græf] *n.* jadval.

**graphic** [græfɪk] *adj.* jadval ...., jadvalga oid; (*vivid*) ravshan, porloq, yaqqol, yorqin.

**graphite** [græfɪt] *n.* grafit (*qora mineral; surmatosh, qalam ichidagi qattiq siyoh*).

**grapnel** [græpn(ə)] *n.* drek, urg'ochl mushuk.

**grapple** [græp(ə)] *n.* (*grapnel*) drek, urg'ochl mushuk; (*grip*) bosib olish, qo'lga olish, ishg'ol qilish; *v.* yoqalashmoq, olishmoq, talashmoq; kurashmoq; **grappling hook**, iron qayiq langari, kichik langar.

**grasp** [gra:sp] *n.* (*grip*) ushlab, tutish, tishlash, ushlab (tutib, tishlab) qolish; (*control*) hokimiyat, hukumat; ma'muriyat; (*mental hold*) ushlab qolish, tutib qolish; *v.* (*clutch*) ushlab olmoq, tutib olmoq; (*comprehend*) tushunmoq, anglamoq, fahm-

lamoq, payqamoq, bilib olmoq.  
**grasping** *adj.* ochko'z, ziqna, xasis, qizg'anchiq.

**grass** [grɑ:s] *n.* o't, maysa, giyoh, boshqoli o'simlik; (*pasture*) yaylov, o'tloq; - **snake** suvilon (*zaharsiz sarq ilan*); - **widow** tirik beva (*eri vaqtincha boshqa joyda yashab turgan xotin to'g'risida hazillashib aytiladi*).

**grasshopper** *n.* chigirtka.

**grassy** *adj.* o't..., o'tli, maysali.

**grate<sup>1</sup>** [greɪt] *n.* (*in fireplace*) (kamin) panjarasi.

**grate<sup>2</sup>** [greɪt] *v.* (*rub*) ishqamoq, ishqalamoq, surtmoq; (*sound*) g'archillamoq, g'ijirlamoq; - (*up*) **on** (*irritate*) achchig'ini keltirmoq, jahlini chiqarmoq.

**grateful** [græɪtəl] *n.* minnatdor, yaxshilikning qadriga yetuvchi.

**grater** [græɪtə(r)] *n.* qirg'ich.

**gratify** [græɪtɪfai] *v.* qondirmoq, qoniqtirmoq, qanoatlantirmoq, rozi qilmoq.

**grating** [græɪtɪŋ] *n.* panjara.

**gratia** [gra:ʒɪs] *adv.* bepul, tekin.  
**gratitude** [græɪtɪtju:d] *n.* rahmat, tashakkur, minnatdorlik.

**gratuitous** [græ'tju:ʃəs] *adj.* (*free*) tekin, bepul, tekinga kelgan; (*motivesless*) sababsiz, asossiz.

**gratuity** [græ'tju:zɪ] *n.* pul shaklida berilgan tuhfa; (*tip*) choychaqa, choypuli; (*mil.*) mukofot

- haqi (puli).
- grave**<sup>1</sup> [grɛv] *n.* go'r, qabr, sag'ana; mozar. **gravedigger** *n.* go'rkov, go'r qazuvchi. **grave-stone** *n.* qabr usliga qo'yilgan losh. **graveyard** *n.* mozar, go'riston, qabriston.
- grave**<sup>2</sup> [grɛv] *adj.* (*serious*) jiddiy, muhim.
- gravel** [græv(ə)] *n.* shag'al; ~ pit shag'al kareri (*karer* - ochiq kon).
- gravitate** [grævi,tet] *v.* intilmoq, havas qilmoq, moyil bo'lmoq, ko'ngil qo'ymoq, ishqivoz bo'lmoq. **gravitation** *n.* tortish, tortilish, jalb qilish, jaziba.
- gravity** [græviti] *n.* (*seriousness*) jiddylilik, muhimlik, jiddiyat; (*force*) og'irlik, qiyinlik, yuk; *specific* ~ solishtirma og'irlik.
- gravy** [grɛvi] *n.* (go'shtli) qayla. **gravy-boat** *n.* qayla idishi.
- graze**<sup>1</sup> [grɛz] *v.* (*feed*) o'tla(l)moq.
- graze**<sup>2</sup> [grɛz] *n.* (*abrasion*) tirnalgan joy, chaqa; *v.* (*touch lightly*) tegib kelmoq, turtib o'tmoq.
- grease** [grɛ:s] *n.* jir, eritilgan yog'; (*lubricant*) moy, yog'; *v.* moylash, yog'lash. **grease-gun** *n.* favot shpritsi (*avtomobil, traktor va shu kabilarning bir-biriga ishqalanadigan qismlarini moylaydigan moy*).
- greasepaint** *n.*

- grim** (*sahnada o'ynash uchun yuzga turli ranglar berish; grimda ishtaliladigan bo'yoqlar*).
- greasy** *adj.* yog'dan qilingan; yog'li, yog' bosgan.
- great** [grɛt] *adj.* (*large*) katta, ulkan; (*eminent*) buyuk, ulug'; (*long*) uzoq, uzun, olib; cho'ziq; (*strong*) kuchli, zo'r, quvvatli, qattiq; **G- Britain** Buyuk Britaniya; **to a ~ extent** yuksak darajada; **a - deal** ko'p; **a - many** ko'pgina, ancha, bir talay; allaqancha. **great-granddaughter** *n.* avara, evara (*nevaraning qizi*). **great-grandfather** *n.* katta bobo (*boboning yoki buvin-ing atas*). **great-grandmother** *n.* katta momo, katta buvi (*boboning yoki buvining onasi*). **great-grandson** *n.* avara, evara (*nevaraning o'g'i*).
- greatly** [grɛtli] *adv.* juda, nihoyatda.
- Grecian** [grɛ:(ə)n] *adj.* Gretsiyaga va greklarga oid, grekcha. **Greece** *n.* Gretsiya.
- greed** [grɛ:d] *n.* ochko'zlik, ziqnalilik, xaslsilik, qizg'anchilik.
- greedy** *adj.* ochko'z, ziqna, xasis, qizg'anchiq; (*for food*) yeb to'ymas, xo'ra, suq, ochko'z.
- Greek** [grɛ:k] *n.* grek, grek ayol; *adj.* Gretsiyaga va greklarga oid.
- green** [grɛ:n] *n.* (*colour*) yashil

- rang; (*piece of land*) kichkina o'lloq, chamanzor, ko'kalamzor, maysazor; *adj.* yashil, ko'k; (*inexperienced*) tajribasiz, malakasiz. **greenery** *n.* o'simliklar, barglar. **greenfly** *n.* shira, o'simlik biti. **greengage** *n.* renklod (*obxarining bir turi*). **greengrocer** *n.* sabzavotchi, ko'kchi, ko'kfurush. **greenhorn** *n.* yangi, birinchi; yangi kelgan odam. **greenhouse** *n.* issiqxona, oranjeriya; ~ *effect* issiqxona samarasl (*ekologik madaniyatsizlik va zuravonlik oqibatida yerdagi haroratning ko'tarilishiga sabab bo'layotgan hodisa*).
- greet** [gri:t] *v.* ta'zim qilmoq, bosh egmoq, salom bermoq. **greeting** *n.* tabrik, tabriklash, salom.
- gregarious** [gr'i:geəriəs] *adj.* poda bo'lib yashovchi; (*person*) ulfat, dilkash.
- grenade** [gr'i:neɪd] *n.* granata (*harbiy qurol*).
- grey** [greɪ] *adj.* kul rang; (*hair*) oq, oqargan; - *hair* oqargan soch, oq tushgan soqol.
- greyhound** [gr'eɪhaʊnd] *n.* tozi it.
- grid** [grɪd] *n.* (*grating*) panjara; (*network*) to'r; (*tar*) koordinata to'ri.
- grief** [grɪ:f] *n.* qayg'u, alam, hasrat; *come to* - falokatga yo'liqmoq.
- grievance** ['grɪ:v(ə)ns] *n.* shikoyat, zordanish, norozilik.
- grieve** [grɪ:v] *v.* xafa qilmoq, ozor bermoq, ranjitmoq; *v.* qayg'urmoq, g'am tortmoq, alam chekmoq.
- grievous** ['grɪ:vəs] *adj.* og'ir, katta, jiddiy; (*flagrant*) g'azablantiradigan, chidab bo'lmaydigan, yaramas, nafrat qo'zg'aydigan.
- grill** [grɪl] *n.* qo'ra; *v.* (*cook*) pishirmoq (qo'rada); (*question*) so'roq qilmoq.
- grille, grill** [grɪl] *n.* (*grating*) panjara.
- grim** [grɪm] *adj.* (*stem*) badjahl, qovog'i soliq; (*sinister*) xafa, ma'yus, g'amgin; (*unpleasant*) ko'ngilelz, yoqimsiz, xunuk, yomon.
- grimace** [grɪməs, grɪ'meɪs] *n.* yuz burishtirish, afi bujmaytirish; *v.* yuz burishtirmoq, afi bujmaytirmoq.
- grime** [grɪm] *n.* (*soot*) qurum, qorakuya; (*dirt*) loy, balchliq; kirlik. **grimy** *adj.* iflos, juda kir.
- grin** [grɪn] *n.* kulimsirash; *v.* kulimsiramoq.
- grind** [graɪnd] *v.* (*flour etc.*) yanchmoq, tuymoq, tortmoq; (*axe*) charxlamoq, qayramoq, o'tkirdamoq; (*oppress*) azoblamoq qiynamoq, ozor bermoq; - *one's teeth* tishni g'ijirlatmoq.

**grip** [gnp] *n.* ushlab olish, tutib olish; (*control*) hokimiyat, hukumat, ma'muriyat; *v.* ushlab olmoq, tutib olmoq.

**gristy** [grzli] *adj.* qo'rqinchli, dahshatli.

**gristle** [grs(ə)l] *n.* tog'ay, kamirchak; **gristly** *adj.* tog'aydor, tog'ayli, kamirchakdor, kamirchakli.

**grit** [grɪ] *n.* yirik qum; (*firmness*) mustahkamlik, qatliqlik. **gritty** *adj.* qumli, qumloq.

**grizzly** ['grɪzɪ] *adj.* kul rang; - bear grizli ayig'i.

**groan** [grəʊn] *n.* oh-voh, oh-zor, ingrash, nola; *v.* oh-voh qilmoq, ingramoq, nola qilmoq.

**grocer** [grəʊsə(r)] *n.* baqqol (oziq-ovqat bilan savdo qiluvchi do'kondor); -'s (*shop*) baqqol do'koni, gastronomiya (do'koni). **groceries** *n.* baqqollik do'konidagi oziq-ovqat mollari.

**groin** [grɔ:ɪn] *n.* (*anat.*) chot.

**groom** [gru:m] *n.* otbeqar; (*bridegroom*) kuyov; *v.* (*horse*) tozalamoq; (*person*) yaxshi parvarish qilib o'slimoq; (*prepare*) tayyorlamoq, hozirlamoq.

**groove** [gru:v] *n.* kichkina lamov, tarnovcha; (*roulline*) g'ildirak izi; yo'l, iz, marom.

**grope** [grəʊp] *v.* paypaslab topmoq; - one's way paypaslab yummoq, limirskilanib bormoq.

**gross**<sup>1</sup> [grəʊs] *n.* (12 dozen) gross (*ba'zi attorlik mollarni sanashda* - 12 dyujina); *by the* - ulgurji, ulgurji tarzda.

**gross**<sup>2</sup> [grəʊs] *adj.* (*luxuriant*) mo'l-ko'l, serob, barakali; (*fat*) semiz, yo'g'on, to'la; (*coarse*) qo'rs, qo'pol, dag'al; (*total*) yalpi, hammasi; - *weight brutto* vazni (*bltor molning idish bilan birga tortiladigan og'irligi*).

**grotesque** [grəʊ'tesk] *adj.* grotesk (*san'atda ajoyib-g'aroyib asar*); (*absurd*) bema'ni, behuda, bo'lmag'ur.

**grotto** [grəʊtəʊ] *n.* g'or, o'ngur.

**ground** [graʊnd] *n.* yer, tuproq, zamin; (*drags*) durda, quyqa, quyqum; (*sport*) maydoncha; (*of house*) bog'; (*background*) fon, tag, asosiy rang; (*reason*) sabab, dalil, isbot, vaj, asos; **break fresh** - yangi yo'llar solmoq; **gain** - muvaffaqiyat qozonmoq, muvaffaqiyatga erishmoq; **give, lose**, - yon bermoq, tan bermoq, rozi bo'lmoq; **stand one's** - o'z fikrida turmoq; - **floor** sokol barobaridagi qavat (*sokol* - bino, *inshool devorining pastki, qalinroq qismi*), birinchi qavat; *v.* (*base*) asoslamoq, dalillar bilan isbotlamoq; (*instruct*) asoslarini o'rgatmoq; *v.* (*naut.*) qumga tiqilib qolmoq.

- groundless** *adj.* sababsiz, asossiz, bevaj, dalilsiz. **groundnut** *n.* yer yong'och. **groundsheet** *n.* bir enil chodir matosi, gazlamasi. **groundwork** *n.* asos, negiz.
- group** [gru:p] *n.* guruh, turkum, to'da; - **captain** aviatsiya polkovnigi; *v.* guruhiarga ajra(t)moq, bo'l(in)moq; guruhla(n)moq, to'pla(nish)moq.
- grouse<sup>1</sup>** [graʊs] *n.* (bird) qur (o'rmonda yashaydigan yovvoyi tovuq turi); (red) - shotland kekligi.
- grouse<sup>2</sup>** [graʊs] *v.* (grumble) ming'irlamoq, bidirlamoq, vaysamoq.
- grove** [grəʊv] *n.* chakalak, daraxtzor.
- grovel** [grəʊv(ə)] *v.* laganbardorlik qilmoq, xushomadgo'ylik qilmoq.
- grow** [grəʊ] *v.* o'smoq, katta bo'lmoq, o'stirmoq; (become) bo'lmoq, o'zgartmoq; (cultivate) o'stirmoq, yetishtirmoq; ~ up (person) buqmoq, parvarish qilmoq, tarbiyalab yetishtirmoq; (custom) paydo bo'lmoq, boshlanmoq, vujudga kelmoq.
- growl** [graʊl] *n.* ming'irlash, bidirlash, vaysash; *v.* ming'irlamoq, bidirlamoq, vaysamoq.
- grown-up** [grəʊ'nʌp] *adj.* voyaga yetgan, bo'y yetgan, katta.
- growth** [grəʊθ] *n.* rivojlanish, o'sish, yuksalish; (tumour) shish, qavariq, g'urra.
- grub** [grʌb] *n.* (larva) nqobdor (endigina tuxumdan chiqqan qurt); (food) yegullik, yemish; ovqat; *v.* - about kavlamoq, tilmoq, kavlashirmoq. **grubby** *adj.* kir, iflos, isqirt.
- grudge** [grʌdʒ] *n.* norozilik, hasad, ichi qaralik, kek; have a - against kek saqlamoq; *v.* ayamoq, ko'z qiymaslik; xohlamasdan bermoq (qilmoq). **grudgingly** *adv.* istar-istamas, xohlamay.
- gruel** [gru:əl] *n.* suyuq bo'tqa (shovla); *v.* zeriktirmoq, zeriktirib yubormoq, charchatmoq.
- gruelling** *adj.* holdan toydiradigan, tinkani quritadigan.
- gruesome** ['gru:səm] *adj.* jirkanch, qabih, xunuk, iflos.
- gruff** [grʌf] *adj.* (surly) qo'pol, dag'al, qo'rs; (voice) xirillagan, xir-xir, bo'g'iq (tovush haqida).
- grumble** ['grʌmb(ə)] *n.* ming'irlash, bidirlash, vaysash, hasrat, nadomat, nola, zor; *v.* ming'irlamoq, bidirlamoq, vaysamoq.
- grumpy** ['grʌmpɪ] *adj.* javraqi, g'ingshlydigan, jonga tega-digan.

**grunt** [grʌnt] *n.* xurxurlash, xurxur qilish; *v.* xurxurlamoq, xurxur qilmoq (*choʻchqa haqida*).

**guarantee** [ˌgʊərənˈtiː] *n.* (*person*) kafolat beruvchi; (*security*) kafolat, kafillik, garov; *v.* taʼmin etmoq; kafil boʻlmoq; ishonilmoq. **guarantor** *n.* kafolat beruvchi.

**guard** [gɑːd] *n.* (*protection*) muhofaza qilish, qoʻriqlash; (*watch, body of soldiers*) soqchi, poyloqchi; (*sentry*) qorovul; (*rail*) konduktor (*transport vositalarida yoʻlovchilarni kuzatib boruvchi va chipta soluvchi xodim*); (G-) gvardiya (*tanlangan, saralangan harbiy qismlar*); - *of honour* faxriy qorovul; *v.* qoʻriqlamoq, muhofaza qilmoq; ~ *against* saqlanmoq, ehtiyot boʻlmoq. **guard-house**, -*room* *n.* gauptvaxta (*harbiy qamoqxona*). **guardsman** *n.* gvardiyachi.

**guardian** [gɑːdʒən] *n.* saqlovchi, qoʻriqlovchi; (*leg.*) vasiy, homiy.

**guer(r)illa** [geˈrɪlə] *n.* partizan (*partizanlar urushida qatnashgan odam*); - *warfare* partizanlik urushi.

**guess** [ges] *n.* faraz, xayol, guman; *v.* lishun(tir)moq, anglat(t)moq; (- *correctly*) oʻylab topmoq, payqamoq.

**guest** [gest] *n.* mehmon.

**guffaw** [gʌˈfɔː] *n.* qattiq kulgi, qahqaha; *v.* qahqahlamoq, qahqaha urib kulmoq.

**guidance** [ɡaɪd(ə)ns] *n.* rahbarlik qilish, yetakchilik qilish. **guide** *n.* yoʻlchi, yoʻl boshlovchi; gid; (*adviser*) maslahatchi; (*manual*) rahbarlar, boshliqlar, rahbariyat; (*guidebook*) yoʻl koʻrsatkich, sayohatnoma; *v.* yetaklamoq; (*direct*) rahbarlik qilmoq, yoʻl boshlamoq; (*control*) boshqarmoq, idora qilmoq; -*ed missile* boshqariladigan raketa. **guide-dog** *n.* yetaklab yuruvchi kuchuk. **guide-post** *n.* koʻrsatkich ustun.

**guld** [ɡʊld] *n.* gildiya (*yirik savdogarlar yoki hunarmandlar birlashmasi*), sex.

**gulle** [ɡʊl] *n.* makkorik, ayyorlik. **gulleful** *adj.* makkor, hiylagar, dogʻull, ayyor. **gulleless** *adj.* ochiq koʻngilli, soddadil, soddil, sodda.

**guillotine** [ˌɡɪləˈtiːn] *n.* gilotina (*oʻlim jazosiga hukm qilingan kishilarning boshini kesadigan mashina*); (*for paper etc.*) qogʻoz kesadigan mashina; *v.* gilotinada bosh kesmoq.

**guilt** [ɡɪlt] *n.* ayb, gunoh. **guiltless** *adj.* aybsiz, begunoh, yoziqsiz. **guilty** *adj.* gunohkor, aybdor.

**guinea** [gɪnɪ] *n.* gineya (*21 shillingga teng pul*). **guinea-fowl** *n.* sesarka tovuq. **guinea-pig** *n.* dengiz cho'chqasi; (*fig.*) tajriba ostidagi.

**guise** [gaɪz] *n.* tashqi ko'rinish, qiyofa; *under the - of* niqob ostida.

**guitar** [ɡɪ'tɑ:(r)] *n.* gitara.

**gulf** [ɡʌlf] *n.* qo'ltiq, ko'rfaz; (*chasm*) jar, tikka jar, chuqurlik; **G-Stream** Golfstrim.

**gull** [ɡʌl] *n.* baliqchi (*qush*).

**gullet** ['ɡʌlɪt] *n.* kekirdak, qizilo'ngach; (*throat*) bo'g'iz, hiqildoq, xalqum, tomoq.

**gullible** ['ɡʌlɪb(ə)l] *adj.* laqma, sodda, tez ishonadigan.

**gully** [ɡʌli] *n.* (*ravine*) jar, soy, chuqurlik; (*channel*) ariq, zovur.

**gulp** [ɡʌlp] *n.* qultum; *v.* ochko'zlik bilan yutmoq (*yutinmoq*).

**gum'** [ɡʌm] *n.* (*anal.*) milk, tish milki.

**gum<sup>2</sup>** [ɡʌm] *n.* (*glue*) yelim; *v.* yelmlamoq, yopishtirmoq. **gum-boot** *n.* rezina etik. **gum-tree** *n.* evkalipt (*janubda o'sedigan daraxt*).

**gumption** [ɡʌmpj(ə)n] *n.* topqirlik, hozirjavoblik, topog'onlik, farosallilik.

**gun** [ɡʌn] *n.* (*piece of ordnance*) qurol, asbob, to'p, zambarak; (*pistol*) milliq, to'pponcha; **star-**

**ting** - musobaqa to'pponchasi; *v.*: ~ *down* otib o'ldirmoq, otib tashlamoq. **gunboat** *n.* kanoner kemasi (*qurollangan kichik harbiy kema*). **gun-carriage** *n.* lafet (*to'p o'rnatilgan stanok*). **gunner** *n.* artilleriyachi, to'pchi, to'pchi askar; (*aerop.*) mergan, o'qchi, otuvchi. **gunpowder** *n.* porox, milliq dori. **gunsmith** *n.* qurol-aslaha yasovchi usta.

**gurgle** [ɡɑ:g(ə)] *v.* qulqullamoq, qul-qul qilmoq.

**gush** [ɡʌʃ] *n.* kuchil sel (*oqim*); *v.* shanlab oqmoq, yog'moq, quyimoq.

**gussat** [ɡʌstɪ] *n.* pona.

**gust** [ɡʌst] *n.* zo'rayish, kuchayish, shiddat. **gusty** *adj.* shiddatli, kuchil, zo'r.

**gusto** [ɡʌstəʊ] *n.* lazzat, maza, lazzatlanish, maza qilish.

**gut** [ɡʌt] *n.* ichak; (*entrails*) ichki a'zolar; (*coll., bravery*) mardlik, botirlik, qahramonlik, jasorat; *v.* ichak-chavoqni chiqarib tozalamoq, yorib ichaklarni olmoq; (*devastate*) xarob qilmoq, vayron qilmoq, qirib bitirmoq.

**gutta-percha** [ɡʌtə'pɜ:tʃə] *n.* gutapercha (*ba'zi tropik o'simliklarning kauchukka o'xshab qotib qolgan shirasi; texnikada ishlatiladi*).

**gutter** ['ɡʌtə(r)] *n.* larnov, nov; ariq, zovur; - *press* oldi-qochdi matbuot, sarq matbuot.

gidravlik (suv kuchi bilan yuradigan); – engineering gidrotexnika (texnikaning suvdan va suv kuchidan foydalanish yo'llarini o'rganuvchi tarmog'i, masalan: kanal, to'g'on va h.k. qurish usullari). **hydraulic** *n.* gidravlika (suv kuchi bilan ishlaydigan dvigatel va inshootlar haqidagi ilm).

**hydro-** [ˈhaɪdraʊ] *in comb.* gidro..., suv... . **hydrocarbon** *n.* uglevodorod (uglerod va vodorodning kimyoviy birikmasi). **hydrochloric acid** *n.* xlorat kislotasi. **hydrodynamics** *n.* gidrodinamika (mexikaning bir tarmog'i bo'lib, suyuqliklarning harakat qonunlarini tekshiradi). **hydroelectric** *adj.* gidroelektrik, suvdan elektr toki oluvchi; – plant gidroelektrostansiya (suv kuchi bilan elektr quvvati hosil qiladigan elektr stansiya).

**hydrogen** [ˈhaɪdrədʒ(ə)n] *n.* vodorod (kimyoviy unsur, yengil gaz; kislorod bilan birikib suv hosil qiladi); – bomb vodorod bombasi. **hydrolysis** [ˈhaɪˈdrɔːlɪsɪs] *n.* gidrolliz (tuzlarni suv vositasi bilan kimyoviy tarkibga ajratish). **hydrophobia** *n.* suvdan qo'rqish kasalligi; quturiq. **hydroplane** *n.* (fin) gorizontal rul; (motor boʻat) glesar (tez yuradigan parrakli kema); (sea-

- plane*) gidrosamolyot (*suvdan uchadigan va suvga qo'nadigan samolyot*). **hydroxide** [haɪ'droksaɪd] *n.* gidrookis (*kimyoviy birlikma*).
- hyena** [haɪ'ni:nə] *n.* sirlon, yoldor bo'ri.
- hygiene** ['haɪdʒi:n] *n.* gigiena (*sog'liqni saqlash nazariyasi; sog'liqni saqlashga doir amaliy choralar, ozodalik*). **hygienic** *adj.* gigienaga oid, gigienik.
- hymn** [hɪm] *n.* madhiya.
- hyperbola** [haɪ'pɜ:bələ] *n.* giperbola (*matematika: konus qismlaridan biri; adabiyot – mubolag'a*). **hyperbolic** [haɪ'pɜ:bɒlɪk] *adj.* mubolag'a'il, sarmubolag'a; giperbolik.
- hypercritical** [ˌhaɪpə'krɪtɪk(ə)] *adj.* timoq orasidan kir izlovchi.
- hypersensitive** [ˌhaɪpə'sensɪtɪv] *adj.* o'ta hissiyotchan, juda nozik tabiatli, nihoyatda ta'sirchan.
- hyphen** ['haɪf(ə)n] *n.* defis, chiziqcha. **hyphen(ate)** *v.* defis bilan yozmoq.
- hypnosis** [hɪp'neʊsɪs] *n.* gipnoz (*birovning ta'siri ostida behush bo'lish*). **hypnotic** [hɪp'notɪk] *adj.* gipnoz ..., gipnozga oid; (*soporific*) uyquni keltiradigan, uxlatadigan. **'hypnotism** *n.* gipnoz nazariyasi. **'hypnotist** *n.* gipnozchi, gipnoz qiluvchi. **'hyp-**
- notize** *v.* gipnozlamoq, gipnoz qilmoq.
- hypocrisy** [hɪ'pɒkrɪsɪ] *n.* ikkiyuzlamalik, munofiqlik, riyokorlik. **hypocrite** ['hɪpekrɪt] *n.* ikkiyuzlamachi, munofiq. **hypocritical** *adj.* ikkiyuzlama, munofiqlona, riyokor.
- hypodermic** [ˌhaɪpə'dɜ:mɪk] *adj.* teri ostidagi, teri osti.
- hypotenuse** [haɪ'pɒte,nju:z] *n.* gipotenuza (*to'g'ri burchakli uch-burchakning to'g'ri burchakka qarshi tomoni*).
- hypothesis** [haɪ'pɒθɪsɪs] *n.* gipoteza (*ilmiy faraz*), taxmin. **hypothesize** *v.* gipoteza qilish, faraz qilish. **hypothetical** *adj.* gipotetik, taxminiy, faraz qilingan.
- hysteria** [hɪ'stɪəriə] *n.* jazava, asabiy tutqanoqlik. **hysterical** [hɪ'stɪrɪk(ə)] *adj.* jazavaga oid. **hysterics** *n.* asabiy tutqanoq.

I

**i** [aɪ] *pron.* men.

**iambic** [aɪ'æmbɪk] *adj.* yambga oid. **iambus** *n.* yamb (*she'r vazni*).

**ibid.** [ɪbɪ,dem] *abbr.* (*of ibidem*) xuddi o'sha yerda.

**ice** [aɪs] *n.* muz; (~ *cream*)

muzqaymoq; - age muz davri; - *flae* suzib yuruvchi katta muz parchasi; - hockey (shaybali) xokkey; v. muzlatmoq, yaxlatmoq; (*cul.*) shakar-qiyom bilan pishirmoq; - *over, up* sirlil muzlamoq, muz bosmoq, yax bog'lamoq. *Ice-axe* n. muzo'yar (*muzliklar ustliga chiqayotganda oyoq qo'yish uchun muzni o'yib, pillapoya qiladigan boltacha*). *Iceberg* n. aysberg, suzib yuruvchi ko'chma muztog'. *Ice-boat* n. buer (*muz ustida yuradigan yelkanli chana*). *Icebreaker* n. muzyorar (*qalin muzlarni yorib yuradigan katta kema*). *Ice-cream* n. muzqaymoq; - *parlour* muzqaymoqxona. *icicle* n. sumalak. *icing* n. (*cul.*) shakar-qiyom, shira.

*Icon* [aɪkɒn] n. ikona (*nasroniy-larda: xuda yoki avliyolarning surati*).

*icy* [aɪsɪ] adj. juda sovuq, muzday sovuq; (*also fig.*) beparvo.

**ID** abbr. (*of Identification*) shaxsni tasdiqlovchi hujjat, guvohnoma.

*Idea* [aɪ'diə] n. g'oya, fikr, o'y, xayol; (*conception*) tushuncha; (*intention*) niyat, maqsad, qasd, ahd.

*Ideal* [aɪ'di:əl] n. eng yuksak maqsad, g'oyat za'r lilak, yuk-

sak g'oya; adj. yuksak, bekamko'st, benuqson, juda yaxshi. *Idealism* n. idealizm (*barliqning negizi materiya emas, balki g'oya va ruh ekanligiga asoslanadigan falsafiy oqim*). *Idealist* n. idealist (*idealistik falsafa tarafdori*). *Ideally* v. ideallashtirmoq, oshirib (bo'rttirib) ko'rsatmoq.

*Identical* [aɪdɪntɪk(ə)l] adj. (*of one thing*) xuddi o'zi, o'zginasi; (*of different things*) birdek, bir xil, bir-biriga aynan o'xshagan. *Identification* n. birday narsa deb bilish, aynan bir deb hisoblash, tenglashtirish; (*recognition*) tanish, tanib olish; (*of person*) guvohnoma, shaxsiyatni tasdiqlovchi hujjat. *Identify* v. birday narsa deb bilmok, o'xshatmoq, tenglashtirmok; (*recognize*) tanish, tanib olish. *Identify* n. (*sameness*) birdaylik, aynan o'xshashlik; (*of person*) shaxs, kishi, odam, shaxsiyat.

*Ideogram* [ˈɪdɪəˌɡræm], *Ideograph* [ɪdɪəˌɡrɑːf] n. ideogramma (*biror ma'noni shartli ifodalaydigan yozuv belgisi*).

*Ideological* [aɪdɪə'lɒdʒɪk(ə)l] adj. ideologik, g'oyaviy. *Ideologist*, *Ideologue* n. ideolog (*biror sinf ideologiyasini ifodalovchi va hi-moya qiluvchi*). *Ideology* n. g'oya, ideologiya (*ijtimoiy ong-*



ning turli shakllarida: siyosat, axloq, fan, san'at, dinda ifodalangan g'oyalar, tasavvurlar, tushunchalar sistemasi).

**Idiocy** [ɪdɪəsɪ] *n.* ahmoqlik, tentaklik.

**Idiom** [ɪdɪəm] *n.* (expression) idiom (muayyan tilning so'zmaso'z tarjima qilib bo'lmaydigan o'ziga xos iborasi); (language) til, nutq, sheva. **Idiomatic** *adj.* idiomaga oid, idiomaga boy bo'lgan.

**Idiosyncrasy** [ɪdɪəʊsɪŋkresɪ] *n.* idiosinkraziya (organizmning ba'zi narsalar ta'sirini ko'tara olmastigi).

**Idiot** [ɪdɪət] *n.* ahmoq, tentak. **Idiotic** [ɪdɪəʊtɪk] *adj.* ahmoqona, tentaklarcha.

**Idle** [aɪd(ə)] *adj.* (vain) foydasiz, ma'nosiz, bekor; (useless) befoydali, behuda; (unoccupied) bo'sh, xali; (lazy) erinchoq, yalqov; (machine) quruq, bekor, foydasiz; *v.* bekor yurmoq, tentalik qilmoq; (engine) bekorga (foydasiz) ishlamoq; - away bekor o'tkazmoq. **Idleness** *n.* ma'nosizlik, foydasizlik; be'manlilik, behudalik; bekorchilik. **Idler** *n.* bekorchi.

**Idol** [aɪd(ə)] *n.* but, sanam. **Idolater** [aɪdələtə(r)], -tress *n.* butparast, butga sajda qiluvchi.

**Idolatrous** [aɪdələtəs] *adj.* butparastlikka oid. **Idolatry** *n.* butparastlik; (fig.) ortiq darajada sevish, juda muhabbat qo'yish. **Idolize** *v.* ilohiylashtirmoq.

**Idyll** [ɪdɪl] *n.* idilliya (tabiat quchoq'idagi osoyishta turmushni tasvir etuvchi she'riy asar). **Idyllic** *adj.* idilliyaga oid.

*i.e. abbr. (of Id est) ya'ni.*

**if** [ɪf] (conditions) agar, agarda; (whether) -mi, -mikan; -mikin; as - shekilli, go'yo, xuddi; even - hatto agar, hatto shunday bo'lgan taqdirda ham; ~ only agar, agarda; bashari.

**Iglou** [ɪglu:] *n.* iglu (Shimoliy Amerika eskimolarining muz pitalaridan qilingan uyta).

**Igneous** [ɪɡnəs] *adj.* o'lli, alan-gali, yonib turgan; (rock) otilib chiqqan, otilgan, vulqonsimon. **ignite** [ɪɡnaɪt] *v.* yoqmoq, chaqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq; o't olmoq, yona boshlamoq, o't tushmoq. **Ignition** [ɪɡnɪʃ(ə)n] *n.* o't yoqish, yondirish.

**Ignoble** [ɪɡnəb(ə)] *adj.* razil, qabih, yaramas, pastkash.

**Ignominious** [ɪɡnə'mɪnɪəs] *adj.* uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan; sharmanda qiladigan. **Ignominy** *n.* sharmandalik, ayb, uyat, isnod, nomus.

**Ignoramus** [ɪɡnə'reɪməs] *n.*

- nodon, johil, bilimsiz. **Ignorance** [ɪɡnərəns] *n.* nodonlik, johillik, bilimsizlik, bilmaslik, xabarsizlik, bexabarlik. **Ignorant** *adj.* nodon, johil, nodonlarcha, jahilona; (*uninformed*) bexabar.
- Ignore** [ɪɡ'nɔ:(r)] *v.* e'tiborsiz qoldirmoq; nazarga ilmaslik, ahamiyat bermaslik, kamsitmoq.
- Ill** [ɪl] *n.* (*evil*) yomonlik, yovuzlik; (*harm*) zarar, ziyon, zahmat; (*misfortunes*) musibat, dard; baxtsizlik; *adj.* (*sick*) kasal, betob, bemor; (*evil*) yomon, yaramas; badjahl, serjahl, yomon, yovuz; *adv.* yomon, yaramas; (*scarcely*) dargumon, shubhali; fail – betob bo'lmoq, kasal bo'lmoq. **Ill-advised** *adj.* aqlsiz, yengiltak. **Ill-bred** *adj.* tarbiyasiz. **Ill-disposed** *adj.* ko'ngli qora, ichi qora, yomon niyatli.
- Illegal** [ɪ'lɪ:g(ə)] *adj.* qonunga zid, g'ayriqonuniy; maxfiy, yashirin. **Illegality** [ɪ'lɪ:'gɪtɪ] *n.* qonunsizlik, qonunga xiloflik, maxfiylik.
- Illegible** [ɪ'ledʒɪb(ə)] *adj.* bilib bo'lmaydigan, tanib bo'lmaydigan, aniqlab bo'lmaydigan.
- Illegitimacy** [ɪ'lɪ'dʒɪtɪməsɪ] *n.* qonunsizlik, qonunga xiloflik; (*of child*) nikohsiz tug'ilganlik. **Illegitimate** *adj.* qonunsiz, g'ayriqonuniy; nikohsiz tug'ilgan.
- Illogical** [ɪ'lɒdʒɪk(ə)] *adj.* mantiqsiz, bemantiq.
- Ill-mannered** [ɪl'mænəd] *adj.* qo'pol, to'ng, dag'al, qo'rs. **Ill-natured** *adj.* badjahl, serjahl; yomon niyatli.
- Illness** [ɪ'lnɪs] *n.* kasallik, dard, og'riq, betoblik.
- Illogical** [ɪ'lɒdʒɪk(ə)] *adj.* mantiqsiz, bemantiq.
- Ill-tempered** [ɪl'tempəd] *adj.* serjahl, salga achchiqlanadigan, jahli tez chiqadigan. **Ill-treat** *v.* yomon munosabatda bo'lmoq.
- Illuminate** [ɪ'lu:mɪ'neɪt, ɪ'lju:-] *v.* yoritmoq, nur sochmoq; (*building*) charoq'on qilmoq, chiroqlar bilan bezatmoq, illyuminatsiya qilmoq; (*manuscript*) bezatmoq. **Illumination** *n.* yoritish, nur sochish; (*also pl.*) illyuminatsiya, chirog'vonlik; bezash (qo'yozmani).
- Illusion** [ɪ'lu:ʒ(ə)n, ɪ'lju:-] *n.* illyuziya, xomxayol, puchxayol. **Illusory** *adj.* haqiqatdan yiroq, xayoliy, amalga oshirib bo'lmaydi-

gan.

**illustrate** [ɪləˈstreɪt] *v.* rasm bilan bezamoq, rasm bermoq. **illustration** *n.* illyustratsiya, rasm, surat. **illustrative** *adj.* illyustratsiya qilingan, rasmlar bilan ko'rsatilgan.

**illustrious** [ɪˈlʌstriəs] *adj.* mashhur, taniqli.

**image** [ɪmɪdʒ] *n.* (statue etc.) tasvir, surat, rasm; (optical -) aks; (semblance) o'xshashlik, o'xshash; (literary - etc.) timsol, siymo. **imagery** *n.* ifodalilik, ta'sirchanlik, jonlilik.

**imaginable** [ɪˈmædʒɪnəb(ə)] *adj.* xayolga keladigan, faraz qilinadigan. **imaginary** *adj.* tasavvurdagi, faraz qilingan, xayoliy, xayoldagi. **imagination** *n.* tasavvur, o'y, xayol, fantaziya. **imagine** *v.* tasavvur qilmoq, xayol qilmoq; (conceive) ko'z oldiga keltirmoq.

**imbecile** [ɪmˈbiːsɪl] *n.* aqli zaif, aqli katta; (fool) ahmoq, lentak.

**imbibe** [ɪmˈbaɪb] *v.* (absorb) shimmov, so'ymoq, namni tortib o'lmoq.

**imbroglia** [ɪmˈbrɔːliə] *n.* chlgal, ishkal, chalkash, chaloq.

**imbue** [ɪmˈbjuː] *v.* shimdirmoq, singdimov, ho'llamoq; ta'sir etmoq, ko'ndirmoq, ma'qul ettirmoq.

**imitate** [ɪmɪˈteɪt] *v.* taqlid qilmoq; o'xshatmoq. **imitation** *n.* taqlid qilish, o'xshatish; *attr.* (counterfeit) qalbakli; (artificial) sun'iy. **imitative** *adj.* taqlidga oid, o'xshatma.

**immaculate** [ɪmækjuleɪt] *adj.* dog' tushmagan, toza; (irreproachable) kam-ko'stsiz, benuqson.

**immanent** [ɪˈmenənt] *adj.* xos, maxsus, odaldagi.

**immaterial** [ɪməˈtɪəriəl] *adj.* moddiy emas, ruhiy, ma'naviy; (unimportant) ahamiyatsiz, muhim bo'lmagan.

**immature** [ɪməˈtjue(r)] *adj.* xom, pishmagan.

**immeasurable** [ɪˈmeʒərəb(ə)] *adj.* beqiyos, bepoyon, cheksiz.

**immediate** [ɪˈmiːdiət] *adj.* (direct) bevosita, to'g'ridan-to'g'ri; (swift) tez. **immediately** *adv.* shu zahoti, zudlik bilan, tez; bevosita, to'g'ridan-to'g'ri.

**immemorial** [ɪmɪˈmoːriəl] *adj.* bu-rungi, qadimgi, juda eski.

**immense** [ɪˈmens] *adj.* bepoyon, bahiya, cheksiz, kattakon, juda katta.

**immerse** [ɪˈmɜːs] *v.* botirmoq, cho'ktirmoq. **immerse** *n.* botirish, cho'ktirish.

**immigrant** [ɪmɪˈgrənt] *n.* muhojir (chek mamlakatga ko'chib ketgan kishi). **Immigrate** *v.* mu-

hojirlik qilmoq. *Immigration* *n.* muhojirlik.

*Imminent* [ɪmɪnənt] *adj.* yaqin, yaqinlashib kelayotgan; (*danger*) xavf solib turgan.

*Immobile* [ɪ'məʊbəl] *adj.* harakatsiz, qo'zg'almas. *Immobility* [ɪməʊ'bɪlɪtɪ] *n.* harakatsizlik, qo'zg'almaslik, qimirlamaslik.

*Immoderate* [ɪ'moderət] *adj.* o'lchovsiz, cheksiz.

*Immodest* [ɪ'mɒdɪst] *adj.* uyatsiz, adabsiz, behayo.

*Immolate* [ɪmə'leɪt] *v.* qurbonlikka keltirmoq; fido qilmoq.

*Immoral* [ɪ'mɔr(ə)] *adj.* axloqsiz, odobsiz. *Immorality* [ɪmə'rɪlɪtɪ] *n.* axloqsizlik, odobsizlik.

*Immortal* [ɪ'mɔ:l(ə)] *adj.* unutilmas, mangu qoladigan, abadiy yashaydigan. *Immortality* [ɪmɔ:l'tælɪtɪ] *n.* abadiy yashash, o'lmaslik. *Immortalize* *v.* abadiylashtirmoq.

*Immovable* [ɪ'mu:vəb(ə)] *adj.* ko'chmas; (*steadfast*) mahkam, mustahkam, puxta.

*Immune* [ɪ'mju:n] *adj.* (*to illness*) yuqtirmaslik, o'lmaslik; (*free from*) ozod, erkin, hur. *Immunity* *n.* yuqtirmaslik, o'lmaslik, immunitet; qutqarish, ozod qilish; (*diplomatic etc.*) daxlsizlik.

*Immure* [ɪ'mjʊə(r)] *v.* qamamoq, qamab qo'ymoq, zindonga

tashlamoq.

*Immutable* [ɪ'mju:təb(ə)] *adj.* o'zgaraydigan, doimiy, o'zgar-mas.

*Imp* [ɪmp] *n.* tirancha, sho'x bola, shaytoncha, shumlaka.

*Impact* [ɪm'pækt] *n.* (*striking*) zarba; (*collision*) to'qnashuv; urishish, jang; (*influence*) ta'sir, nufuz, e'tibor.

*Impair* [ɪm'peə(r)] *v.* (*damage*) zarar bermoq, ziyon yetkazmoq; (*weaken*) kuchsizlantirib qo'y-moq; bo'shashtirib qo'ymoq.

*Impale* [ɪm'peɪl] *v.* sanchmoq, liq-moq.

*Impalpable* [ɪm'pælpəb(ə)] *adj.* sezib bo'lmaydigan, sezilmas.

*Impart* [ɪm'pɔ:t] *v.* o'rtoqlashmoq, baham ko'rmoq; hamdamlash-moq.

*Impartial* [ɪm'pɔ:(ə)] *adj.* betaraf, odil, xolis.

*Impassable* [ɪm'pɔ:səb(ə)] *adj.* o'tib bo'lmaydigan, o'tish qiyin bo'lgan.

*Impasse* [æmpæss, 'ɪm-] *n.* boshl berk ko'cha.

*Impassioned* [ɪm'pæʃ(ə)nd] *adj.* ehtirosli, serzavq, qizg'in, jo'sh-qin.

*Impassive* [ɪm'pæsv] *adj.* ehtiros-siz, xolis, vazmin, beparvo, ha-yajonsiz, shavqsiz.

*Impatience* [ɪm'peɪjəns] *n.* sabr-

sizlik, betoqatlik. **Impatient** *adj.* chidamsiz, sabrsiz, betoqat, besabr.

**Impeach** [ɪm'pi:tʃ] *v.* ayblamoq, qoralamoq, ayb qo'ymoq.

**Impeccable** [ɪm'pekəb(ə)] *adj.* beayb, benuqson, kam-ko'st-siz.

**Impedunious** [ɪm'pi:kju:nɪəs] *adj.* pulsiz; kambag'al.

**Impedance** [ɪm'pi:d(ə)ns] *n.* qarshilik. **impede** *v.* to'sqinlik qilmoq, mona bo'lmoq, xalaqit bermoq; tutmoq, to'xtatmoq, tutib qolmoq. **Impediment** [ɪm'pedɪmənt] *n.* to'siq, g'ov, monelik, qarshilik; (*In speech*) duduqlanish.

**Impel** [ɪm'pel] *v.* undamoq, majbur qilmoq.

**Impend** [ɪm'pend] *v.* osilib turmoq, engashib turmoq; muallaq turmoq.

**Impenetrable** [ɪm'penɪtrəb(ə)] *adj.* o'zidan o'tkazmaydigan.

**Imperative** [ɪm'perətɪv] *adj.* (*imperious*) amr-farmonga oid, buyruq bilan; (*obligatory*) zarur, kerakli; *n.* (*gram.*) buyruq fe'li.

**Imperceptible** [ɪm'pɜ:septɪb(ə)] *adj.* sezilmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmas.

**Imperfect** [ɪm'pɜ:ftɪkt] *n.* imperfekt, lugallanmagan o'tgan zamon; *adj.* (*incomplete*) mukam-

mal bo'lmagan, chala, tamom bo'lib yetmagan, lugallanmagan; (*faulty*) nuqsonli, illatli. **Imperfection** *n.* mukammal emaslik; (*fault*) nuqson, kamchilik, illat. **Imperfective** *adj. (n.)* nolugal shakli.

**Imperial** [ɪm'pɪəriəl] *adj.* (*of empire*) imperiya (*tepasida imperator turgan monarxiyalı davlat*); (*of emperor*) imperator ..., imperatorga oid. **Imperialism** *n.* imperializm. **Imperialist** *n.* imperialist, imperializm siyosatini yurgizuvchi; *attr.* imperializm ..., imperialistik.

**Imperial** [ɪm'pɪəriəl] *v.* xavfga qo'ymoq (solmoq).

**Imperious** [ɪm'pɪəriəs] *adj.* qudratli, kuchli.

**Imperishable** [ɪm'pɜ:ʃəb(ə)] *adj.* abadiy; (*food*) buzilmaydigan, aynimaydigan.

**Impersonal** [ɪm'pɜ:sən(ə)] *adj.* shaxssiz, shaxsi ma'lum bo'lmagan, qiyofasi noma'lum.

**Impersonate** [ɪm'pɜ:seɪn(ə)] *v.* (*personify*) gavdalantirmoq, jonlantirib ko'rsatmoq, ifodalamoq; (*play part*) rol ijro etmoq; (*pretend to be*) o'zini ... qilib ko'rsatmoq, o'zini ...dek tutmoq.

**Impertinence** [ɪm'pɜ:ɪnəns] *n.* dag'allik, qo'pollik, beadablik, axloqsizlik. **Impertinent** *adj.*

dag'al, qo'pol, beadab, axloq-siz.

**Imperturbable** [ɪmpɛ'tɜ:b(ə)]

*adj.* vazmin, og'ir, og'irkarvon, pinagini buzmaydigan.

**Impervious** [ɪm'pɜ:vɪəs] *adj.*

o'zidan o'tkazmaydigan; (*not responsive*) kar.

**Impetuous** [ɪm'pɛtʃuəs] *adj.* shiddalli, tez.

**Impetus** [ɪmpɪtʌs] *n.* harakatlantiruvchi kuch; (*fig.*) istak qo'zg'atuvchi sabab, intilish.

**Impiety** [ɪm'pɪɪtɪ] *n.* hurmatsizlik, adabsizlik, yuzsizlik.

**Impinge** [ɪm'pɪndʒ] *v.* (up)on

(*strike*) ur(il)moq, teg(dir)moq, qoq(il)moq; (*encroach*) suiqasd qilmoq, qasd qilmoq; ko'z olaytirmoq; payiga tushmoq.

**Impious** [ɪm'pɪəs] *adj.* gunohli, murtad, betavfiq.

**Impish** [ɪm'pɪʃ] *adj.* shumtaka, sho'x, to'polonchi.

**Implacable** [ɪm'plækəb(ə)] *adj.* qahri qaltiq, shafqatsiz, rahmsiz, toshyurak.

**Implant** [ɪm'plɑ:nt] *v.* joriy qilmoq, tarqatmoq, o'rnatmoq, qo'yimoq.

**Implement<sup>1</sup>** [ɪm'plɪmɛnt] *n.* (tool) qural, asbob; buyum, jihoz, anjam.

**Implement<sup>2</sup>** [ɪm'plɪ,ment] *v.* (*fulfill*) bajarimoq, amalga oshirmoq.

**Implicate** [ɪm'plɪ,keɪt] *v.* chalkash-

limoq, blror yomon ishga aralash-tirmoq; jalb qilmoq.

**Implication** *n.* jalb etish, tortish; (*meaning*) ma'no, mazmun.

**Implicit** [ɪm'plɪsɪt] *adj.* ko'zda tutilgan, o'ylangan, nazarda tutilgan; (*absolute*) so'zsiz, e'tirozsiz, hech bir sharsiz.

**Implore** [ɪm'plɔ:(r)] *v.* yalinmoq, yolvormoq, o'tinmoq, o'tinib so'ramoq.

**Imply** [ɪm'plɪ] *v.* payqamoq, fahmlamoq, nazarda tutmoq, o'ylamoq.

**Impolite** [ɪmpe'lɪt] *adj.* qo'pol, to'ng, dag'al, qo'rs.

**Imponderable** [ɪm'pɒndərəb(ə)] *adj.* juda yengil, og'irigi (salmog'li) yo'q.

**Import** [ɪm'pɔ:t; ɪm'pɔ:t, ɪm-] *n.* (*meaning*) ma'no, ma'ni, mazmun; (*of goods*) import (*chel el-lardan mol keltirish*); *v.* chel el-lardan mol keltirmoq.

**Importance** [ɪm'pɔ:t(ə)ns] *n.* muhimlik, ahamiyatlilik. **Important** *adj.* muhim, ahamiyatli.

**Importunate** [ɪm'pɔ:tʃənət] *adj.* shilqlm, xira, "yelim".

**Impose** [ɪm'pəʊz] *v.* (*tax*) soliq solmoq; (*obligation*) solmoq, bermoq; (*force (a.s.) on*) majburan qabul qildirmoq, zo'rlab bo'yniga qo'yimoq. **Imposing** *adj.* ta'sirdi, vahimali, haybati; jid-

- diy. **Imposition** *n.* soliq, soliq solish.
- Impossibility** [ɪmˈpɒsəbɪlɪtɪ] *n.* imkonsizlik, mumkin emaslik, iloj-sizlik. **Im'possible** *adj.* mumkin bo'lmagan, imkoni yo'q, og'ir.
- Impostor** [ɪmˈpɒstə(r)] *n.* birovning nomi bilan yurgan, o'zini boshqa qilib ko'rsatgan kishi, aldamchi. **Imposture** *n.* birovning nomi bilan yurish, o'zini boshqa qilib ko'rsatish, aldash.
- Impotence** [ɪmpəˈtəns] *n.* zaiflik, notavonlik, bo'shlik; (*med.*) impotensiya, jinsiy zaiflik. **Impotent** *adj.* zaif, notavon, bo'sh; (*med.*) impotent, jinsiy zaif.
- Impound** [ɪmˈpaʊnd] *v.* (*cattle*) haydab kiritilmoq, kiritmoq; (*confiscate*) musodara qilmoq, davlat ixtiyoriga o'tkazmoq.
- Impoverish** [ɪmˈpɒvərɪʃ] *v.* mazmunini toraytirmoq, kambag'allashtirmoq, shirasiz qilmoq.
- Impracticable** [ɪmˈpræktɪkəb(ə)l] *adj.* amalga oshirib bo'lmaydigan, bajarib bo'lmaydigan, og'ir, qiyin.
- Imprecation** [ɪmprɪˈkeɪʃ(ə)n] *n.* la'nat, la'nat o'qish, qarg'ash.
- Impregnable** [ɪmˈpregnəb(ə)l] *adj.* yaqinlashib bo'lmaydigan, yaqin borib bo'lmaydigan, mustahkam, mahkam.
- Impregnate** [ɪmpregˈneɪt] *v.* (*fer-*
- tilize*) urug'lantirmoq, homilador qilmoq; (*saturate*) to'yintirmoq.
- Impresario** [ɪmprɪˈsɔːriəʊ] *n.* teatr, sirk va shu kabilarning xo'jayini, antreprenyor (*tomoshaxona egasi*).
- Impress** [ɪmpres; ɪm'pres] *n.* iz, asar, tamg'a, nishona, belgi; *v.* (*imprint*) bosmoq, bosib chiqarmoq; (*affect person*) taassurot qoldirmoq. **Impression** *n.* (*notion etc.*) taassurot; (*printing*) naqsh, iz, muhr, nusxa; (*reprint*) (stereotip) nashr etish, bosib chiqarish; qayta bosish.
- Impressionism** [ɪmˈpreʃən-ɪz(ə)m] *n.* impressionizm (*XIX asrning o'rtalarida san'at va adabiyotda paydo bo'lgan idealistik oqim*).
- Impressive** [ɪmˈpresɪv] *adj.* ma'noli, ochiq, aniq, ravshan; ifodali; (*producing great effect*) ajoyib, hayratda qoldiradigan, lol qiladigan, ajib.
- Imprint** [ɪmprɪnt; ɪm'prɪnt] *n.* iz, asar, tamg'a, nishona, belgi; *v.* bosmoq, bosib chiqarmoq; (*on memory etc.*) tasvirlamoq, gavalantilib ko'rsatmoq.
- Imprison** [ɪmˈprɪz(ə)n] *v.* qamamoq, hibsga olmoq. **Imprisonment** *n.* hibsxona qamog'i.
- Improbable** [ɪmˈprəbəb(ə)l] *adj.* aqlga to'g'ri kelmaydigan, aql-

ga sig'maydigan.

**Impromptu** [ɪm'prɒptju:] *n.* tayyorgariksiz qilingan, to'satdan bo'lib qolgan; *adv.* tayyorgariksiz, ekspromt bilan.

**Improper** [ɪm'prɒp(ə)r] *adj.* (*inaccurate*) noto'g'ri, yanglish, xato; (*indecent*) noloyiq, odobsiz, chakki, nojo'ya.

**Improve** [ɪm'pru:v] *v.* yaxshilash, yaxshilash holga kel(tir)moq, tuzatmoq, tuzalmoq. **Improvement** *n.* yaxshilash, tuzalish; takomillashish.

**Improvvidence** [ɪm'prɒvɪd(ə)n(ə)s] *n.* kaltabinlik, uzoqni ko'ra bilmasslik, ehtiyotsizlik. **Improvvident** *adj.* ehtiyotsiz, ladbirsiz, mulohazasiz.

**Improvvisation** [ɪm'prɒvvaɪ'zeɪʃ(ə)n] *n.* Improvizatsiya qilish, tayyorgariksiz bajarish. **Improvise** *v.* improvizatsiya qilmoq.

**Imprudencia** [ɪm'pru:d(ə)n(ə)s] *n.* ehtiyotsizlik, parvoezlik. **Imprudent** *adj.* ehtiyotsiz, beparvo, qo'pol.

**Impudence** [ɪmpjʊd(ə)nt] *n.* surbetlik, bezbetlik, yuzsizlik, beorlik, sharmsizlik. **Impudent** *adj.* surbet, bezbet, yuzsiz.

**Impugn** [ɪm'pjʊ:n] *v.* olishmoq, bahslashmoq, tortlashmoq, kurashmoq.

**Impulse** [ɪmpʌls] *n.* (*push*) turtki,

tepki; siltash, itarish; (*impetus*) impuls, ichki turtki; biror ishga undovchi, intilish, istak qo'zg'atuvchi sabab; (*sudden tendency*) g'oya, fikr, intilish. **Impulsive** *adj.* impulsiv, beixliyor.

**Impunity** [ɪm'pjʊ:nɪtɪ] *n.* jazolanmaslik, jazo ko'rmasslik; *with* - jazo ko'rmasdan, bema'lol, hayiqmasdan.

**Impure** [ɪm'pjʊə(r)] *adj.* iflos, jirkanch, nopok.

**Impute** [ɪm'pjʊ:t] *v.* yozib qo'shib qo'ymoq, tirkamoq; (*fault*) yuklamoq, zimmasiga qo'ymoq.

**In** [ɪn] *prep.* (*place*) -ga, -ka, -qa; -da, ushida, tepasida; (*into*) -ga; (*point in time*) -da, -ga, -lik, ichida, vaqtida; ~ *the morning* ertalab, erta bilan; ~ *spring* bahorda; (*at some stage* ~; *throughout*) chog'da, vaqtida, paytida; (*duration*) ushida, mahalida; (*after interval of*) -dan keyin, -dan so'ng; (*during course of*) mobaynida; (*circumstance*) vaqtida, davrida, chog'da, -da; *adv.* (*place*) ichda, ichkanida; (*motion*) ichkari, ich tomon; (*at home*) uyda; ~ *here, there* (*place*) u yerda, bu joyda, o'sha yerda, anavi joyda, unda; (*motion*) bu yerga, shu yerga, bu yoqqa, bu tomonga,



- u yoqqa, u tomonga, o'sha joyga, u tarafga; *adj.* ichkaridagi, ichidagi; (*fashionable*) modaga oid, urf bo'lgan, rasm bo'lgan.
- Inability** [ɪnə'bi:lɪtɪ] *n.* imkonsizlik, mumkin emaslik, ilojsizlik.
- Inaccessible** [ɪnæk'sesɪb(ə)] *adj.* chiqib bo'lmaydigan, yaqiniga borib bo'lmaydigan, yaqin kelib bo'lmaydigan, egallab bo'lmaydigan.
- Inaccurate** [ɪn'ækjʊrət] *adj.* noaniq, to'g'ri emas.
- Inaction** [ɪn'ækʃ(ə)n] *n.* harakatsizlik, bekor turish, g'ayratsizlik.
- Inactive** *adj.* faoliyatsiz, harakatsiz, sust. **Inactivity** *n.* faoliyatsizlik, suslkashlik.
- Inadequate** [ɪn'ædɪkwət] *adj.* yelarli emas, talabga javob bermaydigan, qat'iyatsiz.
- Inadmissible** [ɪnəd'mɪsɪb(ə)] *adj.* yo'l qo'yib bo'lmaydigan, noma'qul, nojo'ya.
- Inadvertent** [ɪnəd'vɜ:t(ə)nt] *adj.* (*inattentive*) e'tiborsiz, diqqatsiz, parvosiz, beparvo; (*unintentional*) beg'araz, beixtiyor, atayin (jo'rttaga) qilinmagan.
- Inalienable** [ɪn'eɪlɪənəb(ə)] *adj.* ajratib bo'lmaydigan, ajralmas, daxlsiz, daxsiz qilib bo'lmaydigan, musodara qilinmaydigan, birovning tasarrufidan chiqarilmaydigan.
- Inane** [ɪ'neɪn] *adj.* (*empty*) bema'ni, ma'nosiz; (*silly*) tentak, ahmoq, aqlsiz.
- Inanimate** [ɪn'ænɪmət] *adj.* (*lifeless*) jonsiz, ruhsiz.
- Inapplicable** [ɪn'æplɪkəb(ə)], ,mə'plɪk-] *adj.* qo'llab bo'lmaydigan, tadbiiq etib (ishlatib) bo'lmaydigan.
- Inapposite** [ɪn'æpəzɪt] *adj.* o'rinsiz, chakki, nojo'ya, noma'qul.
- Inappreciable** [ɪnə'pri:ʃəb(ə)] *adj.* sezilmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmas.
- Inappropriate** [ɪnə'prəʊpriət] *adj.* o'rinsiz, chakki, nojo'ya, noma'qul.
- Inapt** [ɪn'æpt] *adj.* (*unsuitable*) nobop, nomuvofiq, noloyiq; (*unskilful*) mahoratsiz, uquvsiz, no'noq. **Inaptitude** [ɪn'æptɪ,tju:d] *n.* o'rinsizlik, nojo'yalik, layoqatsizlik, qobiliyatsizlik.
- Inarticulate** [ɪnɑ:'tɪkjələt] *adj.* (*not jointed*) g'aliz, dudmol; (*indistinct*) mujmal, tushunub bo'lmaydigan.
- Inasmuch** [ɪnəz'mʌʃ] *adv.* - *as* shunday qilib; shuning uchun, sababli.
- Inattention** [ɪnə'tenʃ(ə)n] *n.* e'tiborsizlik, diqqatsizlik, parvosizlik. **Inattentive** [ɪnə'tentɪv] *adj.* e'tiborsiz, diqqatsiz, parvosiz.

- beparvo.
- inaudible** [ɪn'ɑ:dɪb(ə)] *adj.* asta-sekin, beshovqin, tovushsiz, sharpasiz.
- inaugural** [ɪn'ɔ:gjʊr(ə)] *adj.* (*lecture etc.*) kirish, boshlanish. **inaugurate** *v.* (*admit to office*) tantanali ravishda mansabga kiritmoq; (*open*) ochmoq; (*begin*) boshlamoq. **Inauguration** *n.* tantanali ravishda mansabga kiritish; ochilish.
- Inauspicious** [ɪn'ɔ:spɪʃəs] *adj.* noqulay, nobor, o'ng'aysiz, buzuk, yomon.
- inborn** [ɪnbɔ:n], **Inbred** [ɪn'bred, 'ɪn-] *adj.* tug'ma, tabiiy, zotida bor.
- Incalculable** [ɪn'kælkjʊləb(ə)] *adj.* son-sanoqsiz, behisob.
- Incandesce** [ɪnkændes] *v.* oqarguncha qizil(t)moq (*cho'g'la(t)moq*). **Incandescence** *n.* oppoq oqarguncha qizdirish, loblash. **Incandescent** *adj.* oppoq oqarguncha qizdirilgan, loblaydigan.
- Incantation** [ɪnkæn'teɪʃ(ə)n] *n.* jodu qilish, sehrlash, avraah.
- Incapability** [ɪn,kæpə'bɪlɪtɪ] *n.* layoqatsizlik, qobiliyatsizlik. **Incapable** *adj.* layoqatsiz; salohiyatsiz.
- Incapacity** [ɪnke'pæsɪ,tetɪ] *v.* layoqatsiz qilmoq, huquqidan mahrum qilmoq.
- incapacity** [ɪnke'pæsɪtɪ] *n.* layoqatsizlik, qobiliyatsizlik, hunarsizlik.
- Incarcerate** [ɪn'kɑ:sə,reit] *v.* qamamoq, hibsga olmoq. **Incarceration** *n.* qamash, hibsga olish.
- Incarnate** [ɪn'kɑ:net; 'ɪnka:net, -'kɑ:net] *adj.* gavdalangan, yuzaga chiqqan, amalga oshgan; *v.* gavdalantirmoq, bir shaklga solib ko'rsatmoq; yuzaga chiqarmoq. **Incarnation** *n.* gavdalantirish, gavdalantirib ko'rsatish.
- Incautious** [ɪn'kɑ:ʃəs] *adj.* ehtiyotsiz, beparvo, qo'pol.
- Incendary** [ɪn'sendɪəri] *adj.* yondiruvchi, yondiradigan; *n.* olov yoquvchi, o't qo'yuvchi; (*fig.*) fitnachi, ig'vogar, quturtiruvchi, g'alamis; (*bomb*) yondiruvchi bomba.
- Incense** [ɪnsens] *n.* ishq, buxo'r (*xushbo'y tutatqi*).
- incense** [ɪn'sens] *v.* (*enrage*) juda g'azablantirmoq, quturtirmoq, jig'iga tegmoq.
- Incentive** [ɪn'sentɪv] *n.* tilak, xohish, istak.
- Inception** [ɪn'sepʃ(ə)n] *n.* bosh, boshlanish, avval, ibtido.
- Incessant** [ɪn'ses(ə)nɪ] *adj.* to'xtovsiz, tinimsiz.
- incest** [ɪn'sest] *n.* yaqin qarindoshlik.

doshlarning jinsiy aloqada bo'lishi.

**Inch** [ɪntʃ] *n.* dyuym (*uzunlik o'tchovi* – 2,5 sm.gə teng); – *by* – sekin-sekin, asta-sekin.

**Incident** *n.* voqea, hodisa, ko'ngilsiz voqea, mojaro, to'qnashish, nizo. **Incidental** [ɪnsɪ'dent(ə)] *adj.* (*casual*) tasodifiy; – *to* xos, maxsus, odetdagi. **Incidentally** *adv.* tasodifan; (*by the way*) jumladan, ...ga ko'ra, ... yo'll bilan.

**Incinerate** [ɪnsɪ'neɪt] *v.* yondirib kul qilmoq, o't qo'yib yo'q qilmoq. **Incline'ration** *n.* yondirib kul qilish. **Incinerator** *n.* axtat yondiriladigan o'choq.

**Incipient** [ɪn'sɪpɪənt] *adj.* boshlang'ich, endi boshlanayotgan.

**Incline** [ɪn'saɪz] *v.* andak tilib qo'y-moq, picha kesib olmoq, chaqmoqlamoq. **Inclusion** [ɪn'sɪz(ə)n] *n.* sal (picha) kesish, tilish. **Inclusive** [ɪn'saɪsɪv] *adj.* kesuvchi, kesadigan; (*fig.*) o'tkir. **Incluse** *n.* kesish asbobl.

**Incite** [ɪn'saɪt] *v.* undamoq, majbur qilmoq; fitna qo'zg'amoq, ig'vo solmoq, quturtimoq, g'alamlilik qilmoq. **Incitement** *n.* ig'vo qilish, vasvasa solish, g'alamlilik.

**Incivility** [ɪnsɪ'vɪlɪtɪ] *n.* adabsizlik, qo'pollik, qo'rsilik.

**Inclement** [ɪn'klemənt] *adj.* qahra-

ton, qatliq (*savuuq haqida*).

**Inclination** [ɪn'klɪ'neɪʃ(ə)n] *n.* (*slope*) qiyalik, qiya, nishab, nishablik, yotqlik; (*propensity*) havas, ishtiyoq, layoqat. **Incline** [ɪn'kleɪn; ɪn'klaɪn] *n.* qiyalik, qiya, nishab, nishablik, yotqlik; *v.* eg(il)moq, buk(il)moq, engash(tir)moq. **In'clined** *adj.* (*disposed*) moyil, mayli (havas, ishtiyoqi) bo'lgan.

**Include** [ɪn'klu:d] *v.* kiritmoq, kirgizmoq, qo'shmoq; ichiga olmoq, qamrab olmoq. **Including** *prep.* ichiga olgan holda, qamrab, qo'shib. **Inclusion** *n.* qo'shish. **Inclusive** *adj.* hammasini qamrab olgan, barchasini ichiga olgan. **Incognito** [ɪn'kɒɡ'nɪ:leɒ] *adv., adj.* yashirin, boshqa nom bilan.

**Incoherence** [ɪn'kəu'hərəns] *n.* noizchilik, poyma-poylik, tuturiqsizlik, mantiqsizlik, mujmallik. **Incoherent** *adj.* poyma-poy, mantiqsiz, tuturiqsiz.

**Incombustible** [ɪn'kəm'bəsɪb(ə)] *adj.* o'tga chidamli; o'tda kuymaydigan.

**Income** [ɪnkəm, 'ɪnkəm] *n.* daromad, kirim; – tax daromad solig'i.

**Incommensurable** [ɪn'kəmənsərəb(ə)], -sərəb(ə)] *adj.* bir o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydigan. **Incommensurate** *adj.* mutanosib bo'lmagan, nisbatsiz.

**Incommode** [ɪnkə'məʊd] *v.* bezovta qilmoq, urintirmoq, ovora qilmoq.

**Incommodious** *adj.* o'ng'aysiz, noqulay, nobop, noo'rin.

**Incomparable** [ɪn'kɒmpərəb(ə)l] *adj.* tengi yo'q, tengsiz, bemi-sol; (*matchless*) tenglashtirib bo'lmaydigan, tengi yo'q, mis-siz.

**Incompatible** [ɪnkəm'pæɪtəb(ə)l] *adj.* sig'ishmaydigan, sig'maydi-gan, zid, xilof.

**Incompetence** [ɪn'kɒmpɪt(ə)ns] *n.* bexabarlik, uquvsizlik, bilim-sizlik; (*leg.*) haqqi yo'qlik, huquqi yo'qlik, haddi sig'maslik. **Incom-petent** *adj.* qobiliyatsiz, qo'lidan ish kelmaydigan, noshud, layo-qatsiz, yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan; (*leg.*) haqqi yo'q, huquqi yo'q.

**Incomplete** [ɪnkəm'pli:t] *adj.* to'la emas, tug'al emas, to'liqsiz, tu-gallanmagan.

**Incomprehensible** [ɪn'kɒmprɪ-'hensɪb(ə)l] *adj.* tushunib bo'l-maydigan, anglab bo'lmaydi-gan.

**Inconceivable** [ɪnkan'si:vəb(ə)l] *adj.* aqlga sig'maydigan, tasav-vur qilib bo'lmaydigan, haddan tashqari.

**Inconclusive** [ɪnken'kluzɪv] *adj.* ishontirolmaydigan, ishonib

bo'lmaydigan, asossiz.

**Incongruity** [ɪnkoŋ'gru:ɪtɪ] *n.* mos emaslik, muvofiq bo'lmashlik, to'g'ri kelmaslik. **Incongruous** *adj.* mos bo'lmagan, to'g'ri kel-magan; (*out of place*) o'rinsiz, chakki, nojo'ya, noma'qul.

**Inconsequent** [ɪn'kɒnsɪkwənt] *adj.* o'z yo'lida mahkam turolma-gan, izchil bo'lmagan, mun-tazam emas, uzlukli. **Inconse-quential** [ɪn,kɒnsɪ'kwɛnʃ(ə)l, ,ɪnkon-] *adj.* ahamiyati kam, ahamiyatsiz, arzimaz.

**Inconsiderable** [ɪnken'sɪdə-rəb(ə)l] *adj.* ahamiyati kam, aha-miyatsiz, arzimaz.

**Inconsiderate** [ɪnken'sɪdəteɪ] *adj.* (*person*) e'tiborsiz, diqqat-siz, parvosiz, beparvo; (*action*) o'ylanmagan, mulohaza qilin-magan.

**Inconsistency** [ɪnken'sɪst(ə)nsɪ] *n.* mantiqsizlik, izchil bo'lmashlik; nomuntazamlik; (*incompatibili-ty*) to'g'ri (muvofiq, mos) kel-mashlik. **Inconsistent** *adj.* izchil bo'lmagan, mantiqsiz, betayin; (*incompatible*) nomuvofiq, mos bo'lmagan, zid.

**Inconsovable** [ɪnken'səʊləb(ə)l] *adj.* qayg'uli, dard-hasrati ko'p.

**Inconsonant** [ɪn'kɒnsənənt] *adj.* ohangdosh bo'lmagan, uyg'un bo'lmagan.

**Inconspicuous** [ɪnknˈspɪkjʊəs] *adj.* sezilmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmas.

**Inconstant** [ɪnˈkɒnst(ə)nt] *adj.* subutsiz, tuturiqsiz, betayin.

**Incontestable** [ɪnknˈtestəb(ə)l] *adj.* shak-shubhasiz, aniq va ravshan.

**Incontinent** [ɪnˈkɒntɪnəns] *n.* tiyiqsizlik, qanoatsizlik, o'zini tuta olmaslik; (*med.*) qovug'i bo'sh, siydikni tuta olmaslik kasalligi.

**Incontrovertible** [ɪnkɒntrəˈvɜːtɪb(ə)l] *adj.* rad qilib bo'lmaydigan, inkor qilib bo'lmaydigan.

**Inconvenience** [ɪnknˈviːniəns] *n.* o'ng'aysizlik, noqulaylik; *v.* noqulaylik keltirmoq. **Inconvenient** *adj.* o'ng'aysiz, noqulay, nobop, noo'rin.

**Incorporate** [ɪnˈkɔːpəreɪt] *v.* (*include*) ulamoq, qo'shmoq, kiritmoq; *v.* (*unite*) birlash(tir)moq, uyush(tir)moq, qo'sh(II)moq.

**Incorporeal** [ɪnknˈpɔːriəl] *adj.* jisimsiz, nomoddiy.

**Incorrect** [ɪnknˈrekt] *adj.* noto'g'ri, xato, yanglish.

**Incorrigible** [ɪnknˈɒrɪdʒɪb(ə)l] *adj.* tuzatib bo'lmaydigan, tuzalmas.

**Incorruptible** [ɪnknˈrʌptɪb(ə)l] *adj.* sotilmaydigan, pora olmaydigan, insofli; (*not decaying*) buzilmaydigan, aynimaydigan.

**Increase** [ɪnkrɪːs; ɪnˈkriːs] *n.* o'sish, yuksalish, rivojlanish; (*in pay etc.*) orttirish, qo'shish; *v.* ko'pay(tir)moq, osh(ir)moq, o's(tir)moq; (*intensify*) kuchay(tir)moq, zo'ray(tir)moq.

**Incredible** [ɪnkrɪdɪb(ə)l] *adj.* aqlga to'g'ri kelmaydigan, aqlga sig'maydigan.

**Incredulous** [ɪnkrɪdʒələs] *adj.* ishonmay, gumonsirab, shubhalanib.

**Increment** [ɪnkrɪmənt] *n.* orttirish, qo'shish; (*profit*) foyda, daromad.

**Incriminate** [ɪnkrɪmɪneɪt] *v.* ayblamoq, qoralamoq, ayb qo'ymoq.

**Incubate** [ɪŋkjʊbeɪt] *v.* (*eggs*) jo'ja ochirmoq (inkubalarda); (*bacteria*) o'stirmoq, yetishtirmoq. **Incubator** *n.* inkubator (*tuxumdan sun'iy ravishda jo'ja ochib chiqaradigan moslama*).

**Inculcate** [ɪnkuˈkæɪt] *v.* joriy qilmoq, kiritmoq, rasm qilmoq.

**Incumbent** [ɪnknˈkʌmbənt] *adj.*: *It is ~ (up) on you* mas'uliyati sizning zimmangizda.

**Incur** [ɪnknˈkɜː(r)] *v.* yo'liqmoq, duchor bo'lmoq, muhtalo bo'lmoq.

**Incurable** [ɪnknˈkjʊərəb(ə)l] *adj.* davolab bo'lmaydigan, tuzalmas, bedavo.

**Incurious** [ɪnknˈkjʊəriəs] *adj.* beparvo, befarq, hech narsaga qiziq-

maydigan.

**Incursion** [ɪn'kɜːʃ(ə)n] *n.* (*invasion*) bostirib kirish; (*attack, raid*) bosqin, hujum.

**Indebted** [ɪn'detɪd] *pred.* (*owing money*) qarzdor; (*owing gratitude*) kerak, zarur, lozim.

**Indecency** [ɪn'diːs(ə)nɪ] *n.* adabsizlik, beadablik, nomunosiblik, kelishmaganlik. **Indecent** *adj.* adabsiz, beadab, nomunosib.

**Indecision** [ɪn'diːsɪʒ(ə)n] *n.* qat'i-yatsizlik, mujmallik, ikkilanish. **Indecisive** [ɪn'diːsɪsɪv] *adj.* qat'i-yatsiz, mujmal, ikkilangan.

**Indeclinable** [ɪn'diːklaɪnəb(ə)] *adj.* turlanmaydigan.

**Indecorous** [ɪn'dekərəs] *adj.* kelishmagan, noloylq, odobsiz, chakki, nojo'ya.

**Indecorum** [ɪn'diːkɔːrəm] *n.* adabsizlik, beadablik, kelishmaganlik.

**Indeed** [ɪn'diːd] *adv.* darhaqiqat, haqiqatan; voqean, haqiqatan ham, chindan ham; (*interrog.*) nahotki? rosidanmi?

**Indefatigable** [ɪn'diːfætɪgəb(ə)] *adj.* charchamas, homas, tolas.

**Indefeasible** [ɪn'diːfiːzɪb(ə)] *adj.* rad qilib bo'lmaydigan, shakshubhasiz.

**Indefensible** [ɪn'diːfensɪb(ə)] *adj.* (*by arms*) mudofaaga yaroqsiz;

(*by argument*) kechirib bo'lmaydigan.

**Indefinable** [ɪn'diːfaɪnəb(ə)] *adj.* belgilab bo'lmaydigan, aniqlab bo'lmaydigan. **Indefinite** [ɪn'deːfɪnɪt] *adj.* noma'lum, noanlq, belgisiz.

**Indelible** [ɪn'delɪb(ə)] *adj.* unutilib bo'lmaydigan, unutilmas; yuvsa ketmaydigan, yuvib, tozalab bo'lmaydigan; - **pencil** kimyoviy qalam.

**Indelicacy** [ɪn'delɪkəsi] *n.* beandishalik, qo'pollik, nazokatsizlik. **Indelicate** *adj.* odobni bilmaydigan, beandisha, qo'pol.

**Indemnify** [ɪn'demniːfaɪ] *v.:* - **against** saqlamoq, ehtiyot qilmoq; xavfsizlantirmoq, xatarsiz qilmoq, bexatar qilmoq; - **for** (*compensate*) kompensatsiya qilmoq, badal, evaz to'lamoq. **Indemnity** *n.* (*against loss*) qoplash, kamini to'ldirish; (*compensation*) kompensatsiya; (*war -*) kontributsiya (*urushda yangilgan davlatning yenggan davlatga to'laydigan tovon*).

**Indent** [ɪn'dent] *v.* (*notch*) damini qaytarmoq, o'tmaslashtirmoq; (*print.*) matnning boshidan yoki yonidan biroz joy tashlab kelish; (*order goods*) buyurtma qilmoq, buyurtirmoq. **Inden'tation** *n.* (*notch*) ilish; (*print*) xatboshi.

**Indenture** *n.* shartnoma, bitim.

**Independence** [ɪnɪˈpɛnd(ə)ns] *n.* mustaqillik, erkinlik, qaram emaslik. **Independent** *adj.* mustaqill, erkin.

**Indescribable** [ɪndɪˈskraɪb(ə)l] *adj.* tasvirlab bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan.

**Indestructible** [ɪndɪˈstrʌktɪb(ə)l] *adj.* mustahkam, buzilmas.

**Indeterminate** [ɪndɪˈtɜːmɪnəl] *adj.* noaniq, nomal'um, aniqlab bo'lmaydigan.

**Index** [ɪndeks] *n.* indeks, ro'yxat; (*pointer*) ko'rsatkich; (*finger*) ko'rsatkich bermoq; *v.* (*enter in* ~) indeksga kiritmoq.

**India** [ɪndiə] *n.* Hindiston. **Indian** *n.* (*from India*) hind; (*from America*) hindu (*Amerikaning mahalliy aholisi*); *adj.* Hindiston va hindlarga oid; hindularga, hindu qabilalariga oid; - *club* to'qmoq, gurzi (*eskil vaqtda urush quroli*); - *corn* makkajo'xori; - *ink* tush, tush siyoh; - *summer* erta kuzning issiq kunlari.

**India-rubber** [ɪndiəˈrʌb(ə)r] *n.* kauçuk (*ba'zi o'simliklar shirasidan olinadigan modda; rezina ishlash uchun qo'llaniladi*); (*eraser*) o'chirg'ich, rezinka.

**Indicate** [ɪndɪˈkeɪt] *v.* ko'rsatmoq, ko'rsatib bermoq, ko'rsatib qo'y-moq. **Indication** *n.* ko'rsatish,

ko'rsatib berish; (*sign*) belgi, ishora, tamg'a, nishon, alomat. **Indicative** *adj.* ko'rsatuvchi ko'rsatadigan; (*gram.*) *n.* fe'lning aniqlik mayli. **Indicator** *n.* ko'rsatkich.

**Indict** [ɪnˈdaɪt] *v.* ayblamoq, yozg'ir-moq, gunohkor qilmoq.

**Indifference** [ɪnˈdɪfrəns] *n.* beparvolik, o'tiborsizlik, ahamiyat bermaslik; (*unimportance*) ahamiyatsizlik. **Indifferent** *adj.* beparvo, beo'tibor, ahamiyatsiz; (*mediocre*) o'rta, o'rtacha, oddiy.

**Indigenous** [ɪnˈdɪdʒɪnəs] *adj.* tub joyga oid; yerli, mahalliy, jaydari. **Indigent** [ɪnˈdɪdʒ(ə)nt] *adj.* muhtoj, kambag'al, qashshoq.

**Indigestible** [ɪndɪˈdʒestɪb(ə)l] *adj.* hazm bo'lishi qiyin. **Indigestion** *n.* me'daning ovqatni hazm qilolmasligi.

**Indignant** [ɪnˈdɪgnənt] *adj.* achchiqlangan, g'azablangan; nafariatlanagan, jahli chiqqan; *be* - achchiqlanmoq, g'azablanmoq. **Indignation** *n.* g'azab, qahr, achchiq.

**Indignity** [ɪnˈdɪgnɪtɪ] *n.* so'klish, haqorat qilish, tahqirlash, xo'rlash.

**Indirect** [ɪndəˈrekt] *adj.* egri; vositali; (*lighting*) yoritish, ravshan qilish; (*econ.*; *gram.*) chetdan keltirilgan, o'zlashtirma.

**Indiscernible** [ˌɪndɪˈsɜːnɪb(ə)l] *adj.* ko'rib bo'lmaydigan, ajratib bo'lmaydigan.

**Indiscreet** [ˌɪndɪˈskriːt] *adj.* uyatsiz, adabsiz, behayo, ehtiyotsiz, beparvo, qo'pol. **Indiscretion** [ˌɪndɪˈskreʃ(ə)n] *n.* uyatsizlik, adabsizlik, behayolik, ehtiyotsizlik, qo'pollik, orqa-oldinga qaramasdan ish qilish.

**Indiscriminate** [ˌɪndɪˈskrɪmɪnət] *adj.* bilib bo'lmaydigan, tanib bo'lmaydigan, chaplashib ketgan; asossiz, sababsiz, dalilsiz; (*confused*) tartibsiz, betartib. **Indiscriminately** *adv.* besarjom, tartibsiz; palapatish.

**Indispensable** [ˌɪndɪˈspɛnsəb(ə)l] *adj.* zarur, juda kerakli, topilmas.

**Indisposed** [ˌɪndɪˈspəʊzd] *pred.* (*unwell*) kasalmand, betob. **Indisposition** *n.* (*ill health*) yengil betob bo'lib qolmoq; (*ailment*) kasallik, betoblik; (*disinclination*) mayl qilmaslik, moyil emaslik, suymaslik.

**Indisputable** [ˌɪndɪˈspjuːtəb(ə)l] *adj.* shubhasiz, aniq, ravshan.

**Indissoluble** [ˌɪndɪˈsɒljʊb(ə)l] *adj.* mustahkam, ayrilmaydigan, ajralmas, mahkam; (*in liquid*) erimaydigan.

**Indistinct** [ˌɪndɪˈstɪŋkt] *adj.* noaniq, g'ira-shira, xira; (*sound only*) mujmal, noaniq.

**Indistinguishable** [ˌɪndɪˈspɪŋɡwɪʃəb(ə)l] *adj.* ajratib bo'lmaydigan, farq qilib bo'lmaydigan.

**Individual** [ˌɪndɪˈvɪdʒʊəl] *n.* Individuum (*mustaqil yashaydigan har bir tirk organizm, har bir ayrim jonivor yoki o'simlik, har bir ayrim shaxs, odam*), shaxs, kishi, odam, shaxsiyat; *adj.* Individual, shaxsiy, bir shaxsga tegishli. **Individualism** *n.* individualizm, shaxsiyatparastlik. **Individualist** *n.* individualist, shaxsiyatparast. **Individualistic** *adj.* Individualizm ..., Individualizmga berigan. **Individuality** *n.* individuallik.

**Indivisible** [ˌɪndɪˈvɪzɪb(ə)l] *adj.* bo'linmaydigan, bo'linmas, taqsim bo'lmaydigan.

**indoctrinate** [ɪnˈdɒktrɪˈneɪt] *v.* ta'sir etmoq, ko'ndirmoq, ma'qul ettirmoq.

**Indolence** [ɪnˈdɒləns] *n.* yalqovlik, dangasalik, erinchoqlik. **Indolent** *adj.* yalqov, dangasa, ishyoqmas, erinchoq.

**Indomitable** [ɪnˈdɒmɪtəb(ə)l] *adj.* kuchli, shiddatli, to'xtatib bo'lmaydigan.

**Indonesia** [ˌɪndəʊˈniːziə] *n.* Indoneziya.

**Indoor** [ɪnˈdɔː(r)] *adj.* uyniki, uydagi, uyning ichida joylashgan. **Indoors** *adv.* uyning ichida



- uyda.
- Indubitable** [ɪnˈdjuːbɪtəb(ə)l] *adj.* shubhasiz, shaksiz.
- Induce** [ɪnˈdjuːs] *v.* (*prevail on*) majbur qilmoq, majbur etmoq; (*bring about*) chaqirmoq, chaqirib keltirmoq. **Inducement** *n.* tilak, xohish, istak, ragʻbat.
- Induct** [ɪnˈdʌkt] *v.* kiritmoq, olib kirmoq (mansabga).
- Induction** [ɪnˈdʌktʃ(ə)n] *n.* induksiya (*fizika*: elektr va magnit energiyasining yaqin atrofdagi jismlarga boʻlgan taʼsiri; *falsafa*: ayrim fikrlardan umumiy xulosa-lar chiqarishda qoʻllaniladigan muhokama usuli).
- Indulge** [ɪnˈgʌldʒ] *v.* koʻngilchanlik qilmoq, boʻsh qoʻymoq. **Indulgence** *n.* shafqat, marhamat, muruvvat, raʼy (rioya) qilish. **Indulgent** *adj.* shafqatli, muruvvatli, marhamatli, rioyali.
- Industrial** [ɪndʌstriəl] *adj.* sanoatga oid; sanoatlashgan. **Industrialist** *n.* sanoatchi, sanoat korxonasining egasi. **Industrious** *adj.* mehnatsevar, tirishqoq, serhafsala, serharakat. **Industry** *n.* sanoat, industriya; (*diligence*) tirishqoqlik, hafsala, qunt.
- Inebriate** [ɪˈniːbrɪət; ɪˈniːbrɪˌeɪt] *n.* aroxoʻr, ichkilikka berilgan; *adj.* mast; *v.* mast qilmoq, kayfni oshirmoq.

- Inedible** [ɪnˈedɪb(ə)l] *adj.* yeb boʻlmaydigan, yeyishga yaramaydigan.
- Ineffable** [ɪnˈefəb(ə)l] *adj.* taʼnfga sigʻmaydigan, tushuntirib boʻlmaydigan.
- Ineffective** [ɪnɪˈfektɪv] *adj.* natijasiz, behuda; (*person*) qobiliyatsiz, qoʻlidan ish keltirmaydigan, noshud, layoqatsiz.
- Ineffectual** [ɪnɪˈfektʃʊəl, -ʃʊəl] *adj.* natijasiz, behuda.
- Inefficiency** [ɪnɪˈfɪʃ(ə)nsɪ] *n.* unumsizlik, samarasizlik; (*of person*) layoqatsizlik, hunarsizlik, qobiliyatsizlik. **Inefficient** *adj.* unumsiz, samarasiz; layoqatsiz, qobiliyatsiz, salohiyatsiz.
- Inelegant** [ɪnˈelɪɡənt] *adj.* kelishmagan, orasta boʻlmagan, xushbichim emas.
- Ineligible** [ɪnˈelɪdʒɪb(ə)l] *adj.* loʻgʻri keltirmaydigan, noloyiq.
- Inept** [ɪˈnept] *adj.* (*out of place*) oʻrinsiz, chakki, nojoʻya, nomaʼqul; (*silly*) tentak, ahmoq; (*unskillful*) noʻnoq, noshud, epsiz.
- Inequality** [ɪnɪˈkwɒlɪtɪ] *n.* tengsizlik.
- Inequitable** [ɪnˈekwɪtəb(ə)l] *adj.* haqqoniyatsiz, adolatsiz, nohaq.
- Ineradicable** [ɪnɪˈrædɪkəb(ə)l] *adj.* yoʻq qilib (yoʻqolib) boʻlmaydigan, barham berib boʻlmaydigan.

**Inert** [ɪ'nɜ:t] *adj.* faoliyatsiz, sust, layoqatsiz; (*sluggish*) johil, qoiloq, nodon. **Inertia** [ɪ'nɜ:ʃə, -fɪə] *n.* (*phys.*) Inersiya (*jismlarning tinch holatini yoki oldin harakat qilish holatini saqlash xususiyati*); (*sluggishness*) inert, inersiyali.

**Inescapable** [ɪnɪ'skeɪpəb(ə)] *adj.* muqarrar, bo'lishi aniq, turgan gap.

**Inessential** [ɪnɪ'senʃ(ə)] *adj.* ahamiyatsiz, muhim bo'lmagan.

**Inestimable** [ɪnɪ'stɪməb(ə)] *adj.* qimmatbaho, bebaho, juda qadri.

**Inevitable** [ɪnɪ'veɪtəb(ə)] *adj.* muqarrar, bo'lishi aniq, turgan gap.

**Inexact** [ɪnɪg'zækt] *adj.* noaniq, to'g'ri emas.

**Inexcusable** [ɪnkɪ'ækju:zəb(ə)] *adj.* kechirib bo'lmaydigan, kechirilmas.

**Inexhaustible** [ɪnɪg'zɔ:stɪb(ə)] *adj.* bitmas-tuganmas, behad.

**Inexorable** [ɪnɪ'ekərəb(ə)] *adj.* qahri qattiq, shafqatsiz, rahmsiz, toshyurak.

**Inexpedient** [ɪnkɪ'æpi:dɪənt] *adj.* maqsadga muvofiq bo'lmagan, noma'qul, nomuvofiq, foydasiz.

**Inexpensive** [ɪnkɪ'spensɪv] *adj.* qimmat emas, arzon.

**Inexperience** [ɪnkɪ'æpiərəns] *n.* tajribasizlik, malakasizlik. **Inexperienced** *adj.* tajribasiz, mala-

kasiz.

**Inexpert** [ɪnɪ'ekspɜ:t] *adj.* tajribasiz, mahoratsiz, uquvsiz, no'noq.

**Inexplicable** [ɪnkɪ'splɪkəb(ə)], **ɪnɪ'ekə-]** *adj.* bayon qilib bo'lmaydigan, tushunib bo'lmaydigan, tushuntirib bo'lmaydigan.

**Inexpressible** [ɪnkɪ'æprɪsɪb(ə)] *adj.* ifodalab bo'lmaydigan, aytib bo'lmaydigan, tavsif qilib bo'lmaydigan. **Inexpressive** *adj.* ifodasiz, hech narsa anglab bo'lmaydigan.

**Inextinguishable** [ɪnkɪ'stɪŋgwɪʃəb(ə)] *adj.* doimiy, mangu, uzluksiz, abadiy.

**Inextricable** [ɪnɪ'ekstrɪkəb(ə)], **ɪnkɪ'atrɪk-]** *adj.* (*of state*) chorasiz, hojtsiz; (*of problem*) chalkash, chuvalgan, chigal.

**Infallible** [ɪn'fæɪl(ə)] *adj.* yanglishmaydigan, xato qilmaydigan, aybsiz.

**Infamous** [ɪnfəməs] *adj.* (*person*) jirkanch, yaramas, pastkash, ifos, razil, qabih; (*action*) sharmandall, uyalli. **Infamy** *n.* sharmandalik, ayb, uyat, isnod, nomus, yomon olli.

**Infancy** [ɪnfənəsɪ] *n.* yosh bolalik, go'daklik, chaqaloqlik. **Infant** *n.* yosh bola, go'dak, chaqaloq.

**Infantile** [ɪn'fæɪntɪ, saɪd] *n.* (*action*) bola o'ldirish, bolani oldi-

- riah; (person) bola o'ldirgan kishi. **Infantile** *adj.* yosh bolalarcha, go'dakiarcha.
- Infantry** ['ɪnfəntri] *n.* piyoda askarlar; *adj.* piyoda askarlarga oid, piyoda. **Infantryman** *n.* piyoda askar, piyoda.
- Infatuate** [ɪn'feɪtʃu, eɪt] *v.* boshni aylantirmoq, o'tkinchi sevgiga muhtab bo'lmoq. **Infatuation** *n.* kuchli ishq, sevgiga berilib ketish.
- Infect** [ɪn'fekt] *v.* yuqtirmoq. **Infection** *n.* yuqumli kasal, maraz, yuqumli kasallik tarqatuvchi mikroblar. **Infectious** *adj.* yuqumli, yuqadigan; (*fig.*) havasni keltiradigan, ta'singa beriladigan, qiziqtiradigan.
- Infelicitous** [ɪn'fɛlɪtʃəs] *adj.* baxtsiz, tolesiz, baxti qora, sho'rik, muvaffaqiyatsiz. **Infelicity** *n.* batazilik, kulfat, ofat.
- Infer** [ɪn'fɜ:(r)] *v.* kelib chiqmoq, xulosa qilmoq; nazarda tutmoq, o'ylamoq. **Inference** [ɪn'fɛrəns] *n.* xulosa.
- Inferior** [ɪn'fɪəriə(r)] *adj.* past, yomon, eng oddiy; (*in quality*) yomonroq, yomon, battar, juda yomon; *n.* bo'yaundirilgan, toba, muta. **Inferiority** *n.* pastroq daraja, qlymat, sifat va h.k.; ~ complex o'zini pastroq deb his qilish.
- Infernal** [ɪm'fɜ:n(ə)l] *adj.* do'zaxiy, jahannamiy, do'zaxga oid. **Inferno** *n.* (*hell*) do'zax, jahannam; (*conflagration*) katta yong'in; yong'in chiqqan joy.
- Infertile** [ɪn'fɜ:təɪl] *adj.* hosilsiz, unumsiz, kamhosil, samarasiz.
- Infested** [ɪn'festɪd] *adj.*: be - with lo'lib-toshib ketmoq, tiqilib ketmoq.
- Infidel** [ɪn'fɪd(ə)l] *n.* ishonchsiz, iymonsiz, xudosz, dinsiz; *adj.* dahriy, xudoga, dinga ishonmaydigan. **Infidelity** [ɪn'fɪdɛləti] *n.* bevafoqlik, xiyonat.
- Infiltrate** [ɪn'fɪl,treɪt] *v.* (*fluid*) suzg'ichdan o'tkizmoq, filtrlamoq; (*of persons*) -ga kirmoq, -ga suqilib kirmoq.
- Infinite** [ɪn'fɪnɪt] *adj.* cheksiz, benihoya, bepoyon, chegarasiz. **Infini'tesimal** *adj.* benihoya kichik, benihoya kam. **In'finite** *n.* infinitiv, fe'ning noaniq shakli. **In'finity** *n.* cheksizlik, benihoyalik, bepoyonlik, chegarasizlik.
- Infirm** [ɪn'fɜ:m] *adj.* kuchsiz, zaif. **Infirmity** *n.* kasalxon. **Infirmity** *n.* kuchsizlik, zaiflik.
- Inflame** [ɪn'fleɪm] *v.* o't ol(dir)moq, alangan(tir)moq, o'ra(n)moq; (*excite*) qo'zg'a(t)moq, hayajonga kel(tir)moq; (*med.*) yallig'la(n)moq, shish(ir)moq. **Inflam-**

- mable** [ɪn'flæməb(ə)] *adj.* tez o't oladigan, tez yonadigan. **Inflammation** *n.* o't olish, alanganlanish, o'rtanish; (*med.*) yallig'lanish, shishish. **Inflammatory** *adj.* hayajonlantiradigan, ta'sirlantiradigan, to'liqlantiradigan; (*med.*) yallig'lantirilgan.
- Inflate** [ɪn'fleɪt] *v.* puflab, dam berib shishirmoq; (*econ.*) inflyatsiyani amalga oshirmoq, inflyatsiyani tatbiq qilmoq. **Inflated** *adj.* (*bombastic*) gerdaygan, bosar-tusarini bilmagani, mag'rur. **Inflation** *n.* puflash, dam berib shishirish; (*econ.*) inflyatsiya (*putning qadrsizlanishi*).
- Infect** [ɪn'fekt] *v.* bukmoq, ichkariga qayirmoq, o'ymoq, egmoq; (*gram.*) so'zning oxirgi bo'g'inini o'zgartirmoq. **Infection**, **-ion** *n.* bukish, ichkariga qayirish, egish; (*gram.*) fleksiya, so'z turlanishi, so'z oxirining o'zgarishi.
- Inflexible** [ɪn'fleksɪb(ə)] *adj.* bukilmamas, egilmaydigan, qayirilmaydigan; (*fig.*) matonatli, mahkam, sabolli, qat'iy.
- InFLICT** [ɪn'flikt] *v.* (*blow*) yetkazmoq, uchratmoq, bermoq; (*suffering*) sabab bo'lmoq, yetkazmoq, keltirmoq; (*penalty*) solmoq, bermoq; - *e.s.* (up)on ma-
- jburaq qabul qildirmoq.
- Inflow** [ɪn'fləʊ] *n.* oqib kelish, quyilib kelish, oqib tushish.
- Influence** [ɪnfluəns] *n.* ta'sir, nufuz, e'tibor; *v.* ta'sir etmoq. **Influent** [ɪnfluənt] *adj.* nufuzli, e'tiborli; mo'tabar.
- Influenza** [ɪnflu'enzə] *n.* gripp (*yuqumli kasallik*).
- Influx** [ɪn'flʌks] *n.* (*of stream*) quyish, quyilish; (*of persons*) yopirilib kelish.
- Inform** [ɪn'fɔ:m] *v.* xabar qilmoq, bildirmoq, darak bermoq, ma'lum qilmoq; chaqimchilik qilmoq, chaqmoq.
- Informal** [ɪn'fɔ:m(ə)] *adj.* g'ayri-rasmiy, rasmiylashtirilmagan.
- Informant** [ɪn'fɔ:ment] *n.* xabarchi, xabar benuvchi. **Information** *n.* axborot, ma'lumot. **Informers** *n.* maxfiy suralda xabar yetkazib turuvchi chaqimchi.
- Infraction** [ɪn'frækʃ(ə)n] *n.* qoidani buzish, qoidaga rioya qilmaslik.
- Infra-red** [ɪnfrə'red] *adj.* infraqizil nurlar (*qizil tusli nurga nisbatan to'liqini uzunroq bo'lgan va ko'zga ko'rinmaydigan issiqlik nurlari*).
- Infrequent** [ɪn'fri:kwənt] *adj.* nodir, kamyob, kamdan-kam uchraydigan.
- Infringe** [ɪn'frɪndʒ] *v.* (*violate*) buzmoq; - (up)on qasd qilmoq,

tajovuz (suiqasd) qilmoq, ko'z oylatirmoq, qasdiga (paylga) lushmoq. **Infringement** *n.* buzish; qasd, suiqasd, tajovuz.

**Infuriate** [ɪn'fʊrɪ, eɪt] *v.* qattiq g'azablantirmoq, qulurtirmoq.

**Infuse** [ɪn'fju:z] *v.* quymoq; (*fig.*) ta'sir etmoq, ko'ndirmoq, ma'qul ettirmoq; (*sleep*) nastoyka qilmoq, solib qo'yimoq. **Infusion** *n.* quyish; ta'sir etish, ko'ndirish, ongiga singdirish, ma'qul qildirish; shira, qiyom, sharbat.

**Ingenious** [ɪn'ɟi:niəs] *adj.* ixtiro etishga old. **Ingenulty** *n.* ixtirochilik, kashfiyotchilik.

**Ingenuous** [ɪn'ɟen]oəs] *adj.* samimiy, rostgo'y, ochiq ko'ngilli, sofdil, hiylasiz, makrsiz.

**Inglorious** [ɪn'ɡlɔ:riəs] *adj.* sharmanda, sharafsiz.

**Ingot** ['ɪŋɡot, -get] *n.* quyilgan (quyma) metall bo'lagi, yombi.

**Ingrained** [ɪn'greɪnd] *adj.* singib kelgan, ildiz olgan.

**Ingratiate** [ɪn'ɡreɪʃɪ, eɪt] *v.* - o.s. mug'ombirlik bilan bironing pinjiga kirib olmoq.

**Ingratitude** [ɪn'ɡrætɪt, tʃu:d] *n.* nonko'dlik, ko'mamaklik, yaxshilikni bilmaslik, nontepkllik.

- locality** [ləʊ'kælɪtɪ] *n.* (*site*) o'rin, joylashgan yer; (*district*) joy, yer.
- localize** [ləʊ'keɪlaɪz] *v.* (*restrict*) ma'lum joyda to'xtatmoq.
- locate** [ləʊ'keɪt] *v.* (*place*) joylashingtirmoq; (*discover*) topib o'lmoq, oshkor qilmoq; be -d bo'lmoq, bor bo'lmoq.
- location** [ləʊ'keɪtʃ(ə)n] *n.* (*position*) turgan joyl, o'rinl; joyini aniqlash (*biror narsaning*); on - (*cin.*) asliyatda.
- locative** [ləʊ'keɪtɪv] *adj.* (*n.*) mahalliy.
- loch** [lɒk, lɒx] *n.* (*lake*) ko'l; (*sea* -) (tor) dengiz qo'ltig'i.
- lock** [lɒk] *n.* (*of hair*) gajak, jingalak soch; soch.
- lock<sup>2</sup>** [lɒk] *n.* qulf, zanjir; (*tech.*) stopor (*mexanizmlarning yurib turgan bo'laklarini to'xtatadigan va mahkamlab qo'yadigan asbob*); (*canal*) shlyuz (*suv sathi turlicha bo'lgan bir joydan ikkinchi joyga kemalarni o'tkazish uchun xizmat qiluvchi gidrotexnik inshoot*); *v.* qulflamoq, berkitib qo'ymoq; qulflanmoq, berkinmoq. **locker** [ləʊke(r)] *n.* kichik javon.
- locket** [lɒkɪt] *n.* medalon.
- lockjaw** [lɒk'dʒɔ:] *n.* qoqshol.
- lock-keeper** [lɒkki:pe(r)] *n.* shlyuz boshlig'i.
- lockout** [ləʊkaʊt] *n.* lokaut (*korxo-*

- na yopilishi munosabati bilan ishchilarning yoppasiga ishdan bo'shatilishi*). **locksmith** *n.* chilangar. **lock-up** *n.* (cell) mahbuslar yashaydigan uy.
- locomotion** [ləʊkə'məʊʃ(ə)n] *n.* siljish, joyidan qo'zg'alish. **locomotive** *adj.* harakatlantiruvchi; *n.* (rail.) lokomotiv (*parovoz, teplovoz va sh.k.larning umumiy nomi*).
- locust** [ləʊkəsɪ] *n.* chigirtka (*also collect.; fig.*).
- locution** [lək'ju:ʃ(ə)n] *n.* ibora.
- lode** [ləʊd] *n.* qatlam, kon. **lode-star**, **load-** *n.* Qutb yulduzi; (*fig.*) yo'qchi yulduz. **lodestone**, **load-** *n.* magnitli temirtoash; (*magnet*) magnit, ohanrabo.
- lodge** [lɒdʒ] *n.* (*hunting*) (ovchi) uychas; (*porter's*) shveytsarga oid, qorovulxona; (*Masonic*) masonlar jamiyatining bo'limi; *v.* (*accommodate*) joylashlir-moq; (*deposit*) saqlashga bermoq; (*complaint*) bermoq (*shikoyatni, arizani*); (*reside*) yashamoq; (*stick*) o'tirib qolmoq. **lodger** *n.* istiqomat qiluvchi. **lodging** *n.* (*also pl.*) kvartira, (ijaradagi) xona.
- loft** [lɒft] *n.* (attic) cherdak; (*for hay*) pichanxona, somonxona; (*for pigeons*) kaptarxona.
- lofty** [lɒftɪ] *adj.* juda baland; (*ele-*
- vated*) yuksak, ko'tarinki.
- log** [lɒg] *n.* xoda, yog'och; (*for fire*) g'o'la; (*naut.*) lag, kema borti.
- logarithm** [ləgə,rɪð(ə)m] *n.* log-arifm (*daraja ko'rsatkichi*). **logarithmic** *adj.* logarifmga oid.
- log-book** [lɒgbʊk] *n.* (*naut.*) vaxta jurnali; (*seaman.*) bort jurnali (*samolyotning*); (*registration book*) formulyar, xizmat daftari.
- loggerhead** [lɒgə,hed] *n.*: *be at -s* janjallashmoq, arazlashmoq.
- logic** [lɒdʒɪk] *n.* mantiq. **logical** *adj.* (*of logic*) mantiqiy; (*consistent*) mantiqan. **logician** [lə'dʒɪʃ(ə)n] *n.* mantiqchi, mantiqshunos.
- logistics** [lə'dʒɪstɪks] *n.* moddiy-texnik ta'minot.
- loin** [lɔɪn] *n.* bel; (*cul.*) biqin go'shti.
- litter** [lɪtə(r)] *v.* daydimoq, sandiroqlamoq.
- London** ['lʌnd(ə)n] *n.* London. **Londoner** *n.* londonlik.
- lone** [ləʊn], **lonely** *adj.* yolg'iz, yakka, yakkalangan. **loneliness** *n.* yolg'izlik.
- long**<sup>1</sup> [lɒŋ] *v.* astoydil xohlamoq; qo'msamoq.
- long**<sup>2</sup> [lɒŋ] *adj.* (*space*) cheksiz; (*time*) uzoq, davomli; (*protracted*) davomiy; (*in measurements*) uzunligi ...ga teng; (*in*

- the - run oxir-oqibat; *adv.* uzoq; --after ancha vaqt o'tib; -- ago anchadan buyon; as - as toki; -- before -dan ancha oldin. longboat *n.* barkas, katta qayiq. longevity [lon'dʒeviti] *n.* uzoq umr, ko'p yashash.
- longing [lɔŋɪŋ] *n.* ashaddiy xohish, ehlrosli istak; sog'inch.
- longitude [lɔŋɡɪ,tju:d, 'lɔndʒ-] *n.* uzunlik.
- long-lived [lɔŋ'lɪvd] *adj.* uzoq yashaydigan, uzoq umr ko'radigan. long-sighted *adj.* uzoqni ko'radigan; (*fig.*) uzoqni o'ylaydigan, mulohazali. long-suffering *adj.* sabri tunganmas; ko'p jabr-jafo chekkan. long-term *adj.* uzoq muddatli. longways *adv.* uzunasiga. long-winded *adj.* sergap.
- look [lʊk] *n.* (*glance*) nigoh; (*appearance*) ko'rinish, ko'rk; (*expression*) ifoda, holat; *v.* qaramoq; boqmoq, nazar solmoq; (*appear*) ko'rinmoq; (*face*) -ga chiqmoq; -- about atrofga nazar solmoq; -- after (*attend to*) qarab turish (*bolaga*); -- down on nafratlanmoq, hazar qilmoq; -- for qidirmoq; -- forward to oldindan sezib lazzatlanmoq; -- in on ma'ralamoq; -- into (*investigate*) sinchiklab ko'rmoq; -- like -ga o'xshamoq; it -s ilke
- rain yomg'ir yog'adiganga o'xshaydi; -- on (*regard*) deb hisoblamoq; -- out oynadan qaramoq; hushyor bo'lmoq; ehtiyot bo'ling!; ogoh bo'ling!; -- over, through ko'rib chiqmoq; -- up (*raise eyes*) boshini ko'tarib qaramoq; (*in dictionary etc.*) axtarmoq; (*improve*) yaxshilanoq; -- up to hurmat qilmoq. looker-on *n.* tomoshabin. looking-glass *n.* ko'zgu.
- loom<sup>1</sup> [lu:m] *n.* to'qish dastgohi.
- loom<sup>2</sup> [lu:m] *v.* noaniq namoyan bo'lmoq; (*fig.*) hazirlanmoq.
- loop [lu:p] *n.* sirtmoq; *v.* sirtmoq hosil qilmoq; -- the ~ (*aeron.*) sirtmoqsimon doira qilmoq (*samoilyot sportidagi shakl*).
- loophole ['lu:pheʊl] *n.* tuynuk; (*fig.*) raxna.
- loose [lu:s] *adj.* (*free*) erkin; (*not fixed*) mustahkamlanmagan; (*inexact*) noaniq; (*not compact*) bo'sh, tarqoq; (*tax*) bebosh, intizomsiz; be at a -- end bekor yurmoq; *v.* (*free*) ozod etmoq; (*untie*) yechmoq. loosen *v.* bo'shash(tir)moq.
- loot [lu:t] *n.* o'g'irlangan mol-mulk, o'lja; *v.* talamoq, o'g'irlamoq.
- lop [lɒp] *v.* (*tree*) butamoq; (- off) kesib olmoq.
- lope [ləʊp] *v.* haxkalab sakrash.

**lopsided** [lɒp'saɪdɪd] *adj.* qiyshaygan, bir tomonga egilgan.

**loquacious** [lɒkwə'ʃəs] *adj.* sergap, vaysaqi. **loquacity** [lɒkwæ'sɪtɪ] *n.* sergaplik, ezmallik.

**lord** [lɔ:d] *n.* (master) xo'jayin, janob; (the L~; eccl.) Xudo; (peer, title) lord (unvon); *v.*: - II over xo'rhamoq, ezmoq. **lordly** *adj.* (haughty) dimoqdar, manman. **lordship** *n.* hokimiyat, hukmronlik; (title) janobi oliylari.

**lore** [lɔ:(r)] *n.* bilim (ma'lum sohada).

**lorgnette** [lɔ:'njel] *n.* lornet (bukdama ko'zoynak, teatr durbini).

**lorry** [lɒrɪ] *n.* yuk mashinası.

**lose** [lu:z] *v.* yo'qotmoq; (forfeit) mahrum bo'lmoq; (game etc.) yutqazmoq; (suffer loss) ziyon ko'moq; (clock) orqada qolmoq.

**loss** [lɒs] *n.* zarar, ziyon; (in game) mag'lubiyat; at a ~ (puzzled) qiyinchilikda, laaljubda.

**lot** [lɒt] *n.* qur'a; (destiny) qismat; (of goods) to'p, partiya (mahsulotlarga nisbatan); a -, ~s birtalay; the ~ barcha(ni), hamma(ni).

**lotion** ['leɪʃ(ə)n] *n.* malham.

**lottery** ['lɒtəri] *n.* lotereya.

**lotto** [lɒtəʊ] *n.* loto (o'yin).

**lotus** ['ləʊtəs] *n.* nilufar (gul).

**loud** [laʊd] *adj.* (sound) baland (ovoz); (noisy) shovqinli; (co-

lour) ko'zga yaqqol tashlanadigan, yorqin; out ~ ovoz chiqarib, eshittirib. **loud-speaker** *n.* radiokamay; dinamik.

**lounge** [laʊndʒ] *n.* foye (teatr, kino va shu kabi joylarda tanaffus paytida tomoshabinlar dam oledigan joy); (sitting room) mehmonxona; *v.* yalpayib o'tilmoq; (idle) bekor yurmoq. **lounger** *n.* shezlong (yengil oromkursining bir turi).

**lour** ['laʊə(r)], **lower**² ['ləʊə(r)] *v.* (person, sky) xo'mraymoq.

**louse** [laʊs] *n.* bit. **lousy** ['laʊzi] *adj.* billiqi, bit bosgan; (coll.) chaloq, yaramas.

**lout** [laʊt] *n.* bezori, tarbiyasiz.

**loutish** *adj.* bezorilarcha.

**lovable** [lʌvəb(ə)lɪ] *adj.* yoqimli, dilbar. **love** *n.* sevgi, muhabbat; (sweetheart) mahbub, sevikli; in ~ with oshiq; *v.* sevmok; **lovely** *adj.* go'zal, chiroyli; (delightful) jazibador, yoqimli. **lover** *n.* jazman, o'ynash.

**low**¹ [ləʊ] *n.* (of cow) ma'rash; *v.* ma'ramoq.

**low**² [ləʊ] *adj.* past, baland emas; (quiet) sokin, tinch; (coarse) dag'al, qo'rs; (weak) kuchaiz, zaif, susli.

**low-alcohol** [ləʊ'ælkə,hɒl] *adj.* alkogol miqdori past. **low-calorie** *adj.* past kaloriyalı.

- lower<sup>1</sup> ['ləʊə(r)] *v.* tushirmoq; pasaytirmoq.
- lower<sup>2</sup> *see* four
- lower<sup>3</sup> ['ləʊə(r)] *adj.* pastki, eng kichik.
- low-fat ['ləʊfæt] *adj.* yog'l kam, yog' miqdori oz bo'lgan.
- lowland ['ləʊlənd] *n.* past tekislik.
- lowly ['ləʊli] *adj.* kamtar, kamsuqum.
- low-paid ['ləʊpeɪd] *adj.* kam to'langdigan.
- loyal ['ləʊəl] *adj.* sodiq, sadoqatli.  
loyalty *n.* sadoqat, vafodorlik.
- lozenge ['ləʊzɪndʒ] *n.* (*shape*) romb (*hamma tomonlari teng parallelogramm*).
- LP *abbr.* (*of long-playing record*) uzoq chaladigan plastinka.
- L-plate [elplɛɪt] *n.* ( *mashinada*) «o'quv» yozuvli taxtacha, belgi.
- Ltd. *abbr.* (*of limited liability company*) mas'uliyati cheklangan jamiyat.
- lubricant ['lu:bri:kənt] *n.* moy, moylash materialli. lubricate *v.* moylamoq lubrication *n.* moy.
- luceme [lu:'sɜ:n] *n.* beda.
- lucid [lu:'sɪd] *adj.* aniq, ravshan, tushunarli.
- luck [lʌk] *n.* (*chance*) taqdir; (*good* ~) baxt, omad; (*bad* ~) muvafiqiyatsizlik. luckily *adv.* xayriyat, yaxshiyam. luckless *adj.* baxtsiz. lucky *adj.* baxtliyor; (*successful*) omadli.
- lucrative ['lu:kreɪtɪv] *adj.* daromadli.
- lucre [lu:'ke(r)] *n.* daromad.
- ludicrous ['lu:dɪkrəs] *adj.* bema'nli, kulgill.
- lug [lʌg] *v.* (*drag*) tortmoq, sudramoq.
- luggage ['lʌgɪdʒ] *n.* baga, yuk.
- lugubrious [lu:'gu:briəs, lu-] *adj.* qayg'uli, g'amgin.
- lukewarm [lu:'kwo:m, 'lu:k-] *adj.* iliqroq; (*fig.*) baparvo, loqayd.
- lull [lʌl] *n.* (*in storm*) jimjitlik; (*interval*) tanaffus; *v.* (*to sleep*) allalamoq; (*suspicious*) g'afalda qoldirmoq, xotirjam qilib qo'y-moq; tinchimoq, bosilmoq.
- lullaby [lʌlə'baɪ] *n.* alla qo'shig'i.
- lumbago [lʌm'beɪgəʊ] *n.* belog'riq, bel sanchig'i.
- lumber [lʌmbe(r)] *adj.* belga oid, beldagi.
- lumber<sup>1</sup> ['lʌmbe(r)] *v.* (*move*) og'ir, beso'naqay, qo'pol yurmoq.
- lumber<sup>2</sup> [lʌmbe(r)] *n.* (*domestic*) eski-tuski; (*lumber*) yog'och-taxta materiallari; *v.* to'sib qo'y-moq.
- lumber-jack *n.* daraxt kesuvchi.
- lumber-room *n.* kichkina omborxonasi.
- luminary [lu:'mɪnəri] *n.* yoritqich, mash'al.

**luminous** [lu:'mɪnəs, 'lju:-] *adj.* yارقiraydigan, yaraqlaydigan.

**lump** [lʌmp] *n.* keesak, parcha, bo'lak, burda; (*swelling*) shish; (*lof*) uyum, to'da; *v.*: - together bir uyumga qorishtirmoq.

**lunacy** [lu:'neɪsɪ] *n.* tentaklik, ahmoqlik.

**lunar** [lu:'ne(r), 'lju:-] *adj.* oy ... oyga oid.

**lunatic** [lu:'neɪtɪk] *adj. n.* lunatik, oyparast (*uyqusida yuradigan odam*); eqqsiz, jinnl.

**lunch** [lʌntʃ] tushlik, ikkinchi nonushta; *v.* tushlik qilmoq. **lunch-hour, lunch-time** *n.* tushlik vaqti. **luncheon** [lʌntʃ(e)n] *n.* rasmiy tushlik, nonushta; - voucher tushlik uchun talon.

**lung** [lʌŋ] *n.* o'pka.

**lunge** [lʌndʒ, 'lju:-] *n.* (*sport*) hujum; zarba; *v.* (*fencing*) qarshi chiqmoq.

**lupin(e)** [lu:'pɪn] *n.* lyupin, bo'r-lukkak (*o'simlik*).

**lupine** [lu:'peɪn] *adj.* bo'riga xos.

**lupus** [lu:'pəs] *n.* teri sili.

**lurch<sup>1</sup>** [lɜ:tʃ] *n.*: leave in the ~ og'ir ahvolda tashlab ketmoq.

**lurch<sup>2</sup>** [lɜ:tʃ] *v.* (*stagger*) gandraklab yurmoq.

**lure** [ljʊə(r), lʊə(r)] *n.* havasni keltirish, vasvasa, yo'dan ozdirish; *v.* havasini keltirmoq; yo'dan ozdirmoq.

**lurid** [ljʊərɪd, 'lʊə-] *adj.* lovullab turadigan, ko'zga cho'g'dek tashlanadigan; (*sensational*) shov-shuvli, hammani hayratga soladigan.

**lurk** [lɜ:k] *v.* yashinmoq, bekinmoq.

**luscious** [lʌʃəs] *adj.* mazali, shirin.

**lush** [lʌʃ] *adj.* shirali, sersuv.

**lust** [lʌst] *n.* hirs, nafs; *v.* qattiq xohlamoq (*biror narsani*). **lustful** *adj.* hirsga berilgan, shahvoniy.

**lustre** ['lʌstə(r)] *n.* (*gloss*) jilo, sayqal; (*splendour*) yalliroqlik, jilva; (*chandelier*) qandil.

**lustrous** *adj.* silliq, yaltiroq, yorqin.

**lusty** [lʌstɪ] *adj.* (*healthy*) sog'lom; (*lively*) tirik.

**lute<sup>1</sup>** [lu:t, lju:t] *n.* (*mus.*) ud.

**lute<sup>2</sup>** [lu:t, lju:t] *n.* (*clay etc.*) mumsimon modda, zamazka.

**Luxemburg** [lʌksəm,bɜ:g] Lyuksemburg.

**luxuriant** [lʌg'zjʊərɪənt, lʌk'sj-, lʌg'zʊə-] *adj.* hashamatli, dab-dabali.

**luxuriate** [lʌg'zjʊəriət, lʌk'sj-, lʌg'zʊə-] *v.* rohatlanmoq, lazzatlanmoq.

**luxurious** [lʌg'zjʊəriəs, lʌk'sj-, lʌg'zʊə-] *adj.* muhtasham, dang'illama. **luxury** [lʌkʃəri] *n.*

dabdaba, hasham.

lye [laɪ] *n.* kul suvi, ishqorli suv.

lymph [lɪmf] *n.* limfa (*odam va hayvonlar tanasidagi rangsiz suyuqlik*). *lym'phatic adj.* limfaga oid.

lynch [lɪntʃ] *v.* sudsiz-so'roqsiz jazolamoq, olomon qilmoq; - *law* Linch sudi.

lynx [lɪŋks] *n.* silovsin (*hayvon*).

lyre [laɪə(r)] *n.* lira (*pul birligi*).

lyric [lɪrɪk] *n.* linka; qo'shiq matni.

*lyrical adj.* link, linkaga oid. *lyr-*

*icism* [lɪr,ɪz(ə)m] *n.* lirizm.

## M

*m. abbr. (of metre(s)) m., metr; (of mile(s)) milya (turi daviatlar-da turticha bo'lgan masofa o'chovi); (of million(s)) mln., million.*

*MA abbr. (of Master of Arts) gumanitar fanlar magistri.*

*macabre* [mæ'kɑ:br] *adj.* qo'r-qinchili, vahimali, dahshatli.

*macadam* [mæ'kædəm] *n.* shag'al, maydalangan tosh. *macadamize v.* shag'al termoq, maydalangan tosh yotqizmoq.

*macaroni* [mæke'reoni] *n.* makaron.

*macaroon* [mæke'ru:n] *n.* bo-

domli pechene (*pishiriq*).

*macaw* [mæ'kɑ:] *n.* ara (*to'liqush tun*).

*mace* [meɪs] *n.* (*weapon*) to'qmoq, gurzi (*urush quroli*).

*machete* [me'ʃetɪ, mə'ʃetɪ] *n.* machete (*Latin Amerikasida: daraxt shoxlarini butash va shakarqamish o'rish uchun ishlatiladigan uzun pichoqsimon ish quroli*).

*machination* [ˌmæki'neɪʃ(ə)n, ˌmæʃ-] *n.* hilya, tadbir, firib, nayrang.

*machine* [me'ʃɪ:n] *n.* mashina, stanok, dastgoh; (*state -*) apparat (*muayyan bir ishni bajarish uchun xizmat qiladigan asbob, mexanizm*); *attr.* mashinaga oid, mashinada ishlangan, mashina bilan ishlanadigan; ~ *tool* stanok, dastgoh; *v.* stanokda ishlov bermoq; (*sew*) tikmoq (*tikuv mashinasida*). *machine-gun n.* pulemyot (*harbiy qurol*). *machinery n.* mashinalar, dastgohlar; (*mechanism*) mexanizm; (*of state*) moslama, qurilma, apparat (*muayyan bir ishni bajarish uchun xizmat qiladigan asbob, mexanizm*). *machinist n.* mashinist; mexanik; (*sewing*) tikuvchi.

*mackerel* [mæ'kr(ə)l] *n.* skumbriya, makrel (*dangiz baliği*).

*mackintosh* [mæ'kɪn,tɒʃ] *n.* (ma-



*terial*) rezinalangan mato; (coal) suv o'tkazmaydigan palto (plashch).

**macrocosm** [mæk'rɒs,kɒz(ə)m] *n.* makrokosm, olam, koinot.

**mad** [mæd] *adj.* aqldan ozgan, aqlini (esini) yo'qolgan, jinni, devona; (*animal*) quturgan; (*fig.*) telba, devona. **madcap** *n.* beaql (esi yo'q) kishi. **madden** *v.* aqldan ozdirmoq, jinni qilmoq; (*irritate*) jahlini chiqarmoq. **made-to-measure** *adj.* buyurtmaga qilingan. **madhouse** *n.* jinnixon. **madly** *adv.* tentaklaricha, telbalaricha. **madman** *n.* aqldan ozgan, aqlini (esini) yo'qolgan, jinni, devona. **madness** *n.* aqldan ozish, aqlini yo'qolish. **madwoman** *n.* aqldan ozgan, aqlini (esini) yo'qolgan, jinni, devona (ayol).

**made see make**

**madder** ['mædə(r)] *n.* (*plant*) ro'yan (*ildizidan*, qizil bo'yoq olinadigan sariq gulli o'simlik); (*dye*) marena bo'yoq'iga (qizil rangga) bo'yaigan, qizil.

**Madrid** [me'drɪd] *n.* Madrid.

**maestro** ['maɪstrəʊ] *n.* maestro, ustoz (*katta musiqachilar, san'atkorlar va iste'dodli shaxmatchilarga nisbatan ishlatiladi*).

**mafia** ['mæfiə, 'mɑ:-] *n.* mafiya (*terrorchi gangsterlar tashkiloti*).

**magazine** [ˈmæɡeɪːn] *n.* jurnal; (*mil.*) o'q-dori ombori, buyum ombori; (*of gun*) magazin, o'q-don.

**maggot** ['mæɡət] *n.* niqobdor (*endigina luxumdan chiqqan qurt*). **maggoty** *adj.* qurlagan, qurl bosgan, qurl tushgan, qurlab ketgan.

**magic** ['mædʒɪk] *n.* sehr, jodu, af-sun; sehrgarlik, jodugarlik, afsungarlik; *adj.* sehrli, jodulaydigan. **magician** [mə'dʒɪʃ(ə)n] *n.* sehrgar, jodugar, afsungar; (*conjurer*) fokuschi, nayrangboz, ko'zbo'yamachi, lo'ttibozi.

**magisterial** [ˌmædʒɪ'stəriəl] *adj.* sudga oid, xos.

**magistracy** [ˌmædʒɪ'strəsi] *n.* sud-yalik lavozimi. **magistrate** [ˌmædʒɪ'strət] *n.* sudya, arbob.

**magma** ['mæɡmə] *n.* magma (*vulqon ichidagi cho'g'simon suyuq modda*).

**magnanimous** [mæɡ'nænɪməs] *adj.* muruvvatli, olijanob, himmatli, tanti, vallaamat.

**magnate** ['mæɡneɪt, -nɪt] *n.* magnat (*katta mulk egasi*).

**magnesia** [mæɡ'ni:ʒə, -ʒə, -zjə] *n.* magniy oksidi. **magnesium** *n.* magniy (yorqin nur berib yonadigan yumshoq kumushrang metall).

**magnet** [ˈmæɡnɪt] *n.* ohanrabo,

**magnit** (*temir va po'latni o'ziga tortadigan ruda*). **magnetic** *adj.* ohanraboga, magnitga oid, ohanraboli, magnitli; (*attractive*) tortuvchi, o'ziga jalb etadigan, jozibali; - *tape* magnit tasmasi. **magnetism** *n.* magnetizm (*magnit hodisalari va xossalari*); tortuvchanlik, o'ziga jalb etish, jozibalilik. **magnetize** *v.* magnitlamoq, magnitlashtirmoq. **magneto** [*mæɡ'ni:təʊ*] *n.* magneto (*past kuchlanishli elektr toki ishlab chiqaradigan va uni yuqori kuchlanishli tokka aylantirib beradigan elektromagnit asbob*).

**magnification** [*mæɡnɪfɪkeɪʃ(ə)n*] *n.* ko'paytirish, oshirish, orttirish.

**magnificence** [*mæɡ'nɪfɪs(ə)ns*] *n.* ko'rkam, hashamat, dabdaba, savlat, bashanglik. **magnificent** *adj.* hashamali, dabdabali, savlatli, bashang.

**magnify** [*'mæɡnɪ,faɪ*] *v.* ko'paytirmoq, oshirmoq; (*exaggerate*) orttirib yubormoq, bo'rttirib yubormoq.

**magnitude** [*mæɡnɪ,tju:d*] *n.* katalik, miqdor.

**magnolia** [*mæɡ'neʊliə*] *n.* magnoliya (*oq yoki pushtirang katta va xushbo'y gulli, doim yashil daraxt yoki buta*).

**magpie** [*mæɡpeɪ*] *n.* zag'izg'on,

hakka.

**maharajah** [*mɑ:he'rɑ:dʒə*] *n.* mahoroja, buyuk roja (*Hindiston boyonlarining oliy unvoni*).

**mahogany** [*mə'hogenɪ*] *n.* qizil yog'och (*qizil daraxt yog'ochi bo'lib qattiq, qizg'ish-jigarrang tusga ega, undan qimmatbaho jihozlar yasaledi*).

**maid** [*meɪd*] *n.* oqsach, xizmatkor ayol; - *of honour* freylina (*malika yoki qirolicha huzurida xizmatda bo'lgan, zodagon oiladan chiqqan ayol*). **maiden** *adj.* bo'yi yetgan qiz, qiz bola; (*first*) birinchi, avvalgi, ertagi; - *name* qizlik familiyasi.

**mail'** [*meɪl*] *n.* (*letters etc.*) pochta; (*train*) pochta poezdi; - *order* pochta buyurtmasi, pochta vositasida qilingan buyurtma; *v.* pochta orqali jo'natmoq.

**mail<sup>2</sup>** [*meɪl*] *n.* (*armour*) sovut (*mayda metall halqachalardan yasalgan jang ko'ylagi*); zirh, bron; - *ed flat* harbiy, jismoniy kuch.

**mail-order** [*meɪl'ɔ:de(r)*] *adj.* pochta orqali buyurtma qilish yo'li bilan savdo qiladigan; - *firm* pochta orqali yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatuvchi firma.

**malm** [*meɪm*] *v.* mayib qilmoq, nogiron qilmoq, buzmoq, ishdan chiqarmoq; shikast yetkazmoq.

**main** [meɪn] *n.* (see) ochiq dengiz (okeanga to'g'ri chiqadigan dengiz hamda dengizning qirg'oqdan yiroq joylar); (gas -) magistral, o'tkazish quvuri; in the ~ asosan; with might and ~ bor kuchini ayamasdan, bor quvvatini ayamasdan; *adj.* asosiy, bosh; (road) magistral yo'l; by ~ force bor kuch bilan; the ~ chance asosiy imkoniyat, omad quahi; - line (rail.) temir yo'l magistrali. **mainland** *n.* materik, qit'a; materik..., materikka oid, xos. **mainly** *adv.* asosan; ko'pincha; (for most part) aksari. **mainmast** *n.* grot-machta (yelkanli kemalarda: o'rtta ustun). **mainstay** *n.* grot (kema o'rtasidagi eng baland machtaning pastki to'g'ri yelkani). **mainstay** *n.* yurgizadigan, harakatlantiradigan prujina. **maintain** *n.* tirgovuch, tirgak; (fig.) bosh, asosiy tayanch.

**maintain** [meɪn'teɪn] *v.* (continue) davom ettirmoq, cho'zmoq, uzaytirmoq, surmoq; (support) ushlab turtmoq, suyamoq; (family) asramoq, saqlamoq, boqmoq, tarbiyalamoq; (machine) ishlamoq, xizmat qilmoq; (assert) tasdiqlamoq, tasdiq qilmoq. **'maintenance** *n.* qo'llab-quvvatlash; asrash, saqlash, boqish,

tarbiyalash; xizmat qilish.

**malze** [meɪz] *n.* makkajo'xori. **majestic** [meɪ'dʒestɪk] *adj.* buyuk, ulug', dabdabali, shavkatli; muhtasham. **majesty** [meɪ'dʒɪstɪ] *n.* buyuklik, ulug'lik, dabdabalilik, shavkatlilik; muhtashamlik; (title) s'lo hazrat, janobl oliylar. **major**<sup>1</sup> [ˈmeɪdʒə(r)] *n.* (mil.) mayor (zabitlik unvoni). **major**<sup>2</sup> [ˈmeɪdʒə(r)] *adj.* (greater) ko'proq, ortiqroq, kattaroq; (more important) nisbatan muhim; (main) bosh; (mus.) major ..., major changida; (senior) katta; *n.* voyaga yetgan, balog'atga yetgan, bolig'; (mus.) major (ko'tarinki, shodiyona ruhdagi musiqiy soz tur).

**major-general** [ˈmeɪdʒə(r)-dʒenər(ə)] *n.* general-mayor (zabitlik unvoni).

**majority** [meɪ'dʒɔrɪtɪ] *n.* (greater number) ko'pchilik, aksariyat; (full age) voyaga yetganlik, balog'atga yetganlik, bolig'lik.

**make** [meɪk] *n.* belgi, tamg'a, xil, nusxa, nav, tur; *v.* qilmoq; (create) yaratmoq; (produce) ishlab chiqarmoq; (compose) tashkil qilmoq; (prepare) tayyorlamoq; (amount to) tenglashmoq, baravarlashmoq; (become) bo'lmoq, o'zgaroq; (earn) ishlab topmoq, daromad qilmoq, mehnat

qilib topmoq; (*compel*) majbur qilmoq, majbur etmoq; **made in the USA** AQShda ishlab chiqarilgan; **be made of** -dan tashkil topmoq, -dan iborat bo'lmoq; ~ **as if, though** o'zini biror ko'ygga solmoq, o'zini biror qiyofada ko'rsatmoq; ~ **a bad o'rin** solmoq, joy to'sharmoq (*yotish uchun*); ~ **believe** mug'ambirlik qilmoq, o'zini biror holatga solmoq; ~ **do with** qarorat qilmoq, qoniqmoq, kifoyalanmoq, rozil bo'lmoq; ~ **fun of** masxara qilmoq, mazax qilmoq; uyaltirmoq, qizartirmoq; ~ **o.s. at home** o'z uyidagidek his qilmoq; ~ **o.s. scarce** yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq, g'o'yib bo'lmoq, dam-daraksiz ketmoq; ~ **sure of** ishonmoq, inonmoq, ishonch hosil qilmoq; ~ **way for** yo'l bermoq, yo'l bo'shatmoq; ~ **away with** tamomlamoq, bitirmoq, oxiriga yetkazmoq; ~ **off** qochmoq, qochib ketmoq; ~ **out** (*document*) tuzmoq, yozmoq; (*cheque*) yozdirmoq, yozmoq; (*understand*) tushunmoq, payqamoq; ~ **over** olib bermoq, topshirmoq, qo'ldan-qo'lga o'tkazmoq; uzatmoq; ~ **up** (*compound*) tuzmoq, yasamoq, tashkil etmoq, ulamoq; hosil qilmoq; (*theatr.*) yuzga grim qil(dir)moq,

grim surt(tir)moq; ~ **it up** bilan yarashmoq, bilan murosa qilmoq; ~ **up for** zararini to'lamoq, o'rnini to'ldirmoq, tovon to'lamoq; ~ **up one's mind** qaror qilmoq; qasd (jazm) qilmoq; hal bo'lmoq; ~ **up to** -ning oldida lagabardorlik qilmoq; -ning oldida xushomadgo'ylik qilmoq. **make believe** *n.* mug'ambirlik, soxtalik, yasamaik, ayyorlik; *adj.* mug'ambir, yasama, soxta, qalbaki; yolg'ondakam. **make shift** *adj.* vaqtincha, muvaqqat, vaqtli. **make-up** *n.* (*theatr.*) grim (*sahnda o'ynash uchun yuzga turli ranglar berish*; *grimda ishlatiladigan bo'yoqlar*); (*cosmetics*) kosmelika, upa-elik, pardoz-andoz vositalari; (*composition*) tarkib. **makeweight** *n.* parcha, bo'lakcha (*tarozini to'g'ri keltirib tortish uchun qo'yilgan bo'lakcha*).

**malachite** [mælə,kaɪt] *n.* malaxit, yashil tosh (*yashil rangli mineral*).

**maladjusted** [mælə'dʒʌstɪd] *adj.* tarbiyalash og'ir bo'lgan.

**maladministration** [mæləd,mɪnɪ'strɪʃ(ə)n] *n.* yomon boshqaruv.

**maladroit** [mælə'drɔɪt, 'mæl-] *adj.* beso'naqay, qo'pol, qovushmagan, o'ng'aybiz; (*tactless*) adab-

- siz, axloqsiz, beandisha, qillig' sovuq.
- malady** [mæledi] *n.* kasallik, dard, og'riq, belchlik.
- malaria** [mæ'leəriə] *n.* bezgak (*kasallik*).
- malcontent** [mælkən'tent] *n.* no-rozi, rozi emas.
- male** [meɪl] *n.* (*animal*) erkak, nar (*hayvon va qushlar haqida*); (*person*) erkak kishi, erkak; *adj.* erkaklarga oid, erkaklarga xos.
- malevolence** [mæ'levələns] *n.* ichi qoralik, ko'ngli kirlik. **malevolent** *adj.* ko'ngli qora, ichi qora, yomon niyatli.
- malformation** [mælfɔ:'meɪf(ə)n] *n.* axloqsizlik, buzuqlik; xunuklik.
- malice** [mæɪs] *n.* kek, gina, adovat, g'azab, qahr; (*leg.*) yomon niyat; *with* - *aforethought* yomon niyat bilan. **malicious** [mæɪʃəs] *adj.* badjahl, serjahl; yomon niyatli, kekli, yovuz.
- malign** [me'laɪn] *adj.* halokatli, falokatli, zararli, ziyonli; *v.* tuhmat qilmoq. **malignant** [mæ'ɪgnənt] *adj.* (*harmful*) niyatli buzuq, yovuz niyatli; (*malicious*) badjahl, serjahl; yomon niyatli, kekli, yovuz; (*med.*) xavfli, xatarli.
- malingering** [me'ɪŋgə(r)] *v.* o'zini kasalga solmoq. **malingeringer** *n.* yolg'ondan o'zini biror holga soluvchi, mug'ombir.
- mallard** ['mælə:d] *n.* yovvoyi o'rdak.
- malleable** ['mæltəb(ə)l] *adj.* cho'ziluvchan, cho'ziladigan; (*fig.*) muloyim, mayin, yumshoq.
- mallet** ['mæɪtɪ] *n.* yog'ochdan yasalgan bolg'a.
- malnutrition** [mælnju:'trɪʃ(ə)n] *n.* yarim ochlik, to'yib ovqal yemaslik.
- malpractice** [mæɪ'præktɪs] *n.* (*wrongdoing*) qonunga xilof harakat.
- malt** [mɔ:lt, mɒlt] *n.* solod (*undirib yanchilgan bug'doy, arpa va shu kabilar*); *v.* unmoq, unib solodga aylanmoq.
- maltreat** [mæɪ'tri:t] *v.* yomon munosabatda bo'lmoq.
- mamba** *n.* mamba (*lion tun*).
- mambo** ['mæmbe] *n.* mambo (*musiqiy yo'nalish*).
- mamma** [mə'mɑ:] *n.* oyi, ona (*murojaatda*).
- mammal** [mæm(ə)] *n.* sut emizuvchillar. **mammalian** *adj.* sut emizuvchi.
- mammary** ['mæməri] *adj.* ko'krakka oid.
- mammon** [mæmən] *n.* mamona (*qadimgi suriyaliklarda boylik, pul xudosi*), boylik, davlat.
- mammoth** [mæməθ] *n.* mamont (*fillarning muz davrida yashagan*

va hozirda nasli qurib ketgan juda katta bir tun); *adj.* juda katta, buyuk, azamat, ulkan.

*man* [mæn] *n.* (*human, person*)

inson, odam; (*human race*) insoniyat; (*male*) erkak kishi, erkak; (*husband*) er, qalliq; (*servant*) malay, xizmatkor, qarol; (*labourer*) ishchi; (*soldiers*) askarlar, oddiy askarlar; (*sailors*) matros, harbiy dengizchilar; (*draughts*) shashka donasi; – **In the street** oddiy, o'rtacha, o'rtamiyona odam; *v.* (*furnish with men*) ishlovchilarning hammasini to'plamoq; (*act thus*) bo'lmoq, o'zgarmoq.

*manacle* [mænek(ə)] *n.* qo'l kishani; *v.* qo'lga kishan solmoq.

*manage* ['mænidʒ] *v.* (*control*)

boshqarmoq, idora qilmoq; (*cope*) uddasidan chiqmoq, bajara olmoq, eplamoq. **management** *n.* boshqarish, idora qilish; (*the ~*) ma'muriyat, idora boshliqlari, boshqaruvchilar.

*manager* *n.* boshqaruvchi, ma'mur, idora boshlig'i, idora qiluvchi, direktor; (*good, bad ~*) xo'jayin; (*in entertainment*) impresario (*xususiy teatr tomoshalarni tashkil etuvchi kishi, artistlarning gumashtasi, vakili*); (*sport*) menedjer, sprotchning vakili. **managerial** [mæni'

dʒienel] *adj.* ma'muriyatga, direktorga oid.

*mandarin* [mændərɪn] *n.* mandarin.

*mandate* ['mændeɪt] *n.* vakolatnoma, guvohnoma, mandat.

*mandated* *adj.* xalqaro tashkilot mandati bilan idora qilinadigan.

*mandatory* *adj.* majburiy.

*mandible* [mændɪb(ə)] *n.* pastki jag', quyi jag'.

*mandolin(e)* [mændə'lin] *n.* mandolina (*tarzi musiqa asbobi*).

*mane* [meɪn] *n.* yul (*hayvonlarda*).

*manful* [mænful] *adj.* mard, botir, jasur, dovyurak, mardonavor, qahramonona.

*manganese* ['mæŋɡə,ni:z] *n.* marganes (*kimyoviy unsur*).

*manger* [meɪndʒə(r)] *n.* oxur, dog. **In the ~** o'zi yemas, itga bermas.

*mangle<sup>1</sup>* ['mæŋɡ(ə)] *n.* (*for clothes*) yuvilgan kimgi tekialaydigan dastgoh; *v.* tekislamoq, yumalatmoq.

*mangle<sup>2</sup>* [mæŋɡ(ə)] *v.* (*mutilate*) mayib qilmoq, nogiron qilib qo'ymoq; (*words*) buzmoq, so'zni buzib aytmoq, fikrini noto'g'ri bayon qilmoq.

*mango* ['mæŋɡəʊ] *n.* mango, anbah (*issiq mamlakatlarda o'sadigan xushbo'y mevali*

*daraxt; shu daraxtning mevasi).*  
**mangrove** [mæŋgrəʊv] *n.* mangro daraxli.

**manhandle** [mæn,hænd(ə)l] *v.* qo'l bilan surib qo'ymoq; (*treat roughly*) qo'pol munosabatda bo'lmoq. **man-hole** *n.* ko'rish (kuzatish, tekshirish) uchun qo'yilgan quduq. **man-hood** *n.* balog'atga (voyaga) yetganlik, yetuklik; (*courage*) qahramonlik, jasurlik, botirlik. **man-hour** *n.* kishi soati, ish soati (*bir kishining bir soatlik mehnati o'chovi*).

**mania** [meɪniə] *n.* vasvasa, savdo; vasvoslik, savdoyilik (*ruhiy kasallik*). **maniac** [meɪniək] *n.* vasvos, savdoyi, manyak. **maniacal** *adj.* vasvoslikka oid, savdoyilikka oid.

**manicure** [mæni,kjʊə(r)] *n.* manikyur (*qo'l barmoqlari va timoqlariga pardozi berish*); *v.* manikyur qilmoq. **manicurlist** *n.* manikyurchi, manikyur qiluvchi ayol.

**manifest** ['mæntɪ,fest] *adj.* aniq, oydin, ravshan, muqarrar, shubhasiz; ko'rinib turgan; *v.* aniq ko'rsatmoq. **manifestation** *n.* ko'rsatish, yuzaga chiqarish. **manifesto** *n.* murojatnoma, manifest.

**manifold** [mæni,feɪld] *adj.* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang;

*n.* (*tech.*) kollektor (*suyuqlik va gazlarni kanalizatsiyaga chiqarib tashlashga mo'ljallangan keng quvur*).

**manikin** ['mæni:kɪn] *n.* (*lay figure*) mapaken (*kiyimlarni kiydirib ko'rsatish uchun qilingan odam shaklidagi haykal*).

**manipulate** [mə'nɪpjʊ,leɪt] *v.* ustalik bilan boshqarmoq, epchillik bilan nayrang ishlatmoq. **manipulation** *n.* ayyorlik qilish, ustalik bilan boshqarish.

**manly** [mænlɪ] *adj.* mard, botir, jasur, dovyurak, mardonavor, qahramonona.

**mankind** [mæn'kaɪnd] *n.* Insoniyat, odamzod, kishilik.

**mannequin** ['mæni:kɪn] *n.* Ilboslar ko'rgazmasida kiyimlar kiyib ko'rsatuvchi ayol.

**manner** [mænə(r)] *n.* usul, yo'l, ravish, yo'sin, tarz, uslub, qilliq; urf-odat; (*good -*) (yaxshi) urf-odatlar. **mannered** *adj.* jimjimador, bejama, murakkab, ajib, yasama, oxonli, seroxon. **mannerism** *n.* uslub, usul, qilliq, odat; sun'iylik, yasamalik; seroxonlik. **mannish** [mæniʃ] *adj.* (*masculine*) erkaklarga o'xshagan, erkaklardek; (*characteristic of man*) erkaklarga xos.

**manoeuvrable** [mə'nu:vɹəb(ə)l] *adj.* oson boshqariladigan. ma-

- noeuvre** *n.* manyovr (*dushman-ga zarba berish uchun qo'shin va flotni eng qulay vaziyatga qo'yish tadbirlari; ustalik, chaq-qorlik bilan harakat qilish, hiylanayrang ishlatisht; urush mashqi, xomaki urush*); *v.* manyovr qilmoq.
- man-of-war** ['mænof,wɔ:(r)] *n.* harbiy kema.
- manor** ['mænə(r)] *n.* (*estate*) mulk, yermulk; (*house*) feodalning uyi. **manorial** [mæ'no:riəl] *adj.* yermulkka oid.
- manpower** [mæn,pauə(r)] *n.* ishchi kuchli.
- mansard** (*roof*) ['mænsɑ:d] *n.* shipi qiya boloxonaning tomi.
- manservant** [mæn,sɜ:v(ə)nɪ] *n.* malay, xizmatkor, qarol.
- mansion** [mænj(ə)n] *n.* katta uy, dangillama uy.
- manslaughter** [mæn,slo:tə(r)] *n.* odam o'ldirish; (*leg.*) qasddan qilinmagan qotillik, bexosdan odam o'ldirish.
- mantelpiece** [mænt(ə)l,pis:] *n.* kamin taxtasi. **mantel-shelf** *n.* kamin tokchasi.
- mantle** [mæntɪs] *n.* beshiktervatar.
- mantle** ['mænt(ə)l] *n.* (*cloak*) mantiya, rido; (*earth's*) mantiya (*Yerning ichki qabig'i*).
- manual** [mænjuəl] *adj.* qo'lda qi-
- lingan, qo'lga taqiladigan, qo'l bilan ishlangan; ~ labour qo'l mehnatli, jismoniy mehnat; *n.* ma'lumotnoma, qo'llanma, darslik. **manually** *adv.* qo'l bilan, qo'lda.
- manufacture** [mænju'fæktʃə(r)] *n.* ishlab chiqarish, tayyorlash, yetishtirish; *v.* qilmoq, o'tkazmoq, ishlamoq, paydo qilmoq; yasamoq, qilmoq; (*fabricate*) ko'plab ishlab chiqarmoq. **manufacturer** *n.* fabrikant, fabrika egasi, ishlab chiqaruvchi.
- manure** [mæ'njʊə(r)] *n.* go'ng, tezak; *v.* go'nglamoq, go'ng sohib qo'ymoq.
- manuscript** ['mænju'skript] *n.* qo'lyozma; *adj.* qo'lyozmaga oid; qo'lda yozilgan.
- many** [meni] *adj.* & *n.* ko'p, ko'pchilik; *how* ~ qancha.
- Maoism** ['mauz(ə)m] *n.* maozizm (*siyosiy va falsafiy ta'limot*).
- Maolist** *n.* maolist, maozizm tarafdori; *adj.* maozistga, maozizmga oid.
- map** [mæp] *n.* xarita, karta; *v.* reja chizmoq; ~ out reja tuzmoq.
- maple** ['meɪp(ə)l] *n.* zarang (*daraxt*); *attr.* zarangga oid; zarang yog'ochidan qilingan.
- mar** [mɑ:(r)] *v.* buzmoq, xarob qilmoq, ishdan chiqarmoq.
- marathon** ['mæreθ(ə)n] *n.* ma-



- rafon (42 km. 195 m.ga yugurish musobaqasi).
- marauder** [mə'ɔ:de(r)] *n.* kafanduzd, marodyor (*urush harakatlari rayonlaridagi aholini yoki jang maydonida o'lgan va yara-dor bo'lganlarni talovchi odam*).  
**marauding** *adj.* kafanduzdlikka, kafanduzdga old.
- marble** ['mɑ:b(ə)] *n.* marmar, marmar tosh; (*toy*) shisha sharcha; (*game*) sharchalar bilan o'ynaladigan o'yin; *attr.* marmar loshdan yasalgan; marmarga o'xshagan. **marbled** *adj.* marmar toshdan yasalgan; marmarga o'xshagan.
- March**<sup>1</sup> [mɑ:tʃ] *n.* mart oyi; martga oid, xos, mart oyida bo'ladigan.
- march**<sup>2</sup> [mɑ:tʃ] *v.* marsh qilib yurmoq, harbiylarcha qadam tashlab yurmoq; *n.* marsh (*saf tortib yurish*); yurish; ~ *past* tantanali marsh bilan o'tish.
- mare** [mæ(r)] *n.* biya, baytal.
- margarine** [mɑ:dʒə'n:n] *n.* margarin (*mol yog'i va o'simlik moylaridan tayyorlanadigan sun'iy moy*).
- margin** [mɑ:dʒɪn] *n.* chel, chek, chekka, qirra, lab, jiyak, mag'iz, hoshiya; (*on page*) chel, hoshiya; ~ *of error* yanglishishning chek-chegarasi; *profit* ~
- daromad, foyda; *safety* ~ mustahkamlik, chidamlilik zahirasi.
- marigold** [mæri,gəʊld] *n.* (*Tagetes*) gulidovud, gulijavhar; (*Calendula*) gulhamishabahor.
- marijuana** [mæri'hwɑ:nə] *n.* mariyuana, nasha (*o'simlik*).
- marinade** [mæri'neɪd, 'mæ-] *n.* ziravor qo'shilgan sirka; ziravor qo'shib sirkalangan sabzavot, meva, baliq; *v.* tuzilamoq; ziravor qo'shib sirkalamoq, ziravor qo'shilgan sirkaga bosmoq, sirkalab o'ldirmoq.
- marine** [mæ'ri:n] *adj.* (*maritime*) dengizga, dengizda yurishga oid, dengizda bo'ladigan, dengizda yashaydigan; (*naval*) harbiy-dengiz; *n.* (*fleet*) dengiz floti; (*soldier*) dengiz piyoda askarlari; dengiz piyodasi. **mariner** [mæri'ne(r)] *n.* dengizchi, matros.
- marionette** [mæriə'net] *n.* qo'g'irchoq, o'yinchi qo'g'irchoq.
- marital** [mæri't(ə)] *adj.* er-xotin ..., er-xotingga oid, xos, nikohga oid.
- maritime** [mæri,taim] *adj.* dengiz ..., dengizga oid, xos; (*near sea*) dengiz bo'yidagi, dengiz yoqasidagi.
- marjoram** [mɑ:dʒərəm] *n.* (*Majorana*) mayoran (*efir moyi beradigan oq yoki qizg'ish gulli xushbo'y o't; pardoz-andoz vosi-*

lalani va oziq-ovqatlarda ishlatiladi); (*Origanum*) tog'rayhon, jambul.

**mark<sup>1</sup>** [mɑ:k] *n.* (*coin*) marka (baʼzi mamlakatlarning pul birligi).

**mark<sup>2</sup>** [mɑ:k] *n.* (*target, aim*) mo'ljal, nishon; (*sign*) belgi, nishon; (*shoot*) baho; (*numerical*) ball, daraja; (*trace*) iz; (*level*) daraja; **hit the** – xuddi nuqtasiga tegmoq, ko'ngildagini, mo'ljaidagini aytilmoq; **make one's** – o'zini ko'rsatmoq, ish ko'rsatmoq; **on your** – a v. qayd qilmoq; belgi qo'yimoq, (*goods*) -ni baholash, -ga narx qo'yish, (*shoot*) uchun baho, ball, qo'yish; (*leave trace(s)*) -da iz qoldirmoq; (*football*) to'amoq, berkitmoq; – **my words** so'zlarimni esing(iz)da tut(ing)!; – **time** oldinga siljimaslik, ishi yurishmaslik; – **off** ajratmoq, ayirmoq; – **out** belgi qo'yib chiqmoq. **marker** *n.* belgi, ko'rsatkich; (*in book*) xatcho'p (o'qiyolgan belni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki tasmacha); – (**pen**) flomaster.

**market** [mɑ:kɪt] *n.* bozor; (*demand*) talab; (*trade*) savdo; (*conditions*) kon'yunktura (iqtisodiy ahvalni ko'rsatuvchi jami belgilar, masalan, narx-navo,

qimmatli qog'ozlar kursi, mahsulot miqdori va sh.k.larning o'zgarishi); **black** – qora bazor, **buyer's, seller's**, – sotuvchi uchun, xaridor uchun foydali bazor kon'yunkturasi; **Common M-** Umumiy bozor; **find a** – bozorni, sotish yo'lini topmoq; – **garden** poliz; – **price** bozor narxi, bozor bahosi; v. solmoq. **marketable** *adj.* tez o'ladigan, bozori chaqqon; (*econ.*) to'varga, molga, yukga oid. **market-day** *n.* bozor kuni. **marketing** *n.* marketing, savdo. **market-place** *n.* bozor maydoni.

**markeman** [mɑ:kəmə'n] *n.* mergan, usta oluvchi, mohir oluvchi. **markemanship** *n.* merganvozlilik.

**marmalade** [mɑ:mə'ləɪd] *n.* marmelad, povidlo, meva qiyomi.

**marmoset** [mɑ:mə,zet] *n.* martishka (*makaka* zotiga mansub kichkina, dumli uzun maymun).

**marmot** [mɑ:mət] *n.* sug'ur (*hayvan*).

**maroon<sup>1</sup>** [mɑ'ru:n] *adj.* (*n.*) (*colour*) to'q qizil (rang).

**maroon<sup>2</sup>** [mɑ'ru:n] *v.* (*put ashore*) tushirmoq, tushirib qoldirmoq (*kimsasiz orolda*); (*cut off*) ajratib qo'yimoq, lo'smoq, to'ab qo'yimoq.

**marquee** [mɑ:kɪ:] *n.* chodir.

**marquis** ['mo:kwɪs] *n.* markiz (G'arbiy yevropaning byrim davlatlaridagi asizodalik unvoni).

**marriage** ['mæɪrɪdʒ] *n.* nikoh; (*wedding*) to'y; nikohga oid, xos. **marriageable** *adj.* katta, bo'yi yetgan, kamolatga yetgan, balog'atga yetgan, bolig'; - age nikoh yoshi. **married** *adj.* (*man*) uylangan, oilalik; (*woman*) erli (uy-joyli) xotin; (*of - persons*) er-xotin ..., er-xotinga oid, xos.

**marrow** ['mæru] *n.* ilik; (*essence*) mohiyat, asos, tub; (*vegetable*) mayda oshqovoq. **marrowbone** *n.* miya suyagi.

**marry** ['mæɪrɪ] *v.* (*of man*) -ga uylanmoq, bilan turmush qurmoq; (*of woman*) -ga erga tegmoq, -ga turmushga chiqmoq; (*give in marriage*) (*man*) uylan-tirish, xotin olib bermoq; (*woman*) erga bermoq, uzalmoq, turmushga bermoq.

**Mars** [mɑ:z] *n.* Mars (Quyosh sistemasidagi sayyora).

**Marseilles** [mɑ:'æɪ] *n.* Marsel.

**marsh** [mɑ:ʃ] *n.* botqoq. **marsh-gas** *n.* botqoq gaz. **marshy** *adj.* botqoqli, serbotqoq.

**marshal** ['mɑ:ʃ(e)l] *n.* marshal (*harbiy unvon*); *v.* safga lizmoq, qator qilmoq, qator turg'izmoq; tartibga solmoq, tartibga keltir-moq; -ling yord xillash bekati

(*vagonlar xillaniladigan temir yo'l bekati*).

**marsupial** [mɑ:'su:pɪəl] *adj.* xal-tali, qopchiqli; *n.* xaltali, qopchiq-li hayvon.

**marten** [mɑ:'tɪn] *n.* savsar; savsar terisi (*mo'ynasi*).

**martial** [mɑ:ʃ(e)] *adj.* urushga oid; (*warlike*) harbiy; - law urush holati.

**Martian** [mɑ:ʃ(e)n] *n.* marslik; *adj.* Marsga, marslikka oid, xos.

**martin** [mɑ:'tɪn] *n.* qaldirg'och, uzunqanot; (*house -*) shahar qaldirg'ochi.

**martinet** [mɑ:'tɪnet] *n.* qat'iy inli-zom tarafdori.

**martyr** [mɑ:'te(r)] *n.* azob chekkan, ezilgan, jaf tortgan, jafokash; *v.* azoblamoq qiyna-moq, ozor bermoq. **martyrdom** *n.* azob tortish, qiynalish, azob-uqubat.

**marvel** ['mɑ:v(e)] *n.* mo'jiza, karamat, hayratda qoldiradigan, hayron qolari, qiziq, g'alatli; *v.* ajablanmoq, hayratda qolmoq, qoyil qolmoq; ajablanmoq, hayron bo'lmoq, tang qolmoq, lol bo'lib qolmoq. **marvellous** *adj.* ajoyib, hayratda qoldiradigan, qiziq, ajablanarli.

**Marxian** [mɑ:'ksɪən] **Marxist** *n.* marksist, marksizm tarafdori; *adj.* marksizmga, marksistga

- oid, xos. **Marxism** *n.* marksizm (siyosiy va falsafiy oqim).
- marzipan** [mɑ:zɪ,pæn -'pæn] *n.* marsipan (*bodommag'iz talqoniga shakar qo'shib qorilgan xamirdan tayyorlangan qand-qurs*); *adj.* marsipanli, marsipandan qilingan.
- mascara** [mæ'skɑ:ɾə] *n.* kiprik bo'yog'i.
- mascot** [mæskot] *n.* tumor.
- masculine** [mæskjulin, ,mɑ:ə-] *adj.* erkakka oid, xos, erkaklar-cha; (*gram.*) mujskoy rod, muzakkar; (*of woman*) erkakshoda, erkaksifat.
- mash** [mæʃ] *n.* (*of mill*) shinni, uzum shirasi; (*of bran*) atala, ardob; (*mashed potatoes*) kartoshka pyuresi (*pyure* – sabzavotni pishirib, so'ng ezib tayyorlangan taom); *v.* ezmoq, qorishtirmoq, g'ijimlamoq.
- mask** [mɑ:sk] *n.* niqob, maska; (*gas* –) gazniqob (*zaharli gazlardan saqlanish uchun kiyiladigan niqob*); *v.* niqob tortmoq, yashirmoq, ustini bokitmoq; –*ed ball* bal-maskarad (*ishtirokchilar turlicha niqoblar kiyib qalnashadigan bazm*).
- masochism** [mæse,kɪz(ə)m] *mazoxizm* (*azoblanishdan, qiynoqlardan lazzatlanish*). **masochist** *n.* mazoxisi, mazoxizm dardiga giriftor kishi. **masochistic** *adj.* mazoxizmga, mazoxistga oid, xos.
- mason** [meɪs(ə)n] *n.* tosh yoki g'isht leruvchi usta; (**M**–) mason (*axloqni kamolatga yetkazishni maqsad qilib olgan diniy-falsafiy oqim tarafdori*).
- Masonic** [me'sonɪk] *adj.* masonlikka, masonlarga oid, xos. **masonry** [meɪsənri] *n.* toshdan qurilgan devor; (**M**–) masonlik (*diniy-falsafiy oqim*).
- masque** [mɑ:sk] *n.* niqob. **masquer** *n.* bal-maskarad ishlirokchisi. **masquerade** [mɑ:skɑ:reɪd, ,mæs-] *n.* maskarad; *v.* – *as* o'zini biror holatga soймоq; o'zini ... qilib ko'rsatmoq.
- mass<sup>1</sup>** [mæʃ] *n.* (*ecc.*) nasroniy-larning ertalab yoki peshin chog'i cherkovda qiladigan ibodatli.
- mass<sup>2</sup>** [mæs] *n.* omma; (*majority*) ko'pchilik; (*the* –) xalq ommasi; *attr.* ommaviy; – *media* ommaviy axborot vositalari; – *meeting* namoyish, yig'in; – *production* ommaviy ishlab chiqarish; *v.* g'ujlamoq, bir joyga to'piab yopirtirmoq.
- massacre** [mæseke(r)] *n.* qirg'in, xunrezlik; *v.* qirg'in qilmoq, xunrezlik qilmoq.
- massage** ['mæso:ʒ, -sɑ:dʒ] *n.*

massaj, uqalash, silash; v. uqalamoq, silamoq. **masseur** [mæ'sɜ:(r)], **-euse** [mæ'sɜ:z] *n.* massajist, uqalovchi.

**massif** [mæsi:f, mæsi:f] *n.* tog' massiv.

**massive** [mæsi:v] *adj.* kattakon; og'ir, vazmin, salmoqdor; yaxlit.

**mass-produced** [mæsprə'dju:s] *adj.* ko'plab ishlab chiqariladigan.

**mast** [mɑ:st] *n.* machla (kemada yelkanlar osiladigan baland ustun; umumani sim tortish yoki boshqa maqsadlar uchun qurilgan baland minora).

**master** [mɑ:stə(r)] *n.* (owner) ega, xo'jayin; (of house-hold, college) boshliq (oilada, o'quv yurtida); (of ship) kema kapitani; (teacher) muallim, o'qituvchi; (M-, univ.) magistr; (workman; artist) usta; (of film) nazorat nusxasi; (of record) ilk asi nusxa; be - of egalik qilmoq, ega bo'lmoq; bilmoq; M- of Arts gumanitar fanlar magistri; v. (overcome) yengmoq, g'olib chiqmoq, bartaraf qilmoq; -ning uddasidan chiqmoq, -ni bajara olmoq, -ni eplamoq; (subjugate) o'ziga bo'ysundirmoq; (acquire knowledge of) bilib olmoq, egallab olmoq, ega bo'lmoq. **masterful**

*adj.* qudratli, kuchli. **master-key** *n.* ochqich, har qanday qulfini ochib beradigan asbob. **masterly** *adj.* ustalik bilan, mohirona, san'alkorona. **masterpiece**

*n.* nodir asar, shoh asar, durдона. **master-switch** *n.* asosiy yoqib-o'chirgich, bosh yoqib-o'chirgich. **mastery** *n.* (dominion) hukmronlik, hokimlik, ustunlik; (skill) ustalik, mohirlik; (knowledge) mukammal bilish.

**mast-head** [mɑ:st'hed] *n.* bosh machtalor.

**masticate** [mæstɪ'keɪt] *v.* chaynamoq, kavshamoq.

**mastiff** [mæstɪf, 'mɑ:s-] *n.* mastiff, dog (zoldor il tur).

**mastodon** [mæstə'dɒn] *n.* mastodont (qadimda yashagan va hozir tuxumi qunib ketgan juda katta filsimon hayvon).

**mat** [mæt] *n.* gilamcha, sholcha, palos, poyandoz; (of rushes, straw) bo'yra; (under dish etc.) taglik.

**match<sup>1</sup>** [mætʃ] *n.* gugurt. **match-box** *n.* gugurt qulisi.

**match<sup>2</sup>** [mætʃ] *n.* (equal) teng, barobar; (contest) bellashuv, musobaqa; (marriage) nikoh; a - for juft, qo'shaloq; meet one's - o'ziga teng bo'lgan; v. (correspond) muvofiq bo'lmoq, loyiq (munosib) bo'lmoq, mas kel-

moq; (*of colour*) mos bo'lmoq, uyg'un bo'lmoq, muvofiq bo'lmoq; (*select*) yig'ib (terib, ko'larib) olmoq. **matchless** *adj.* tenglashtirib bo'lmaydigan, tengi yo'q, mislasiz. **matchmaker** *n.* sovchi, sovchi xotin.

**mate**<sup>1</sup> [meɪt] *n.* (*chess*) mat; *v.* mat qilmoq.

**mate**<sup>2</sup> [meɪt] *n.* (*one of pair*) erkak, nar, urg'ochi, moda (*hayvon va qushlar haqida*); (*fellow worker*) hamkor, sherik, o'rtoq; (*assistant*) yordamchi; (*naut.*) kapitan yordamchisi; *v.* (*of animals*) juftlashmoq, qo'shilmoq, chopmoq, qochmoq.

**material** [mə'tɪəriəl] *adj.* moddiy, ashyoviy; (*essential*) muhim, kerakli; *n.* ashyo, material; (*cloth*) gazlama, gazmol, mato; (*necessary articles*) buyumlar, jihozlar, asboblilar, anjomlar. **materialism** *n.* moddiyunchilik, materializm; shaxsiy manfaatparastlik, tor manfaatlarnigina ko'zda tutish. **materialist** *n.* materialist, moddiyunchi. **materialistic** *adj.* shaxsiy manfaatparast, tor manfaatlarnigina ko'zda tutadigan. **materialist'zation** *n.* moddiylash(tir)ish, mujassamlan(tir)ish, moddiy tus (olish) berish. **materialize** *v.* moddiylash(tir)moq, mujassamlan(tir)moq,

moddiy tus (olmoq) bermoq; bajar(il)moq, amalga osh(ir)moq, yuzaga chiq(ar)moq.

**maternal** [mə'tɜ:n(ə)] *adj.* onaga, onalikka oid; (*kinship*) ona tomondan, ona tomondan (*qarindosh*); ~ **grandfather** buva, boba (*ona tomondan*). **maternity** *n.* onalik; ~ **benefit** homilador ayolga beriladigan nafaqa, yordam puli; ~ **dress** homiladorlar uchun ko'ylak; ~ **home, hospital** tug'ruqxona; ~ **leave** homiladorlik ta'ili, dekret ta'ili; ~ **ward** tug'ruq xonasi, ko'z yorish xonasi.

**mathematical** [məθɪ'mætɪk(ə)] *adj.* matematik, matematikaga oid, xos. **mathematician** [məθɪ'mætɪs(ə)n] *n.* matematika mutaxassisi (olimi, o'qituvchisi), riyoziyotchi. **mathematics** *n.* matematika, riyoziyot.

**maths** *abbr.* = **mathematics**

**matinee** [mə'tɪ,neɪ] *n.* kunduz kuni qo'yiladigan spektakli yoki konsert; ~ **coat** chaqaloqning orqasi ochiq, tugmasiz ko'ylakchasi.

**matrarchy** [ˌmeɪtrɪ'ɑ:k(ə)] *adj.* matriarxat ..., matriarxal. **matrarchy** *n.* matriarxat (*onalik davri, bu davrda jamiyada xotinlar hukmronlik qilgan*). **matricidal** [ˌmeɪtrɪ,sɑɪd(ə)] *adj.* modar-

- kushlikka, onani o'ldirishga oid.  
**matricide** *n.* (*action*) modarkushlik, onani o'ldirish; (*person*) modarkush, ona qotili.
- matriculate** [mə'trɪkjə.keɪt] *v.* oliy o'quv yurtiga qabul qilmoq; oliy o'quv yurtiga qabul qilinmoq.
- matriculation** *n.* oliy o'quv yurtiga qabul qilish; (*examination*) oliy o'quv yurtiga qabul qilish imtihoni.
- matrimonial** [mə'trɪ'məʊniəl] *adj.* er-xotin ..., er-xotinlikka oid, xos.  
**'matrimony** *n.* nikoh, er-xotinlik.
- matrix** ['meɪtrɪks] *n.* matritsa (*matematik elementlar jadvali*).
- matron** [mæ'trɒn] *n.* erga tekkan xotin, turmushga chiqqan xotin; (*hospital*) libbiyot hamshirasi; (*school*) xo'jalik boshqaruvchisi.
- mat** [mæt] *adj.* xira, jikosiz, nursiz, yaltiramaydigan.
- matted** ['mæɪtɪd] *adj.* chalkash, chigal.
- matter** ['mæte(r)] *n.* (*substance*) modda, materiya; (*philos., med.*) materiya, moddiy bodiq, modda; (*content*) mazmun, mundarija; (*affair*) ish; (*question*) so'roq, savol, masala; **a - of form** rasmiylik, rasmiyalchilik; **a - of life and death** hayot va mamot masalasi; **a - of opin-**

**ion** bahsli masala; **a - of taste** did masalasi; **an easy -** oddiy masala; **as a - of fact** aslida, haqiqatda; haqiqatni aytganda, to'g'risini aytganda; **for that -** -ga kelganda, -ga kelsa; bu jihatdan; **money -** pul masalalari, mablag' masalalari; **no laughing -** hazilakam ish emas, hazil ish emas; **what's the -?** nima gap?; nima bo'ldi?; **what's the - with him?** unga nima qildi?; *v.* ahamiyatga ega bo'lmoq; (*med.*) yiringlamoq, yiring boylamoq, fasod boylamoq; **It doesn't -** bu ahamiyatga ega emas; **It -s a lot to me** bu men uchun juda muhim; **what does it -?** buning nima ahamiyati bor?; bu qanday ahamiyatga ega? **matter-of-fact** *adj.* kundalik, oddiy.

- matting** ['mæɪtɪŋ] *n.* (*rushes*) bo'yra; (*bast*) chipta (*dag'al buyumlar to'qish uchun tayyorlangan yupqa tilim-tilim po'stloq va undan to'qilgan narsa*).
- mattock** [mæ'tɒk] *n.* moliga (*kelmonga o'xshash asbob*).
- mattress** ['mætrɪs] *n.* to'shak, ko'rpacha.
- mature** [mə'tʃʊə(r)] *adj.* pishgan, yetilgan (*meva*); (*well considered*) pishirilgan, yaxshi o'ylangan; *v.* yetilmoq, pishmoq; pl-

- shirmoq, yetiltirmoq; (*plan*) o'ylamoq, chuqur o'ylab chiqmoq, yaxshilab o'ylamoq. **maturity** *n.* yetuklik, yetilganlik.
- maul** [mo:l] *v.* yirmoq, burdalamoq, pora-pora (tilka-tilka) qilmoq; mayib qilmoq, nogiron qilmoq, buzmoq, ishdan chiqarmoq; (*criticize*) qalliq tanqid qilmoq.
- mausoleum** [ˌmo:se'li:əm] *n.* maqbara, mavzoley (*qabr ustiga solingan bino*).
- mauve** [mœuv] *adj.* qizg'ish-binafsarang.
- maxim** ['mæksɪm] *n.* hikmatli so'z, ibora; shior.
- maximum** [mæksɪməm] *n.* maksimum, eng ko'p miqdor, eng yuqori daraja; *adj.* eng ko'p, eng katta, maksimal.
- May<sup>1</sup>** [meɪ] *n.* (*month*) may (*oy*); - *Day birinchi may*; may ..., mayga oid, xos, may oyida bo'ladigan.
- may<sup>2</sup>** [meɪ] (*possibility, permission*) qila olmoq, kuch yetmoq, imkon topmoq; (*possibility*) ehtimol, balki; (*wish*) mayli, mayliga.
- maybe** [meɪbi:] *adv.* ehtimol, balki.
- May-bug** ['meɪbʌg] *n.* buzoq-boshi qo'ng'iz. **mayfly** *n.* qisqaurmlilar (*juda qisqa, mas., bir yoki bir necha kungina umr ko'radigan hasharotlar tun*).
- mayonnaise** [meɪə'neɪz] *n.* mayonez.
- mayor** [meə(r)] *n.* mer (*ba'zi davlatlarda shahar boshqarmasining boshlig'i*). **mayoress** *n.* merning xotini; mer ayol, mer xotin.
- maze** [meɪz] *n.* labirint (*odam adashib qoladigan aylanma joy*); (*fig.*) chigal, ishkal, chalkash, chatoq.
- mazurka** [me'zɜ:kə] *n.* mazurka (*raqs turi va uning musiqasi*).
- MC** *abbr.* (*of Master of Ceremonies*) konferanse (*sahnada ijrochilarni e'lon qiluvchi artist*).
- MD** *abbr.* (*of Doctor of Medicine*) tibbiyot doktori; (*of Managing Director*) boshqaruvchi direktor, ijrochi direktor.
- mead** [mi:d] *n.* asal, bol.
- meadow** [medəu] *n.* o'tzor, chamanzor, o'tloq.
- meagre** ['mi:ge(r)] *adj.* kam, kamchil, slyrak.
- meal<sup>1</sup>** [mi:l] *n.* ovqat, oziq, yemish.
- meal<sup>2</sup>** [mi:l] *n.* (*ground grain*) yirik tortilgan un.
- mealtime** ['mi:ltaɪm] *n.*: at -a ovqat mahalida, ovqat paytida.
- mealy** [mi:tɪ] *adj.* ichl qumoq-qumoq, uvalanib ketadigan; unil, un solingan, undan tayyorlan-



gan. **mealy-mouthed** *adj.* shiringap, shlrinso'z.

**mean<sup>1</sup>** [mi:n] *adj.* (*average*) o'рта, o'rtecha; *n.* (*middle point*) o'ria, o'rtalik; (*method*) vosita, chora, asbob, qurol, usul, yo'l; (*resources*) pul, mablag', moddiy boylik, mulk; **by all** -s albatta, marhamat; **by** -s of yordamida, vositasida; **by no** -s sira ... emas, aslo ... emas, mutlaqo ... emas; -s **test** muhtojlikni aniqlash, muhtojlikni teshirish.

**mean<sup>2</sup>** [mi:n] *adj.* (*ignoble*) pastkash, razil, yaramas, qabih, past, tuban; (*miserly*) xasis, baxil, ziqna, qurumsoq; (*poor*) qashshoq, juda kambag'al, g'arib, faqir.

**mean<sup>3</sup>** [mi:n] *v.* (*have in mind*) nazarda tutmoq; (*intend*) niyat qilmoq, biror ish qilmoqchi bo'lmoq; (*signify*) ma'noga ega bo'lmoq.

**meander** [mɪˈændə(r)] *v.* (*stream*) buralmoq, to'lg'anmoq, buralib-buralib ketmoq, ilon izi bo'lib ketmoq; (*person*) maqsadsiz tentirab yurmoq. **meandering** *adj.* egri-bugri, qing'ir-qiyshiq.

**mosaic** [meo'zetik] *n.* mozaika (rang-barang tosh, shisha va h.k. qadab naqsh, gul solish); *adj.* mozalk, qadama.  
**Moscow** [moskeo] *n.* Moskva.  
**Moslem** ['mozlem] *n.* musulmon; *adj.* islom diniga oid.  
**mosque** [mask] *n.* machit, masjid.  
**mosquito** [mos'ki:teu] *n.* mayda chivin, iskabtopar. **mosquito-net** *n.* mayda chivinga qarshi to'r.  
**moss** [mos] *n.* mox, yo'sin (zaxda o'sadigan o'y). **moss-grown** *adj.* o'sib ketgan yo'sin. **mossy** *adj.* mox bosgan, sermox.  
**most** [maust] *adj.* eng ko'p; *n.* eng ko'p miqdor, *adj.* & *n.* (ma-

*jarity*) ko'pchilik; katta qism; *adv.* ko'proq. juda ham, hammadan ko'ra; (*forming superlative*) juda, eng, xuddi, avjl. *mostly adv.* asosan, ayniqsa, hammadan avval.

**MOT** *abbr.* (*of Ministry of Transport*) transport vazirligi.

**mole** [meʊ] *n.* zama, chang zarra-si, to'zon.

**motel** [meʊ'tel] *n.* motel (*meh-monxona tun*).

**moth** [mɒθ] *n.* kuya, tun kapalagi. **moth-ball** *n.* naftalin, kuyadoni. **moth-eaten** *adj.* kuya tushgan.

**mother** ['mʌðə(r)] *n.* ona, oyi; *v.* onalik qilmoq; - *country* metropoliya (*o'zga mamlakatlarni bosib olib o'z mustamlakasi-ga aylantirgan davlat*); - *tongue* ona tili. **motherhood** *n.* onalik. **mother-in-law** *n.* (*wife's -*) qaynana (*xotinning onasi*); (*husband's -*) qaynana (*erining onasi*). **motherland** *n.* vatan. **motherless** *adj.* onasiz, onasi yo'q. **motherly** *adj.* onaga, onalikka oid. **mother-of-pearl** *n.* sadaf; *adj.* sadaf..., sadafdan qilingan.

**motif** [meʊ'ti:f] *n.* asosiy mavzu.

**motion** [meʊ(ə)n] *n.* harakat, yurish; (*gesture*) imo-ishora; (*proposal*) taklif; (*of bowels*)

ichni bo'shatish, yozilish; *in -* harakatda, yurib; *v.* ... uchun imo-ishora bilan ko'rsatmoq. **motionless** *adj.* harakatsiz, qo'zg'almas. **motivate** [meʊt-i-veɪ] *v.* undamoq, majbur qilmoq. **motivation** *n.* tilak, xohish, istak, rag'bat. **motive** *n.* sabab, va], bahona; *adj.* harakatga keltiruvchi, harakatlantiruvchi.

**motley** ['mɒli] *adj.* (*in colour*) rang-barang, turli rangdagi; (*varied*) ola, ola-bula, rang-barang, ola-chilpor, har xil; *n.* har xil, turi xil; (*costume*) mas-xaraboz kostyumi.

**motor** [meʊtə(r)] *n.* dvigatel (*harakatga keltiruvchi mashina, yurgizuvchi mexanizm*), motor; *adj.* dvigatelli, motori; (*of - vehicles*) avtomobilga oid; - *boat* motorli qayiq; - *car* yangil mashina; - *cycle* mototsikl; - *oil* *n.* avtol (*mashina moyi*); - *racing* mashina poygasi; - *scooter* motoroller; - *show* *n.* avtosalon; - *vehicle* avtomobil. **motoring** *n.* avtomobil haydamoq. **motorist** *n.* avtomobil haydovchisi. **motorize** *v.* motorlash-tirnoq, motorizatsiya qilmoq. **motorway** *n.* avtostrada (*avtomobillar qatnaydigan katta yo'l*). **mottled** ['mɒtəld] *adj.* ola-bula qilib tashlangan, dog'-dug' qilib



yubrilgan.

**molto** [ˈmɒlto] *n.* shior (asosiy g'oya yoki faoliyatni ifodalaydigan qisqagina ibora).

**mould<sup>1</sup>** [maʊld] *n.* (earth) yumshatilgan (chopilgan) yer.

**mould<sup>2</sup>** [meuld] *n.* (shape) qolip, qolipcha; *v.* qolipga solmoq; yasamoq. **moulding** *n.* (action) qolipga quyish; (decoration) ganchkor bezak; (in wood) bagel (rom yoki karniz va h.k. uchun tayyorlangan ensiz, jimjimador taxta).

**mould<sup>3</sup>** [meuld] *n.* (fungi) pix, po'panak, mog'or. **mouldy** *adj.* mog'orlagan, po'panak bog'gan, mog'orab ketgan.

**moulder** [ˈmeʊldə(r)] *v.* chirimoq, sasimoq, aynimoq.

**moult** [meɪlt] *v.* tulla moq; *n.* tullaish, po'st tashlash.

**mound** [maʊnd] *n.* tepa, qir; (heap) ko'tarma, balandlik, tepalik.

**Mount<sup>1</sup>** [maʊnt] *n.* (in names) tog'.

**mount<sup>2</sup>** [maʊnt] *v.* (ascend) ko'tarilmoq, yuksalmoq; oshmoq; (~ a horse etc.) o'tirmoq, minmoq; (picture) kartonga yopishtirmoq; (gem) gardish (niginxona)ga o'rnatmoq; (gun) lafetga o'rnatmoq (joylashtirmoq) (lafet - to'p o'rnatilgan

stanok); ~ up (accumulate) to'planib qolmoq, jamg'anilmoq; *n.* (for picture) karton (qattiq va qalin qog'oz); (for gem) gardish, ramka, niginxona; qin, g'ilof; (horse) salt minadigan ol, salt ot.

**mountain** [maʊntɪn] *n.* tog'; *attr.* tog'dagi, toqqa oid; - ash ryabina (daraxti va mevasi). **mountaineer** *n.* alpinist (sport maqsadi bilan baland tog'larga chiqib yuruvchi kishi). **mountaineering** *n.* alpinizm (baland tog'larga chiqish sporti). **mountainous** *adj.* tog'lik; (huge) bahaybat, ulkan.

**mountebank** ['maʊntɪ, bæŋk] *n.* (clown) masxaraboz, qiziqchi; (charlatan) firibgar, qallob.

**mourn** [ma:ɪn] *v.* aza tulmoq; *v.* yig'lamoq, ko'z yosh to'kmoq. **mournful** *adj.* qayg'uli, g'amli, xafa, g'amgin. **mourning** *n.* (sorrow) g'am, qayg'u; (dress) motam, aza.

**mouse** [maʊs] *n.* sichqon; *v.* sichqon ovlamoq (lutmoq). **mouser** *n.* sichqon ovlaydigan kishi. **mousetrap** *n.* sichqon tutadigan qopqon.

**mousse** [mu:s] *n.* musa (shirinliklardan tayyorlangan taom).

**moustache** [ˈmeɪsɔ:ʃ] *n.* mo'ylov, murt.

**mousy** [maʊsɪ] *adj.* sichqon ... sichqonga oid; (*timid*) qo'rqoq, yurakalz.

**mouth** [maʊθ] *n.* og'iz; (*poet.*) dudoqlar; (*entrance*) kirish; (*of river*) daryoning quyilishi, dengizga (ko'lga) quyiladigan joy; (*of gun, volcano*) og'iz; - *to feed* xo'randa, jon, olla a'zoal; *by word of* - og'zaki; *v.* manmanlik bilan gapirmoq. **mouthful** *n.* og'zi to'la; (*small amount*) bir tlashlam. **mouth-organ** *n.* lab garmoni (*musiqqa asbobi*). **mouth-piece** *n.* telefon, musiqqa asbobi va h.k.ning og'izga tutiladigan joyi; (*person*) jarchi, fikr tarqatuvchi kishi.

**movable** [mu:vəb(ə)] *adj.* yuradigan, harakat qiladigan, qimirlaydigan, suriladigan; (*property*) ko'chma, ko'chadigan.

**move** [mu:v] *n.* (*in game*) yurish; (*change of location*) joy almashinuvi; (*step*) qadam; *v.* harakatlantirmoq, qo'zg'atmoq, yurmoq, jo'namoq; (*affect*) tegmoq, taqilmoq, qo'zg'atmoq; (*propose*) kirgizmoq; (*events*) keng rivojlanmoq, taraqqiy qilmoq; (-*house*) ko'chmoq; - *In* ko'chib chiqmoq. **movement** *n.* harakat (*mus.*) qism. **moving** *n.* harakatlantiruvchi; (*touching*) ta'sirli, ta'sir

qiladigan, ko'ngilni yumshatadigan; - *staircase* eskalator (*o'zi yurar zina*).

**mow** [məʊ] *v.* (*also - down*) o'rmoq (*o'roq mashina yoki chaig'i bilan*). **mower** *n.* (*person*) o'roqchi; (*machine*) o'roq mashina.

**MP** *abbr.* (*of Member of Parliament*) parlament a'zosi.

**mpg** *abbr.* (*of miles per gallon*) gallon benzinga ... mil, (*avtomobilga quyilgan ma'tum miqdordagi benzinga qancha yo'l bosilganligini* anglatish uchun ishlatiladi; *gallon - suyuq va to'kma jamlar o'chovi*).

**mph** *abbr.* (*of miles per hour*) soatiga ... mil.

**Mr** *abbr.* (*of mister*) janob, mister.

**Mrs** [mɪstɪz] *abbr.* (*of mistress*) xonim, missis.

**MS** *abbr.* (*of manuscript*) qo'lyozma; (*of multiple sclerosis*) parishon, parishonxotir, skleroz.

**Ms** [mɪz, meɪz] xonim, miss.

**M.Sc.** *abbr.* (*of Master of Science*) tabiiy fanlar magistr

**Mt.** *abbr.* (*of Mount, mountain*) tog'.

**much** [mʌʃ] *adj. & n.* ko'p; ko'pgina; *adv.* juda (*with satr. adj.*) ancha, xyla, anchagina.

**muck** [mʌk] *n.* (*dung*) go'ng; (*dirt*)

- loy, balchiq; *v.* (*dirty*) kir (iflos) qilmoq; ~ *out* tozalamoq, tozalab artmoq.
- mucous** [mju:'kes] *adj.* shilliqqa old, shilimshiq. **mucus** [mju:'kes] *n.* shilliq, shilimshiq.
- mud** [mʌd] *n.* loy, balchiq, kirlilik, ifloslik. **mudguard** *n.* qanol. **mudslinger** [mʌdsliŋə(r)] *n.* tuhmatchi, bo'htonchi.
- muddle** [mʌd(ə)] *v.* adashtirmoq, chalkashtirmoq, chuvatirmoq; ~ *along* tavakkaliga harakat qilmoq; ~ *through* bir amallab oxiriga yetkazmoq; *n.* chigal, ishkal, chalkash, chatoq. **muddle-headed** *adj.* bafahm, bafarosat, anqov, uquvsiz.
- muddy** ['mʌdi] *adj.* iflos, kir; (*of liquid*) loyqa; (*of light*) xira; *v.* loy sachratmoq; (*water*) loyqatmoq, chayqatmoq.
- muazzin** [mu:'əzin] *n.* muazzin, so'fi.
- muff** [mʌf] *n.* mufta (*mashinalarda ikki vaini bir-biriga ulaydigan qism*).
- muffle** ['mʌf(ə)] *v.* o'ramoq, burkamoq, o'rab chimbab qo'y-moq; (*sound*) gangiratmoq, kar qilmoq, karaxl qilmoq. **muffler** *n.* sharf, kashna (*bo'yinga o'raladigan tor, uzun ro'mol*).
- mufti** [mʌfti] *n.* mufti (*shariat qonunlarini talqin qiluvchi, shariat*
- va huquq masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi kishi*).
- mug** [mʌg] *n.* (*vessel*) krujka; (*face*) bashara; *v.* hujum qilmoq, bosib kelmoq. **mugger** *n.* ko'cha bezori (*bosqinchi, o'g'ri*). **mugging** *n.* ko'chada talash (*o'g'irlash*).
- muggy** [mʌgi] *adj.* dim, dimiqtiradigan.
- muletto** [mju:'lətəʊ] *n.* mulat, mulat ayoli (*oq tanli bilan negr er-xotindan tug'ilgan nash*).
- mulberry** ['mʌləbəri] *n.* (*tree*) tut daraxti; (*fruit*) tut mevasi.
- mule** [mju:l] *n.* xachir. **mule'teer** *n.* xachirboqar, xachir boquvchi. **mullah** *adj.* eshakday o'jar, qaysar.
- mull** [mʌl] *n.* chigallik, chalkashlik.
- mullah** [mʌlə] *n.* mulla, domla, imom.
- mullet** ['mʌlit] *n.* (*grey -*) kefal (*balliq*).
- multi-** [mʌlti] *in comb.* ko'p ...
- multi...** **multicoloured** *adj.* ko'p rangli, rang-barang. **multifarious** [mʌlti'ʔeəriəs] *adj.* turli-turli, xilma-xil, rang-barang. **multilateral** *adj.* ko'p tomonlama, ko'p narsadan xabardor. **multimillionaire** *n.* multimillioner. **multi-purpose** *adj.* universal, ko'p qirrali. **multiracial** *adj.* ko'p marta ishlatiladigan, ko'p

- martali. multiatoray *adj.* ko'p qavalli.  
**multiple** ['mʌltɪp(ə)l] *adj.* turli-bo'laklardan tuzilgan; tarkibiy, murakkab; (*varied*) turli xil; (*numerous*) ko'p sonli, ko'pdan-ko'p; (*math.*) marta, karra; - sclerosis parishonxotir, skleroz.  
**multiplication** [mʌltɪplɪk'eɪʃ(ə)n] *n.* urchish, ortish, ko'payish; (*math.*) ko'paytirish. **multiplicity** *n.* ko'plik, soni ko'plik, xilmaxillik, turli tumanlik. **multiply** ['mʌltɪ,pləɪ] *v.* ko'pay(tir)moq; (*math.*) ko'paytirmoq.  
**multitude** [mʌltɪ,tju:d] *n.* ko'p; talay, allaqancha; (*crowd*) olomon, yig'in, to'da.  
**mum**<sup>1</sup> [mʌm] *adj.*: -'s the word! bu haqda hech kim bilmashni; **keep** - indamay qolmoq, jim bo'lmoq, jim turmoq.  
**mum**<sup>2</sup> [mʌm] *n.* (*mother*) ona, oyi.  
**mumble** [mʌmb(ə)l] *v.* javra(n)-moq, ming'irla(n)moq, to'ng'illa(n)moq, g'uldira(n)moq.  
**mummify** [mʌmɪ,faɪ] *v.* mumifikatsiya qilmoq, mumiyolamoq.  
**mummy**<sup>1</sup> *n.* mumyo.  
**mummy**<sup>2</sup> [mʌmɪ] *n.* (*mother*) ona, onajon, oyljon.  
**mumps** [mʌmps] *n.* tepki (*kassallik*).  
**munch** [mʌntʃ] *v.* chaynamoq, kavahanmoq.  
**mundane** [mʌn'deɪn] *adj.* dunyoviy.  
**Munich** [mju:nɪk] *n.* Myunxen.  
**municipal** [mju:'nɪsɪp(ə)l] *adj.* shaharga oid, shaharga qarashli. **municipality** [mju:,nɪsɪ'peɪkəlti] *n.* shaharlik.  
**munificence** [mju:'nɪfɪs(ə)nə] *n.* saxylik, ochiq qo'llik, hotamlik. **munificent** *adj.* saxiy, xotamtoy, ochiq qo'l.  
**munitions** [mju:'nɪʃ(ə)nɪs] *n.* harbiy mol-mulk.  
**mural** [mju'r(ə)l] *adj.* devorli, devorga chizilgan.  
**murder** ['mɜ:də(r)] *n.* odam o'ldirish, qotillik; *v.* o'ldirmoq; (*language*) so'zni buzib aytmq.  
**murderer, murderess** *n.* odam o'ldiruvchi, qotil. **murderous** *adj.* o'ldiradigan, halokatli, zararli.  
**murky** [mɜ:kɪ] *adj.* qorong'i, mud-hish.  
**murmur** [mɜ:mə(r)] *n.* (*of water*) jildirash, shildirash, sharqilash; (*of voices*) shivirlash, pichirlash, shivir-shivir gap; (*of discontent*) hasrat, nadomat, nola, zor, **without a** - hasratsiz, nolasiz; *v.* jldiramoq, shildiramoq; zorlanmoq, nolimoq, hasrat-nadomat qilmoq; pichirlamoq, shivirlamoq.  
**muscle** ['mʌs(ə)l] *n.* muskul, mushak. **muscular** *adj.* muskulga oid, mushakka oid; (*person*)

musakulli, mushakli.  
 muse<sup>1</sup> [mju:z] *v.* fikr yurg'izmoq, o'ylamoq, fikr qilmoq.  
 muse<sup>2</sup> [mju:z] *n.* ilhom parisi.  
 museum [mju:'ziəm] *n.* muzey.  
 mushroom [mʌʃrʊm, -ru:m] *n.* qo'ziquorin, zamburug'; (*cultivated*) shampinon (*qo'ziquorinning bir turi*).  
 music [mju:zɪk] *n.* musiqa; (*sheet* -) notalar; *play without* - notalariz chalmoq. *musical* *adj.* musliqiy; ~ *comedy* musliqiy komediya; *n.* musliqiy (kino)komediya. *musician* [mju:'ziʃ(ə)n] *n.* musliqachi; (*composer*) bastakor. *music-hall* *n.* myuzik-xoll. *musicologist* *n.* musliqashunos. *musicology* *n.* musliqashunoslik. *music-paper* *n.* nota qog'ozı.  
 musk [mask] *n.* mushk (*hayvondan olinadigan xushbo'y modda*); ~ melon qovun.  
 musket [mʌskɪt] *n.* mushket (*kalita kalibrli qadimiy pıta miltiq*).  
 muske'tear *n.* mushketyor (*askar*).  
 muskrat [mʌskræt] *n.* ondatra (*kemiruvchi hayvon*).  
 musky [mʌskɪ] *adj.* mushkli.  
 mussel [mʌs(ə)] *n.* qo'shtabaqali chig'anoq.  
 must<sup>1</sup> [mʌst] (*new wine*) yangi sharob, musallaa.  
 must<sup>2</sup> [mʌst] (*obligation*) kerak,

zarur, lozim; ~ *not* (*prohibition*) mumkin emas; *n.* zarurlik, keraklik, zarurat.  
 mustard ['mʌstəd] *n.* xantal; - gas achchiq zahar gaz; - *plaster* kuloi; - *pot* xantalidon, xantal solinadigan idish.  
 musty ['mʌstɪ] *adj.* namiqqan, dimiqqan, qo'lansa.  
 mutant [mju:t(ə)nɪ] *adj.* mutantga oid; *n.* mutant. *mutation* *n.* mutatsiya (*hayot sharoitining o'zgarishi ta'siri ostida organizmda yangi biologik belgi yoki xususiyat paydo bo'lishi*).  
 mute [mju:t] *adj.* (*dumb*) tilsiz, gung, gungelak, soqov; (*silent*) jimjittik; *n.* soqov; (*mus.*) surdina (*choig'u tovushini pasaytirish uchun torlarning ustiga bostirib qo'yiladigan taroqslıman asbob*).  
 muted *adj.* sal pasaytirilgan, sal bostirilgan; *with* - *strings* bildirilmasdan, yashirincha.  
 mutlate [mju:tɪleɪt] *v.* mayib qilmoq, shikast yetkazmoq. *mutlation* *n.* mayiblik, noqironlik, shikast, iat.  
 mutineer [mju:tɪ'nɪə(r)] *n.* isyonchi, g'alayonchi. 'mutinous *adj.* isyonchi, isyon ko'taruvchi. 'mutiny *n.* isyon, g'alayon; *v.* isyon ko'tarmoq (*qilmoq*).  
 mutlem [mju:tɪz(ə)m] *n.* gunglik, soqovlik, tilsizlik.

**mutter** [ˈmʌtə(r)] *v.* mingʻillamoq, gʻuldiramog, vaysamoq; *n.* mingʻillash, vaysash.

**mutton** [ˈmʌt(ə)n] *n.* qoʻy goʻshti.

**mutual** [ˈmju:tʃʊəl, -tʃʊəl] *adj.* oʻzaro; (*common*) umumiy, hamdama oid; ~ *benefit* oʻzaro yordam kassasi; ~ *friend* umumiy doʻst.

**muzzle** [ˈmʌz(ə)] *n.* (*animalʼs*) lumshuq (*hayvonlarda*); (*on animal*) burunduq (*il va boshqa hayvonlarning lumshugʻiga kiygiziladigan maxsus toʻr, noʻxta*); (*of gun*) miltiq yoki toʻp ogʻzi; *v.* burunduq kiydirmoq; (*impose silence*) jim boʻlishga majbur qilmoq.

**muzzy** [ˈmʌzi] *adj.* tumanli.

**MW abbr.** (*of megawatt(s)*) MVL., megavatt.

**my** [maɪ] *poss. pron.* mening; oʻzimning.

**myopia** [maɪˈoʊpiə] *n.* yaqindan koʻrish, uzoqni koʻraolmaslik.

**myopic** [maɪˈoʊpɪk] *adj.* faqat yaqindagini koʻra oladigan, uzoqdagini koʻra olmaydigan.

**myriad** [ˈmɪrɪəd] *n.* son-sanoqsiz, behisob, lak-lak; *adj.* hisobsiz, behisob.

**myrrh** [ˈmɜ:(r)] *n.* mirra (*Afrikada va Arabistonda oʻsadigan baʼzi daraxtlarning poʻstloqʻidan olinadigan xushboʻy smola*).

**myrtle** [ˈmɜ:(l)(ə)] *n.* mirra (*xushboʻy oq gulli doim yashil bula oʻsimlik*); *attr.* mirra ..., mirtaga oid.

**myself** [maɪˈseɪf] *pron.* (*emph.*) oʻzim; (*refl.*) oʻzimga.

**mysterious** [mɪˈstɪəriəs] *adj.* siri, maxfiy, yashirin. **mystery** [ˈmɪstəri] *n.* sir, hali ochilmagan va tagiga yatilmagan voqea, hodiisa; (*relig. rite; play*) misteriya (*qadimgi rimliklarda va yunonlarda yashirin diniy udum; oʻrta asrdagi Gʻarbly yevropada diniy mazmundagi drama*).

**mystic(al)** [ˈmɪstɪk(ə)] *adj.* mistlik, mistikaga asoslangan; *n.* mistlik, mistitsizm tarafdori. **mysticism** *n.* mistitsizm (*tabiatdan lashqari siri olam borligiga ishonishdan iborat diniy tasavvur*). **mystification** *n.* aldash, yoʻldan ozdirish. **myatlfy** [ˈmɪstɪˈfaɪ] *v.* hayratda qoldirmoq, esankiratmoq, boshini qolarmoq, qiyin ahvolga solmoq.

**myth** [mɪθ] *n.* afsona (*qadimgi xalqlarda: xudo, qahramonlar yoki tabiat hodisalari haqidagi ertak*). **mythical** *adj.* mit ..., **mythological** *adj.* mifologiya ..., mifologik. **mythologist** *n.* mifolog (*mifologiya sohasida tekshirishlar olib boruvchi mutaxassis*). **mythology** *n.* mifologiya

(*biror xalqda bo'lgan hamma millatlar yig'indisi*).

## N

**nacre** [ˈneɪkə(r)] *n.* sadaf.  
**nacr(e)ous** *adj.* sadaf..., sadafdan qilingan.

**nadir** [ˈneɪdɪə(r), ˈnæd-] *n.* eng past daraja; juda yomon ahvoldagi tushish.

**naɡ¹** [næɡ] *n.* (*horse*) totli, totli ot (*kichik ot*).

**naɡ²** [næɡ] *v.:* - at egovlamoq, jonlga taqmoq; (*of pain*) og'riymoq, zirqiramoq, sirqiramoq, sirqillamoq.

**naɪəd** [naɪəd] *n.* nayada (*chuchuk suvlarda yashaydigan molhyusk*; *yunon mitologiyasida suv parisi*).

**nail** [neɪl] *n.* (*finger-, toe ~*) timoq; (*claw*) panja, changal (*hayvon va qushlarda*); (*metal spike*) mix; - varnish tirnoq bo'yalandigan lak; *v.* mixlamoq, qoqmoq.  
**nail-brush** *n.* timoq cho'lkasi.  
**nail-file** *n.* timoq egovchasi.  
**nail-scissors** *n.* timoq oledigan qaychi.

**naɪv** [naɪˈv, naɪˈv] *adj.* go'l, soddadil, soddagina, anoyil. **naivety** *n.* go'llik, soddalik, soddadillik,

anoyillik.

**naked** [ˈneɪkɪd] *adj.* yalang, yalang'och, ochliq; ~ *eye* oddiy ko'z bilan, asbobalzi; - *sword* qindan chiqarilgan qilich, yalang'ochlangan qilich; ~ *truth* chin haqiqat. **nakedness** *n.* yalang'ochlik, qipyalang'ochlik.

**name** [neɪm] *n.* nom; (*forename*) ism, ot; (*surname*) familiya; (*reputation*) obro', shuhrat, dang; **what is his -?** uning ismi nima?; **in the - of ...** sharafiga, ... yuzasidan; *v.* nom bermoq, atamoq, ism qo'yimoq; (*appoint*) belgilamoq, tayinlamoq. **name-day** *n.* tug'ilgan kun bayrami (*nasroniy dinidagilarda; cherkov tomonidan yo'qiansadigan biron avliyo nomidagi kishining to'yi, bayrami*). **nameless** *adj.* ismiz, nomsiz. **namely** *adv.* xuddi, naq, xuddi shunday, ya'ni. **name-part** *n.* bosh rol. **name-plate** *n.* familiya yozilgan taxtacha. **nameake** *n.* adash.

**nanny** [ˈnæni] *n.* enaga, bola boquvchi xotin.

**nap¹** [næp] *n.* (*sleep*) mudroq, mudrash, mudroq bosish; *v.* mudramoq, mizg'ib oimoq.

**nap²** [næp] *n.* (*on cloth*) tuk, pat.

**napalm** [ˈneɪpɑːm] *n.* napalm (*kuchaytirilgan quyuq benzol, kuchli yondiruvchi vosita*).

**nape** [neɪp] *n.* gardan, orqa bo'yin.

**napkin** [ˈnæpkɪn] *n.* salfetka, qo'l-sochiq.

**Naples** [neɪp(ə)lz] *n.* Neapol.

**narcissus** [no:'sɪsəs] *n.* nargis (*gul*).

**narcosis** [no:'keʊsɪs] *n.* narkoz (*behush yoki karaxt qiladigan don*). **narcotic** [no:'kɒtɪk] *adj.* narkotik, glyoh; *n.* narkotik (*og'riqni bosadigan, mast, karaxt qiladigan, uyqu keltiradigan, behush qiladigan modda*).

**nark** [no:k] *n.* (*spy*) iskovuch, gap tashuvchi; *v.* (*irritate*) ach-chig'ini keltirmoq, jahlini chiqarmoq, bo'g'moq.

**narrate** [nə'reɪt] *v.* hikoya qilmoq, aytib bermoq, so'zlab bermoq. **narration** *n.* hikoya qilish, aytib berish. **narrative** [nə'reɪtɪv] *n.* hikoya, qissa; *adj.* qissaga, hikoyaga oid. **narrator** *n.* hikoyachi, hikoya qiluvchi, so'zlab beruvchi.

**narrow** [ˈnæɹəʊ] *adj.* ensiz, tor, (*restricted*) cheklangan, chek qo'yilgan, chegaralangan; *n.*: tor qism; (*strait*) tor dara, ikki tik tog' o'rtasidagi tor yo'l; *v.* toray-(tir)moq. **narrow-gauge** *adj.* tor izli (*temir yo'l*). **narrowly** *adv.* (*hardly*) sal, ozgina, sal bo'lsa. zo'rg'a-zo'rg'a; he - escaped

drowning u sal bo'lsa cho'klb ketardi. **narrow-minded** *adj.* cheklangan, chek qo'yilgan, chegaralangan. **narrowness** *n.* ensizlik, torlik; cheklanganlik.

**narwhal** [ˈnɔ:w(ə)l] *n.* narval (*den-gizda yashovchi kitsimon sut emizuvchi hayvon*).

**nasal** [neɪz(ə)] *adj.* burunga oid; (*voice*) po'ng', po'ng'illab gapiruvchi, dimog'ida gapiruvchi; manqa.

**nascent** [ˈnæs(ə)nt, 'neɪs-] *adj.* yaratilayotgan, tug'ilayolgan.

**nasturtium** [ne'stɜ:ʃəm] *n.* nasturtsiya, lotin chechagi (*o'simlik*).

**naughty** [ˈnɔ:sti] *adj.* yomon, jirkanch, yaramas; (*dirty*) iflos, isqirt; (*person*) badjahl, serjahl; yomon niyatli, kekli, yovuz.

**nation** [neɪʃ(ə)n] *n.* millat; (*people*) xalq; (*country*) davlat, mamlakat. **national** [ˈnæʃən(ə)l] *adj.* milliy, xalqqa oid; (*of the state*) davlatga oid; davlatga qarashli; *n.* fuqaro. **nationalism** *n.* millatchilik, millatparastlik. **nationalist** *n.* millatchi, millatparast. **nationalistic** *adj.* millatchilarcha, milatchilikka oid. **nationality** *n.* millat; (*citizenship*) fuqarolik. **nationalization** *n.* natsionalizatsiya (*xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish*). **nationalize** *v.* natsional-



lzatsiya qilmoq (*xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirmoq*).

**native** [nɛtɪv] *n.* (~ of) asli, -lik, tub joyli klahi; *adj.* (*natural*) tabiiy; (*of one's birth*) qarindosh, tug'ishgan, o'z; (*indigenous*) yerli, mahalliy; (*local*) tub joyga oid; - land vatan, makon; - language ona tili; - speaker mahalliy tilda so'zlashuvchi.

**nativity** [nɛ'tɪvɪtɪ] *n.* rojdestvo, mavlud (*nasroniy dinida Iso payg'ambarning tug'ilgan kuni munosabati bilan nishonlanadigan bayram*).

**NATO** [nɛɪtəʊ] *abbr.* (*of North Atlantic Treaty Organization*) NATO, Shlmoiy Atlantika shartnomasi tashkiloti (*harbiy uyushma*).

**natter** ['næɪtə(r)] *v.* vaysamoq, aljiramoq, bemaza gaplar gapirmoq; *n.* bekorchi gap, bema'ni so'z; safsata.

**natural** ['nætʃərə] *adj.* tabiiy; - death tabiiy o'lim; - resources tabiiy boyliklar; - selection tabiiy tanlash; *n.* (*person*) o'z-o'zidan yelishgan iste'dodli odam, iste'dodli odam. **naturalism** *n.* naturalizm (*tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlarini bir-biriga tenglashtirgan oqim*). **naturalist** *n.* tabiatshunos. **naturalistic** *adj.* tabiatshunoslikka oid. **naturali-**

**satlon** *n.* (*of alien*) naturalizatsiya (*chet el odamini o'z fuqarosi qilib olish*); (*of plant, animal*) iqlimlashish, iqlimga moslashish. **naturalize** *v.* chet ellik odamga fuqarolik huquqini berish; iqlimga moslashtirmoq. **naturally** *adv.* tabiiy, tabiatga xos; (*of course*) tabiiy, kutilganidek. **nature** [nɛtʃə(r)] *n.* tabiat; (*character*) xarakter, fe'l, mijoz, xulq; **by** - tabiatan; **In the** - of singari, kabi, o'xshash; **state of** - ibtidoiy holat; - **reserve** qo'riqxona, taqiqlangan joy (*nodir daraxtlar, hayvonlar va sh.k.larni doim saqlash, o'rganish va urchitish uchun ataylab ajratilgan hamda davlat tomonidan qo'riqlanadigan hudud, o'rmon, ko'l va h.k.*).

**naughtiness** ['nɔ:tɪnɪs] *n.* (*disobedience*) itoat qilmaslik, bo'ysunmaslik, o'zboshimchilik. **naughty** *adj.* itoatsiz, gapga quloq solmaydigan, o'zboshimcha, sho'x.

**nausea** [nɔ:ziə, -sɪə] *n.* ko'ngil aynish, ko'ngil behuzur bo'lishi; (*loathing*) nafratlanish, jirkanish; **nauseate** *v.* ko'ngil aynitmoq, ko'ngil behuzur bo'lmoq; jirkanchil bo'lmoq; **the idea** - me bu fikrdan ko'nglim ayniyapti; bu fikrdan jirkanaman. **nau-**

**secus** *adj.* ko'ngilni aynitadigan; (*loathsome*) jirkanch, qabih, xunuk, iflos, juda yomon.  
**nautical** [no:t(ə)] *n.* dengizga (dengizda) yurishga old, dengizda bo'ladigan, dengizda yashaydigan.

**naval** [neiv(ə)] *adj.* harbiy-dengiz ..., harbiy-dengizga old, flot ... flolga old,

**nave** [neiv] *n.* naf (*me'morchilik*da: *bin o'qsmi*).

**navel** [neiv(ə)] *n.* kindik.

**navigable** ['nævigeb(ə)] *adj.* kema yuradigan, kemalar qatnaydigan, **navigate** *v.* (*ship*) boshlab bormoq, yurgizmoq; (*sea*) suzmoq, **navigation** *n.* navigatsiya, kemachilik, kema yurgizish, **navigator** *n.* shturman (*yo'l ko'rsatib boruvchi muvassals*).

**navvy** [nævi] *n.* yer qazuvchi, yer kovlovchi.

**navy** [neivi] *n.* harbiy-dengiz floti; ~ blue to'q ko'k rang.

**Nazi** [no:t(ə), 'nɑ:z(ə)] *n.* natsist (*german fashisti*); *adj.* natsist(lar)ga old, natsist(lar)ga xos. **Nazism** *n.* natsizm (*german fashizmi*).

**NB** *abbr.* (*of nota bene*) nota-bene (*diqqatni jalb etish uchun qo'yiladigan NB belgisi*).

**near** [ne(r)] *adv.* yaqinroq, beriroq; yaqin; *far and* ~ hamma

yerda, hamma joyda, hamma yoqda; ~ *by* bir qatorda, yonma-yon, yonida; yaqinida, oldida; *prep.* yonida, oldida, -da; *adj.* yaqin; ~ *miss* yaqindan mo'ljalga tegizolmaslik; *v.* yaqinlashmoq, yaqin kalmoq, yondashmoq, yaqin kelib qolmoq.

**nearly** [neəri] *adv.* deyarli, qariyb, salkam, -ga yaqin, -lacha, taxminan.

**near-sighted** [neə'saɪtɪd] *adj.* faqat yaqindagini ko'ra oladigan, uzoqdagini ko'ra olmaydigan.

**neat** [ni:t] *adj.* (*tidy*) toza, pokiza, ozoda, puxta, batartib, sarranjom; (*clear*) aniq, ochliq; (*undiluted*) suyultirilmagan, suv qo'shilmagan.

**nebula** [nebjələ] *n.* tuman tushganlik, tuman qoplaganlik, tumanlik, tuman. **nebulous** *adj.* noaniq, g'ira-shira, xira, tumanli.

**necessarily** [nesəsəri:li, '-səri:li] *adv.* muqarrar ravishda, albatta, turgan gap. 'necessary *adj.* kerakli, kerak, zarur; (*inevitable*) muqarrar, bo'lishi aniq, turgan gap; *n.* kerakli, zaruriy. **necessitate** *v.* zaruratga aylanilmoq; (*involve*) ...ga olib bormoq, ...ga sabab bo'lmoq. **necessity** *n.* zaruriylik, keraklik, zarurat; muqarrarlik; (*poverty*) kambag'alilik, qashshoqlik, yo'qchilik.

**neck** [nek] *n.* bo'yin, gardan; (*of garment*) yoqa o'mi; (*of bottle*) shishaning og'zi; (*isthmus*) bo'yin (*ikkil qit'ani yoki bir qit'a bilan yarim orolni tutashtirgan tar yer*); **get it in the ~** kaltak yemoq, dakkil yemoq; **risk one's ~** hayotini xavf ostiga qo'ymoq; ~ **or nothing** tavakkal, bo'lganicha bo'lar. **neckband** *n.* yoqa, kiyim yoqaal. **neckertchief** *n.* bo'yinga solib yuriladigan ro'mol. **necklace** [nekles, -lts] *n.* marjon, shoda, munchoq. **necklet** *n.* marjon, shoda, munchoq. **neckline** *n.* yoqa o'mi. **necktie** *n.* galstuk.

**necromancer** [nekro, mænse(r)] *n.* sehrgar, jodugar. **necromancy** *n.* qora magiya, sehr-jodu.

**nectar** [nekte(r)] *n.* nektar (*o'simliklardan chiqadigan shirin suv*).

**nee** [neɪ] *adj.* asl familiya, qiz vaqtidagi (erga legmagan vaqtidagi) familiya.

**need** [ni:d] *n.* ehtiyoj, zarurat; *v.* muhtoj bo'lmoq; I (*etc.*) - menga kerak (zarur); I - five dollars menga besh dollar kerak.

**needle** ['ni:d(e)] *n.* igna, nina; (*knitting*) to'r to'qiydigan nina; (*pointer*) mil, atrelka, ko'rsatgich; (*pine ~*) ninabargililar.

**needleless** [ni:dls] *adj.* keraksiz, nokerak, ortiqcha; ~ **to say** ga-

pirmasa ham bo'ladi, o'z-o'zidan ma'lumki. **needy** *adj.* kambag'al, muhtoj.

**negation** [ni'geɪʃ(ə)n] *n.* tonish, inkor etish. **negative** ['neɡətɪv] *adj.* salbiy, inkor etadigan; *negativ*; **negation quantity** manfiy miqdor, - **result** negativ natija; *n.* inkor; (*gram.*) bo'lishsizlik (*harakatga inkor ma'nosini beradigan so'z*); (*phot.*) negativ (*yorug'lik tez ta'sir qiladigan, oq narsa - qora, qora narsa - oq bo'lib tushadigan fototasma*); **In the ~** salbiy, inkor etadigan.

**neglect** [ni'glekt] *v.* mensimay qaramoq, ittifoqsizlik ko'rsatmoq, nazarga ilmaslik; g'amxo'rlik qilmaslik; (*abandon*) tashlab qo'ymoq, terk qilmoq, yig'ishtirib qo'ymoq; (*not fulfil*) bajarmaslik; *n.* nazarga ilmaslik, pisand qilmaslik; (*condition*) qarovsiz qoldirilganlik, qarovsizlik. **neglectful** *adj.* diqqatsiz, e'liborsiz, beparvo, parvosiz, pala-partish. **negligence** ['neglɪ-dʒ(ə)ns] *n.* parvosizlik, ehtiyotsizlik, diqqatsizlik, pala-partish ish qilish. **negligent** *adj.* diqqatsiz, e'liborsiz, beparvo, parvosiz, pala-partish. **negligible** *adj.* ahamiyati kam, ahamiyatsiz, arzimaz.

**negotiate** [ni'geɪʃɪ, eɪt] *v.* mu-

- zokara olib bormoq; *v.* (*arrange*)  
luzmoq, bog'lamoq; (*overcome*)  
yengmoq, g'olib chiqmoq, bar-  
taraf qilmoq, yo'qotmoq, bos-  
moq. **negotiation** *n.* (*discus-  
sion*) so'z, gap, muzokara.
- Negress** [ni:grɪs] *n.* zanj (qora  
tanli) ayol. **Negro** *n.* zanj, qora  
tanli, habash; *adj.* zanj (qora  
tanli)larga oid.
- neigh** [neɪ] *n.* kishnash; *v.* kish-  
namoq.
- neighbour** [neɪbə(r)] *n.* qo'shni.  
**neighbourhood** *n.* (*vicinity*)  
qo'shnilik, qo'shnichilik; (*area*)  
maye, joy, yer; *in the - of* yoni-  
da, oldida, yaqinida. **neigh-  
bouring** *adj.* qo'shni, yonma-  
yon turgan. **neighbourly** *adj.*  
do'stona, totuv (*qo'shnichilik*  
*munosabatlarida*).
- neither** ['naɪðə(r), 'ni:ð-] *adv.* ...  
ham (*inkor ma'nosida*); *pron.* na  
unisi, na bunisi, hech kim; - ...  
nor u ham emas, bu ham emas.
- nemesis** [nemɪsɪs] *n.* o'ch, qa-  
sos.
- neocolonialism** [ni:əke'leɪniə-  
, lɪz(ə)m] *n.* neokolonializm (*so-  
biq mustamlaka ustidan iqtisodiy va siyosiy hukmrontik o'rnatishga qaralilgan yangicha juda nozik siyosat*).
- neolithic** [ni:ə'liθɪk] *adj.* neolit ...,  
tosh asrining so'nggi davriga  
old.
- neologism** [ni:'blɒdʒ, lɪz(ə)m] *n.*  
**neologizm** (*yangi so'z, shuning-  
dek yangi ma'noga ega bo'lgan  
eski so'z*).
- neon** [ni:ɒn] *n.* neon (*rangsiz va  
hidsiz gaz*); *attr.* neon ..., neon-  
ga oid.
- nephew** ['nevju:, 'nef-] *n.* jiyan  
(*o'g'il bola*).
- nepotism** [nepe, lɪz(ə)m] *n.* quda-  
andachilik.
- Neptune** ['neɪplju:n] *n.* Neptun  
(*quyash sistemasidagi sayyora*).
- nerve** [nɜ:v] *n.* asab; (*assurance*)  
o'zini tula bilish, o'zini yo'qot-  
maslik; (*impudence*) surbetlik,  
bezbetlik, yuzsizlik, beorlik,  
shamsizlik; (*nervousness*) asa-  
biylik; *get on the -s of* asabga  
tegmoq. **nerveless** *adj.* kuchsiz,  
damonsiz, zalf, ilajsiz. **nervous**  
*adj.* asabiy; - **breakdown**  
ko'ngil g'ashlik, dilsiyohlik. **nervy**  
*adj.* asabiy.
- nest** [nest] *n.* uya, ln; - **egg** ahti-  
yot qilish, saqlash, jamg'arish;  
*v.* uya solmoq. **nestle** ['nes(ə)]  
*v.* joylashmoq, o'rnashmoq.
- nestling** ['neslɪŋ, 'nest-] *n.* qush  
bolasi, jo'ja.
- net'** [net] *n.* to'r, setka; *v.* (*catch*)  
to'r bilan tutib olmoq (ushlab  
olmoq, lltirmoq); (*cover*) to'r  
bilan yopmoq.

**net** [net], **nett** *adj.* netto (*idish-siz, qopsiz, a'rovsiz tovarning sof og'irligi haqida*); - profit sof foyda; ~ weight sof og'irlik, netto og'irligi; *v.* sof foyda olmoq.

**Netherlands** ['nɛdələndz] *n.* Niderlandiya (Gollandiya).

**nettle** [net(ə)] *n.* qichitqi o't, gazanda o't; *v.* (*fig.*) qitiqlamoq, ta'zir qilmoq. **nettle-rash** *n.* eshak yemi (*kasallik*).

**network** [netwɜ:k] *n.* to'r.

**neuralgia** [njʊə'reɪldʒə] *n.* nevralgiya (*asab kasal bo'lganda badanda paydo bo'ladigan og'riq*). **neurasthenia** [njʊə'reʊ'stɛ'nɪə] *n.* nevrasteniya (*asab sistemasining buzilishi*). **neuritis** *n.* nevrit (*asab yallig'lanishi*). **neurologist** *n.* nevrolog (*nevrologiya mutaxassis*). **neurology** *n.* nevrologiya (*asab sistemasi va uning kasallari haqidagi ta'limot*). **neurosis** *n.* nevroz (*asab kasalligi*). **neurotic** *adj.* nevrotik; *n.* asab kasalligiga yo'liqqan kishi.

**neuter** [nju:tə(r)] *adj.* sredniy rodga oid, o'lmasiz; *n.* (*gender*) sredniy rod; (*word*) sredniy roddagi so'z; (*animal*) bichilgan, axta qilingan (*jinsiy bezlari olib tashlangan*) hayvon; *v.* axtalamoq, bichmoq. **neutral** *adj.* betaraf, xolis, neytral; (*Indifferent*)

loyqayd; *n.* (*state*) betaraf davlat; (*person*) betaraf davlatning fuqarosi; In - yoqilmagan. **neutrality** [nju:'træltɪ] *n.* betaraflik, xolislik, aralashmaslik. **neutralization** *n.* betaraffashtirish, aralashmaslik. **neutralize** *v.* betaraffashtirmoq, aralashmaydigan qilmoq. **neutron** *n.* neytron (*atom yadrosiga kiradigan, elektr zaryadidan xoli bo'lgan zarra*).

**Neva** ['ni:və] *n.* Neva.

**never** ['nevə(r)] *adv.* hech qachon, hech vaqt, hech mahal; -i bo'lishi mumkin emas; - again boshqa hech qachon; - tear! xotirjam bo'lingi, ishoning!, ko'nglingiz to'q bo'lsin!; - mind hech nima (hech narsa)!; bari biri; - once biron marta ham ... **never-never** *n.*; on the - bir necha mudatda. **nevertheless** *conj., adv.* shunday bo'lsa ham.

**new** [nju:] *adj.* yangi; (*fresh*) endi uzilgan; (*young*) yosh; yangi; **N-Year** Yangi yil; **N-York** Nyu-York; **N-Zealand** Yangi Zelandiya. **new-born** *adj.* yangi tug'ilgan bola, chaqaloq. **new-comer** *n.* kelgindi, musofir. **new-fangled** *adj.* yangi urf (*rasm*) bo'lgan. **newly** *adv.* (*recently*) yaqinda; (*in new manner*) yangidan, qaytadan, boshqatdan.

**newsal** [nju:əl] *n.* aylanma zina-ning ustuni.

**news** [nju:z] *n.* yangilik, axborot; ~ *agency* matbuot agentligi. **newsagent** *n.* gazetchi. **newsflash** [nju:z] *n.* muhim (shoshilinch) xabar. **newsletter** *n.* axborot byulleteni. **newspaper** *n.* gazeta. **newsprint** *n.* gazeta qog'ozi. **newsreel** *n.* kinoxronika (*voqealarni xronologik tartibda tasvirlovchi hujjatli film*). **news-vendor** *n.* gazetchi, gazeta sotuvchisi.

**newt** [nju:t] *n.* trilon (*ham suvda ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor*).

**next** [nekst] *adj.* keyingi, yangi, navbatdagi; *adv.* keyingi safar; keyin, so'ng; ~ *door* yonma-yon, qo'shni; (*house*) qo'shni uyda; (*flat*) qo'shni xonada; ~ *door to* (*fig.*) deyarli, qariyb, salkam. -ga yaqin, -tacha; ~ *of kin* yaqin qarindoshlar, ~ *to yonida*; yoniga; (*fig.*) deyarli. **next-door** *adj.* qo'shni, yonma-yon joylashgan.

**nexus** [nekse] *n.* bog'lanish, aloqa; munosabat.

**NHS** *abbr.* (*of National Health Service*) Milliy sog'liqni saqlash xizmati.

**nib** [nɪb] *n.* pero, qalam uchi; pat, par.

**nibble** [nɪb(ə)l] *v.* tishda chaq(ill)moq; kemir(ill)moq; (*grass*) chimllimoq, chintib yemoq; (*fish*) cho'qimoq, cho'qib yemoq.

**Nice** [ni:s] *n.* Nitsa (*shahar*).

**nice** [naɪs] *adj.* (*precise*) aniq, rost, tayin, muayyan, to'g'ri; (*subtle*) o'lkir, nafis, nozik; (*pleasant*) yoqimli, ko'ngilli, yoqadigan (*also iron.*); yaxshi, durust, soz; (*person*) aziz, sevikli, qadrdon, jonajon, muloyim. **nicety** [ˈnaɪsɪ] *n.* aniqlik, rasolik, tayinlik, muayyanlik; noziklik, nafislik, mayinlik; *to a* - batak-mom, butunlay, tamomila.

**niche** [nɪʃ, ni:] *n.* taxmon, tokcha.

**nick** [nɪk] *n.* belgi, kertik, nishon, kerib solingan belgi, tamg'a; *In the* ~ *of time* eng oxirgi daqiqada; aynan vaqlda; *v.* kerma belgi qo'ymoq.

**nickel** [nɪk(ə)] *n.* nikel (*kumushsimon oq metall*); *attr.* nikeldan qilingan, nikel. **nickel-plate** *v.* nikellamoq, nikel surtmoq.

**nickname** [ˈnɪkneɪm] *n.* laqab; *v.* laqab qo'ymoq, nom bermoq.

**nicotine** [nɪkəˈti:n] *n.* nikotin (*tamaki tarkibida bo'ladigan zaharli modda*).

**nièce** [ni:s] *n.* jiyan (*qiz bola*).

**niggardly** [ˈnɪɡədli] *adj.* (*miserly*) xasis, baxil, ziqna, qurumsaq;

(*scanty*) kam, kamchil, ayrak.  
 nigging [nɪgɪŋ] *adj.* mayda gap,  
 bachkana, nazari past, past-  
 kash (odam).

night [naɪt] *n.* tun, kecha;  
 (*evening*) kech, oqshom; at ~  
 kechasi, tunda; first ~ premera  
 (*asaming birinchi marta sahna-  
 ga qo'yilishi*); last ~ kecha  
 oqshomda; ~ and day tinmay,  
 to'xtamay; *attr.* tungi, tundagi.  
 nightcap *n.* tungi qalpoq (*kiyib  
 yotish uchun*); (*drink*) uyqu ol-  
 didan bir-ikk qultum spirtli ichim-  
 lik ichmoq. nightclub *n.* tungi  
 klub. nightdress *n.* tungi ko'y-  
 lak. nightfall *n.* kech kirishi, qosh  
 qorayishi. nightgown *n.* tungi  
 uzun ko'y-lak. nightingale *n.* bul-  
 bul. nightjar *n.* tentakqush (*qat-  
 ding'ochga o'xshagan hasharot-  
 xo'y qush*). night-light *n.* sham-  
 chiroq, tunda yoqib yotiladigan  
 chiroq. nightly *adj.* tungi, tunda-  
 gi; (*every night*) har tunda sodir  
 bo'ladigan; *adv.* har kecha, har  
 tun. night-mare *n.* vahimali tush,  
 bostinqirash. nightmare *adj.*  
 qo'rqinchil, mudhih; juda yo-  
 mon.

nihilism [naɪlɪz(ə)m, 'naɪɪr-  
 ,lɪz(ə)m] *n.* nigilizm (*har qanday  
 me'yor va qonunlarni inkor  
 etish*). nihilist *n.* nigillat, nigil-  
 izm tarafdori. nihilistic *adj.* ni-

gillatik, nigilizmga oid.

nil [nɪl] *n.* nol.

nimble ['nɪmb(ə)l] *adj.* epchil,  
 chaqqon, ildam; (*mind*) lad-  
 birkor, uddaburon, moslashuv-  
 chan, epchil.

nimbus ['nɪmbəs] *n.* nimb (*dinly  
 suratlarda: butlarda, sanamlar-  
 da bosh atroflida yog'duning tas-  
 viri*); (*cloud*) yomg'ir buluti.

nine [naɪn] *adj.* & *n.* to'qqiz,  
 to'qizta; (*cards; number 9*) to'q-  
 qiz raqami; (*time*) to'qqiz; (*age*)  
 to'qqiz yosh. ninety *n.* kegli  
 (*shisha idish shaklidagi yog'och-  
 larni tik qo'yib soqqa bilan unib  
 o'ynaydigan o'yin*). nineteen *adj.*  
 & *n.* o'n to'qqiz, o'n to'qqizta;  
 (*age*) o'n to'qqiz yosh. ninety-  
 ninth *adj.* & *n.* o'n to'qqizinchi;  
 (*fraction*) o'n to'qqizinchi qism;  
 (*date*) o'n to'qqizinchi sana.  
 ninetyeth *adj.* & *n.* to'qsoninchi;  
 (*fraction*) to'qsoninchi qism. ni-  
 nety *adj.* & *n.* to'qson, to'qsonta;  
 (*age*) to'qson yosh; (*decade*)  
 to'qsoninchi yillar. ninth *adj.* &  
*n.* to'qqizinchi; (*fraction*) to'qqi-  
 zinchi qism; (*date*) to'qqizinchi  
 sana (kun).

nip' [nɪp] *v.* (*pinch*) chimchilab  
 olmoq, o'yib olmoq (chimchilab);  
 (*bite*) tishlamoq, chaqmoq, qop-  
 moq, tishlab (chaqib, qopib) ol-  
 moq; ~ along uchlab tushmoq,

uchib ketmoq; ~ In the bud tagtomiri bilan yo'qotmoq; *n.* chimchllash; tishlash, chaqish, qopish; there's a ~ in the air sovuq havo hidi kelmoqda. nipper *n.* (boy) bolakay.

nlp<sup>2</sup> [nlp] *n.* (drink) qultum, ryumka.

nipple ['nɪp(ə)] *n.* emizak, so'rg'ich; (tech.) nipple (quvur, shlang va shu kabilarni germetik ravishda ulaydigan, shuningdek kameralardan havoni chiqarmaydigan detal).

nirvana [nɪˈvɑːnə, nɪə] *n.* nirvana (budda dini ta'limotida: bu dunyo tashvishlaridan kechib o'zini rohat-farog'alda sezish).

nit [nɪt] *n.* sirka (bit urug'i).

nitrate ['nɪtreɪt] *n.* nitrat (azot kislotasining tuzi va efir). nitre *n.* selitra (azot kislotasining natriyli, kaliyli, kaltsiyli, ammoniyli va h.k. tuzlari; texnikada turli maqsadlar uchun, qishloq xo'jaligida o'g'it sifatida ishlatiladi).

nitric *adj.* azot ..., azotga oid.

nitrogen *n.* azot (havoning asosiy qismini tashkil etuvchi rangsiz va hissiz gaz).

nitrogenous [nɪˈtrɒdʒɪnəs] *adj.* azot ..., azotga oid. nitroglycerine *n.* nitroglytserin (azot va oltingugurt kislotalari aralashmasining glitserin bilan birlashgani; qattiq

portlovchi modda; shuningdek libbiyotda ham qo'llaniladi). nitrous *adj.* azotli, azot aralashgan; ~ oxide azot oksid.

nitwit [nɪtwɪt] *n.* anqov, bafahm, lavang odam.

No. *abbr.* (of number) No, son.

no [nəʊ] *adj.* (not any) hech qanday, hech qanaqa, hech bir; (not a) sira, aslo, hech; *adv.* yo'q; hech ham, hech qancha; *n.* tonish, inkor etish; (in vote) qarshi ovoz berish; ~ doubt shubhasiz, shaksiz, albatta; ~ fear albatta, yo'q!; ~ wonder ajablanadigan joyi yo'q.

no one [nəʊ wʌn] *pron.* hech kim.

Noah's ark [ˈnəʊ, nɔː] *n.* Nuh kemasi (Nuh payg'ambar shu kema yordamida odamlar va hayvonlarni to'fondan qutqarib o'tgan).

nobility [nəʊˈbɪlɪtɪ] *n.* (class) dvoryanlar tabaqasi; zodagonlar, oqsuyaklar; (quality) olijanoblik, fidokorlik, mardonavorlik. noble [ˈnəʊb(ə)] *adj.* oqsuyakona, oqsuyaklarga oid; olijanob, himmatli, mard. nobleman *n.* dvoryan, oqsuyak, zodagon.

nobody [ˈnəʊbɒdɪ] *pron.* hech kim; *n.* arzimas odam, kichkina odam.

nocturnal [ˈnɒktɪːn(ə)] *adj.* tun-



gi, tundagi. **'nocturne** *n.* noktyurn (*kichkina musiqiy lirik pesa*).

**nod** [nɒd] *v.* bosh qimirlatib qo'ymoq; bosh igratib qo'ymoq; (*drowsily*) boshini osiltirib mudramoq, pinakka ketmoq; **-ding acquaintance** yuzaki tanishuv; *n.* bosh igratish, bosh silkitish. **nodule** [nɒdju:l] *n.* tuguncha, lugunchak.

**noggin** [nɒɡɪn] *n.* krujkacha.

**noise** [nɔɪz] *n.* shovqin, shovshuv; (*radio*) shovqin (*tovushning tiniq eshittilishiga xalal beradigan shovqin*). **noiseless** *adj.* shovqinsiz, tovushsiz, ovoz chiqarmaydigan. **noisy** *adj.* ser-shovqin, shovqini zo'r.

**nomad** ['nɒməd] *n.* ko'chmanchi. **nomadic** *adj.* ko'chmanchi, ko'chib yuradigan.

**nomenclature** [neu'menkletʃə(r), 'nɒmən,kletʃə(r)] *n.* nomenklatura (*nomlar, atamalar, terminlar majmui*). **nominal** ['nɒmɪn(ə)] *adj.* nominal; (*gram.*) ot kategoriyasiga oid, ot(lar) .... **nominate** *v.* (*propose*) ko'rsatmoq, taklif qilmoq; ko'tarmoq; (*appoint*) belgilamoq, tayinlamoq. **nomination** *n.* pastdan yuqoriga ko'tarish; belgilash, tayinlash. **nominate** *adj.* (*n.*) bosh kelishik. **nominee** *n.* nom-

zod, kandidat.

**non-** [nɒn] *pref.* Inkorni, bo'llshsizlikni bildiradi, o'zidan keyingi so'z bilan birga shu so'zdan anglashilgan ma'noning ziddini bildiradi. **non-acceptance** *n.* qabul qilmaslik, hisoblamaslik. **nonage** [neunɪdʒ, 'nɒn-] *n.* voyaga (balog'atga) yetmaganlik. **nonagenarian** -, **nonaged** 'neeren-, **non-** *n.* to'qson yoshli chol (*kampir*).

**non-aggression** [nɒn'ægrɛʃ(ə)n] *n.* hujum qilmaslik; **- pact** hujum qilmaslik to'g'risida bitim. **non-alcoholic** *adj.* alkogolsiz, alkogol qo'shilmagan. **non-alignment** *n.* qo'shilmaslik. **non-appearance** *n.* (*leg.*) kelmaslik, kelmay qolish (*sudga*). **non-arrival** *n.* kelmaslik, yetib kelmaslik.

**nonchalance** [nɒn'ʃələns] *n.* (*indifference*) beparvolik, ahamiyat bermaslik; (*carelessness*) beg'amlik. **nonchalant** *n.* beg'am, beparvo.

**non-combatant** [nɒn'kɒmbətl(ə)n] *adj.* safdan tashqari. **non-commissioned** *adj.*; **- officer** unter-ofitser (*chor armiyasida kichik komandir unvoni*). **non-committal** *adj.* chalg'ituvchi, to'g'ri javob berishdan qochuvchi. **non-conductor** *n.* o'tkaz-

maydigan (*o'zidan elektr quvvati o'tkazmaydigan jism*).

**non-conformist** [*nonken'fo: - mɪs*] *n.* dindan qaytgan, mur-tad.

**nondescript** [*nɒndɪskrɪpt*] *adj.* noma'lum, noaniq; mujmal, taavirlab bo'lmaydigan.

**none** [*nʌn*] *pron.* (*no one*) hech kim; (*nothing*) hech nima; (*not one*) hech bir; *adv.* sira, aslo, hech, mullaqo; hech ham, hech bir, sira, aslo; — *the less* shunday bo'lsa ham.

**nonentity** [*nɒ'nentɪtɪ*] *n.* ahamiyatsizlik, arzimaslik, kichiklik; bo'lmag'ur, arzimas odam.

**non-essential** [*nɒn'ɛsɛnʃ(ə)l*] *adj.* ahamiyatsiz, muhim bo'lmagan.

**non-existence** *n.* yo'qlik, bo'l-maslik. **non-existent** *adj.* mavjud bo'lmagan.

**non-ferrous** *adj.* rangdor, gulli, rangli. **non-**

**interference, -intervention** *n.* aralashmaslik. **non-party** *adj.*

partiyasiz, partiya a'zosi bo'lmagan. **non-payment** *n.*

to'lamaslik, to'lamaganlik.

**nonplus** [*nɒn'plʌs*] *v.* boshi berk ko'cha qo'ymoq.

**non-proliferation** [*nɒnprɒlɪf'e - rɛʃ(ə)n*] *n.* tarqalmaslik (yadro qurollarini).

**non-productive** *adj.*

unumsiz, natijasiz, foydasiz.

**non-resident** *adj.* ishlayotgan

yurtida yashamaydigan. **non-renewable** *adj.* tiklab bo'lmaydigan, asliga qaytarib bo'lmaydigan.

**nonsense** [*'nɒns(ə)nʌs*] *n.* yolg'on, safсата, behuda so'z, bekorchi gap. **nonsensical** [*nɒn'ɛnsɪk(ə)l*] *adj.* ma'nosiz, mazmunsiz, noma'qul.

**non sequitur** [*nɒn'sekwɪtʃ(ə)*] *n.* manliqsiz xulosa.

**non-ekid** [*nɒn'ɛkɪd*], **-slip** *adj.* sirg'anmaydigan. **non-smoker**

*n.* (person) chekmaydigan kishi; (compartment) chekmaydiganlar uchun vagon, kupe.

**non-stick** *adj.* tagiga oldirmaydigan.

**non-stop** *adj.* to'xtovsiz, uzluksiz, betinim, muttasil; (*flight*)

qo'nmasdan, to'xtlamasdan; *adv.* to'xtovsiz. **non-violence** *n.*

ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni kuch bilan amalga oshirishni rad qilish.

**non-violent** *adj.* zo'rlik bilan qilinmagan, zo'raki bo'lmagan, majburly emas.

**noodles** [*'nu:d(ə)lz*] *n.* ugra, uvra; ugra osh, tugun osh.

**nook** [*nɒk*] *n.* xilvat joy; **every - and cranny** barcha xilvat va pastqam joylar.

**noon** [*'nu:n*] *n.* kun yarmi, qiyom payti, tush vaqti, peshin; *attr.*

tushki, tush vaqtidagi.

**no one see no**

**nose** [nu:ə] *n.* ilmoq, halqa; *v.* arqon bilan ushlab olish (illn-lirmoq).

**nor** [nɔ:(r), ne(r)] *conj.* na ...; ham ...; neither... - na ... na.

**norm** [nɔ:m] *n.* me'yor. **normal** *adj.* odatdagi, me'yordagi. **normality** [nɔ:'mælitɪ] *n.* me'yoriylik. **normalize** *v.* qoidaga solmoq.

**north** [nɔ:θ] *n.* shimol; (*naut.*) shimoldan esgan shamol; *adj.* shimoliy; (*naut.*) shimoliy shamol; *adv.* shimol tomonga, shimolga; **N** - Star Qutb yulduzi; - wind shimoldan esgan shamol. **north-east** *n.* shimoli-sharq; (*naut.*) sharqi-shimoliy shamol. **northeast** *n.* sharqi-shimol. **north-easterly, -eastern** *adj.* shimoli-sharqiy. **northerly** [nɔ:ðeɪ] *adj.* shimol ..., shimolga oid, shimolda bo'ladigan. **northern** *adj.* shimol ..., shimoliy; - **lights** shimol yog'dusi. **northerner** *n.* shimolda yashaydigan kishi. **northernmost** *adj.* eng shimoliy. **northward(a)** *adv.* shimoldan shimolga. **north-west** *n.* shimoli-g'arbiy; (*naut.*) g'arbi-shimol. **northwester** *n.* g'arbi-shimoliy shamol. **north-westerly, -western** *adj.* shimoli-g'arbiy. **Norway** [nɔ:wəɪ] *n.* Norvegiya. **Norwegian** [nɔ:'wi:ðɜ:(a)n] *adj.*

Norvegiyaga, norvegiyaliklarga oid; *n.* norvegiyalik, norvegiyalik ayol.

**nose** [nəʊz] *n.* burun; (*sense*) sezgi, tuyg'u, his qilish qobiliyati; (*of ship etc.*) burun qism; *v.* iskamoq, hidlamoq; - out hidadan birmoq, hidlab birmoq; (*of ship etc.*) ehtiyotkorlik bilan oldinga sillimoq. **nosebag** *n.* to'ruva, xalta. **nosebleed** *n.* burun qonashi. **nosedive** *n.* tikkasiga uchib tushish, sho'ng'ib uchish; *v.* tikkasiga uchib tushmoq.

**nostalgia** [nɔ:'stældʒɪə, -dʒə] *n.* qo'rmsash (vatanni, oldingi hayotni). **nostalgic** *adj.* yurakni siqadigan.

**nostril** ['nɔ:trɪl] *n.* burun teshigi, burun katagi.

**not** [nɒt] *adv.* yo'q, emas; - **at all** hech, hech bir, sira, aslo; (*reply to thanks*) tashakkur bildirishning hojati yo'q; - **half** (- *at all*) sira ..., aslo ..., hech ...; (*very much*) juda ham, nihoyat darajada; - **once** biron marta ham; - **too** ancha, xiyla; bas, bas endi; - **to say** aytmaslik uchun. **notable** ['nəʊtəb(ə)] *adj.* atoqli, laniqli, mo'tabar. **notably** *adv.* xususan, ayniqsa.

**notary (public)** ['nəʊtəri] *n.* notarius (*turfi yuridik aktlarni, hujjatlarni* guvohlantiruvchi, rasmiy-

lashtiruvchi shaxs).

**notation** [nəʊ'teɪʃ(ə)n] *n.* pand-nasihat; (*mus.*) nota xali.

**notch** [nɒtʃ] *n.* belgi, kerdik, ni-shon; *v.* kerlmoq, kertib belgi solmoq.

**note** [nəʊt] *n.* (*record*) xolira, yoz-ma xolira; (*annotation*) eslatma, izoh, sharh; (*letter*) xalcha (*bir parcha xal, varaqa*); (*banknote*) banknot; (*mus.; dipl.*) nota; (*to-ne*) ovoz, ohang; (*attention*) diq-qal, e'tibor; ~ of hand veksel (*pul qarz olganda beriladigan rasmiy hujjat*); man of ~ atoqli odam; (no)to'g'ri ohang (*tus*) ol-moq; take ~ of e'tibor bermoq; *v.* belgilamoq, belgi qo'y-moq; ~ down qayd etmoq, ro'yxat qil-moq. **notebook** *n.* yozuv daftar-chasi, bloknot. **notecase** *n.* kar-mon, hamyon. **noted** *adj.* mash-hur, atoqli, atalgan, dongdor, tanilgan. **notepaper** *n.* pochta qog'ozi. **noteworthy** *adj.* e'tibor-ga loyiq.

**nothing** ['nʌθɪŋ] *n.* hech nima, hech narsa; ~ but dan tashqari, ~ dan boshqa, faqat; ~ of the kind hech-da, hech unday emas, bekor gap; come to ~ hech narsa bilan tugamoq; for ~ (*free*) lekinga, bekorga, bepul; (*in vain*) bekorga, behudaga; have ~ to do with hech qanday

munasabatga ega bo'lmaslik; there is (was) ~ for it (*but to*) ...dan boshqa iloj yo'q.

**notice** [nəʊtɪs] *n.* (*sign*) bildirish, e'lon qilish; eshittirish; (*intima-tion*) xabar qilish, e'lon qilish, axborot, xabar; (*warning*) ogoh-lantirish, xabardor qilish; (*atten-tion*) e'tibor; (*review*) fikr, mulo-haza, baho, taqriz; at a mo-ment's ~ taz, tezlik bilan, dar-hol; give (*in*) one's ~ ishdan ketish haqidagi arizani bermoq; give s.o. ~ ishdan bo'shaganlik haqida ogohlantirish; take no ~ of e'tibor bermaslik; *v.* ko'rib qolmoq, sezib (*payqab*) qolmoq; tushunmoq, anglamoq; (*take ~ of*) e'tibor bermoq. **noticeable** *adj.* sezilib (*bilinib*) turgan, ko'ri-nadigan, ko'zga ko'rinarli. **noti-ce-board** *n.* e'lon taxtasi. **noti-fiable** ['nəʊtɪ,faɪəb(ə)l] *adj.* ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan. **notification** [ˌnəʊtɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n.* xabar qilish, e'lon qilish, axborot, xabar; (*of death etc.*) ro'yxatga olish, qayd etish. **notify** [nəʊ-tɪ,faɪ] *v.* xabar qilmoq, darak ber-moq, xabardor qilmoq, ogohlant-irmoq, bildirmoq.

**notion** [nəʊʃ(ə)n] *n.* tushuncha, ong, fahm, tasavvur.

**notoriety** [nəʊlə'reɪəti] *n.* yomon ol chiqarish, badnomlik. **noto-**

- rious** [neɔ'tɔ:riəs] *adj.* yomon nom chiqargan, yomon nom bilan tanilgan.
- notwithstanding** [ˌnɒtwɪð'stændɪŋ, -wɪð'stændɪŋ] *prep.* qaramasdan, qaramay; *adv.* shunday bo'lsa ham.
- nougat** ['nu:gɑ:] *n.* nuga (*yong'oqli holva yoki boshqa qandolat mahsuloti*).
- nought** [nɔ:t] *n.* (*nothing*) hech nima, hech narsa; (*figure 0*) nol.
- noun** [naʊn] *n.* (*gram.*) ot.
- nourish** ['na:ʃ] *v.* ovqallantirmoq, boqmoq, yedirmoq, lo'ydirmoq.
- nourishing** *adj.* lo'q tutadigan, lo'yimli.
- nourishment** *n.* oziqlantirish, ovqat yedirish; oziqlanish, ovqat yeilish.
- nova** [neɒvə] *n.* yangi yulduz.
- novel** [nɒv(ə)l] *adj.* yangi; (*unusual*) odatdan tashqari, favqulodda; *n.* roman (*katta badiiy asar*). **novella** *n.* roman yozadigan yozuvchi. **novelty** *n.* (*newness*) yangilik; (*new thing*) yangi chiqqan narsa.
- November** [nə'vembə(r)] *n.* noyabr; *attr.* noyabrga oid, noyabrda bo'ladigan (bo'lgan).
- novice** [nɒvɪs] *n.* (*eccl.*) monax shogirdi; (*beginner*) shogird, yangi kelgan.
- now** [naʊ] *adv.* hozir; (*immediately*) hozirgina, hozirning o'zida; (*next*) u vaqtda, o'sha zamonda; keyin, so'ng; - (*that*) agar, bashartli, modomiki; (*every*) - and again, then vaqti-vaqti bilan; *by* - endi, allaqachon, -oq, -yoq; *from* - on kela-jakda, bundan buyon. **nowadays** *adv.* hozirgi zamonda, hozirgi vaqtda.
- nowhere** [neʊweə(r)] *adv.* (*place*) hech qayerda; (*direction*) hech qayoqqa; *pron.*: I have - to go boradigan joyim yo'q.
- noxious** [nɒkʃəs] *adj.* zararli, ziyonli, yomon.
- nozzle** [nɒz(ə)l] *n.* soplo, konus naycha, forsunka (*suyuq yoki tuproqqa o'xshagan yaqilg'ini parqozon o'chog'iga va shu kabilarga tashlaganda uni sachratib beruvchi asbob*).
- nuance** [nju:əs] *n.* nozik tomon, farq, tur, ohang.
- nuclear** [nju:kliə(r)] *adj.* yadroga (atomga) oid. **nucleus** *n.* mag'iz; yadro.
- nude** [nju:d] *adj.* yalang'och, qip-yalang'och, yap-yalang'och, ochilib qolgan; *n.* yalang'och odamning rasmi (shakli).
- proximity** [prɒk'sɪmɪtɪ] *n.* yaqinlik.
- proxy** [prɒksɪ] *n.* vakolat, vakillik huquqi, ishonchnoma; (*person*) vakil, muavin; **by -** ishonchnomaga asosan; **stand - for** muavin bo'lmoq.
- prude** [pru:d] *n.* kamtar odam.
- prudence** [pru:d(ə)ns] *n.* aql bilan ish qilish. **prudent** *adj.* o'ylab ish qiladigan, dono, muhohazali.
- prudery** [pru:ðəri] *n.* soxta ibo, yasama uyatchanlik. **prudish** *adj.* munofiqona, niyokorona.
- prune** [pru:n] *n.* (*plum*) bir dona olxo'ri qoqi, qora olxo'rining bir dona mevasi; olxo'ri qoqi, qora olxo'ri.
- prune** [pru:n] *v.* (*trim*) butamoq, xomtok qilmoq; (*fig.*) qisqartirmoq. **pruning-hook** *n.* payvandlash pichog'i.
- prurience** [prʊəriəns] *n.* shahvoniylik. **prurient** *adj.* shahvoniy.
- Prussian** [prʌʃ(ə)n] *n.* prussiyalik; *adj.* Prussiyaga oid; - blue berlin lazuri (*terkibi gidratti ferrosianiddan iborat ko'k bo'yoq modda*). **prussic** *adj.*: - acid

ko'kka bo'yaydigan ishqor.  
 pry [praɪ] v. burnini suqmoq. pry-  
 ing adj. alinchkov, qiziquvchan.  
 PS (abbr. of postscript) postskri-  
 ptum (yozib tamomlangan xat  
 oxiriga yoziladigan qo'shimcha  
 gap aldidan qo'yiladigan "P.S."  
 ishorasi), qo'shimcha yozilgan  
 narsa.  
 psalm [so:m] n. psalom  
 (psalтиrdagi diniy qo'shiqlar yoki  
 oyatlardan bir). psalter ['so:-  
 lta(r), 'sol-] n. psalтиr (Injilning  
 to'rt kitobidan bir - psalomlar  
 kitobi).  
 pseudo- ['sju:deɔ] in comb. psevd-  
 o ..., yolg'on, soxtalikni  
 bildiruvchi old qo'shimcha.  
 pseudonym n. taxallus.  
 psyche [saɪki] n. psixika (ongda  
 ob'ektiv voqealarning aks eti-  
 shidan hosil bo'lgan ruhiy kechin-  
 malar majmui, ruhiy holat). psy-  
 chi'atric adj. psixiatriyaga oid.  
 psychiatrist [saɪ'kaɪətrɪst] n.  
 psixiatr (ruhiy kasalliklar shifoko-  
 ni). psy'chiatry n. psixiatriya (ru-  
 hiy kasalliklar va ularni davolash  
 haqidagi fan). psychic(al) adj.  
 psixik, ruhiy; n. ekstrasensa.  
 psycho [saɪko] n. jinni, telba,  
 ruhiy kasal odam. psycho-  
 in comb. ruhiy... . psycho-anal-  
 yee v. ruhiy tahlilga duchor qil-  
 moq. psycho-analysis n. ruhiy

tahlil, psixoanaliz. psycho-ana-  
 lyst n. ruhiy tahlil mutaxassisi,  
 psixoanalitik. psycho-analy-  
 tic(al) adj. ruhiy tahliliy, psixo-  
 analizmga oid. psychological  
 adj. ruhiy, psixologik. psy'-  
 chologist n. psixolog, ruhshun-  
 os. psychology n. psixologiya,  
 ruhshunoslik (ruhiy faoliyat ha-  
 qidagi fan); (coll.) psixika, ru-  
 hiyat. psychopath [saɪka,pæθ]  
 n. psixopat, jinni, devona.  
 psycho'pathic adj. psixopatik,  
 devonavor. psychopathology  
 n. psixopatologiya (ruhiy kasal-  
 liklarni o'rganish va davolash  
 haqidagi umumiy ta'limot). psy-  
 'choais n. psixoz, ruhiy kasal-  
 lik. psychotherapy n. psixotar-  
 apiya (ruhiy ta'air qilish yo'lli bi-  
 lan davolash usuli, masalan, gip-  
 noz qilish).

pt. n. (abbr. of pint(s)) pinta  
 (ingliz o'chovlarini qo'llovchi  
 mamlakatlarda: suyuqlik yoki  
 sochiluvchi narsalarning o'chov  
 birligi).

ptarmigan [tɑ:mɪgən] n. lund-  
 ryanka (qarqursimon qushlar oi-  
 lasiga mansub qush).

pterodactyl [tɛrə'dæktɪl] n.  
 plerodaktül (uchuvchi yashcher  
 (yashcher - hozir yo'q bo'lib  
 ketgan sudraluvchi hayvonning  
 nomi).

**PTO abbr.** (of please turn over) marhamat qilib orqasiga qarang.

marhamat qilib orqasini o'giring.

**pub** [pʌb] *n.* pivoxona, mayxon.

**puberty** [pju:beɪtɪ] *n.* jinsiy yetuklik.

**public** ['pʌblɪk] *adj.* ijtimoiy; (open) ommaviy, ochiq; ~ health sog'liqni saqlash; ~ house pivoxona; ~ relations officer axborot bo'limi xodimi; ~ school xususiy o'rta maktab; ~ servant davlat xizmatchisi; ~ spirit ommaviy ruh; ~ utility umumiy foydalanish korxonasi; *n.* omma, jamoatchilik; *in* - ochiq, ommaviy.

**publication** *n.* (action) gazetada bosilish; (also book etc.) nashr. **publicist** *n.* publiatsiat (ijtimoiy-siyosiy mavzularda asar yozuvchi). **publicity** *n.* reklama; ~ agent reklama vakili. **publicize** *v.* reklama qilmoq. **publicly** *adv.* ommaviy. **publish** *v.* nashr etmoq; (book) chop etmoq. **publisher** *n.* nashir. **publishing** *n.* (business) nashriyotchilik ishi; ~ house nashriyot.

**puce** [pju:ə] *adj.* (n.) qizg'ish-jigarrang.

**puck** [pʌk] *n.* (in ice hockey) shayba.

**pucker** ['pʌkə(r)] *v.* burush(tir)moq; *n.* ajin.

**pudding** ['pu:dɪŋ] *n.* puding (*gurch* va *boshqa yormalardan tvorog va mevalar qo'shib, tova*da pishirilgan ovqat), zapkanka (*tohlama, toblab qizartirib pishirilgan ovqat*).

**puddle** [pʌd(ə)l] *n.* ko'lmak.

**puddy** [pʌdʒɪ] *adj.* do'mboq.

**puerile** [pjʊəriəl] *adj.* bolalarcha.

**puerility** [pjʊə'nɪlɪtɪ] *n.* bolalik.

**puff** [pʌf] *n.* (of wind) kuchayish, zo'rayish, shiddat; (of smoke) siyrak tutun; (on dress) burmal;

~ **pastry** qat-qat xamir; ~ **sleeves** burma yeng; *v.* harsillamoq, pishillamoq; ~ **at** (pipe etc.) goh-goh tutun chiqarmoq; ~ **up, out** (inflate) (puflab) shishirmoq.

**puffin** [pʌfɪn] *n.* bo'ron qushi.

**pug** [pʌg] *n.* (dog) mopa (*tumshug'i yalpoq taycha it*).

**pugilism** [pju:dzɪlɪz(ə)m] *n.* boks.

**pugilist** *n.* bokachi.

**pugnacious** [pʌg'neɪʃəs] *adj.* unshoq, zo'ravon. **pugnacity** [pʌg'næʃɪtɪ] *n.* urish-qoqlik, zo'ravonlik.

**pug-nosed** [pʌg'neʊzɪd] *adj.* puchuk (*burun haqida*).

**puissant** ['pjʊ:ts(ə)nt, 'pwɪ:s-, 'pwɪs-] *adj.* qudratli, kuchli.

**puke** [pju:k] *v.* quamoq, qayt qilmoq; *n.* qusish, qayt qilish.

**pull** [pʊl] *n.* tortish, cho'zish; (*fig.*)

ishonib qo'yish, o'zini amin qilib qo'yish; *v.* tortmoq; sudramoq, yefaklamoq; (*a muscle*) cho'zmoq, tortib uzib yubormoq; (*a cork*) sug'irib chiqarmoq; (*a tooth*) sug'urib tashlamoq; silta(ni)b tort(i)lmoq; - *faces* yuz burushtirmoq; - *s.o.'s* leg boshini qotirmoq; - (*the*) *strings, wires* butun kuchni ishga solmoq; - *the trigger* tepkini bosmoq; - *apart, to pieces* parchalamoq; (*fig.*) qattiq tanqid qilmoq; - *at (pipe etc.)* cho'zilmq, tortilmq; - *down (demolish)* buzib tashlamoq; - *in (eam)* ishlab topmoq; (*of train*) yetib kelmoq; (*of vehicle*) yo'l chetiga kelmoq (*transport haqi-da*); - *off (garment)* 'artib bog'lamoq; (*achieve*) muvaffaqiyatli yakunlamoq; (*win*) yutmoq; - *on (garment)* tortib kiymoq; - *out (remove)* chiqarmoq; (*withdraw*) qatnashishdan bosh tortmoq; (*of vehicle*) yo'l chelidan uzoqlashmoq; (*of train*) stansiyadan chiqmoq (*poezd*); - *through* siqib chiqarmoq; - *o.s. together* o'zini qo'lga olmoq; - *up* qattiqroq bog'lamoq; (*stop*) to'xta(t)moq.

**pullet** [pulɪt] *n.* yosh dehqon ayol, qishloqlik yosh juvon.

**pulley** [puɪ] *n.* blok, chig'ir (*yuk*

*ko'taradigan eng sodda g'altakli qurilma*), shkiv (*uzatma tasma-sini harakatga keltiruvchi g'ildirak*).

**Pullman** [ˈpʊlmən] *n.* pulman (*yo'tovchi yoki yuk tashiydigan*) vagoni.

**pullover** [pʊlˌəʊvə(r)] *n.* pulover (*qomalg'a yopishib turadigan yoqasiz, tugmasiz trikotaj tufayka*).

**pulmonary** [ˈpʊlmənəri] *adj.* o'pka.

**pulp** [pʊlp] *n.* (*of fruit*) et (*mevalda*); pulpa (*farkibidagi kerakli moddani ajratish uchun maydalangan, suvda yoki biror eritmada suyultirilgan ruda*); (*of paper*) qog'oz massasi, bo'tqasi; *v.* yumshoq massa (bo'tqa)ga aylantirmoq.

**pulpit** [pʊlpɪt] *n.* kafedra, yepiskop minbari.

**pulsar** [pʊlsə(r)] *n.* pulsar (*davriy radionurlanishlar tarqalib turuvchi kosmik ob'ekt*). **pulsate** *v.* urib turmoq, tepib turmoq. **pul'sation** *n.* tomir urishi. **pulse** *n.* (*throbbing*) tomir urishi; *v.* urmoq.

**pulse** <sup>2</sup> [pʊls] *n.* (*food*) dukkakli.

**pulverize** [pʊlvəˌraɪz] *v.* maydalamoq; (*fig.*) yo'q qilmoq, tilka-pora qilmoq.

**puma** [pju:mə] *n.* puma (*Ameri-*



- ka yovvoyi mushugi).*
- pumice(-stone)** ['pʌmɪs] *n.* ko'piktosh.
- pummei** ['pʌm(eɪ)] *v.* do'ppos-lamoq; savalamoq.
- pump<sup>1</sup>** [pʌmp] *n.* (machine) nasos; *v.* (use ~) dam bermoq; (person) tilab olmoq; - **in**(to) dam bermoq; - **out** chiqarib tashlamoq; - **up** so'rmoq, tortmoq.
- pump<sup>2</sup>** [pʌmp] *n.* (shoe) tulli (oyoq kiyimi).
- pumpkin** ['pʌmpkɪn] *n.* qovoq.
- pun** [pʌn] *n.* kalambur, so'z o'yini; *v.* so'z o'yini qilmoq.
- punch<sup>1</sup>** [pʌntʃ] *n.* (drink) **punsh** (shakar, suv va meva shirasi qo'shib qaynatilgan spirtli ichimlik).
- punch<sup>2</sup>** [pʌntʃ] *v.* (with fist) musht lushirmoq, mushtlamoq; (*pierce*) teshmoq, teshib ochmoq; (*a tick-et*) komposterlamoq, teshib belgi qo'ymoq; *n.* (*blow*) musht lushinish, mushlash; (*for lick-ets*) komposter (*bilet, chek va sh.k.ga teshik-teshik belgi qo'ya-digan moslama*); (*for piercing*) teshgich; (*for stamping*) pua-son (*metallni qayta ishlashda uni qoliplash va presslashda qo'lla-niladigan asbobning asosiy qismlaridan bin*). **punch-ball** *n.* boksning mashg'uloli uchun maxsus to'ldirilgan qop. **punch-up** *n.* yoqalashish.
- punctilious** *adj.* rasmiyatchiliklar-ga amal qiluvchi, sinchkov, in-jiq.
- punctual** ['pʌŋktʃʊəl] *adj.* ishni puxta va o'z vaqtida bajaradi-gan. **punctuality** *n.* juda aniq-lik.
- punctuate** *v.* tinish belgilarini qo'ymoq; to'xtalmoq, buzmoq.
- punctu'ation** *n.* punktuatsiya, tinish belgilarini qo'yish tizimi; - **marks** tinish belgilari.
- puncture** [pʌŋktʃ(e)r] *n.* sanchib teshilgan joy; *v.* sanchib tesh-moq; sanchib teshilmoq
- pundit** [pʌndɪt] *n.* (fig.) bilimdon, ishbilarmon.
- pungency** ['pʌndʒ(ə)nsɪ] *n.* o'tkirlik, achchqlik. **pungent** *adj.* achchiq, o'yuvchi.
- punish** ['pʌnɪʃ] *v.* jazolamoq.
- punishable** *adj.* jazolanuvchi.
- punishment** *n.* jazo, jazolash.
- punitive** [pju:nɪtɪv] *adj.* jazolov-chi.
- punk** [pʌŋk] *n.* pank (*rok (mu-siqa yo'nalishi) madaniyati*); *adj.* panklarga oid.
- puppet** [pʌpɪt] *n.* savat.
- punster** ['pʌnstə(r)] *n.* askiyachi, askiyaboz.
- punt** [pʌnt] *n.* (boat) tagi yassi qayiq.

**punter** ['pʌntə(r)] *n.* (*gambler*) o'yinchi.

**puny** ['pjʊ:ni] *adj.* zaif, bo'shang, nimjon, darmonsiz.

**pup** [pʌp] *n.* it, bo'ri, tulki va sh.k.larning bolasi; *v.* bolalamoq (*it, bo'ri, tulki va sh.k.lar haqida*).

**pupa** ['pjʊ:pə] *n.* g'umbak.

**pupil** ['pjʊ:pɪl, -p(ə)] *n.* o'quvchi, tarbiyalanuvchi; (*of eye*) qorachiq.

**puppet** ['pʌpɪt] *n.* o'yinchi qo'g'irchoq; = *regime* qo'g'irchoq tuzum; = *theatre* qo'g'irchoq teatri.

**puppy** ['pʌpɪ] *n.* kuchuk bolasi, itvachcha.

**purblind** ['pɜ:blaɪnd] *adj.* yaqindan ko'ra oladigan, uzoqni ko'rolmaydigan.

**purchase** ['pɜ:tʃɪs, -tʃes] *n.* xarid; (*leverage*) tayanich nuqtasi; *v.* xarid qilmoq, sotib olmoq,  *purchaser* *n.* xaridor.

**pure** [pjʊə(r)] *adj.* sof, asl, toza; (*of science*) nazariy. **pure-blooded** *adj.* qoni toza, oqsuyak. **pure-bred** *adj.* zotdor, nasldor.

**puree** [pjʊərə] *n.* pyure (*ko'pincha sabzavot yoki mevdan tayyorlanadigan bo'tqasimon taom*).

**purely** ['pjʊəli] *adv.* faqat, nuqul;

(*entirely*) butunlay, mutlaqo, tamomila.

**purgative** ['pɜ:ɡətɪv] *adj.* ichni suradigan, ichni bo'shashtiradigan; (*purifying*) tozalaydigan; *n.* surgidori, surgidori. **purgatory** *n.* a'rof, arosat (*katoliklar afsonalarida: jannatga kirishdan oldin o'tganlarning jani gunohdan poklanadigan joy*). **purge** [pɜ:dʒ] *v.* (*cleanse*) tozalamoq; (*of medicine; abs.*) ichni surmoq; (*atone for*) gunohini yuvmoq; (*— party, army etc.*) yot unsurlardan tozalamoq; *n.* tozalash; (*of party, army, etc.*) yot unsurlardan tozalash.

**purification** [pjʊəntɪ'keɪʃ(ə)n] *n.* tozalash. **purify** [pjʊəntaɪ] *v.* tozalamoq.

**purlin** ['pjʊəntɪz(ə)m] *n.* purizm (*xulq-axloqni pokiza va qattiq saqlashga yuzaki urinish*). **purist** *n.* purizm tarafdori.

**puritan**, **P.**, [pjʊəntɪ(ə)n] *n.* puritanin (*16-17 asrarda ingliz, shotland burjuaziyasi uyushtirgan diniy-siyosiy harakat qatnashchisi*). **puritanical** [pjʊəntɪ'tæ-nɪk(ə)] *adj.* puritanlarga oid.

**purity** [pjʊəntɪ] *n.* tozalik.

**purloin** ['pɜ:lju:] *n.* yon-atrof.

**purloin** [pe'lɔɪn] *v.* o'g'irlab keltirmoq.

**purple** ['pɜ:p(ə)] *adj.* (*n.*) to'q qizil,

- qirmizi, binafsharang.
- purport** [pɜːpɔːt] *n.* ma'no.
- purpose** [pɜːpəs] *n.* maqsad, niyat, ahd; *on* - alayin, jo'rtaga, qasddan; *to no* - behuda(ga), bekor. **purposeful** *adj.* sobitqadam. **purposeless** *adj.* bemaqsad, behuda. **purposely** *adv.* atayin.
- purr** [pɜː(r)] *n.* xurillash; *v.* xur-xur qilmoq.
- purse** [pɜːs] *n.* hamyon; *v.* qis-moq, yig'moq. **purser** *n.* xazinachi.
- pursuance** [pe'sju:əns] *n.* bajarish, amalga oshirish. **pursuant** *adv.*: - *to* -ga muvofiq, bilan mutanosib. **pursue** *v.* ta'qib qilmoq. **pursult** *n.* ta'qib; (*occupation*) egallab olish, bosib olish.
- purulent** [pjuːrələnt] *adj.* yiringli, fasadli.
- purvey** [pe'veɪ] *v.* yetkazib bermoq, ta'minlamoq. **purveyor** *n.* ta'minotchi, yetkazib beruvchi.
- purview** [pɜːvjʊ:] *n.* dunyoqarash; soha.
- pus** [pʌs] *n.* yiring, fasad.
- push** [pʊʃ] *v.* itarmoq, turtmoq; (*goods*) reklama qilmoq, ovoza qilmoq; itarishmoq, turtishmoq; *be* -*ed* *for* ozginaga (kam miqdorga) ega bo'lmoq; *he* *is* -*ing* *fifty* *u* yaqinda ellikka kiradi; - *one's way* suqilib kimoq, itarib-

- surib o'tmoq; - **ahead**, *on* surilmoq, siljimoq; - **around** (*person*) o'z gapini (zulmini) o'tkazmoq; - **aside** (*also fig.*) o'zidan nariga surmoq, itarmoq; - **away** *itarib* (*turtib*) yubormoq; - **into** *itarib* (*turtib*) kirgizmoq; (*urge*) itarmoq, turtmoq; - **off** (*in boat*) (*qayiqni qirg'oqdan*) nariga itarmoq; (*go away*) jo'nab ketmoq; - **through** *itarib* o'tkazmoq; (*conclude*) oxiriga yetkazmoq; *n.* zarba; (*energy*) quvvat. **push-bike** *n.* velosiped. **push-chair** *n.* bolalar aravachasi. **pushing** *adj.* (*of person*) quntli, g'ayratli.
- pusse** [pɒs], **pussey** (-*cat*) *n.* mushukcha.
- pustular** [pʌstjʊ:lə(r)] *adj.* husnbuzar bosgan. **pustule** *n.* bo'jama, husnbuzar.
- put** [pʊt] *v.* qo'ymoq, joylamoq; (*upright*) o'rnatilmoq; joylashtir-moq; (*into specified state*) olib kelmoq; (*estimate*) aniqlamoq; (*express*) ifodalamoq; (*translate*) tarjima qilmoq; (*a question*) (savol) bermoq; - **an end**, **a stop**, **to yakun** yasamoq, tamom qilmoq; - **o.s. in another's place** o'zini ...ning o'rniga qo'yib ko'moq; - **the shot** yadro irg'itmoq; - **to death** qall etmoq; - **to flight** lum-taraqay qochir-

moq; ~ to shame uyaltirmoq, izza qilmoq; ~ about (of ship) kema yo'nalishini o'zgartirmoq; (rumour etc.) tarqalmoq; ~ away (for future) keyinga qoldirmoq; (in prison) qamamoq; ~ back (in place) o'miga (joyiga) qo'ymoq; ~ the clock back soat millarini orqaga surmoq; ~ by (money) (put) asrab qo'ymoq, saqlab qo'ymoq; ~ down (suppress) bostirmoq, o'chirmoq; (write down) yozib olmoq; (passengers) (yo'lovchilarni) tushirmoq; (attribute) qo'shib yozmoq; ~ forth (of plant) otmoq, yoymoq (o'simlik haqida); ~ forward (proposaf) taklif qilmoq; ~ the clock forward soat millarini oldinga surmoq; ~ in (install) o'rnatmoq; (a claim) taqdim qilmoq; (interpose) qistirmoq, qo'shib qo'ymoq, sig'dirmoq; (spend time) o'lkazmoq; ~ in an appearance ko'rinmoq, paydo bo'lmoq; ~ off (postpone) kechiktirmoq; (evade) -dan qululmoq; (dissuade) biror ishdan qaytarmoq, rozl qilmoq; ~ on (clothes) kiymoq; (appearance) choralarini ko'rmq; (a play) qo'ymoq; (turn on) ulamoq, yoqmoq; (add to) qo'shmoq; ~ on alrs o'zini katta tutmoq; ~ on weight semimoq; ~ out (dislo-

cate) chiqarmoq, o'rmidan qo'z-g'atmoq; (a fire etc.) o'chirmoq; (annoy) jig'iga tegmoq; ~ out to sea (of ship) dengizga chiqmoq; ~ through (carry out) bajar-moq; (on telephone) telelon-da bog'lamoq; ~ up (building) qurmoq, tiklamoq; (price) oshirmoq; (a guest) boshpana bermoq; (as guest) joylashmoq, qo'nmoq (mehmon haqida); ~ up to (instigate) g'ijgijlamoq, lg'vo qilmoq; ~ up with chidamoq.

putative [ˈpu:tetɪv] adj. taxmin etilayotgan.

putrefaction [ˈpu:trɪfækʃ(ə)n] n. chlrish. putrefy [ˈpu:trɪˌfaɪ] v. chirimoq. 'putrid adj. chirigan, chiritadigan.

putsch [ˈpʊtʃ] n. fitna.

puttee [ˈpu:tɪ] n. o'rov, chulg'am.

putty [ˈpu:tɪ] n. zamazka (teshik-yoriqlarni, tirqishlarni bekitish uchun ishlatiladigan yapishqoq qarishma), shpaklyovka (suvoq uchun ishlatiladigan maxsus qarishma); v. shpaklyovka qilmoq.

puzzle [ˈpʌz(ə)l] n. (perplexity) hayrat, esankirash; (enigma) topishmoq, jumboq; (loy etc.) boshqotirma; v. o'yga solmoq, tashvishga solib qo'ymoq; ~ out topmoq, yechmoq; ~ over bosh qolirmoq.

PVC abbr. (of polyvinyl chloride)

polixlorvinil.

**pygmy** [ˈpɪɡmɪ] *n.* pigmey (*Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo va Okeaniyada yashaydigan past boʻyli qabilalar vakili*); *adj.* pakpakana, mitti.

**pyjamas** [ˈpɪdʒɑːməz, pe-] *n.* pijama (*yumshoq matodan tikilgan, uy ichida kiyiladigan va yotiladigan chalvar va kamzufl*).

**pylon** [ˈpaɪlən, -lɒn] *n.* katta ustun, tirgovich, suyanchiq.

**pyramid** [ˈpɪrəˌmɪd] *n.* piramida, ehrom. **pyramidal** [ˈpɪrəˌmɪd(ə)] *adj.* piarmidasimon, ehromsimon.

**pyre** [ˈpaɪə(r)] *n.* dafn gulxani, murdani kuydirish gulxani.

**Pyrenees** [ˈpɪrəˌniːz] *n.* Fireneya togʻlari.

**pyromania** [ˈpaɪərəˌmeɪniə] *n.* ziyofatfurushlik.

**pyrotechnic(s)** [ˌpaɪərəˈteknɪk(ə)s] *adj.* pirotexnikaga oid. **pyrotechnics** [ˌpaɪərəˈteknɪks] *n.* pirotexnika (*turti tomoshalarda maxsus uyushtiriladigan yonib nur sochuvchi vositalar*).

**Pyrrhic** [ˈpɪrɪk] *adj.*: - **victory** katta talofotlar evaziga erishilgan gʻalaba.

**python** [ˈpaɪθ(ə)n] *n.* piton (*tropik mamlakatlarda boʻladigan yirik boʻgʻma ilan*).

## Q

**qua** [kwɑː] sifatida, vazifasida, oʻmida.

**quack** [kwæk] *n.* (sound) gʻagʻillash; *v.* gʻagʻillamoq, gʻaq-gʻaqlamoq.

**quack** [kwæk] *n.* tabib; aldanchi, firibgar. **quackery** *n.* tabiblik; aldanchilik, firibgarlik.

**quad** [kwɒd] *n.* (*quadrangle*) toʻrtburchakli hovli; (*quadrat*) shpatsiya (*harf terishda soʻzlar orasini ochish, abzats hosil qilish va sh. k. uchun qoʻyiladigan metall plastinka*); (*quadruplets*) toʻrt egizaklar. **quadrangle** *n.* (*figure*) toʻrtburchak; (*court*) toʻrtburchakli hovli. **quadrangular** *adj.* toʻrtburchakli. **quadrant** *n.* kvadrant (*doiraning toʻrtidan bir boʻlagi*). **quadrat** [ˈkwɒdrət] *n.* shpatsiya. **quadratic** *adj.* kvadrat shakildagi; - **equation** ikkinchi darajali tenglama. **quadrilateral** *adj.* toʻrt tomonli.

**quadrille** [kwɒˈdrɪl] *n.* kadril (*juft-juft boʻlib ijro etiladigan bal raqsi va uning musiqasi*).

**quadruped** [kwɒdrəˈped] *n.* toʻrt oyoqli hayvon. **quadruple** [kwɒdrəp(ə)] *adj.* toʻrt hissa oshiq, toʻrt barobar katta, toʻrt hissa koʻpaytirilgan; *v.* toʻrt bara-

var osh(ir)moq. quadruplets *n.* to'rt egizaklar.

quaff [kwɒf, kwɑːf] *v.* katta ho'plamlar bilan ichmoq.

quag [kwɒg], quagmire *n.* bot-qoqlik; (*also fig.*) mushkul ahvol, qiyin holat.

quail<sup>1</sup> [kweɪl] *n.* (*bird*) bedana.

quail<sup>2</sup> [kweɪl] *v.* (*finch*) seskanib ketmoq, cho'chib (sapchib) tushmoq; qo'rqmoq, cho'chimoq.

quaint [kweɪnt] *adj.* g'alabi, anliqa, o'zgacha.

quake [kweɪk] *v.* titramoq; qaltiramoq; *n.* zilzila.

Quaker ['kwɛkə(r)] *n.* kvaker (*nasroniy dinining Angliya va Amerikada tarqalgan bir mazhabiga mansub kishi*).

qualification [kwɒlɪfɪk'eɪʃ(ə)n] *n.* (*restriction*) cheklash, shart; (*for post etc.*) malaka, ixtisos, kasb; (*for citizenship etc.*) narx; (*description*) la'rif, tavsif. qualify [kwɒlɪfaɪ] *v.* (*describe*) baholamoq, darajasini belgilamoq; (*restrict*) cheklamoq; (*prepare for*) tayyorla(n)moq.

qualitative [kwɒlɪtətɪv, -tətɪv] *adj.* sifatlil. quality *n.* sifat; nav; (*excellence*) yuqori sifat; (*ability*) qobiliyat, layoqat.

qualm [kwɔːm, kwɑːm] *n.* (*guiltiness*) ko'ngil aynishi xuruji; (*doubt, scruple*) ikkilanish,

taraddudlanish, vijdon azobl.

quandary ['kwɒndəri] *n.* mushkul ahvol, dilemma (*muhokamada, munozarada: to'xtam qilinishi mumkin bo'lgan bir-biriga zid ikki holdan, xulosadan bin*).

quantify [kwɒntɪfaɪ] *v.* miqdorini aniqlamoq. quantitative *adj.* miqdoriy. quantity [kwɒntɪtɪ] *n.* miqdor, (*math.*) kattalik.

quantum [kwɒntəm] *n.* (*amount*) son; (*share*) ulush; (*phys.*) kvant (*chiqarilishi yoki yutilishi mumkin bo'lgan eng oz, bo'linmas quvvat miqdori*); *attr.* kvantga oid.

quarantine ['kwɒrəntɪn] *n.* karantin (*kasallik tarqalmasligi uchun vaqtincha munosabat va harakatni cheklab qo'yish*); *v.* karantin o'lon qilmoq.

quark [kwɔːk] *n.* kvark (*faraziy zarrachalar*).

quarrel ['kwɒr(ə)l] *n.* janjal, araz; *v.* urishib, arazlashib qolmoq. quarrelsome *adj.* janjalkash.

quarry<sup>1</sup> ['kwɒrɪ] *n.* (*for stone etc.*) tosh koni; ochiq (*sayoz*) kon; *v.* qazib olmoq.

quarry<sup>2</sup> [kwɒrɪ] *n.* (*object of pursuit*) quvilayotgan (iziga tushilgan) hayvon.

quart [kwɔːt] *n.* kvarta (*suyuq va sochiluvchi jismlar hajmini o'lchash birligi*). quarter *n.* chorak;

(of year) chorak, kvartal (*yilning to'rtidan bir qismi*); (of town) kvartal (*shaharning kesishuvchi ko'chalar bilan chegaralangan bir bo'lagi*); (direction) tomon; (mercy) rahm, shafqat; kvartiralar, xonadonlar; a - to one chorak kam bir; v. (*divide*) to'rt (teng) qismga bo'lmoq; (*traitor's body*) to'rt bo'lib qatl qilmoq (*o'rtasrlarda: avval qo'l-oyoqlarni, keyin boshni tanadan judo qilmoq*); (*lodge*) xonadonlarga joylashtirish. quarterdeck *n.* shkansi (*harbiy kemalarda: palubaning yig'ilishlar o'tkaziladigan o'rt qismi - sahni*). quarterfinal *n.* chorak final (*musobaqasi*). quarterly *adj.* uch oyga, kvartalga mo'ljallangan; *n.* uch oyda bir marta chop etiladigan jurnal; *adv.* kvartalda bir marta, uch oyda bir marta. quartermaster *n.* kvartirmeyster (*harbiy qismni qarorgohlarga joylashtirish va ta'minot ishlari bilan shug'ullanuvchi zabit*). quar'tet(te) *n.* kvartet (*to'rt ovoz yoki to'rt soz uchun yozilgan musiqasi*). quarto *n.* qog'ozning to'rtidan biri (*basmaxonada*). quartz [kwa:z:ts] *n.* kvars, chaqmoqtosh. quasar ['kweizɑ:(r), -sɑ:(r)] *n.*

kvazar (*yulduzsimon ob'ektlar*). quash [kwɔʃ] *v.* (*annul*) bekor qilmoq, yo'q qilmoq (*qonun va sh.k.ni*). quasi *adv.* go'yoki, xuddi, bami-soli. quasi- ['kweizɑ:, 'kwɑ:zɪ] *in comb.* kvazi ..., yarim... . quatercentenary [kwætəsən'ti:nən] *n.* to'rt yuz yillik. quatrain ['kwɒtɹeɪn] *n.* to'rtlik she'r, ruboiy. quaver ['kwɛvə(r)] *v.* qaltiramoq; *n.* qaltirash (ovoz). quay [ki:] *n.* qirg'oq, daryo bo'yi. queasy [kwi:zi] *adj.* (*stomach*) kuchsiz, og'ir (*hazm qilish*); (*person*) behuzurlikni his etayotgan. queen [kwɪ:n] *n.* qirolicha; (*cards*) dama (*qarta o'yinida*); (*chess*) farzin; - bee bachadon; - mother beva qirolicha; *v.* (*chess*) farzinga olib chiqmoq. queenly *adj.* shohona. queer [kwɛə(r)] *adj.* g'alati, tentaksimon; *feel* - mazasi qochmoq. quell [kwel] *v.* bosmoq, yangmoq, yo'qotmoq. quench [kwentʃ] *v.* (*thirst*) qondirmoq, bosmoq (*chanqoqni*); (*fire, desire*) o'chirmoq (*olavni*). querulous ['kwɛrələs] *adj.* vaysaqi, ezma. query [kwɛəri] *n.* savol, shubha;

v. (*express doubt*) shubha qilmoq.

**quest** [kwɛst] n. qidiruv, izlash; **in** - of qidirib. **question** n. savol; (*doubt*) shubha; **beyond all** - hech bir shubhasiz; **it is (merely) a** - of bu hali ehtimol; muammo shundaki; **it is out of the** - bu haqda gap bo'lishi ham mumkin emas; **the person in** ~ muhokama qilinyotgan odam, suhbatning mavzusi bo'lgan kishi; **the** - is this gap shunda; ~ **mark** so'roq belgisi; v. (*ask*) so'ramoq; (*doubt*) shubhalanmoq. **questionable** adj. shubhali. **questionnaire** n. anketa, so'rovnoma.

**queue** [kju:] n. navbat; v. navbatda turmoq.

**quibble** ['kwɪb(ə)] n. safsata (*yuzaki qaraganda to'g'riga o'xshab ko'rinadigan, aslida esa noto'g'ri xulosa, chalg'itadigan fikr*), hiyla, nayrang; v. javob berishdan bosh tortmoq.

**quick** [kwɪk] adj. tezkor, tez; (*nimble*) chaqqon, epchil; (*clever*) zehni o'likir, idrokli; n.: **to the** - ich-ichidan; **the** - and **the dead** tirik va o'liklar; adv. tezda, tezkor; as *imper.* tezroq! **quick-en** v. (*accelerate*) tezlash(tir)moq; (*animate*) jonlantirmoq, jon kirgizmoq. **quicklime** n. so'ndi-

rilmagan ohak. **quickness** n. tezkorlik; chaqqonlik. **quicksand** n. suyuq qum, bilqillama qumloqlar. **quick-set** n. (*hedge*) buta. **quicksilver** n. simob. **quick-tempered** adj. jizzakli. **quick-witted** adj. zukko.

**quid** [kwɪd] n. funt sterling (*put birligi*).

**quiescence** [kwɪs(ə)ns] n. harakatsizlik, tinch holat. **quiescent** adj. harakatsiz, tinch holda. **quiet** [kwɑɪət] n. (*silence*) sukut, jimjittlik; (*calm*) osoyishtalik, sokinlik; adj. tinch; osoyishta; *int.* jim!; v. tinchlan(tir)moq.

**quill** [kwɪl] n. (*feather*) pat (*qushniki*); (*spline*) tikan, likanak, igna.

**quilt** [kwɪlt] n. qavilgan ko'rpa; v. qavimoq. **quilted** n. qaviq.

**quince** [kwɪns] n. behi.

**quincenary** [kwɪnsən'ti:nəri] n. besh yuz yillik.

**quinine** [kwɪnɪ:n, -ni:n] n. xinin, xin (*bezugak dor*).

**quinquennial** [kwɪn'kwɛntɪəl] adj. besh yoshli.

**quintessence** [kwɪn'tes(ə)ns] n. kvintessensiya (*birov narsa-hodisining asosiy mohiyati*).

**quintet** (te) [kwɪn'tet] n. kvintet (*besh musiqachi-ijrochidan tashkil topgan ansambli*). **quintuple**



- [kwɪntjɒp(ə)ʃ] *adj.* besh karra.  
**quina**, **quintuplets** *n.* besh egizak.
- quip** [kwɪp] *n.* plching, zaharxanda, achchiq gap.
- quire** [ˈkwɪə(r)] *n.* bosma taboq (*bosma nashr hajmining o'chov birligi*); *v.* taxlamoq, falsovka qilmoq (*bosmaxonada*).
- quirk** [kwɜːk] *n.* so'z o'yini, tajnls; g'ayritabiiy harakat, g'alati qiliq.
- quisling** [ˈkwɪzlɪŋ] *n.* xoin.
- quit** [kwɪt] *v.* ketmoq; chiqmoq; lark etmoq, qoldirmoq.
- quite** [kwɪt] *adv.* (*wholly*) butunlay, tamoman, to'lliq; (*somewhat*) ancha, bir qancha; - a few anchagina.
- quits** [kwɪts] *pred.:* we are ~ sen bilan oramiz ochiq; I am ~ with him u bilan orani ochiq qildim; he ~ qarzni uzmoq, qarzdan qulimoq.
- quiver<sup>1</sup>** [ˈkwɪvə(r)] *n.* (*for arrows*) o'qdon, sadoq.
- quiver<sup>2</sup>** [ˈkwɪvə(r)] *v.* (*tremble*) titramoq; qaltiramoq; *n.* titroq, qaltirash.
- quixotic** [kwɪk'sɒtɪk] *adj.* xayolparastlarcha, donkixotona.
- quiz** [kwɪz] *n.* viktorina (*savol-javob o'yini*). **quizzical** *adj.* kulgili, istehzoli.
- quoit** [kwoɪt] *n.* otish halqasi;

- (*game*) halqani nishonga olish (*o'yini*).
- quorum** [kwɔːrəm] *n.* kvorum (*majlis qonuniy hisoblanishi uchun yig'ilishi lozim bo'lgan ish-tirokchilarining eng kam soni*).
- quota** [ˈkwɒtə] *n.* kvota (*mamlakatga olib kirilishi mumkin bo'lgan ma'lum toifadagi tovarlarning miqdoriy me'yor*).
- quotation** [kwəʊtəɪʃ(ə)n] *n.* (*quoting*) iqlibos keltirish, ko'chirma keltirish; (*passage quoted*) silalla, ko'chirma; (*estimate*) smeta; (*of stocks etc.*) kotirovka (*birjada belgili narxga ega bo'lish*); - marks qo'shirmoq.
- quote** *v.* iqlibos keltirmoq; dalil sifatida keltirmoq (*biro kimsa, narsa yoki hadisani*); (*price*) belgilamoq.
- quotidian** [kwɔːtɪdɪən] *adj.* (*daily*) kundalik; (*commonplace*) odatiy, har kuni bo'ladigan.
- quotient** [ˈkwɒʃ(ə)nt] *n.* omil; (*med.*) ko'rsatkich.

## R

- rabbit** [ˈræbɪt] *n.* (*qurilishda*) yoriq, tirqish, ariqchasimon o'yiq, o'yilgan joy.
- rabbi** [ˈræbɪ] *n.* ravvin (*yahudiy-*

*lar jamoati ruhoniysi, murabbiyi, din targ'ibotchisi*). **rabbinical** [rə'bɪnɪk(ə)] *adj.* ravvinga oid.

**rabbit** ['ræbɪt] *n.* quyon; — punch bo'yinga shapaloq tushurmoq.

**rabble** ['ræb(ə)l] *n.* olomon, qalang'i-qasang'i, avom.

**rabid** ['ræbɪd, 'reɪ-] *adj.* quturgan.

**rabies** ['reɪbiːz] *n.* suvdan qo'rqish, quturganlik.

**RAC** *abbr.* (of *Royal Automobile Club*) Qirollik avtomobil klubi.

**raccoon** *see* racoon

**race**<sup>1</sup> [reɪs] *n.* (ethnic —) irq; zot, urug'.

**race**<sup>2</sup> [reɪs] *n.* (contest) (on foot) chopish, yugurish; (of cars etc.: fig.) kim o'zar, poyga; (of horses) otlar poygasi; — meeting poyga; *racing driver* avtopoygachi; *v.* (compete) tezlikda bellashish; (rush) yelmoq; haydamoq. **racecard** *n.* poygalar dasturi. **racecourse** *n.* ippodrom (otlar poygasi o'tkaziladigan joy). **racehorse** *n.* poyga oti. **racer** *n.* (person) poygachi; (car) poyga avtomobili. **racetrack** *n.* trek (poygalar o'tkaziladigan yo'l); avtomotodrom (avtomobillar va mototsikllarning sport poygasi o'tkaziladigan joy); (for horse —) yugurish yo'li.

**racial** ['reɪʃ(ə)] *adj.* irqiy. **rac-**

(lal)lem *n.* irqchilik. **rac(lal)lat** *n.* irqchi, millatchi; *adj.* irqchilikka oid.

**rack**<sup>1</sup> [ræk] *n.* (for fodder) oxur, tegana; (for hats etc.) ilgak; (for plates etc.) stellas (bir necha qavat tokchali ochiq javon); (in train etc.) kiyimlar itinadigan maxsus joy (tramvay, poezdlarda); (for torture) diba (odamning tanasini cho'zadigan qadimgi qlynoq qurilmasi); (cogged bar) tishalmon taxtacha; *v.* qlynamoq; azob bermoq; — one's brains kallani ishlalmoq. **rack**<sup>2</sup> [ræk] *n.*: go to — and ruin xonavayron bo'lmoq.

**racket**<sup>1</sup> ['ræktɪ] *n.* (tennis, badminton o'ynaladigan) raketka.

**racket**<sup>2</sup> ['ræktɪ] *n.* (uproar) shovqin; (illegal activity) raket (shantaj, qo'rqitish yo'li bilan pul undirishdan iborat jinoyiy faoliyat). **racketeer** *n.* reketchi.

**rac(c)oon** [rə'kuːn] *n.* yonul, yanot (ayiqsimon sermo'yna kichik hayvon).

**racy** ['reɪsɪ] *adj.* yorqin.

**radar** ['reɪdɑː(r)] *n.* (system) radiolokatsiya (uzoq masofadagi radio to'lqinlarni aniqlash bilan shug'ullanadigan ilm-fan bo'limi); (apparatus) radiolokator (radiolokatsiyani amalga oshiradigan asbob), radar (turli ob'ektlarni

va ularning tezligini kuzatuvchi asbob); *attr.* radiolokatsiyaga oid, radarga oid.

**radial** [ˈreɪdiəl] *ɛ* /ʃ/. radius bo'ylab tarqalgan, shu' raimon, nurl.

**radiance** [ˈreɪdiəns] *n.* yog'du.

**radiant** *adj.* yarqirayotgan; nurl; *n.* nurlı issiqlik, yorug'lik manbal. **radiate** *v.* nurlanmoq; bir nuqtadan tarqalmoq; (*diverge*) nur bo'lib tarqalmoq. **radiation** *n.* nurlanish, nur sochish, radiatsiya; ~ *sickness* nur kasalligi. **radiator** *n.* radiator (*uydami isitishda qo'llaniladigan asbob*); (*in central heating*) batariya (*isitish*).

**radical** [ˈrædɪk(ə)] *adj.* mahalliy, tub; (*pol.*) radikal, demokratik isloholer tarafdori bo'lgan; (*ling.*) ildizli (*tilshunoslikda*); *n.* (*pol., chem.*) radikal; (*math., ling.*) ildiz, o'zbek. **radically** *adv.* tamoman, mutlaqo.

**radicle** [ˈrædɪk(ə)] *n.* ko'kal, oshko'k.

**radio** [ˈreɪdiə] *n.* radio; *adj.* radio..., radioga oid; *v.* radiogramma yubormoq.

**radio-** [ˈreɪdiə] *in comb.* radio...;

~ **telescope** radioteleskop; ~ **wave** radioto'lqin. **radioactive** *adj.* radioaktiv. **radioactivity** *n.* radioaktivlik. **radioactive carbon** *n.* uglerodning radioaktiv izotopi;

~ **dating** radiouglerod uslubi bilan sanalamoq. **radiogram** *n.* (*X-ray picture*) rentgenogramma (*rentgen nurlari vositasida ob'ektning tushirilgan tasviri*); (*-telegram*) radiogramma; (*radio and gramophone*) radiola (*radio-texnik moslama*). **radiographer** [ˈreɪdiəgrəfə(r)] *n.* rentgenolog. **radiography** *n.* radiografiya (*turtli minerallarni radioaktiv izotop nurlanishi orqali tadqiq qilish usuli*); (*spec. X-ray*) rentgenografiya (*rentgen tashxisi usuli*). **radioisotope** *n.* radioizotop. **radiolocation** *n.* radiolokatsiya (*uzoq masofadagi radio to'lqinlarni aniqlash bilan shug'ullandigan ilm-fan bo'limi*). **radiologist** [ˈreɪdiələdʒɪst] *n.* radiolog; (*spec. X-ray*) rentgenolog. **radiology** *n.* radiologiya (*kasalliklar tashxisini kanti nurlanish orqali aniqlaydigan tibbiyot bo'limi*); **rentgenologiya** (*kasalliklar tashxisi va tana a'zolari faoliyatini rentgen nurlanishi orqali o'rganuvchi tibbiyot bo'limi*). **radiometer** *n.* radiometr (*noksimon shakldagi, kompasga o'xshab ketadigan radionuklidlar faoliyatini o'ichovchi moslama*). **radioscopy** *n.* rentgenoskopiya (*rentgen tasviri akhranda ko'rinadigan rentgen tadqiqoti*).

- radiosonde** *n.* radiozond (*atmosfera*ning 30-35 metr balandligigacha o'rtatiladigan iqlimni o'rganuvchi asbob).
- radiotherapy** *n.* radio-terapiya (*ionlangan nurlanishni davolash maqsadida ishlatish*); (*specifically X-ray*) rentgeno-terapiya (*nuri terapiya tun*).
- radish** [rædɪʃ] *n.* rediska, qizilcha.
- radium** [reɪdɪəm] *n.* radiy (*kimyoviy unsur*).
- radius** [reɪdɪəs] *n.* (*math.*) radius (*matematikada*); (*bone*) bilak suyagi.
- RAF** *abbr.* (*of Royal Air Force*) Buyuk Britaniya HHK (*harbiy-havo kuchlari*).
- raffia** [ræfɪə] *n.* rafiya (*palmasimonlar oilasiga kiruvchi o'simlik turi*).
- raffish** [ræfɪʃ] *adj.* mulohazasiz, axloqsiz.
- raffle** [ræf(ə)] *n.* lotereya; *v.* lotereya o'ynamoq.
- raft** [rɔ:ft] *n.* sol.
- rafter** [rɔ:ftə(r)] *n.* (*beam*) to'sin.
- raftsman** [rɔ:ftsmən] *n.* solchi.
- rag**<sup>1</sup> [ræg] *v.* (*tease*) kalâka qilmoq.
- rag**<sup>2</sup> [ræg] *n.* latta, qiyqim; (*clothes*) juldur kiyim; - *doll* latta qo'g'irchoq. **ragamuffin** *n.* yalangoyoq, juldurvoqi. **rag-and-bone man** *n.* eskifurush.
- rage** [reɪdʒ] *n.* (*anger*) qahr, g'azab; (*desire*) ishtiyok, ehtiros; *all the -* so'nggi urfdagi; *v.* g'azablanmoq; (*storm etc.*) avjiga minmoq, zo'raygandan zo'raymoq.
- ragged** [ræɡɪd] *adj.* (*jagged*) lishlangan, kerlik-mertik; (*of clothes*) yirtilgan; (*of person*) juldur kiyingan.
- raglan** [ræɡlən] *n.* reglan (*yeng bilan yelkasi yaxlit bichilgan kiyim*); - *sleeve* reglan yeng.
- ragout** [ræ'gu:] *n.* ragu qovurdoq.
- ragtime** [ræɡtaɪm] *n.* ragtaym (*19 asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan amerikalik qora tanli-lar musiqasi*).
- ragwort** [ræɡwɜ:t] *n.* krestovnik (*dalalarda o'sadigan mayda begona o'l*).
- raid** [reɪd] *n.* hujum, bosqin; (*by police*) qurshov; *v.* hujum qilmoq.
- rail** [reɪl] *n.* to'siq, panjara; (*rail.*) rels; (*railway*) temir yo'l; *by -* temir yo'lida poezd bilan; *v.*: - *in, off* panjara bilan o'rab qo'y-moq. **railhead** *n.* temir yo'lining yakuniy nuqtasi. **railing** *n.* to-morqa panjarasi.
- railery** [reɪləri] *n.* muloyim hazil.
- railway** [reɪlweɪ] *n.* temir yo'l; *attr.* temir yo'lga oid. **railwayman** *n.* temir yo'lchi.

**raiment** [ˈreɪmənt] *n.* libos, kiyim.

**rain** [reɪn] *n.* yomg'ir; ~ forest tropik o'rmon; (*the* ~) tropik yomg'irlar mavsumi; *It is (was) ~ing* yomg'ir yog'ayapti; *v.* yog'moq, quymoq. **rainbow** *n.* kamalak; ~ trout kamalak rangli forel (*balıq tun*). **raincoat** *n.* suv, nam o'tkazmaydigan palto, plash. **raindrop** *n.* yomg'ir tomchisi. **rainfall** *n.* (*shower*) jala; (*amount of rain*) yog'ingarchilik miqdori. **rainproof** *adj.* suv, nam o'tmaydigan. **rainwater** *n.* yomg'ir suvi. **rainy** *adj.* yomg'irli.

**raise** [reɪz] *v.* (*lift*) ko'tarmoq; (*heighten*) oshirmoq; (*erect*) ko'tarmoq, tiklamoq; (*provoke*) keltirib chiqarmoq; (*procure*) topmoq, izlab (axtarib) qo'lga kiritmoq; (*children*) voyaga yetkazmoq.

**raisin** [ˈreɪz(ə)n] *n.* bir dona mayiz; (*collect.*) mayiz.

**raja(h)** [ˈrɑːdʒə] *n.* roja (*Hindistonda hukmdorning unvoni va shu unvonga ega kishi*).

**rake** [reɪk] *n.* (*tool*) xaskash; kurak; *v.* (~ *together, up*) kurab tashlamoq; (*with shot*) bo'ylama o'l ochib o'qqa tutmoq.

**rake** [reɪk] *n.* (*person*) havoyi odam. **rakish** *adj.* buzuq.

**rally** [ˈræli] *v.* mustahkam birlash(tir)moq; *n.* (*meeting*) yig'ilish;

ommaviy namoyish; (*motoring* ~) avtoralli; (*tennis*) zarbalar bilan almashuv.

**rally** [ˈræli] *v.* (*ridicule*) hazillashmoq.

**RAM** [ræm] (*comput.*) (*abbr. of randomaccess memory*) ITE-QQ (*ixtiyoriy tanlovli eslab qoluvchi qurilma*).

**Ramadan** [ˈræməˌdæn] *n.* ramazon.

**ram** [ræm] *n.* (*sheep*) qo'y; (*the Ram, Aries*) hamal, qo'y (*bug*); (*machine*) laran (*o'tkir uchti yog'och qurol*); *v.* (*beat down*) shibbalamoq, zichlamoq; (*drive in*) qoqmoq; (*strike with* ~) o'tkir uchli yog'och qurol bilan devorni buzmoq.

**ramble** [ˈræmb(ə)l] *v.* (*walk*) tentirmoq; (*speak*) tushunarsiz gapirmoq; *n.* sayr. **rambler** *n.* (*hiker*) yayov yurish sayyohligi bo'yicha havaskor; (*plant*) o'raluvchan atirgul. **rambling** *n.* yayov yurish turizmi; *adj.* (*scattere'd*) sochib tashlangan; (*incoherent*) poyma-poy, bog'lanmagan.

**ramification** [ˌræmɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n.* shoxlanish, tarmoqlanish. **ramify** [ˈræmɪˌfaɪ] *v.* tarmoqlanmoq.

**ramp** [ræmp] *n.* nishablik, qiyaalik.

**rampage** [ˈræmpɛɪdʒ] *v.* qattiq

- g'azablanmoq; *n.* qattiq g'azab, qahr.
- rampant** [ræmpant] *adj.* (*of lion etc.*) orqa panjalarda turgan; (*raging*) quturgan, avjiga mingan.
- ramrod** [ræmrod] *n.* shompol (*qurolni o'qlashda qo'llaniladigan uzun layoq*).
- ramshackle** [ræm,ʃæk(ə)l] *adj.* eskirgan, puturdan ketgan.
- ranch** [rɑ:ntʃ] *n.* dala hovli.
- rancid** [rænsɪd] *adj.* achigan, taxir.
- rancour** [ræŋkə(r)] *n.* kek, adovat, xusumat. **rancorous** *adj.* yovuz, darg'azab.
- random** [rændəm] *n.:* at ~ yo chikka, yo pukka, tavakkal; *adj.* tavakkaliga qilingan, tanlangan; tasodifiy.
- range** [reɪndʒ] *n.* (*of mountains*) tizma; (*grazing ground*) yaylov, to'rt tamoni yopilgan o'tloq, yaylov; (*artillery* ~) poligon (*artilleriya o'tishmasi uchun mo'ljallangan joy*); (*of voice*) diapazon (*ovoz ko'lam*); (*scope*) chegara; (*distance*) uzoqlik; *v.* (*arrange in row*) bir qatorga terib qo'yish, safga tizish; (*extend*) yoyilmoq; (*occur*) uchrashmoq; (*vary*) tebranmoq; (*wander*) izg'imoq, tentiramoq. **range-finder** *n.* uzoq masofani o'lchovchi asbob.
- rank**<sup>1</sup> [ræŋk] *n.* (*row*) qator; (*taxi* ~) taksi to'xtash joyi; (*grade*) unvon, mansab, daraja; *v.* (*classify*) tasniflamoq; (*consider*) hisoblamoq; ~ *with* qatorida, darajasida bo'lmoq.
- rank**<sup>2</sup> [ræŋk] *adj.* (*luxuriant*) bebosh; (*in smell*) qo'lansa (*hid*); (*repulsive*) jirkanch; (*clear*) oshkora, ro'y rost.
- rankle** [ræŋk(ə)l] *v.* azob bermoq, burdalamoq.
- ransack** [rænsæk] *v.* (*search*) tikilamoq, qidirmoq; (*plunder*) o'g'irlamoq, tunamoq.
- ransom** [rænsəm] *n.* puiga sotib olish; *v.* sotib olmoq.
- rant** [rænt] *v.* dabdabali qilib o'qi(l)moq, dabdabali nutq so'z-la(n)moq.
- rap**<sup>1</sup> [ræp] *n.* (*blow*) taqillash, keskin zarba; *v.* (*keskin*) zarba bermoq; taqillatmoq; ~ *out* (*words*) chertib-chertib gapirmoq.
- rap**<sup>2</sup> [ræp] *n.:* nol a - hech qancha; I don't care a - menga baribir.
- rapacious** [re'peɪəs] *adj.* o'la ziqna, ochofatlaricha.
- rape**<sup>1</sup> [reɪp] *v.* zo'r'lamoq; *n.* zo'rdash; (*abduction*) o'g'irlash.
- rape**<sup>2</sup> [reɪp] *n.* (*plant*) raps (*urug'idan moy olinadigan o'sim-*

- lik*). rapeoll *n.* raps moyi.
- rapid** [ˈræpɪd] *adj.* tez, jadal; *n.*: daryoning torayishi natijasida suvning tez oqib ketishi kuzatiladigan joy. rapidly [reˈpɪdɪtɪ] *n.* tezlik.
- rapier** [reɪpɪə(r)] *n.* rapira (*qilich-bozlikda ishlatiladigan ogiluvchan qilichsimon nayza*).
- rapt** [ræp] *adj.* qoyil qolgan, zavqlangan; (*absorbed*) sho'ng'ib kelgan, berilib ketgan. **rapture** *n.* zavq. **rapturous** *adj.* shod-xurram, zavqqa to'lgan.
- rare**<sup>1</sup> [reə(r)] *adj.* (*of meat*) chala qovurilgan.
- rare**<sup>2</sup> [reə(r)] *adj.* noyob, kamnamo. **rarefy** [ˈreəriːfaɪ] *v.* kamaytirmoq. **rarity** *n.* noyob narsa, kamlik.
- rascal** [ˈrɑːsk(ə)] *n.* yolg'onchi, firibgar.
- rase** see raze
- rash**<sup>1</sup> [ræʃ] *n.* toshma.
- rash**<sup>2</sup> [ræʃ] *adj.* o'ylamay qilingan, shoshqaloqlik bilan qilingan.
- rasher** [ˈræʃə(r)] *n.* (dudlangan cho'chqa go'shtining) bo'lagi.
- raap** [ˈrɑːsp] *n.* (*file*) rashpil (*yirik tishli egov*); (*sound*) batang qiladigan tovush.
- raspberry** [ˈrɑːzberi] *n.* (*plant*) malina, xo'jag'at (*also collect., fruit*); *attr.* malinali.
- rasping** [ˈrɑːspɪŋ] *adj.* (*sound*) quloqni qomatga keltiradigan, g'ijirilagan (*fovush*).
- rat** [ræt] *n.* kalamush; (*turncoat*) soltqin, xiyonatkor; - *race* o'rnini astoydil ta'qib qilish; *v.*: - *on* soltmoq, xiyonat qilmoq. **rat-catcher** *n.* qoqqon.
- ratchet** [ˈræʃɪt] *n.* xrapli (to'siqchilik) mexanizm; *attr.* xrapga oid.
- rate** [reɪt] *n.* me'yor, miqdor; (*speed*) tezlik, sur'at; mahalliy soliqlar; *at any* - har holda, kamida; *v.* baholamoq; (*consider*) hisoblamoq. **rateable** *adj.* mahalliy soliqqa tortiladigan, jalb etiladigan; - *value* qiymatiga qarab soliqqa tortiladigan. **ratepayer** *n.* soliq to'lovchi.
- rather** [ˈrɑːðə(r)] *adv.* yaxshiroq, lezroq; (*somewhat*) bir nechta, yetaricha; (*as answer*) bo'lmasachil, albattal, turgan gap!; *he (she)* had (*would*) - unga qol-sa, u afzal ko'rgan bo'lardi; *or* - (*yoki*) to'g'riroq, aniqroq qilib (*aytganda*).
- ratification** [ˌrætɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n.* ratifikatsiya (*ahdlashuvchi davlatlarning vakillari tuzgan xalqaro shartnomaning oliy hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanishi*). **ratify** [ˈrætiːfaɪ] *v.* ratifikatsiya qilmoq.
- rating** [ˈreɪtɪŋ] *n.* baholash, baho; (*naut.*) oddiy askar.

**ratio** [ˈreɪʃ(ə)ʊ] *n.* mutanosiblik, o'zaro nisbat.

**ration** [ˈræʃ(ə)n] *n.* ulush, ratsion (ovqal miqdori); *v.* me'yoriga keltirmoq; *be -ed* me'yorlashtirilgan.

**rational** [ˈræʃən(ə)] *adj.* oqilona, ongli; (*also math.*) ratsional (*matematikada*). **rationalism** *n.* ratsionalizm (*tafakkurni hissiy tajribadan ajratib qo'yadigan va aqlni bilishning birdan-bir manbai deb biladigan falsafiy oqim*). **rationalist** *n.* ratsionalist, ratsionalizm tarafdori. **rationalize** *v.* masalani ratsional (aql-idfokka asoslanib) lushunlirib bermoq; (*industry etc.*) ratsionallashirmoq (*sanoatda*).

**rattan** [ˈreɪtən] *n.* rotang (*palma turi*).

**rattle** [ˈræt(ə)] *v.* (*sound*) shaqirla(t)moq, guldura(t)moq; dang'illa(t)moq; (*speak*) safsata solmoq; (*fluster*) uyaltirmoq; *- along (move)* yaldek uchmoq, o'qdek olmoq; *- off (utter)* dangal gapirmoq; *n.* (*sound*) qasir-qusur, gumburlash; (*instrument*) tartarak; (*toy*) shaqildoq (*o'yinchog*). **rattlesnake** *n.* shaqildoq ilon. **rattling** *adj.* (*brisk*) tez; *- good* ajoyib.

**rat-trap** [ˈrætræp] *n.* qopqon (*sichqon uchun*).

**raucous** [ˈrɔːkəs] *adj.* xirillagan, xiridoq.

**ravage** [ˈrævɪdʒ] *v.* xonavayron qilmoq, vayron qilmoq; *n.* vayron qiluvchi ta'sir.

**rave** [reɪv] *v.* alahsirammoq; (*wind, sea*) o'kirmoq (*shamol, dengiz haqida*); *- about* alahlamoq; shodlanmoq, xursand bo'lmoq.

**raven** [ˈreɪv(ə)n] *n.* qarq'a.

**ravenous** [ˈrævenəs] *adj.* yeb-to'ymas, ochko'z; (*famished*) bo'ridek och; *- appetite* ishtahasi karnay.

**ravine** [ˈreɪvɪn] *n.* tog' darasi, jarlik.

**ravish** [ˈrævɪʃ] *v.* (*rape*) zo'rldamoq; (*charm*) maftun qilmoq. **ravishing** *adj.* maftunkor.

**raw** [rɔː] *adj.* xom, chala pishgan; (*brick*) pishirilmagan, xom; (*alcohol*) hech narsa aralashtirilmagan (*spirтли ichimliklar*); (*style*) ishlov berilmagan; (*Inexperienced*) malakasiz, tajribasiz; (*stripped of skin*) shilib olingan; (*sensitive*) hissiyotchan; (*edge of cloth*) tiklmagan; *- material(s)* xom ashyo(lar); *- place (abrasion)* tirnalgan joy, yara; *- silk* xom ipak; *- wound* hali bitib ulgurmagan jarohat; *n.* nozik joy, qaltis joy; **touch on the -** qaltis joyidan ushlamoq. **rawhide** *n.* oshlanmagan teri.



ray<sup>1</sup> [reɪ] *n.* (*beam*) nur; (*fig.*) nis-hon, alomat.

ray<sup>2</sup> [reɪ] *n.* (*fish*) skat (*balıq*).

rayon [ˈreɪɒn] *n.* sun'iy ipak.

raze [reɪz] *v.*: ~ to the ground yer bilan yakson qilmoq, tep-tekis qilib yubormoq.

razor [ˈreɪzə(r)] *n.* ustara. razor-blade *n.* ustara tig'i.

RC *abbr.* (*of Roman Catholic*) katolik (*naroniy dinidagi maz-hab*).

Rd. *abbr.* (*of road*) k. ko'cha.

RE *abbr.* (*of Religious Educa-tion*) diniy ta'limot.

reach [ri:tʃ] *v.* (*extend*) uzatmoq; (*attain, arrive at*) yetishmoq, erishmoq; yetmoq; (*extend*) cho'zilmoq; *n.* erishib bo'ladi-gan; (*of river*) daryoning chu-qur, orol va qoyalardan xoli qismi.

react [rɪˈækt] *v.* ta'sirlanmoq. re-actlon *n.* ta'sirlanish. reaction-ary *adj.* reaksiya, teskari, qarshi, laraqqiyotga dushman bo'lgan; *n.* reaksiya, taraqqiyot dush-mani. reactive *adj.* ta'sirla-nuvchi; (*tech.*) reaktiv. reactor *n.* reaktor (*neytron nurlanish manbai sanaladigan asbob*).

read [ri:d] *v.* o'qimoq; (*piece of music*) qismlarga ajratib o'qib chalmoq (*notalamā*); (*of meter etc.*) ko'rsatmoq; (~ a meter

*etc.*) ko'rsatmani olib tashla-moq; (*univ.*) o'rganmoq; (*inter-pret*) izohlamoq. readable *adj.* qiziqarli, yaxshi yozilgan; (*legib-le*) tushunarli. reader *n.* o'quv-chi; (*publisher's* ~) taqrizchi; (*printer's* ~) musahhih; (*univ.*) katta o'qituvchi; (*book*) xris-to-matiya (*turli adabiy asarlardan terib tuzilgan to'plam, o'quv qo'llanmasi*).

readily [ˈri:dlɪ] *adv.* (*willingly*) ba-jonidil; (*easily*) oson. readiness *n.* tayyorgarlik.

reading [ˈri:dɪŋ] *n.* o'qish; (*erudi-tion*) o'qimishlilik; (*variant*) var-iant; (*interpretation*) izoh. read-ing-lamp *n.* stol chirog'i. read-ing-matter *n.* adabiyot. reading-room *n.* o'qishxona, o'qish zali.

ready [ˈredɪ] *adj.* tayyor, shay; ~ money naqd pullar; ~ reckoner arifmetik jadvallar. ready-made *adj.* tayyor.

reagent [ri:'eɪdʒ(ə)nɪ] *n.* reaktiv (*kimyoviy reaksiyani amalga oshirish uchun ishlatiladigan modda*).

real [ri:l] *adj.* haqiqiy, amaldagi, asl, chin; ~ estate ko'chmas mulk. reallam [ˈri:ə,lɪz(ə)m] *n.* realizm (*adabiyot va san'atda voqelikning tipik xususiyatlarni to'la-to'kis va to'g'ri tasvir etadi-gan uslub*). realist *n.* realist,

- realizmga amal qiluvchi. **realistic** *adj.* realizmga oid. **reality** *n.* voqelik, borlik, bor narsa; **in** - chindan. **realization** {,ri:elai'z(ə)n} *n.* (of plan etc.) ro'yobga chiqarish, amalga oshirish; (of assets) realizatsiya qilish, sotish; (understanding) anglash, tushunib yetish. **realize** *v.* (plan etc.) ro'yobga chiqarmoq, amalga oshirmoq; (assets) realizatsiya qilmoq, sotmoq; (apprehend) anglab, tushunib yetmoq. **really** [ri:li] *adv.* haqiqatan, rostdan ham.
- realm** [relm] *n.* (kingdom) qirollik; (sphere) soha.
- ream**<sup>1</sup> [ri:m] *n.* tovon (tana a'zosi).
- ream**<sup>2</sup> [ri:m] *v.* yoymoq, ochmoq.
- reap** [ri:p] *v.* o'rmoq; (fig.) rohatini ko'rmoq, samarasini olmoq.
- reaper** *n.* (person) o'raqchi, o'rimchi; (machine) o'rim mashinasi. **reaping-hook** *n.* o'raq.
- rear**<sup>1</sup> [riə(r)] *v.* (lift) ko'tarmoq; (children) tarbiyalamoq; (of horse) oldingi oyoqlarini ko'tarib tikka lummoq (of haqida).
- rear**<sup>2</sup> [riə(r)] *n.* orqa tomon, sirt; *adj.* orqa ..., orqadagi; (also mil.) orqa, tashqi; (mil.) front orqasidagi; - admiral kontradmiraal (yuqori darajali zobitlik unvoni). **rearguard** *n.* arergard (asosiy kuchlardan keyinda boruvchi harbiy qismlar); - action arergard jangi, orqadagi harbiy qismlar jangi; **rear-light** *n.* (of car) orqa chiroq.
- rearm** [ri:'ɑ:m] *v.* qayta qurollan(tir)moq. **rearmament** *n.* qayta qurollanish.
- rear-view** [ri:vju:] *adj.*: - mirror orqa ko'rinishi oyna. **rearwards** *adv.* orqaga, ortga.
- reason** [ri:z(ə)n] *n.* (cause) sabab, vaj, asos; (intellect) idrok, ong; **It stands to** - muhokamaga arziro; **not without** - asossiz emas; *v.* (discuss) muhokama qilmoq; fikr qilmoq; - with (person) ko'ndirmoq. **reasonable** *adj.* (sensible) ongli, idrokli; (well-founded) asosli; (inexpensive) arzon, qimmat bo'lmagan.
- reassurance** [ri:'ə'ʃʊərəns] *n.* tinchlanish. **reassure** *v.* tinchlanlimoq, yupalmoq.
- rebate** [ri:'bet] *n.* chegirma.
- rebel** ['reb(ə)] *n.* isyonchi, qo'zg'olonchi; *adj.* isyonchilarga oid; *v.* qo'zg'olon ko'tarish. **rebellion** [ri'beljən] *n.* g'alayon, isyon. **rebellious** *adj.* isyonkor, g'alayonli.
- rebirth** [ri:'bɜ:θ, 'ri:-] *n.* tiklanish.
- rebound** [ri'baʊnd] *v.* unilib qaytmoq, sakrab kelmoq; *n.* rikoshet (otilgan o'q, tash, tepilgan to'p kabitaming biron narsaga tegib

- boshqa tomonga sapchishi yoki o'z yo'nalishini o'zgartirishi*), unilib qaylish.
- rebuff** [rɪ'bu:f] *n.* rad etish; qarshi zarba; *v.* rad etmoq; qarshi zarba bermoq.
- rebuke** [rɪ'bu:ɪk] *v.* ta'na qilmoq; *n.* ta'na.
- rebut** [rɪ'bu:t] *adj.* bir so'zli, o'z so'zida qattiq turadigan.
- recall** [rɪ'kɔ:l; rɪ:kɔ:l] *v.* (*summon*) qayta chaqirib olmoq; (*an official*) bekor qilmoq; (*remember*) eslamoq, xotirlamoq; (*remind*) eslatmoq, yodga solmoq; (*- to life*) hayotga qaytarmoq; *n.* qaytishga chaqirish; javob (*chaqiriqqa, murojaatga*).
- recant** [rɪ'kænt] *v.* voz kech(tir)moq, qayt(ar)moq, ton(dir)moq.
- recan'tation** *n.* voz kechish, tonish, kaytish.
- recapitulate** [rɪ:kə'pɪtjə.leɪt] *v.* xulosalamoq, yakun qilmoq.
- recapitulation** *n.* razyume, xulosa, qisqacha mazmun.
- recast** [rɪ:'kɔ:st] *v.* qayta ishlov bermoq; qaytadan, yangidan qilmoq.
- recede** [rɪ'ɛi:d] *v.* nari ketmoq, uzoqlashmoq; chekinmoq.
- receipt** [rɪ'si:t] *n.* (*receiving*) olish; (*amount*) kirim, daromad; (*written -*) tilxat, kvitansiya (*pul yoki boshqa bir narsa qabul qilinganligi haqida berilgan rasmiy tilxat*); *v.* qo'l qo'yimoq, imzo chekmoq.
- receive** *v.* (*accept, admit, entertain*) qabul qilmoq; (*acquire, be given, be sent*) olmoq; (*stolen goods*) yashirmoq.
- receiver** *n.* (*official -*) (bankrot bo'lganning) mulkini boshqaruvchi, rasmiy voris; (*of stolen goods*) o'g'irlanganni yashiruvchi; (*radio, television*) radio, televizor; (*telephone*) go'shak.
- recension** [rɪ'senʃ(ə)n] *n.* malni ko'rib chiqish va to'g'rilash.
- recent** [rɪ:s(ə)nt] *adj.* yaqindagi; (*new*) yangi, oxirgi, so'nggi.
- recently** *adv.* yaqinda, yaqindan buyon.
- receptacle** [rɪ'septək(ə)] *n.* biror narsa saqlanadigan idish (yoki ombor, joy).
- reception** *n.* qabul; *- room* qabulxona.
- receptionist** *n.* kotib.
- receptive** *adj.* zehni o'tkir, uquvli.
long*) cho'zib yubormoq, kechik-  
tirib yubormoq; *n.* aylanish;  
(*aeron.*) ochqich; (*excursion*)  
safar, saychat; go for a - ay-  
lanib kelmoq.

**spinach** ['spɪnɪdʒ, -ɪtʃ] *n.* ismaloq  
(*o'simlik*).

**spinal** ['spæɪn(ə)] *adj.* orqa; -  
column umurtqa; - cord orqa  
miya.

**spindle** ['spɪndɪl] *n.* duk, yig,  
(*axis, pin*) bo'ylama, shpindel  
(*stanoklarning aylanma harakat  
qiladigan asosiy qismi*). **spindly**  
*adj.* uzun va ingichka.

**spine** [spæɪn] *n.* (*backbone*)  
umurtqa, umurtqa suyagi; (*bot.*)  
filmoy, bakra baliq; (*zool.*) likan;  
(*of book*) koreshok, orqa yon  
(*kitobning tikilgan joyi*). **spine-  
less** *adj.* (*fig.*) qat'iyatsiz, be-  
qaror.

**spinet** [spɪnet, 'spɪnɪt] *n.* spinet  
(*fortepyanoga o'xshash qadimiy  
cholg'u asbobi tur*).

**spinnaker** ['spɪnəkə(r)] *n.*  
spinaker (*uch burchakli yelkan*).

**spinner** ['spɪnə(r)] *n.* yigiruvchi; (*fishing*) blesna (*baliq ovlash uchun qarmoqqa bog'lanadigan yattiroq baliqcha, plastinka*).

**spinney** ['spɪnɪ] *n.* kichkina o'rmon.

**spinning** ['spɪnɪŋ] *n.* yigirish. **spinning-machine** *n.* yigirish mashinasi. **spinning-top** *n.* pildiroq. **spinning-wheel** *n.* charx, ip yigiradigan charx.

**spinster** ['spɪnstə(r)] *n.* turmushga chiqmagan ayol.

**spiny** ['spɪnɪ] *adj.* tikanti.

**spiral** ['spɪərə(ə)l] *adj.* spiral shaklidagi, burama, aylanma, vintli; *n.* spiral.

**spire** ['spɪərə(r)] *n.* shpil (*gumbaz, minora, tom kabilaming nayzasimon ishlangan usti, uchi*).

**spirit** ['spɪrɪt] *n.* ruh; (*mood*) kayfiyat; (*liquid*) spirt; (*drinks*) spirtli ichimlik; *v.*: - **away** yashirincha olib ketmoq. **spirited** *adj.* serg'ayral, serharakat, g'ayratli, qizg'in. **spirit-lamp** *n.* spirt lampasi. **spiritless** *adj.* jonsiz. **spirit-level** *n.* vaterpas (*chiziqning, sathning gorizontalligini aniqlaydigan asbob*). **spiritual** *adj.* ruhiy. **spiritualism** *n.* spiritizm (*o'lganlar ruhi narigi dunyoda yashaydi va ular bilan so'zlashish mumkin deb ishonuvchi oqim*). **spiritualist** *n.* spirt (spl-

*ritizmga ishonuvchi*). **spirited** *adj.* spirtli.

**spit<sup>1</sup>** ['spɪt] *n.* (*skewer*) kabob sixi, six; (*of land*) ko'rsatkich, mil; *v.* kabob sixiga ilmoq; (*fig.*) sanchmoq, teshib o'tmoq.

**spit<sup>2</sup>** ['spɪt] *v.* tupurmoq; (*of rain*) maydalab yog'moq; (*of fire etc.*) vishillamoq; - **out** tupurib tashlamoq; -**ing** image aniq nusxa; *n.* so'lak, tupuk.

**spite** ['spɪt] *n.* g'azab, gina, qahr, jahat; *in* - **of** -ga qaramasdan.

**spiteful** *adj.* g'azabii, serjahi.

**spittle** ['spɪt(ə)l] *n.* so'lak, tupuk.

**spittoon** ['spɪtʊ:n] *n.* tupdon.

**spitz** ['spɪts] *n.* bino cho'qqisi.

**splash** ['splæʃ] *v.* (*person*) sachtalmoq; (~ *liquid*) sepmoq; shalaplamoq, shalaplalab yurmoq; - **money** about pulni sovurmoq; *n.* tomchi, sachragan tomchi, shalpillash, shovillash. **splash-down** *n.* suvga qo'nish.

**splatter** ['splætə(r)] *v.* shapillamoq, shalaplalab yurmoq.

**spleen** ['spli:n] *n.* qora jigar, taloq; (*spite*) adovat, g'azab, qahr.

**splendid** ['splendɪd] *adj.* ajoyib, dabdabali. **splendour** ['splendə(r)] *n.* dabdaba, hashamat, joziba, savlat.

**splenetic** ['splɪ'netɪk] *adj.* o'lga, safroga oid.

**splice** ['splice] *v.* (*ropes*) uchlari-

- ni ulab uzaytirilmoq; (*film, tape*) uchlarini yelimlamoq; *n. (naut.)* bir xil yo'g'onlikdagi trosarlarni ulab uzaytirish; (*film, tape*) ulash, birlashtirish, ulangan joy.
- splint** [splɪnt] *n.* shina, taxtakach (*singan suyak uchun*); *v.* taxtakachlab qo'yilmoq; taxtakachlam.
- splinter** ['splɪntə(r)] *n.* siniq, bo'lak; (*in skin*) zirapcha; ~ group ajralib qolgan guruh; *v.* yor(il)moq, tors ayirib yuborilmoq, tors ayirilib ketilmoq.
- split** [splɪt] *n.* tirqish, yoriq; (*schism*) parchalanib ketish; chizimcha, kanop; *v.* parchalal(n)moq; chaq(il)moq; (*divide*) bo'llinmoq (*qismlarga*); ~ on chaqmoq; ~ halra arzimagan narsa haqida bahslashmoq; ~ one's sides zo'r berib kulmoq; ~ pea(s) archilgan no'xat; ~ personality shaxsning ikkilanishi; ~ pln shplint (*yarim doira kesimning sim tayoqchasi*); ~ second ko'z ochib yumguncha, bir lahzada. **split-level** *adj.* turli darajada.
- plotch** [splɒtʃ] *n.* notakis dog', mazok.
- plutter** [splʌtə(r)] *v.* tupuk sachralmoq; (*utter*) tushunarsiz gapirmoq.
- poll** [spɔ:l] *n.* qo'lga tushirilgan narsa, o'lja; *v.* (*damage; decay*) ayni(t)ilmoq, buz(il)ilmoq; (*indulge*) erkalamoq; be -ing for a fight urushga tashlanmoq.
- spoke** [spəʊk] *n.* kegay, sim.
- spoken** ['spəʊkən] *adj.* (*language*) og'zaki. **spokesman**. -woman *n.* vakil.
- sponge** [spʌndʒ] *n.* gubka (*yuvishda, yuvinishda ishlatiladigan ashyo*); ~ cake biskvit (*pechenetun*); ~ rubber g'alvirak rezina; *v.* (*wash*) gubka bilan yuvilmoq; (*obtain*) tilab o'lmoq; ~ on ... hisobiga yashamoq. **sponger** *n.* parazit, tekinko'r (*boshqa lirik organizmlar hisobiga yashovchi o'simlik yoki jonivor*).
- spongy** *adj.* kavakli, teshik-teshik, g'alvirak.
- sponsor** ['spɒnsə(r)] *n.* kafil bo'lgan kishi; *v.* kafil bo'lmoq; (*finance*) mablag' bilan ta'minlamoq.
- spontaneity** [spɒntə'ni:ti, -'nɛ:ti] *n.* o'z-o'zidan sodir bo'lish, beixtiyor yuz berish. **spontaneous** [spɒn'teɪniəs] *adj.* o'z-o'zidan sodir bo'ladigan, beixtiyor yuz beradigan.
- spoof** [spu:f] *n.* (*hoax*) aldash, laqillatish, firibgarlik; (*parody*) parodiya (*biron narsaga hazil yoki masxara bilan taqlid qilish*).
- spook** [spu:k] *n.* arvoch, xayoliy

- sharpa.
- spool** [spu:l] *n.* naycha, g'allak.
- spoon** [spu:n] *n.* qoshiq; *v.* qoshiq bilan suzib olmoq. **spoonbait** *n.* blesna (*baliq ovlash uchun qarmoqqa bog'lanadigan yaltiroq baliqcha, plastinka*). **spoonbill** *n.* kolpitsa (*ibislar oilasiga mansub qush*). **spoonful** *n.* biror nima bilan to'la qoshiq.
- sporadic** [spe'rædɪk] *adj.* onda-sonda bo'ladigan, tasodifiy.
- spore** [spɔ:(r)] *n.* spora (*gulsiz o'simliklarning va ba'zi bir hujayrali jonivorlarning urchish organi*).
- sport** [spɔ:t] *n.* sport; sport musobaqalari; (*fun*) ermak, ovunchoq, hangoma; (*person*) yaxshi odam; *-s car sport* avtomobili; *-s coat sport* kurtkasi; *v.* maqtanmoq, ko'z-ko'z qilmoq. **sportsman** *n.* sportchi. **sportsmanlike** *adj.* sportchilarga oid.
- spot** [spot] *n.* (*place*) joy; (*mark*) dog' (*also fig.*) mayda xol; (*pimple*) husnbuzar; (*on dice etc.*) ochko; *on the - joyida*; (*without delay*) darhol; *- check* tanlab tekshirish; *v.* (*mark; fig.*) dog' tekizmoq; dog' tushirmoq, sharmanda qilmoq; (*recognize*) tanib qolmoq; (*notice*) e'tibor bermoq; *It's -ing with rain* yomg'ir maydalab tomchillamoqda. **spotless**

- adj.* toza; (*fig.*) benuqson, kam-ko'stsiz. **spotlight** *n.* projektor (*kuchli yoritgich*); *v.* projektorda yoritmoq. **spotty** *adj.* sal husnbuzar chiqqan.
- spouse** [spauz, spaus] *n.* rafiq, rafika, xotin, er.
- spout** [spaut] *v.* tizillab oqmoq, otilib chiqmoq; sharllab oqmoq; suv oqizmoq; (*verses etc.*) deklamatsiya qilmoq, ifodali qilib o'qib bermoq; *n.* (*tube*) jo'mrak; (*jet*) oqim, oqish.
- sprain** [spreɪn] *v.* cho'zmoq; *n.* cho'zish.
- sprat** [spræt] *n.* kilka (*soldlar oilasiga mansub mayda baliq*), shprota (*ovlanadigan mayda dengiz baliqi*).
- sprawl** [sprɔ:l] *v.* (*of person*) yalpayib o'tirmoq, tarvaqaylamoq, yastanib yotmoq; (*of town*) barpo qilmoq.
- spray<sup>1</sup>** [spreɪ] *n.* (*of flowers etc.*) shoxcha.
- spray<sup>2</sup>** [spreɪ] *n.* (*liquid*) tomchi; (*water*) suv zarralari; (*atomizer*) purkagich; *v.* purkamoq; (*cause to scatter*) purkab sachmoq.
- spray-gun** *n.* bo'yoq purkagich.
- spread** [spred] *v.* (*- out*) cho'zilib yotmoq; (*unfurl, unroll*) yoyilmoq, yozilmoq, ochilmoq; (*rumor, disease, etc.*) tarqalmoq; (*extend*) cho'zillmoq; (*bread*;

*butter*.) surtmoq; *n.* tarqalish; (*span*) quloch yoyish; (*feast*) bazm, ziyofat; (*paste*) pasla; (*double page*) qo'sh sahifa (*gazeta, jurnal, kitob kabilarning bir-biriga tutash ikki ichki beti*).

**spree** [sprɪ:] *n.* (*drinking*) maishat; *go on the* - maishat qilmoq.

**sprig** [sprɪg] *n.* shoxcha.

**sprightly** [sprɪtlɪ] *adj.* telik, bardam.

**spring** [sprɪŋ] *v.* (*jump*) sakramoq; (*disclose unexpectedly*) kutilmaganda xabar bermoq; - *a leak* oqib ketish; - *a surprise* on syurpriz qilmoq, kutilmagan sovg'a qilmoq; - *from* (*originale*) kelib chiqmoq; - *up* (*jump up*) bapchimoq; (*arise*) paydo bo'lmoq; *n.* (*jump*) sakrash; (*season*) bahor, *attr.* bahoriy; (*source*) manba, buloq; (*elasticity*) taranglik; (*coil*) prujina; (*on vehicle*) resor (*yurganda dukrlashni kamaytirish uchun ekipaj-avtomobil, foytun va vagon tagiga qo'yilgan po'lat prujina*); (*fig., motive*) sabab, vaj; - *balance* prujinali tarozi; - *mattress* prujinali matras; - *tide* Sizigi quyilishi (*Quyosh va Oy birvarakayiga eng yuqori nuqtaga yetganda okean, dengizlarda eng katta suv quyilishi*); - *water* buloq (*chashma*) suvi. **spring-**

**board** *n.* trampolin (*sakrashda balandroq ko'tarilishga yordam beradigan moslama*). **springbok** *n.* sakrovchi. **spring-clean** *n.* katta hashar, butunlay yig'ishtirish; *v.* katta hashar qilmoq, butunlay yig'ishtirmoq. **springy** *adj.* larang.

**sprinkle** [sprɪŋk(ə)l] *v.* (*with liquid*) purkamoq; (*with solid*) sepmoq. **sprinkler** *n.* (*for watering*) purkagich; (*fireextinguisher*) o'l o'chirgich (*moslama*).

**sprint** [sprɪnt] *v.* qisqa masofaga yugurmoq; *n.* sprint (*yaqin masofalarga yugurish, suzish sporti*). **sprinter** *n.* sprinter (*yaqin masofaga yuguruvchi yoki suzuvchi sportsman*).

**sprocket** ['sprɒkɪt] *n.* tishcha. **sprocket-wheel** *n.* yulduzcha, zanjirli g'ildirak.

**sprout** [spraut] *v.* kurtak bermoq; *n.* kurtak, novda; bryussel karami.

**spruce** [spru:s] *adj.* yasangan, bezangan, kellihsagan, xushbichim; *v.:* - *a.s.* up yasantirmoq.

**spruce**<sup>2</sup> [spru:s] *n.* qoraqarag'ay.

**spry** [sprɪ] *adj.* jonli, tetik, bardam.

**spud** [spʌd] *n.* (*fool*) moliga (*kelmonga o'xshash asbob*); (*pot-*

*to*) kartoshka (also collect.).

**spume** [spju:m] *n.* ko'pik.

**spur** [spɜ:(r)] *n.* (rider's) shpor (otliqlar etigining poshnasiga taqiladigan temir tepki); (fig.) rag'bat; (of mountain) larmoq (lizma tog' tarmog'i); on the ~ of the moment badiha tarzida, qo'qqisdan, to'g'ridan-to'g'ri, birdaniga; *v.*: - on (to) itarmoq, turtmoq.

**spurious** [spjuəriəs] *adj.* saxta, qalbaki, yasama.

**spurn** [spɜ:n] *v.* inkor etmoq.

**spurt** [spɜ:t] *n.* (jet) oqim; (effort) sapchish; *v.* tizlib oqmoq; sapchilmoq.

**sputter** [spʌtə(r)] *v.* (utter) tushu-narsiz gapirmoq; vishillamoq.

**sputum** [spju:təm] *n.* so'lak.

**spy** [spaɪ] *n.* josus; *v.* josuslik qilmoq. **spyglass** *n.* kuzalish (uzun durbin). **spyhole** *n.* ko'z (kuzatish uchun eshikda).

**Sq.** *abbr.* (of square) maydon.

**squabble** ['skwɒb(ə)] *n.* ayti-shuv, nizo; *v.* urishmoq.

**squad** [skwɒs] *n.* jamoa, guruh.

**squadron** ['skwɒdrən] *n.* (mil.) eskadron (otliq askarlar bo'lin-masi); (naut.) eskadra (harbiy dengiz floti va aviatsiyaning yirik qo'shilmasi); (aeron.) eskad-rilya (harbiy havo flotining bo'lin-masi); **S-** Leader aviatsiya

mayori.

**squalid** ['skwɒlɪd] *adj.* iflos, qash-shoq, g'aribona.

**squall** [skwɔ:l] *n.* qattiq shamol, qasirg'a; *v.* chiyilamoq, chinqir-moq. **squally** *adj.* shiddatli sha-mol bo'ladigan.

**squalor** ['skwɒlə(r)] *n.* ifloslik, g'ariblik.

**squander** ['skwɒndə(r)] *v.* sarf qilmoq; (fortune) sovurmoq, be-huda sarflamoq.

**square** [skweə(r)] *n.* (math.) kvad-rat; (in town) maydon, xiyabon; (on paper, material) katak; (mil.) kare (piyoda askarlarning ham-ma tomondan qilingan dushman hujumini qaytarish uchun to'rt-burchak shaklida tuzilgan saf); (instrument) uchburchak, jadval (chizg'ich turi); **set** - go'niya; *adj.* kvadratlil; (meal) zich; - root kvadrat lidiz; - **sail** to'g'ri yel-kan; *v.* kvadratga aylantirmoq; (math.) kvadratga (ikkinchi dara-jaga ko'tarmoq); (bribe) o'z to-moniga og'dirmoq; - **accounts** with to'lamoq.

**squash** [skwɒʃ] *n.* (crowd) tiqi-linch; (drink) (mevali) sharbat; *v.* ezmoq; (silence) jim bo'lishga majburlamoq; (suppress) bos-moq (istakni, hisni); *v.* suqilmoq.

**squat** [skwɒt] *adj.* miqti, pakana; *v.* cho'kkaib o'tirmoq; - down

- cho'qqayib o'timoq.
- squatter** ['skwɒtə(r)] *n.* o'zbo-shimchalik bilan blovning uyida joylashgan shaxs.
- squaw** [skwɔ:] *n.* hindular (*Amerikaning qadimiy tub aholisi*).
- squawk** [skwɔ:k] *n.* qattiq qichqiriq; (*of bird*) qurqurlash; *v.* qattiq qichqirmoq; (*of bird*) qurqurlamoq.
- squeak** [skwi:k] *n.* chiyillash, g'ichirlash; *v.* chiyillamoq; g'ichirlamoq. **squeaky** *adj.* chiyilagan, g'archillaydigan.
- squeal** [skwi:l] *n.* chiyillash, chinqiriq; *v.* chinqirmoq.
- squeamish** ['skwi:mɪʃ] *adj.* jirkanuvchi, injiq, tablati nozik.
- squeeze** [skwi:z] *n.* (*crush*) tiqilinch, tirband; (*pressure*) siqish, zichlash; (*hand*) siqish (*qa'ni*); *v.* ezmoq; siqmoq, qismoq; ~ *in* tiqilmoq; suqilmoq; ~ *out* siqmoq, siqib suvini chiqazmoq; ~ *through* tiqilib kirmoq, tiqilib o'tmoq.
- squelch** [skweltʃ] *n.* pilchillash; *v.* pilchillamoq.
- squib** [skwɪb] *n.* (*firework*) petarda (*mushakbozlikda ishlatiladigan vosita*).
- squid** [skwɪd] *n.* kalmar (*mollyusk* tur).
- squiggle** ['skwɪg(ə)] *n.* (*scribble*) qing'ir-qiyshiq yozuv, aji-

buji xat

- squint** [skwɪnt] *n.* g'ilaylik, g'ilay ko'zlik; *adj.* g'ilay, ko'zi qiyshiq; *v.* ko'z qiri bilan qaramoq.
- squire** [skwɪə(r)] *n.* skvayr (*Angliyada: zodagon, shuningdek katta yar egasi*), yer egasi.
- squirm** [skwɜ:m] *v.* (*wriggle*) to'lg'anmoq, buralib buralib ketmoq; (*fidget*) tlpirchilamoq, qimirlayvermoq.
- squirrel** [skwɪr(ə)] *n.* olmaxon.
- squirt** [skwɜ:t] *n.* oqim; *v.* sizilib oqmoq; oqizmoq.
- St. abbr.** (*of street*) ko'ch, ko'cha; (*of saint*) Muqaddas.
- stab** [stæb] *n.* pichoq bilan zarba bermoq; (*pain*) to'satdan boshlangan qattiq og'riq; *v.* urmoq, zarba bermoq; sanchib olmoq.
- stability** [stə'bɪləti] *n.* barqarorlik, chidamlilik, mustahkamlik, doimiylik. **stabilization** [stə'biːlə'zɪʃ(ə)n] *n.* mustahkamlash, barqaror qilish. **stabilize** [stə'biːlə'zɪz] *v.* barqaror qilmoq. **stabilizer** *n.* stabilizator (*barqarorlashtirgich — bir xil ishlashni ta'minlovchi qurilmalar, moslamalar, vositalar nomi*).
- stable** [steɪb(ə)] *adj.* (*steady; of prices, family life etc.*) turg'un, barqaror; (*lasting, durable*) mustahkam; (*unwavering*) barqaror;

- (psych.) vazmin, bosiq; *n.* ol-xona; *v.* olxonaga qo'ymoq.
- staccato** [stæ'ko:lau] *n.* (mus.) stakkato (*ljro tun*).
- stack** [stæk] *n.* (*hay*) g'aram, to'p; (*heap*) uyum, bog'lam, taxlam, to'p, toy; (*building materials etc.*) shlabel (*biror narsaning, masalan, qurilish materiallarining tekis taxlangani*); (*chimney*) mo'ri, mo'rkon; (*-room*) kilobombori; birtalay, ko'plab; *v.* uyumga, uyum qilib to'plamoq; taxlab yotqizmoq.
- stadium** [stædɪəm] *n.* stadion, maydon.
- staff** [sto:ʃ] *n.* (*personnel*) shtat (*biror korxonada yoki muassasada ishlaydigan kishilarning doimiy tarkibi*), xodimlar, idora xodimlari, kadrlar (*tashkilot, muassasa, korxonalarining yetuk xodimlari*); (*mil.*) shtab; (*stick*) hassa, layoq, aso; (*mus.*) nota chiziqdari; *adj.* shtatga oid, shtatli; (*mil.*) shtabga oid.
- stag** [stæg] *n.* erkak-bug'u; -beetle shoxli qo'ng'iz.
- stage** [steɪdʒ] *n.* (*theatr.*) sahna, taxtasupa, minbar, estrada; (*penod*) bosqich, palla, faza, davr; *v.* (*theatr.*) sahnalashtirmoq; (*dramatize, feign*) sahnalashtirmoq; (*organize*) tashkilashtirmoq. **stage-manager** *n.* rejissyor.
- stagger** ['stæge(r)] *n.* qimirlash, chayqalish; *v.* qimirdamoq; tebranmoq, silkinmoq; (*surprise*) qoyil qoldirmoq, hayratda qoldirmoq; (*hours of work etc.*) taqsimlamoq. **be staggered** *v.* qoyil qoimoq. **staggering** *adj.* hayratda qoldiradigan.
- stagnancy** ['stægnənsɪ], **stagnation** [stæg'neɪʃ(e)n] *n.* turg'unlik, mutaassiblik, harakatsizlik. **'stagnant** *adj.* (*water*) oqmas; (*fig.*) turg'un, mutaassib, harakatsiz. **stag'rate** *v.* turib qolmoq; botib qolmoq.
- stag-party** [stæg.pa:ti] *n.* ayollar ishlirok almeydigan ziyofat.
- staid** [steɪd] *adj.* vazmin, hushyor, saloballi.
- stain** [steɪn] *n.* dog'; (*dye*) rang, tus; *v.* iflos qilmoq; dog' tushirmoq; (*dye*) rang bermoq; -ed **glass** rangli shisha. **stainless** *adj.* dog' tushmagan, gard tegmagan, bekam-ko'st; -steel zanglamaydigan po'lat.
- stair** [steɪ(r)] *n.* zina, zinapoya. **stair-case, stairs** *n.* narvon. **stairwell** *n.* zinapoya. **flight of stairs** *n.* zinaning ikki supa o'rtasidagi qismi.
- stake** [steɪk] *n.* (*stick*) qoziq, ustun; (*landmark*) tarixning muhim paytlari, bosqichlari; (*bet*) dov



- (qimorda), garov; **ba at** - garovga qo'yilmoq; *v.* (*mark out*) qoziqlar bilan atrofni o'ramoq; bosqichlarga ajratmoq; (*risk*) garovga qo'ymoq; tavakkal qilmoq.
- stalactite** ['stælək, læt, stælæk-] *n.* stalaktit (*g'or shipida hosil bo'lib, osilib turadigan sumalaksimon oqiq-tomchi (ko'pincha ohaktoshi) hosilalar*).
- stalagmite** ['stælæg, mait] *n.* stalagmit (*g'or fagida hosil bo'lib, yuqoriga o'sadigan konussimon oqiq-tomchi (ko'pincha ohaktoshi) hosilalar*).
- stale** [steil] *adj.* eskirib qolgan, buzilgan; (*hard, dry*) suvi qochgan, quruq; (*musty, damp*) dimiqqan; (*hack-neyed*) slyqasi chiqqan; **become, grow** - suvi qochmoq.
- stalemate** ['steilmert] *n.* pot (*shaxmat o'yinida shohning kishit yemay qamalib qolishi*), durang; (*fig.*) boshi berk ko'cha.
- stalk** [stɑ:k] *n.* poya; *v.* iziga tushmoq; (*stride*) tanlanavor yurmoq.
- stall** [stɔ:l] *n.* obxonadagi (*og'il yoki molxonadagi*) har bir alohida bo'lma, katak; (*booth*) do'koncha, kioska, chodir; (*theatr.*) parterdagi kursilar; (*theatr.*) parter (*tomosha zalining pastki qismidagi o'rinalar*); *v.* to'xtatmoq; *v.* tezlikni yo'qotmoq; (*play for time*) vaqtni cho'zmoq (*o'yinda*).
- stallion** [stæljən] *n.* ayg'ir, ayg'ir ol.
- stalwart** ['stɔ:lwɔ:t] *adj.* barqaror, pishiq; *n.* qal'iy tarafdor.
- stamen** [steimən] *n.* changchi, otalik (*o'simlik gulida*).
- stamina** [stæmine] *n.* chidamlilik.
- stammer** [stæmə(r)] *v.* duduqlanmoq; *n.* duduqlik. **stammerer** *n.* duduq.
- stamp** [stæmp] *n.* muhr, tamg'a, shtempel; (*hallmark*) tamg'a, belgi; (*postage*) (pochta) markasi; (*feet*) yer tepinish, top-tash; *v.* muhr bosmoq; shtamp-lemoq, qoliplamoq; (*trample*) bosmoq, bosib ezmoq; - **out** bosmoq; yo'qolmoq, barham bermoq. **stamp-duty** *n.* davlat yig'imi, marka solig'i.
- stampede** [stæm'pi:d] *n.* sarosimaga tushib qochish (*chekinishi*); *v.* tumlaraqay qoch(ir)-moq.
- stanch** [stɑ:nʃ, stɔ:nʃ] *v.* qon ketishini to'xtatmoq.
- stanchion** ['stɑ:nʃ(e)n] *n.* tirgovuch, tirgak, ustun.
- stand** [stænd] *n.* (*hat, coat*) ilgak; (*mus.*) pyupitr (*nota va kitob qo'yadigan qiya moslama*), (*umbrella, support*) laglik; (*counter*) tirgak, ustun; (*booth*)

do'koncha, kioska; (*taxi, bicycle*) to'xtash joyi; (*tribune*) kafedra, minbar, (at *stadium*) minbar; (*position*) pozitsiya, o'rin, vaziyat; (*resistance*) qarshilik ko'rsatish; *v.* turmoq; (*remain in force*) o'z kuchida qolmoq; *the matter* -s *thus* masala shundan iborat, masala shu tarzda qo'yilgan; *it* -s *to reason* o'z-o'zidan ma'lum; *v.* (*put*) o'rnatmoq; (*endure*) bardosh bermoq; chidamoq; (*treat to*) siylamoq, mehmon qilmoq. - *back* qaytmoq, voz kechmoq; (*not go forward*) orqasidan bormoq; - *by* (*not interfere*) aralashmaslik; (*prepare*) tayyorlanmoq; (*support*) qo'llab-quvvatlamoq; (*fulfil*) bajarmoq; - *for* (*signify*) ma'no bildirmoq; (*tolerate*): *I shall not* - *for* it men bunga yo'l qo'ymayman; ~ *in* (*for*) o'rnini bosmoq; vazifasini bajarib turmoq; - *out* fosh bo'lmoq; *ajralib* turmoq; - *up* turmoq; - *up for* (*defend*) himoya qilmoq; saqlamoq; - *up to* (*endure*) chidamoq, bardosh bermoq; (*not give in to*) bo'sh kelmaslik, olidda bo'yin egmaslik.

**standard** ['stændəd] *n.* (*flag*) bayroq; (*norm*) standart, me'yor; - *of living* turmush tarzi, yashash darajasi. *of high* - yu-

qori sifat; *adj.* standart, bir qolipdagi, bir taxlildagi; (*generally accepted*) umumiy qabul qilingan. (*exemplary*) namunali. *standard-bearer* *n.* bayroqdor. *standardization* *n.* me'yorlashtirish, standartlashtirish. *standardize* *v.* standartlashtirmoq, me'yorlashtirmoq.

**stand-by** ['stændbaɪ] *n.* (*store*) zahira. (*reliable person*) ishonchli odam. (*support*) suyanchiq. *standin* *n.* o'rinbosar

**standing** ['stændɪŋ] *n.* kishining jamiyatdagi o'mi; obro', mavqe. *to be in good* - yaxshilar qatorida bo'lmoq. *adj.* (*upright*) tik, tikka turadigan; (*permanent*) doimiy; - *army* doimiy armiya. - *committee* doimiy qo'mita.

**standoffish** [stænd'ɒfɪʃ] *adj.* takabbur, manman.

**stand-pipe** ['stændpaɪp] *n.* suv ajratuvchi kolonka.

**standpoint** ['stændpɔ:nt] *n.* nuqtayi nazar

**standstill** ['stændstɪl] *n.* pauza, to'xtash, harakatsizlik, bir joyda tumb qolish. *be at a* - o'lim nuqtasida turmoq, tubida turmoq. *bring (come) to a* - to'xtamoq.

**stanza** ['stænzə] *n.* band, she'rning sintaktik jihatdan tugallangan har bir misral hamda shunday to'rt misradan iborat she'riy

- band.
- staple**<sup>1</sup> ['stɛp(ə)] *n.* (fastening) qisqich.
- staple**<sup>2</sup> ['steɪp(ə)] *n.* (principal product) bosh mahsulot, asosiy tovar, mol; (principal element) bosh element; *adj.* asosiy, bosh.
- star** [stɑ:(r)] *n.* yulduz. (*asterisk*) yulduzcha. *adj.* yulduzli; (*chief*) bosh; (*celebrated*) tanikli; *v.* bosh rolni ijro etmoq. **starfish** *n.* dengiz yulduzi (*dengiz joni-von*). **star-gazer** *n.* astronom, yulduzshunos.
- starboard** ['stɑ:bəd] *n.* o'ng bort, o'ng yon devor.
- starch** [stɑ:tʃ] *n.* kraxmal, ohor; *v.* kraxmallamoq, ohorlamoq. **starched** *adj.* kraxmalli, kraxmallangan, ohorli, ohorlangan. **starchy** *adj.* ohorli, serkraxmal.
- stare** [steə(r)] *n.* tikilib qarash, o'tkir nigoh; *v.* yab qo'ygudek qaramoq, ko'zi teshvorgudek qaramoq; - (one) in the face (*be obvious*) ko'zga tashlanmoq.
- stark** [stɑ:k] *adj.* (*bars*) yalang'och; (*desolate*) bo'sh, odamsiz, noobod; *adv.* mutlaqo, to'liq, butunlay.
- staring** ['stɑ:ɪŋ] *n.* chug'urchliq.
- starry** ['stɑ:n] *adj.* yulduzli. **starry-eyed** *adj.* orzu qilingan.
- start** [stɑ:t] *n.* boshi, avvall, ibti-

- do; (*sport*) start; (*advantage*) imtiyoz, imkoniyat; (*shudder*) sekanish, cho'chib tushish; *v.* boshlanmoq, kirishmoq; (*engine*) yurgizmoq. (*set out*) jo'nab kelmoq, jo'namoq; (*shudder*) sekanib kelmoq; (*sport*) boshlamoq, start olmoq; boshlamoq; *from the beginning* boshidan; (*set in motion*) yurgizmoq, ishga solmoq. **starter** *n.* (*tech.*) starter (*dvigatellarni yurgizuvchi asbob*); (*sport*) start beruvchi kishi. **starter**, **startling** *adj.* ishga tushiruvchi. **starting-point** *n.* jo'nalish punkti.
- startle** ['stɑ:t(ə)] *v.* qo'rqitmoq; hayron qoldirmoq. **startled** *adj.* qo'rqqan, cho'chigan, yurak oldirgan. **startling** *adj.* lol qoldiradigan, larzaga soladigan.
- starvation** ['stɑ:vetʃ(ə)n] *n.* ochlik. **starve** *v.* unkasizlik, madorasizlik; (*to death*) ochlikdan o'lmoq; ochidan tirishlirmoq, och qoldirib sulaylirmoq. **'starving** *adj.* ocharchilikka duchor bo'lgan; (*hungry*) och qolgan.
- state** [steɪt] *n.* (*condition*) mol-mulk, davlat, boylik; (*pomp*) hashamat; (*nation, government*) davlat, shtat; *lie in* - ochiq tobulda yotmoq; *adj.* (*ceremonial*) tantanali; (*apartments*) katta eshikka, ko'cha eshikka oid;

(of State) davlatga qarashli; v. (announce) bildirmoq, ma'lum qilmoq; (expound) bayon qilmoq, aytib bermoq; (maintain) tasdiqlamoq. **stated** *adj.* (appointed) belgilangan, tayinlangan. **stateless** *adj.* fuqarolikni olmagan. **stately** *adj.* buyuk, ulug'. **state-ment** *n.* (announcement) ariza; (exposition) bayon qilish, gapirib berish; (assertion) tasdiq. **state-of-the-art** *adj.* zamonaviy, eng yangi. **statesman** *n.* davlat xizmatchisi, davlat arbobi.

**static** ['stætk] *adj.* qimirlamaydigan, turg'un. **statics** *n.* statika (nazariy mexanikaning bir bo'lagi); muvozanat.

**station** ['steɪʃ(ə)n] *n.* (rail.) vokzal, bekat; (position) o'rin, joy, yer; (social) ijtimoiy ahvol; (naval etc.) asos; (meteorological, hydroelectric power, radio etc.) stansiya; v. qo'ymoq, joylashlirmoq; (mil.) joylashlirmoq (qo'shinlarni). **station-master** *n.* vokzal (stansiya) boshlig'i.

**stationary** ['steɪʃənəri] *adj.* qo'zg'almas, qimirlamaydigan; (tech.) statsionar ..., (doim bir joyda turadigan); (constant) doimiy, chidamli, mustahkam.

**stationer** ['steɪʃənə(r)] *n.* kanselyariya do'konining sotuvchisi;

(shop) kanselyariya do'koni. **stationery** *n.* kanselyariya mol-lari; (writing-paper) pochta qog'ozi.

**statistic** [stætɪstɪk] *n.* statistik ma'lumotlar, raqamlar. **statistical** *adj.* statistik, statistikaga oid. **statistician** *n.* statistik (statistika mutaxassisi). **statistics** *n.* statistika (har xil ommaviy hodisalarning son hisoboli).

**statue** [stætʃu:, 'stætʃu:] *n.* haykal. **statuesque** *adj.* savlalli, ulug'vor. **statuette** *n.* haykalcha. **stature** ['stætʃə(r)] *n.* qomat, bo'y; (merit) qadr-qimmat, obro', e'tibor, fazilat.

**status** ['steɪləs] *n.* maqom, status; (social) ijtimoiy holat ko'rsatkichi; (state) holat. **status quo** *n.* status kvo (ma'lum paytda bo'lib o'tgan yoki bo'lib turgan holat, vaziyat).

**statute** [stætʃu:t] *n.* qonuniy akt, nizom. **statute-book** *n.* qonunlar to'plami. **statutory** [stætʃu:təri] *adj.* qonunda o'rnatilgan. **staunch** [stɔ:nʃ] *v.* see stanch; *adj.* (loyal) sodiq, sadoqatli, chin; (steadfast) turg'un, barqaror, mustahkam.

**stave** [steɪv] *n.* (of cask) parchin mix; v. urmoq, qoqmoq; sindirmoq, parchalamoq; ~ off oldini olmoq.

**stay** [steɪ] *n.* (*time spent*) bo'lish, turish; (*suspension*) to'xtash; (*postponement*) muddat, shartli muddat; *v.* (*remain*) qolmoq (*to dinner tushlikka*); (*friends' etc.*) mehmon bo'lmoq; (*live*) yashamoq; ~ **a moment** bir daqiqa kutib luring! ~ **away** ishtirok etmaslik. ~ **behind** qolmoq; (*check*) ushlab qolmoq; (*hunger, thirst*) qondirmoq; (*suspend*) vaqtincha to'xtatmoq; (*postpone*) muddat qo'yimoq; ~ **the course** qo'llab-quvvatlanmoq. **stay-at-home** *n.* doim uyda o'tiradigan, uydan eshikka chiqmaydigan odam. **staying-power** *n.* chidamlilik.

**stead** [sted] *n.*: **to stand s.o. in good** ~ kimgadir kerak bo'lmoq, kimgadir foyda keltirmoq.

**steadfast** ['stedfɑ:st, 'stedfesi] *adj.* (*firm, steady*) pishiq, mahkam; (*unshakable*) mustahkam.

**steady** ['stedɪ] *adj.* (*firm*) mustahkam, ishonchli, chidamli, qattiq; (*continuous*) to'xtovsiz, uzluksiz; (*prices*) o'zgar olmaydigan, barqaror; (*wind, temperature*) doim bir xil; (*speed*) doimiy, o'zgar mas; (*unshakable*) og'ishmaydigan; (*stead*) vazmin, og'ir; ~ **hand** qattiqqo'l; *v.* (*boaf*) bir muvozanatga keltirmoq.

**steak** [steɪk] *n.* (*before cooking*) mol, baliq go'shlining qovurishga mo'ljallangan semiz bo'lagi. (*dish*) pishirilgan go'sht yoki baliqning semiz bo'lagi; (*beef-steak*) bifshteks (*qovurilgan parcha go'sht*).

**steal** [sti:l] *v.* talon-laroj qilmoq, o'g'irlamoq; ~ **a glance** ko'z qirini tashlamoq, o'g'irincha qaramoq; pisib (yashirib) bormoq, sekingina (sezdirmay) yaqinlashmoq. **stealing** *n.* o'g'irlik. **stealth** [stelθ] *n.* ayyorlik; **by** ~ o'g'irincha. **stealthy** *adj.* o'g'irincha, yashirincha, berkitib.

**steam** [sti:m] *n.* bug'. par; **at full** ~ jadallik bilan; **get up** ~ bug'ni ko'paytirmoq; (*fig.*) kuch to'plamoq, hozirlanmoq; **let off** ~ (*fig.*) hislarini biddirmoq; **under one's own** ~ piyoda kelmoq; *adj.* bug'li; *v.* bug'latmoq; bug'lamoq; ~ **up** (*mist over*) terlamoq; ~ **engine** bug' mashinasi. **steamer** ['sti:mə(r)] *n.* paroxod. **steaming** *adj.* buruqsagan. **steam-roller** *n.* bug' o'qlov (*kilyimni tekistaydigan, dazmollaydigan asbob*). **steamship** *n.* paroxod.

**steed** [sti:d] *n.* ot.

**steel** [sti:l] *n.* po'lat; *adj.* po'latli, po'latdan yasalgan; *v.* (*make resolute*) **to** ~ **one's (own) heart**

- g'azabi qaynamoq; ~ foundry po'laini qayta ishlovchi zavod. **steel-making** *adj.* po'lat eritadigan. **steel-rolling** *adj.* po'lat prokat qiladigan. **steelworks** *n.* po'lat ishlovchi zavod. **steely** *adj.* po'lat ..., po'latdan yasalgan; (*cold*) sovuq; (*stem*) qatliq. **steelyard** *n.* toshsiz tarazi.
- steep**<sup>1</sup> [sti:p] *v.* (*immerse*) botirmoq, cho'ktirmoq; (*saturate*) shindirmoq, cho'kmoq.
- steep**<sup>2</sup> [sti:p] *adj.* tik; (*excessive*) haddan tashqari; (*improbable*) aqiga lo'g'ri kelmaydigan. **steepness** *n.* likkalik.
- steeple** [sti:p(ə)] *n.* shpil (*blno cho'qqisidagi nayza; tangarni tushiradigan va ko'taradigan chig'ir*). **steeplechase** *n.* to'siqlardan o'tish poygasi. **steeplejack** *n.* yuqorida (*baland joyga chiqib*) ishlaydigan ishchi.
- steer**<sup>1</sup> [stɛə(r)] *n.* yosh ho'kiz.
- steer**<sup>2</sup> [stɛə(r)] *v.* (*control, navigate*) boshqarmoq; (*guide*) rahbarlik qilmoq, boshqarmoq; *v.abs.* rulni boshqarmoq. **steering-column** *n.* rul kolonkasl. **steering-wheel** *n.* rul; shturval.
- stellar** [stele(r)] *adj.* yulduzli. **stella** *adj.* yulduzsimon, yulduz tasvirli.
- stem**<sup>1</sup> [stem] *n.* poya, tana; band; (*wine-glass*) oyoqcha. (*ling.*) asos, negiz; (*naul.*) kema tumshug'i; *from ~ to stern* bumidan dumigacha; *v.*: ~ *from* kelib chiqmoq.
- stem**<sup>2</sup> [stem] *v.* (*dam*) bo'g'moq, to'smoq (*suvni*); (*stop*) to'xtatmoq.
- stench** [stentʃ] *n.* yoqimsiz hid, tutun.
- stencil** [stensɪl] *n.* qolip, andaza, trafaret; *v.* andaza yordamida gul bosmoq. **stencilled** *adj.* trafaretili, qolip bilan qilinadigan.
- stenorian** [steni'ɔ:nən] *adj.* baland ovozli.
- step** [step] *n.* (*pace, action*) qadam; (*gait*) yurish, qadam tashlash; (*dance*) pa (*raqsda oyoq yoki gavdaning alohida bir harakati*); (*of stairs, ladder*) pog'onna; (*measure*) me'yor; = *by ~* qadamma qadam; *out of ~* qo'shilmaslik; *watch one's ~* ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoq; *take ~s* choralar ko'rmoq; qadam tashlamoq, qadam qo'y-moq; = *aside* chellanmoq, yo'l bermoq; = *back* ortga qaytmoq; = *down* (*resign*) nafaqaga ketmoq; = *forward* chiqish qilmoq; = *in* (*intervene*) suqilmoq, aralashmoq; = *on* oyog'ini bosib olmoq; = *over* hallab o'lmoq, qadam tashlab o'lmoq; ~ *up* (*increase, promote*) ko'tarmoq;

(*strengthen*) kuchaytirmoq.  
**step-ladder** *n.* narvon. **stepped**  
*adj.* zinali, zinapoyali, past-ba-  
 land bo'lib kelgan. **stepping-**  
**stone** *n.* anhordan o'tish uchun  
 xizmat qiladigan tosh; (*fig.*)  
 maqsadga erishish vositasi.  
**steps** *n.* zinapoya.

**stepbrother** ['step,brʌðə(r)] *n.*  
 o'gay uka. aka. **stepdaughter**  
*n.* o'gay qiz. **stepfather** *n.* o'gay  
 ota. **stepmother** *n.* o'gay ona.  
**stepsister** *n.* o'gay singil. **step-**  
**son** *n.* o'gay o'g'il.

**steppe** [step] *n.* cho'l, dasht,  
 sahro.

**stereo** [stɪəu, 'ste-] *n.* (*record-*  
*player*) stereofonik proigrivatel  
 (*maishiy texnika*); stereopleyr  
 (*maishiy texnika*). *adj.* (*record-*  
*ed in -*) stereo. **stereophonic**  
*adj.* stereofonik. **stereoscope** *n.*  
 stereoskop (*bir narsani bo'rtinib*  
*ko'rsatuvchi opik asbob*). **ste-**  
**reoscopic** *adj.* stereoskopik.  
**stereotype** *n.* bosma qolip;  
 (*tech.*) andoza. **stereotyped** *adj.*  
 (*also banal*) stereotip ...; bir  
 qolipda bo'lgan, bir shakida  
 bo'lgan.

**sterile** [stɪəri:l] *adj.* (*barren, germ-*  
*free*) sterilizatsiya qilingan, toza-  
 langan; jinssiz, bichilgan. **ste-**  
**rility** [stɪ'rɪlɪtɪ] *n.* sterilizatsiya  
 qilinganlik, tozalanganlik. **steril-**

**ization** [stɪrɪlɪzɪ'eɪʃ(ə)n] *n.* ste-  
 rilizatsiya qilish, mikroblardan  
 tozalash. **sterilize** *v.* sterilizatsiya  
 qilmoq. **sterilizer** *n.* sterilizator  
 (*sterilizatsiya moslamasi*).

**sterling** ['stɜ:ɪŋ] *n.* sterling (*Ang-*  
*liyada: pul birligi*); pound - funt  
 sterling; *adj.* (*irreproachable*)  
 talabga javob beradigan; (*reli-*  
*able*) sifatli.

**stern**<sup>1</sup> [stɜ:n] *n.* kemaning quyruq  
 lomani.

**stern**<sup>2</sup> [stɜ:n] *adj.* talabchan,  
 qattiqqo'l, o'la jiddiy.

**sternum** ['stɜ:nəm] *n.* ko'krak  
 suyagi.

**stethoscope** ['steθ,skəʊp] *n.*  
 steloskop (*yurak urishini va*  
*o'pkani eshitib ko'radigan as-*  
*bob*).

**steward** ['sti:və,də:(r)] *n.* yuk  
 tashuvchi, yuk ortuvchi.

**stew** [stju:] *n.* (*cul.*)  
 sabzavotlar bilan dimlangan mol  
 go'shti; *v.* dimla(n)moq; to - In  
 one's own juice o'z yog'iga  
 qovrilmoq, o'zi chalkashirgan  
 ishni hal qilmoq. **stewed** *adj.*  
 dimlangan; - fruit kompot. **stew-**  
**pan, stewpot** *n.* kastrul.

**steward** ['stju:əd] bori kuzatuvchi-  
 si; (*master of ceremonies*) bosh-  
 qaruvchi, idora qiluvchi, mudir.  
**stewardess** *n.* bori bosh-  
 qaruvchisi, styuardessa.

- stick<sup>1</sup>** [stɪk] *n.* layoq; (*of chalk etc.*) bo'lak, parcha; (*hockey, walking*) klyushka (*xokkey o'yinida: uchl qayrilgan dasta*); **-s** (*collect.*) shox-shabba.
- stick<sup>2</sup>** [stɪk] *v.* (*spear*) qislirmoq; (*make adhere*) yopishtirmoq, yelimplamoq; (*coll.*) (*put*) qo'y-moq; (*lay*) joylamoq; (*adhere*) yopishmoq; yopishib qolmoq; ~ *in* (*thrust in*) liqib qo'y-moq; qadam-qoq; **the arrow stuck into the ground** nayza yerga qadaldi; (*into opening*) liqmoq; ~ *on* (*glue on*) yopishtirmoq, yelimplamoq; ~ *out* (*thrust out*) chiqarmoq; (*project*) chiqib turmoq; ~ *to* (*keep to*) tutmoq, ushlab turmoq; (*remain af*) chalg'imaslik; ~ *together* birdamlikda bo'lmoq, bir-biriga sodiq do'st bo'lmoq; ~ *up for* himoyalamoq, himoya qilmoq; **be, get, stuck** tiqilib qolmoq; **sticker** *n.* (*label*) yorliq, xat. **sticking-plaster** *n.* yopishqoq plastir (*yaraga yopishtirib qo'yiladigan malthamli mato*).
- stickleback** ['stɪk(ə)l,bæk] *n.* kolyushka (*balıq tun*).
- stickler** ['stɪk(ə)l(r)] *n.* ashaddiy tarafdor; ixlosmand.
- sticky** ['stɪkɪ] *adj.* yopishqoq; **he will come to a ~ end** oxiri voy bo'ladi.
- stiff** [stɪf] *adj.* qattiq, qayishqoq emas; (*with cold*) muzlab qolib qolgan; (*prim*) o'taketgan rasmiyalchi; (*difficult*) qiyin, og'ir; (*breeze*) kuchli; **be ~** (*ache*) og'rirmoq. **stiffen** *v.* qo'pol-lashmoq. **stiffness** *n.* qattqlik; (*primness*) o'taketgan rasmi-yatchilik.
- stifle** ['stɪfl(ə)] *v.* bo'g'moq; (*suppress*) baslirmoq; (*sound*) ovoz-ni bosib ketmoq, ovozni eshilti-lmaydigan qilib qo'y-moq; *v.* bo'g'ilmoq. **stifling** *adj.* nafasni qaylatadigan, dim, issiq.
- stigma** ['stɪɡmə] *n.* sharmandalik tamg'asi. **stigmatize** *v.* lamg'a-lamoq, tamg'a solmoq.
- stile** [stɪl] *n.* devordan o'tish uchun narvon.
- stiletto** [stɪ'letəʊ] *n.* xanjarcha; ~ **heels** kichik mixlar.
- still<sup>1</sup>** [sti] *adv.* hozir ham, hali ha-nuz; ~ **better** yanada yaxshi; (*nevertheless*) shunga qara-masdan; (*motionless*) qo'zg'al-masdan; (*quietly*) hollrjam; **stand ~** qimirdamaslik, siljimaslik; **time stood ~** vaqt to'xtab qoldi; **sit ~** to'g'ri o'lirmoq.
- still<sup>2</sup>** [stɪl] *n.* (*quiet*) sokinlik; (*film*) kadr; *adj.* sokin; (*immobile*) qo'zg'almas; (*not fizzy*) vishil-lamaydigan; *v.* linchiantirmoq.
- still<sup>3</sup>** [sti] *n.* haydash kubi (*suu qaynatish yoki boshqa suyuq-*



- liklaml haydash uchun ishlatiladigan berk idish).*
- still-bom** ['stɪlbɔ:n] *adj.* o'lik tug'ilgan.
- still life** ['stɪllɑ:f] *n.* natyurmort (*gul, meva, baliq va sh.k. rasmi va shu narsalarning o'zi*).
- stillness** ['stɪlnɪs] *n.* sokinlik; (*immobility*) qo'zg'almaslik.
- stilt** [stɪlt] *n.* yog'ochoyoq; (*tech.*) qoziqoyoq, ustun. **stilted** *adj.* soxta, yasama, g'ayritabiiy.
- stimulant** ['stɪmjələnt] *n.* qo'zg'atuvchi (qizdiruvchi) dori. **stimulate** *v.* rag'batlantirmoq. **stimulating** *adj.* rag'batlantiradigan. **stimulation** *n.* qo'zg'alish, kuchaytirish. **stimulus** *n.* rag'bat, turki.
- sting** [stɪŋ] *n.* nish, nayza; badanning tishlangan (chaqilgan, qopilgan) joyi (*also wound*); *v.* chaqmoq; tishlamoq; (*burn*) yondirmoq, kuydirmoq, yoqmoq. **stinging** *adj.* (*caustic*) og'ritadigan; - nettle achitadigan qichitqi o'l. **sting-ray** *n.* skat (*den-giz baliq'i*).
- stinginess** ['stɪndʒɪnɪs] *n.* xasislik, ziqnalik, baxillik. **stingy** *adj.* xasis, ziqna, baxil.
- stink** [stɪŋk] *n.* sassiq (qo'lansa, badbo'y) hid; *v.* sasimoq; badbo'y hid chiqarmoq. **stinking** *adj.* badbo'y, sassiq, yoqimsiz hid tarqatuvchi.
- stint** [stɪnt] *n.* qat'iy ajratilgan vaqt.
- stipend** ['stɪpend] *n.* (*salary*) maosh, moyana, oylik; (*grant*) stipendiya. **stipendiary** ['stɪpendjəri, str-] *adj.* maosh, oylik, stipendiya oladigan.
- stipple** ['stɪp(ə)] *n.* chizish, nuqtali chiziq bilan belgilash; *v.* chiz(il)moq, nuqtali chiziq bilan belgila(n)moq.
- stipulate** ['stɪpjʊ,leɪt] *v.* shartlashmoq; shart qo'ymoq; (*demand*) lalab qilmoq. **stipulation** *n.* shart, lalab.
- stir** [stɪ:(r)] *n.* qo'zg'atish, harakat; (*up-roar*) to's-lo'polon; *cause a* - hayajonga sabab bo'lish; *v.* (*move*) qo'zg'almoq; siljilmoq; (*mix*) aralashtirmoq; (*excite*) hayajonlantirmoq; (*move*) qimir-lamoq; siljimoq; (*be excited*) hayajonlanmoq - *up* hayajonga keltirmoq. **stirring** *adj.* hayajonlanayotgan.
- stirrup** ['stɪrep] *n.* uzangi.
- stitch** [stɪtʃ] *n.* chok; (*knitting*) halqa; (*med.*) tikilgan joy; (*pain*) sanchiq; *v.* (*embroider, make line of -es*) bahyalamoq; (*join by sewing, make, suture*) qo'shib tikmoq, ulamoq; (*med.*) chok tushirmoq; - *up* tikmoq, yamamoq. **stitching** *n.* (*sewing*)

likish; (*stitches*) bahya, chok.  
**stoat** [stəʊt] *n.* oqsichqon.

**stock** [blɒk] *n.* (*store*) zahira; (*equipment*) inventar (*biror idoraning mol-mulki, asbob-anjomi*); (*live-*) mol, hayvon; (*cul.*) sho'rva; (*family*) oila; (*origin, clan*) nasab, urug'; (*fin.*) akaiyalar; jamg'armalar; (*punishment*) kunda, iskanja; *in - naqd; out of - sotilgan; take - of o'ylamoq; adj.* standart, bir xil, bir qolipdagi; (*banal*) siyqasi chiqqan; *v.* naqd puli bo'lmoq; - *up* zahiralamoq, g'amlamoq. **stock-breeder** *n.* chorvador. **stock-breeding** *n.* chorvachilik. **stock-broker** *n.* birja makleri (*vositachisi*). **stock-exchange** *n.* fonda birjasi.

**Stockholm** ['stɒkhaʊm] *n.* Stokgolm.

**stock-in-trade** ['stɒkɪn,treɪd] *n.* (*savdo*) inventari. **stockpile** *n.* zahira; *v.* to'plamoq. **stock-still** *adj.* qo'zg'almas. **stock-taking** *n.* mahsulotni qayta hisoblash, inventami tekshinish. **stockyard** *n.* og'ilxona, molxona.

**stockade** ['stɒkəɪd] *n.* qoziqdevor.

**stocking** ['stɒkɪŋ] *n.* ta'minol, saqlash; paypoq.

**stocky** ['stɒkɪ] *adj.* barvasla, norg'il, baquvvat, yo'g'on, chor-pahil (*odam*).

**stodgy** ['stɒdʒɪ] *adj.* (*food*) og'ir, hazmi og'ir; (*boring*) zerikarli.

**stole** [stəʊl] *n.* stolk, stoltsizm larafdori. **stole(al)** *adj.* stoltsizm ..., stoltsizmga oid, stoltsizm ruhidagi. **stolclism** ['stəʊl-,sɪz(ə)m] *n.* stoltsizm (*yunon va rim falsafasida materializm bilan idealizm o'rtasida turgan rasionalislik falsafiy ta'limi*).

**stoke** [stəʊk] *v.* o't yoqmoq. **stokehold**, **stokehole** *n.* lemir kosoq.

**stoker** ['stəʊkə(r)] *n.* o'lyoqar, o't qalovchi.

**stole** [stəʊl] *n.* palantin (*xotin-qizlar yelkaga tashlab yuradigan mo'yna yoki duxoba sharfi*).

**stolid** [stəʊlɪd] *adj.* flegmatik, sovuqqon.

**stomach** ['stʌmək] *n.* oshqozon; (*also surface of body*) qorin; *adj.* oshqozonga oid; *v.* chidamoq. **stomachache** *n.* qorindagi og'riq.

**stone** [stəʊn] *n.* (*material, piece of it*) tosh; (*fruit*) danak; *adj.* toshdan yasalgan; *v.* tosh o'tmoq; (*fruit*) danagidan ajratmoq; - *to death* toshbo'ron qilib o'ldirmoq. **Stone Age** *n.* Tosh davri. **stone-cold** *adj.* juda sovuq. **stone-deaf** *adj.* butunlay kar. **stone-mason** *n.* g'isht le-nuvchi usta. **stonewall** *v.* qasd-dan buzmoq; tortishuvga xala-

qit qilmoq. **stonily** *adv.* sovuq ohangda. **stony** *adj.* toshli; (*fig.*) toshga o'xshagan, sovuq. **stony-broke** *pred.*: I am ~ hech vaqim yo'q.

**stool** [stu:l] *n.* laburelka, kursl.  
**stoop** [stu:p] *n.* bukchayganlik; *v.* bukchay(ilir)moq; (*bend (down)*) engashmoq; ~ *to* (*abase o.s.*) past kelmoq, o'zini kam-sitmoq, xo'rlamoq; (*condescend*) iltifat ko'rsatmoq. **stooped**, **stooping** *adj.* bukchaygan.

**stop** [stop] *n.* to'xtash; (*discontinuance*) to'xtatish; (*organ*) ro'yxatga olish bo'limi; (*full ~*) nuqta; *request ~* so'ralgan joyda to'xtash; *v.* to'xtatmoq; (*discontinue*) to'xtatib qo'ymoq, yarmidan bo'lib qo'ymoq; (*restrain*) ushlab turmoq; to'xtatmoq, turib qolmoq, to'xtab qolmoq; (*discontinue*) teng yarmidan bo'lib qo'ymoq; (*cease*) tark qilmoq, bas qilmoq; ~ *at* nothing hech narsaning oldida to'xtamaslik. **stop-cock** *n.* qulfaydigan jo'mrak. **stopgap** *n.* liqin, qopqoq. **stop-light** *n.* to'xtash signali. **stoppage** *n.* to'xtash; (*strike*) ish tashlash. **stopper** *n.* tiqilinch; (*tech.*) stopor (*ma'tum vaziyatda to'xtatish, silljmaydigan qilib o'rnatish uchun xizmat qiladigan mosla-*

*ma*). **stop-press** *n.* gazetadagi shoshilinch xabar. **stop-watch** *n.* sekundomer (*soniyani o'lchaydigan asbob*).

**storage** ['sto:ridʒ] *n.* saqlash. **store** *n.* zahira; (*storehouse*) ombor; (*shop*) do'kon; *set ~* bu baholamoq; *what is in ~* forma? meni oldinda nima kutayapti?; *v.* zahiralamoq; (*put into storage*) saqlashga topshirmoq. **store-house** *n.* omborxona, narsa saqlanadigan joy. **store-room** omborxona.

**storey** ['sto:ri] *n.* qavat.

**stork** [sto:k] *n.* laylak.

**storm** [sto:m] *n.* dovul, momaqaldiroq; (*nait.*) po'rtana; (*mil.*) hujum; (*outburst*) porllash; *v.* (*mil.*) hujum qilmoq; qo'qqisdan bostirib kirmoq; qulumoq. **stormcloud** *n.* bulut. **stormy** *adj.* bo'ronli.

**story** ['sto:ri] *n.* hikoya, qissa; (*anecdote*) lalifa, hajviya; (*plot*) fabula (*badiiy asarda tasvirlangan voqealarning izchil bayoni*), syujet (*adabiy asarning asosiy mazmuni*); (*history, event*) hikoya. **story-teller** *n.* hikoyachi.

**stout** [slau] *adj.* (*solid*) zich; (*portly*) to'la; *n.* porter (o'tkir qora pivo). **stout-hearted** *adj.* dovyurek. **stoutly** *adv.* (*stubbornly*) tirishqoqlik bilan; (*energeti-*

*cally*) g'ayrat bilan; (*strongly*) mahkam. **stoutness** *n.* (*strength*) mustahkamlik; (*portliness*) to'lalilik; (*courage*) qahramonlik; (*firmness*) barqarorlik.

**stove** [stəuv] *n.* (*with fire inside*) pishirmoq; (*cooker*) plita (*pishirish uchun asbob*).

**slow** [sləu] *v.* solmoq, joylashtirmoq; - *away* (*travel free*) chip-lasiz, quyon bo'lib yurmoq. **stowaway** *n.* quyon, chiptasiz yo'lovchi.

**straddle** ['stræd(ə)] *v.* oyoqlarni kermoq, keng qo'ymoq; (*sit astride*) ustida o'tirmoq; (*stand astride*) oyoqlarni kergan, keng qo'ygan holda turmoq.

**straggle** ['stræg(ə)] *v.* (*drop behind*) orqaga surib qo'ymoq.

**straggler** *n.* orqada qolib ketgan. **straggling** *adj.* (*scattered*) sochib lashlangan; (*untidy*) tarlibsiz.

**straight** [streit] *adj.* (*unbent*) to'g'ri; (*honest*) rostgo'y; (*undiluted*) suv qo'shilmagan; *pred.* (*properly arranged*) bir tartibda, hammasi joyida; *adv.* to'g'ri; - *away* birdan. **straighten** *v.* to'g'rila(n)moq, roslla(n)moq; (*smooth out*) to'g'rilamoq. **straightforward** *adj.* to'g'ri; (*simple*) oddiy, odmi; (*honest*) rostgo'y. **straightness** *n.* rostgo'ylik.

**strain<sup>1</sup>** [streɪn] *n.* (*pull, tension*) laranglik, tarang tortilgan; (*also sprain*) lo'qimaning shikastlanishi; (*phys., tech.*) quvvat; (*tendency*) moyillik; (*sound*) xirgoyi, tovush; *in the same* - shu ruxda, shu tarzda; *v.* (*stretch*) cho'zmoq, tortmoq; (*also sprain*) tortib uzib yubormoq; (*phys., tech.*) zo'r berib ishga solmoq; (*filter*) suzmoq; (*also exert o.s.*) tarang qilmoq. **strained** *adj.* samimiy emas, sun'iy; zo'rma-zo'raki. **strainer** *n.* (*tea* -) g'alvir (*choynakda shamani ushlab qolish uchun*); (*filter*) filtr, suzgich; (*sieve*) elak.

**strain<sup>2</sup>** [streɪn] *n.* (*breed*) zot, nasl; (*hereditary trait*) irsiy xususiyat.

**strait(s)** [streɪt] *n.* (*geog.*) bo'g'oz. **straiten** *v.* cheklamoq, chegaralamoq. **straitened** *adj.* *in* - *circumstances* lang ahvolda. **strait-jacket** *n.* bo'ysundiruvchi ko'ylak (*jinnitarga jazavasi tulganda kiydiriladigan, qimirlashga yo'l qo'ymaydigan maxsus ko'ylak*). **strait-laced** *adj.* puritanlarcha, porsolarcha, sipolarcha. **straita** *n.* (*difficulties*) mushkul ahvol.

**strand<sup>1</sup>** [strænd] *n.* (*hair, rope*) tutam, kokil; (*thread, also fig.*) kalavaning uchi.

**strand**<sup>2</sup> [strænd] *n.* (of sea etc.)

qirg'oq; *v.* sayozlikka o'tkazmoq.

**stranded** *adj.* (*fig.*) mablag'siz qolgan.

**strange** [streɪndʒ] *adj.* g'alati; (*un-*

*familiar*) notanish; (*alien*) be-

gona. **strangely** *adv.* ajab, qiziq.

**strange-ness** *n.* g'alalilik.

**stranger** *n.* notanish kim-

sa; nomi'lum odam; begona

shaxs.

**strangle** ['stræŋg(ə)] *v.* bo'g'-

moq. **stranglehold** *n.* xippa bo'-

g'ish, tomog'idan olish. **stran-**

**gulate** *v.* qismoq, siqmoq. **stran-**

**gulation** *n.* (*strangling*) gaz bi-

lan zaharlab o'ldirish; (*strangu-*

*lating*) qisilish.

**strap** [stræp] *n.* kamar, *v.* (*tie up*)

kamar yordamida bog'lamoq.

**strapping** *adj.* bo'ydor, baquv-

val.

**stratagem** ['strætədʒem] *n.* ay-

yorik. **strategic** [stra'ti:ʒɪk] *adj.*

strategiya ..., strategik. **strate-**

**glat** *n.* strateg, mohir lashkar-

boshi. **strategy** *n.* strategiya

(siyosiy va ijtimoiy kurashlarga

boshchilik qilish san'ati).

**stratification** [strætɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n.*

qatlamlarga ajralish. **stratified**

['strætɪfaɪd] *adj.* qatlam-qatlam.

**'stratosphere** *n.* stratosfera

(dengiz sathidan 9-11 kilometr

yuqoridagi atmosfera qatlami).

**stratum** ['strɑ:təm, streɪ-] *n.*

qalam, qaval

**straw** [stro:] *n.* poxol; (*drinking*)

cho'p (*suyuqlik ichishda foydala-*

*nladigan ichi tashik cho'p*); **the**

**last** ~ so'nggi poxol, oxirgi tom-

chi (*ko'chma ma'noda*); *adj.*

poxoldan qilingan.

**strawberry** ['stro:berɪ] *n.* qulup-

nay; (*wild* ~) yovvoyi qulupnay;

*adj.* qulupnayli; yovvoyi qulup-

nayli.

**stray** [sɪrə] *v.* adashmoq; (*roam*)

daydimoq; (*digress*) chetlash-

moq; *adj.* (*lost*) adashib qolgan;

(*homeless*) uysiz; *n.* (*wolf*) na-

zoratsiz; (*from flock*) podasidan

adashgan hayvon; ~ bullet day-

di o'q.

**streak** [stri:k] *n.* omad pallasi;

xususiyat, fazilat (*lightening*)

yonish; *v.* yozib (chizib) ola-

bula qilib tashlamoq; (*rush*)

g'izillab o'tib ketmoq. **streaked**

*adj.* chiziqdari, laramlari bor.

**streaky** *adj.* yo'l-yo'l; (*meat*)

yog'li (*go'sht haqida*).

**stream** [stri:m] *n.* (*brook, tears*)

soy, anhor; daryoday; (*brook,*

*flood, tears, people etc.*) oqim;

duv-duv oqish (*ko'z yash*); **up/**

**down** ~ oqim bo'ylab yuqoriga/

pastga; **with/against the** ~ oqim

bo'ylab, oqimga qarshi; *v.* oq-

moq; tirqirab oqmoq; (*rush*)

- g'zillab o'tib ketmoq; (*blow*) hilplitamoq, uchmoq. **streamer** *n.* vimpel (*beflashayotgan jamoalar bir-biri bilan almashadigan uch-burchak bayroqcha*). **streamlined** *adj.* yurganda havoning qarshiligiga kamroq uchraydigan ahakida yasaigan samolyot, avtomobil; (*fig.*) yaxshi yo'lga qo'yilgan.
- street** [stri:t] *n.* ko'cha; *adj.* ko'cha ..., ko'chaga oid; - lamp ko'cha chirog'i.
- strength** [streŋθ, streŋkθ] *n.* quvvatlilik, bardamlilik, quvvat, kuch; (*numbers*) son, adad, ko'plik, miqdor; *In full* - to'liq tarkibda. **strengthen** *v.* kuchaytirmoq; mustahkamlamoq. **strengthening** *n.* kuchaytirish, mustahkamlash, mahkamlash.
- strenuous** ['strenjuəs] *adj.* kuchni talab qiladigan, g'ayratli.
- stress** [stres] *n.* (*pressure, fig.*) bosim; (*tech.*) kuchlanish; (*emphasis*) urg'u; *v.* urg'u bermoq; ta'kidlab o'lmoq.
- stretch** [stre:tʃ] *n.* (*expanse*) masofa, uzunlik, bo'y; *at a ~ (in succession)* qatorasiga. (*widen, spread out*) cho'zilmoq, cho'zmoq; (*in length, - out limbs*) uzaytirmoq; (*tauten, e.g. bow*) tortmoq; (*extend, e.g. rope, - forth limbs*) uzatmoq; *v.* (*mate-*
**trough** [trof] *n.* (*for food*) oxur, log'ora; (*gutter*) tarnov.

**trounce** [traons] *v.* (*beat*) urmoq; (*punish*) qatliq jazolamoq; (*scold*) qatliq koylmoq.

**troupe** [tru:p] *n.* truppa (*teatr yoki sirk artistlari to'dasi*).

**trouser-leg** ['trauza(r)] *n.* ishton.

**trousers** *n.* shim, ishton. **trouser-suit** *n.* kostyum-shim.

**trousseau** [tru:səu] *n.* sep, sarpo.

**trout** [traut] *n.* gulmohi (*balıq*).

**trowel** [trauel] *n.* (*for plastering etc.*) kuraKcha; (*garden -*) bog'cha xokandozi.

**truancy** ['tru:ənsı] *n.* darslarni, ishni sababsiz qoldirish. **truant** *n.* darslarni sababsiz qoldiradigan o'quvchi; **play -** darsni sababsiz qoldirmoq; *adj.* bekorchi.

**truce** [tru:s] *n.* yarash, vaqlinchalik sulh; (*respite*) nafasni rostlash.

**truck**<sup>1</sup> [trak] *n.*: have no ~ with

o'zini olib qochmoq.

**truck**<sup>2</sup> [trak] *n.* (*lorry*) yuk mashinasi; (*rail.*) vagon-platforma, ochiq platformali vagon.

**truckle** ['trak(ə)] *v.* xushomadgo'ylik qilmoq.

**truculence** [trakjələns] *n.* vahshiylik. **truculent** *adj.* vahshiy.

**trudge** [tradʒ] *n.* charchatadigan sayr; *v.* arang sudralmoq.

**true** [tru:] *adj.* (*faithful, correct*) aniq; (*correct*) to'g'ri; (*genuine*) asl; (*exact*) to'ppa-to'g'ri; **come -** amalga oshmoq. **true-to-life** *adj.* realistik.

**truffle** ['trʌf(ə)] *n.* tryufel (*shokolad konfelining bir turi*).

**truism** ['tru:ɪz(ə)m] *n.* hammaga ma'lum bo'lgan haqiqat. **truly** *adv.* (*sincerely*) samimiy; (*faithfully*) chin; (*really, indeed*) haqiqatdan ham, chindan ham; (*accurately*) aniq; **yours -** Sizga sodiq.

**trump** [trʌmp] *n.* zot (*qarta o'yini*); *v.* zot lashlamoq; zot bilan urmoq; ~ up to'qib chiqarmoq; uyushtirmoq.

**trumpety** *n.* qalbaki, soxta narsa; (*rubbish*) eski-tuski, hech narsaga arzimaydigan.

**trumpet** ['trʌmpɪt] *n.* truba (*kar-naysimon musiqa asbabi*); (*elephant*) bo'kirmoq; *v.* (*proclaim*) ovoza qilmoq. **trumpeter** *n.* tru-

ba chaluvchi.

**truncate** [trʌŋ'kɛst, 'trʌŋ-] *v.* kesib qisqartirmoq; (*cut top off*) lepa qismini kesib tashlamoq; (*abbreviate*) qisqartirmoq.

**truncheon** [trʌŋtʃ(ə)n] *n.* (*police*) so'yil; (*staff, baton*) aso, jez. haasa.

**trundle** [trʌnd(ə)l] *v.* uch(ir)moq.

**trunk** [trʌŋk] *n.* (*stem*) tana, poya; (*anat.*) gavda; (*elephant's*) xarlum; (*box*) sandiq; (*swimming*) plavki (*suzganda kiyiladigan katta, tor trusik*); (*boxing etc.*) trusik; ~ *line* magistral tarmog'i; ~ *road* magistral (asosiy) yo'l.

**truss** [tras] *n.* (*girder*) xoda, to'sin; (*med.*) qullab, churraxalta; (*sheath, bunch*) bog'lama; *v.* (*lie up*), *bird* bog'lamoq; (*reinforce*) mustahkamlamoq.

**trust** [trʌst] *n.* ishonch, e'tiqod; (*body of -ees*) vasiylik; (*property held in ~*) ishonarli xususiy mulk; (*econ.*) trest (*tashkilot*); (*credit*) kredit, qarz; (*responsibility*) mas'uliyat; **breach of ~** suliste'mol qilmoq; **on - (credit)** qarzga: **take on ~** ishonib qabul qilmoq; *v.* ishonmoq; (*entrust*) (*object*) ishonib topshirmoq; (*a secret etc.*) sirtarini ishonmoq; (*hope*) umid qilmoq. **trustee** *n.* vasiy. **trustful, trusting** *adj.*

ishonuvchan. **trustiness** *n.* sodiqlik; (*reliability*) ishonchlilik. **trustworthy, trusty** *adj.* ishonchli, sodiq.

**truth** [tru:θ] *n.* haqiqat, rost; **tell the -** haqiqatni gapirmoq; **to tell you the ~** rostini aytganda. **truthful** *adj.* rostgo'y.

**try** [traɪ] *n.* (*attempt*) urinish; (*test, trial*) sinov, namuna; *v.* (*taste; examine effectiveness of*) sinab ko'rmoq; (*test*) sinamoq; (*leg.*) sud qilmoq; (*endeavour*) urinishmoq, harakat qilmoq; (*make an attempt*) urinmoq; ~ **on (clothes)** kiyib ko'rmoq. **trying** *adj.* og'ir; ( *tiresome*) jonga tegadigan.

**tsar** [zɑ:(r)] *n.* podshoh. **tsarina** [zɑ:'ri:nə] *n.* malika.

**T-shirt** ['ti:ʃɑ:t] *n.* tenniska (*qisqa yengli, yengil trikota*) ko'ylak.

**T-square** *n.* reyashina (*bir uchida ko'ndalang taxtachasi bo'lgan uzun lineyka*).

**tub** [tʌb] *n.* kadka (*yoni tik yog och bochka*), tog'ora.

**tuba** ['tju:be] *n.* tuba, tyubik.

**tubby** ['tʌbi] *adj.* semizgina.

**tube** ['tju:b] *n.* trubka, tuba, quvur; (*toothpaste etc.*) tyubik; (*underground*) metro; **cathode-ray** ~ elektron nurli trubka; **inner** ~ kamera.

**tuber** ['tju:be(r)] *n.* tugunak. **tu-**

- tubercular** [tju:'bɜ:kjule(r)] *adj.* silga oid. **tuberculosis** *n.* sil, sil kasalligi.
- tubing** [tju:'biŋ] *n.* quvurlar. **tubular** *adj.* quvurlar shaklidagi biron narsa.
- tuck** [tʌk] *n.* (in garment) lax, burma; *v.* (make ~s in) burma tikmoq; (thrust into, ~ away) tiqmoq; (hide away) yashirmoq; ~ in (shirt etc.) kirgizib qo'ymoq; ~ in, up (blanket, skirt) qistirib qo'ymoq; ~ up (sleeves) shimarmoq; (in bed) yopmoq; (hair etc. out of the way) yig'ib olmoq.
- Tuesday** [tju:zdeɪ, -di] *n.* seshanba.
- tuft** [tʌft] *n.* bog'lama. **tufted** *adj.* kokilchali.
- tug** [tʌg] *v.* (sharply) sug'urmoq, sug'urib olmoq; (pull) tortmoq; (tow) shataklamoq; *n.* keskin harakat bilan oldinga intilish; (tugboat) shataklangan kema; ~ of war erqonda tortib olish.
- tuition** [tju:'ʃj(ə)n] *n.* ta'lim.
- tulle** [tju:'lɪp] *n.* lola.
- tulle** [tju:'lɪ] *n.* tyul (nails to'r to'qima).
- tumble** [tʌmb(ə)] *v.* (fall) yiqilmoq; (go head over heels) o'mbaloq oshmoq; (rush headlong) otilmoq; (disarrange) ayqash-uyqash qilib tashlamoq; *n.* yiqilish; o'mbaloq oshish. **tumble-** down *adj.* chala buzilgan, vayrona bo'lgan. **tumbler** *n.* (acrobat) akrobat (murakkab mashqlarni bajaruvchi gimnastikachi yoki sirk artisti); (glass) stakan.
- tumour** [tju:'me(r)] *n.* shish, g'urra.
- tumult** [tju:'mʌlt] *n.* (uproar) qiy-chuv, shovqin; (agitation) haya-jon. **tumultuous** [tju:'mʌltʃuəs] *adj.* sershovqin, shovqini zo'r.
- tumulus** [tju:'mjules] *n.* qadimgi go'r, go'r tepa.
- tuna** [tju:'nə] *n.* lules (okunlar oilasiga mansub yirik yirtqich baliq).
- tundra** [tʌndrə] *n.* tundra (mayda o'simliklar bilan qoplangan, qutb doirasi yaqinidagi keng dastlik).
- tune** [tju:'n] *n.* kuy, musiqa; in ~ ohangga moslangan, (of instrument) sozlangan; out of tune ohangga mos emas, falsh, (of instrument) nosoz bo'lgan, sozlanmagan; be in ~ with (fig.) uyg'unlashtirish; be out of ~ with (fig.) (thing) qashli homoq. teskarisiga harakat qilmoq; (person) kelisha olmaslik; call the ~ xo'jayinlik qilmoq; *v.* (instrument; radio) moslamoq; (engine etc.) boshqarmoq; (fig.) moslashtirmoq; ~ in radionl kerakli to'liqinga sozlamoq; ~ up asboblarni sozlamoq. **tuneful** *adj.* ohangdor,

- xushohang, uyg'un. **tuneless** *adj.* ohangdor emas, xushohang bo'lmagan. **tuner** *n.* sozlovchi.
- tungsten** [tʌŋst(ə)n] *n.* volfram (qattiq, erishi qiyin yaltiroq metall).
- tunic** [tju:nɪk] *n.* tunika (qadimgi Rimda: yengsiz, uzun kiyim); (of uniform) kitel (harbiy bichimdagi kamzi).
- tuning** [tju:nɪŋ] *n.* sozlash; (of engine) lo'g'dlash. **tuning-fork** *n.* kamerton (musiqa asbobining tovush chiqaruvchi moslamasi).
- tunnel** ['tʌn(ə)l] *n.* tunnel (yer yoki tog' tagidan o'tkazilgan yo'l); *v.* tunnel qurmoq.
- tunny** [tʌnɪ] *n.* lunas (okunlar oilasiga mansub yirik yirtqich baliq).
- turban** [tɜ:bən] *n.* salla, dastor.
- turbid** [tɜ:'bɪd] *adj.* xira; (fig.) tumanli.
- turbine** [tɜ:'baɪn] *n.* turbina (suv, bug', gaz kuchi bilan ishlaydigan dvigatel). **turbo-jet** *adj.* (n.) turboreaktiv (samolyot). **turbo-prop** *adj.* (n.) turbovintli (samolyot).
- turbot** [tɜ:'beɪ] *n.* tyurbo (kambalasimon baliq)
- turbulence** [tɜ:'bjʊləns] *n.* shiddat, jo'shib ketish; (tech.) girdobli harakat. **turbulent** *adj.* shiddatli, jo'shqin; (tech.) girdobli, gidobsimon.
- tureen** [tju:'eɪ:n, la-] *n.* sho'rva kassasi, sho'rva suzish uchun mo'ljallangan maxsus kosa.
- turf** [tɜ:f] *n.* chim, chimzor; the ~ (track) yugurish yo'lakchasi; (races) poyga; *v.* chim bosmoq.
- turgid** [tɜ:'dʒɪd] *adj.* (swollen) shishib ketgan; (pompous) gerdaygan, bosar-tusarini bilmagani, mag'rur.
- Turk** [tɜ:k] *n.* turk, turk ayoli. **Turkey** *n.* Turkiya.
- turkey** [tɜ:'ki] *n.* kurka; (dish) dudlangan kurka go'shti.
- Turkic** [tɜ:'kɪk] *adj.* Turkiyaga, turklarga oid, xos. **Turkish** *adj.* turkcha; ~ bath turk hammomlari; ~ delight rohatluqum (shirinlik turi).
- Turkmenistan** [tɜ:kmenɪ'stɑ:n] *n.* Turkmaniston. **Turkoman** *n.* turkman; *adj.* turkmancha.
- turmoll** [tɜ:'mɔɪl] *n.* (disorder) tartibsizlik; (uproar) to's-to'polon, shovqin.
- turn** [tɜ:n] *n.* (change of direction) burilish, o'zgarish; (revolution) aylanma; (service) xizmat; (change) o'zgarish; (one's - to do sth.) navbat; (character) fe'latvor; (circus, variety) chiqish; ~ of phrase ibora, gap tuzilishi; at every - har qadamda; by, in turn(s) navbatma-navbat; take a - for the worse yomon to-



monga o'zgar**moq**; *v.* (*handle, key, car around etc.*) bur**moq**; (*revolve, rotate*) aylantir**moq**; (*page on its face*) varaqla**moq**; (*direct*) yo'nalir**moq**; (*cause to become*) qil**moq**; (*on lathe*) charxla**moq**, qayra**moq**; - *s.o.'s head boshini aylantir**moq***; - *one's stomach: that ~ my stomach bundan ko'nglim ayniydi*; *v.* (*change direction*) yo'nalishni o'zgar**tir**moq; (*rotate*) aylan**moq**; (- *round*) buril**moq**; (*become*) bo'l**moq**; - *agalnat qarshi chiq**moq***; ~ *around see ~ round*; ~ *away (v.) o'gir(il)moq, teskari qara(t)moq*; - *back orqaga tisa**ril**moq*; (*bend back*) qayir**moq**; - *down (refuse) inkor et**moq***; (*collar*) shimar**moq**; (*make quieter*) pasayir**moq**; - *grey oqar**moq*** (*soch haqida*); ~ *in (hand back)* (qo'lni) orqaga qayir**moq**; (*so as to face inwards*) ichkariga qayir**moq**; - *inside out tashqariga ag'dar**moq***; - *into (change into)* aylan(tir)**moq**; (*street*) buril**moq**; - *off (light, radio etc.) o'chir**moq***; (*tap*) yop**moq**; (*branch off*) o'rab qo'y**moq**, o'rab ol**moq**; - *on (light, radio etc.) yoq**moq***; (*tap*) och**moq**; (*attack*) hujum qil**moq**; ~ *out (light etc.) see ~ off*; (*prove to be*) bo'l**moq**, bo'lib qol**moq**; (*drive out*) hay-

damoq; (*pockets*) burab chiqarib ol**moq**; (*be present*) kel**moq**; (*product*) chiqar**moq**; - *over (egg, page, on its face, roll over)* to'ntar(il)**moq**; (*hand over*) uzat**moq**, uzal**moq**; (*think about*) o'ylab ko'r**moq**; (*overturn*) to'ntar(il)**moq**; (*switch over*) boshqasiga qo'y**moq**, ol**moq**; - *pale rangi o'ch**moq***; - *red qizar**moq***; - *round (rotate; ~ one's back; ~ to face sth.) qayrilib qara**moq***; (- *to face*) qayril**moq**; qayiltir**moq**; - *sour achib qol**moq***; - *to murojaal qil**moq***; - *up (appear)* paydo bo'l**moq**; (*be found*) topil**moq**; (*shorten garment*) qayirib tik**moq**; (*crop up*) duch kelib qol**moq**, uchrab qol**moq**; (*bend up; stick up*) eg(il)**moq**, buk(il)**moq**; (*make louder*) lovushini balandlat**moq**; - *up one's nose burnini jiyir**moq***; - *upside down ag'dar-to'ntar qilib tashla**moq***.  
**turn-out** *n.* kelayotganlar soni.  
**turn-up** *n.* (on trousers etc.) qaylarma (*kiyimning qaytarilgan joyi*), yeng qaytarmasi.  
**turncoat** [tɜ:nkəʊt] *n.* renegal (*maslagidan qaytgan*), qochoq.  
**turner** [tɜ:nə(r)] *n.* charxchi (*yo'g'och va temimi charxlab yo'nuvchi usta*).  
**turning** [tɜ:nɪŋ] *n.* (road) burilish.  
**turning-point** *n.* burilish nuq-

- lasi.
- turnip [tʰɜ:nɪp] *n.* sholg'om.
- turnover [tʰɜ:n.əʊvə(r)] *n.* (*turning over*) ag'darish; (*econ.*) muomala, aylanish; (*fluctuation of manpower*) ishchi kuchining qo'nimsizligi; (*pie*) ichiga meva solingan yarim oy shakldagi pirog.
- turnpike [tʰɜ:npaɪk] *n.* (*toll gate*) zastava (yo'l solig'i olinadigan joy).
- turnstile [tʰɜ:nstɑɪl] *n.* turnikel (*kinsh-chiqish joylari* odamlarni bita-bita o'tkazish uchun o'maliladigan aylanma g'ov).
- turntable [tʰɜ:n'teɪbl̩] *n.* (*rail.*) aylanma doira (*paravozlar uchun*); (*of record player*) proigrivatel (*polofon plastinkasidan ovoz chiqaradigan moslama*), parrak.
- turpentine [tʰɜ:pən.taɪn] *n.* skipidar (o'kir hidli suyuq modda).
- turpitude [tʰɜ:pɪ.tʃu:d] *n.* pastkashlik, buzuqlik.
- turquoise [tʰɜ:kwoɪz, -kwɔ:z] *n.* (*material, stone*) feruza; *adj.* feruza ko'zli.
- turret [tʰʌnt] *n.* minoracha; (*gun*) qurol-aslaha minorasi.
- turtle [tʰɜ:l(ə)] *n.* (*dengiz*) loshbaqasi.
- turtle-dove [tʰɜ:l(ə)] *n.* qurraq, qumri.
- tuak [tʰʌk] *n.* biven (*sul emizuvchilarning yuqori jag'idagi pishiq*

- lishlari*), qoziq tish.
- tussle [tʰʌs(ə)] *n.* mushlashish; *v.* mushlashmoq.
- tut [tʰʌt] *inf.* eh, senil; ish, mashg'ulot.
- tutelage [tʃu:tʰɪldʒ] *n.* (*guardianship*) vasiylik; (*instruction*) o'qitish. tutelar(y) *adj.* vasiylik ..., vasiylikka oid. tutor *n.* (*private teacher*) shaxsiy o'qituvchi; (*coach*) repetitor; (*univ.*) guruh rahbari; (*primer*) darslik; (*mus. primer*) musiqa maktabi; *v.* (*instruct*) o'qitmoq; (*give lessons to*) dars bermoq; (*guide*) rahbarlik qilmoq. tutorial [tʃu:'to:riəl] *n.* maslahat, konsultatsiya, rahbar bilan uchrashuv.
- tutu [tʰu:tʰu:] *n.* (*ballet*) pachka (*raqqosa, balerinalar sahnada kiyadigan, juda yupqa matodan tikilgan qavat-qavat yubka*).
- TV *abbr.* (*of television*) TV, televidenie; (*set*) televizor; ~ addict televizor ishqibozi; closed-circuit - mahdud televidenie.
- twaddle [tʰwɒd(ə)] *n.* quruq gap, safсата.
- twang [tʰwæŋ] *n.* (*string*) tarang torning keskin tovushi; (*voice*) ping'illagan tovush, dimog'da gapirish, manqalanib gapirish; *v.* (*string*) jaranglamoq; (*voice*) ping'illamoq, dimog'da gapirmoq, manqalanib gapirmoq;

(*pluck*) barmoqlar bilan chalmoq.

**tweak** [twi:k] *n.* chimchilash; *v.* chimchilamoq.

**tweed** [twi:d] *n.* tvid (*junli mato tur*).

**tweet** [twi:t] *n.* qushlarning sayrashi; *v.* sayramoq.

**tweezers** [twi:zɛz] *n.* pinset, qisqich.

**twelfth** [twelfθ] *adj.* & *n.* o'n ikkinchi; (*fraction*) o'n ikkinchi qism; (*date*) o'n ikkinchi sana; **T-Night** Cho'qintirish arafasi (*nasroniyar bayrami*). **twelve** *adj.* & *n.* soat o'n ikki; (*age*) o'n ikki yosh.

**twentieth** [twentiθ] *adj.* & *n.* yigirmanchi; (*fraction*) yigirmanchi qism; (*date*) yigirmanchi sana. **twenty** *adj.* & *n.* yigirma; (*age*) yigirma yosh; (*decade*) yigirmanchi yillar.

**twice** [twais] *adv.* (*2 times, on 2 occasions*) ikki marotaba; - *as* ikki karra, ikki boravar.

**twiddle** [twid(ə)] *v.* (*turn, twirl*) aylantirmoq; (*toy with*) o'ynamoq (*o'yinchoqni*); - *one's thumbs (fig.)* bekorchi bo'lmoq.

**twig** [twɪg] *n.* shoxcha, chiviq.

**twilight** ['twɔ:lait] *n.* g'ira-shira payl; (*decline*) pasayish. **twilit** *adj.* g'ira-shira paytdagi.

**twill** [twɪl] *n.* sarja (*bir xil astar-*

*top gazlama*).

**twinn** [twɪn] *n.* egizak, (*Gemini*) Egizaklar; - *beds* bir juft bitta odamga mo'ljallangan karavol; - *brother* egizaklarning to'ng'ichi; - *town* qardosh shahar; *v.* (*unite*) birlashtirmoq.

**twine** [twain] *n.* ingichka erqon, kanop ip; *v.* (*twist, weave*) o'rmoq; (- *round*) o'ramoq, chulg'amoq, chirmashmoq.

**twinn-engined** [twɪn'endʒɪnd] *adj.* ikki motorli.

**twinge** [twɪndʒ] *n.* xuruj (*og'riq*), qattiq og'riq; (*of conscience*) azob.

**twinkle** [twɪŋk(ə)] *n.* mitillash; (*of eyes*) cho'g' (*ko'zlardagi*); *v.* mitillamoq, yarqiramoq. **twinkling** *n.* mitillash; *in the - of an eye* bir lahzada.

**twirl** [twɜ:l] *n.* aylanish, buralish; ijjima, gajak (*imlada*); *v.* (*twist, turn*) aylan(lir)moq.

**twist** [twɪst] *n.* (*band*) bukiklik, buralish; (-*ing*) buralish; (*distortion*) buzib ko'rsatish, noto'g'ri tushunilish; (*sprain*) suyak chiqishi; (*dance*) twist (*raqs*); (*characteristic*) xarakterli xususiyat; *v.* burab bog'lamoq, burab pishitmoq; (*distort*) buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri tushuntirmoq; (*sprain*) suyakni chiqarmoq; (*bend, curve*) qayrilmoq; (*climb,*

- meander, twine*) chirmalmoq, chirmashmoq, parvona bo'lmog o'ralmoq. **twisted** *adj.* (*bent, distorted*) qiyshaygan, qing'ir-qiyshiq. **twister** *n.* yoig'onchi.
- twit** [twɪt] *n.* ahmoq, tentak.
- twitch** [twɪtʃ] *n.* (*-ing, jerk*) titrash, uchish, pipirash; (*spasm*) lomir tortilish; *v.* titramoq, qaltiramoq, uchmoq.
- twitter** [ˈtwɪtə(r)] *n.* chirillash, chirqillash, g'ujurlash, chug'ur-chug'ur qilish; *v.* chirqillamoq, chirq-chirq qilmoq, chug'illamoq, chug'ur-chug'ur qilmoq.
- two** [tu:] *adj. & n.* ikki; (*collect.*; *2 pairs*) ikkita, ikki juft; (*cards, number 2*) ikkinchi (*raqam*); (*time*) ikki (*soat*); (*age*) ikki yosh; - *times* ikki marta; - *times four* ikki karra to'rt; In - (*in half*) ikkiga bo'lingan, yarimta. **two-dimensional** *adj.* ikki o'lchamli.
- two-edged** *adj.* har ikki tomonga tegadigan, har ikki tomon uchun xavfli bo'lgan (*also fig.*); (*ambiguous*) ikki ma'noli. **two-fold** *adj.* ikki hissa; *adv.* ikki hissa qilib. **two-seater** *n.* ikki o'rindikli (*avtomobil*).
- twosome** *n.* juft.
- two-stroke** *adj.* ikki taktili.
- two-way** *adj.* ikki tomonli.
- tycoon** [taɪˈkuːn] *n.* magnat (*katla mulk egasi*).
- tympanum** [ˈtɪmpənəm] *n.* (*anat.*) quloq pardasi.
- type** [taɪp] *n.* (*var. senses*) xil, nusxa, tip; (*model*) o'ziga xos namuna; (*sort, kind*) nav, xil; (*letter*) lifera (*bosmaxonalarda teriladigan harf yoki belgilarning qolipi*); (*collect.*) shrift, harf turi; **true to** - lipga xos, xarakterli; o'ziga xos; *v.* mashinkada yozish. **typescript** *n.* mashinkada yozish, yozuv. **typewriter** *n.* yozuv mashinasi. **typewritten** *adj.* yozuv mashinkasida, kompyuterda va h.k. yozilgan, terilgan.
- typhoid fever** [ˈtaɪfɔɪd] *n.* ich terlama (*kasallik*).
- typhoon** [taɪˈfuːn] *n.* layfun (*ko'proq Tinch okeanining g'arbiy qismida, Sharqiy va Janubiy Osiyoda bo'ladigan kuchli to'fon*).
- typhus** [ˈtaɪfəs] *n.* tepkili terlama (*kasallik*).
- typical** [ˈtɪpɪk(ə)l] *adj.* o'ziga xos; xarakterli. **typify** [ˈtɪpɪfaɪ] *v.* tipik namuna bo'lmog; (*personify*) gavdalantirmog, ifodalamoq.
- typist** [ˈtaɪpɪst] *n.* yozuv mashinasida ishlovchi ayol.
- typographical** [ˈtɪpəˈgræfɪk(ə)l] *adj.* tipografiyaga, bosmaxonaga oid. **typography** *n.* kitob bosish, chop qilish; (*style*) bezatish.
- tyrannical** [ˈtɪrənɪk(ə)l] *adj.* zulm

qiladigan, jabraydigan, qiynaydigan, zolimlik qiladigan. **tyrannize** ['tɪrən.aɪz] *v.* azobla(n)moq, qlyna(l)moq. **tyrant** ['taɪrənt] *n.* zolim, mustabid.

**tyre** ['laɪə(r)] *n.* shina (*g'ildirakka klydirilgan temir yoki rezina chamber*).

## U

**U-boat** ['ju:bəʊt] *n.* nemis suv osti kemasi.

**ubiquitous** ['ju:'bɪkwɪtəs] *adj.* har yerda hozir, hech qaerdan qolmaydigan, har narsaga aralashuvchi.

**udder** ['ʌdə(r)] *n.* yelin.

**UFO** *abbr. (of unidentified flying object)* NUJ, nomalun uchuvchi jism.

**ugh** [əx, ʌg, ʌx] *int.* tful

**ugliness** ['ʌglɪnəs] *n.* xunuklik, badbasharalik, badburushlik. **ugly** *adj.* xunuk, badbashara, badburush; (*unpleasant*) ko'ngilsiz, yoqimsiz, xunuk, yomon; (*repulsive*) jirkanch, nafratli, yaramas; - **duckling** (*fig.*) jirkanch o'rdakcha.

**UK** *abbr. (of United Kingdom)* Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya);

*adj.* (buyuk)britaniyalik.

**Ukraine** [ju:'kreɪn] *n.* Ukraina.

**Ukrainian** *n.* ukrainalik; *adj.*

Ukraina va ukrainlarga oid (xos).

**ukulele** [ju:'kuleɪlɪ] *n.* gavaya gitarasi.

**ulcer** ['ʌlsə(r)] *n.* yara, jarohat.

**ulcerate** *v.* bil(dir)moq, bayon

qil(lin)moq. **ulcered**, **ulcerous**

*adj.* yaraga oid, yarali, yara bosgan.

**ulna** [ʌlnə] *n.* tirsak suyagi.

**ulterior** [ʌltɪəriə(r)] *adj.* yashirin,

maxfiy, pinhona, sirli.

**ultimate** ['ʌltɪmət] *adj.* (*final*)

so'nggi, oxirgi, keyingi; (*fundamental*)

asosiy, bosh, tub. **ultimately** *adv.*

pirovardda, oxirida,

oxir-oqibat, xullas. **ultimatum**

[ʌltɪ'metəm] *n.* ultimatum (*bir*

*davlatning ikkinchi davlatga*

*qo'ygan talabi*).

**ultra-** [ʌltrə] *in comb.* o'lakelgan,

o'la ma'nosida keladigan qo'shma

so'zlarning birinchi qismi;

g'oyat, juda ham.

**ultramarine** [ʌltrə'maɪn:n] *n.* ultra-

marin (to'q ko'k, zangari bo'yoc);

*adj.* ultramaringa oid, xos. **ultra-**

**violet** [ʌltrə'vaɪələt] *adj.* ul-

trafiiolet.

**umbilical** [ʌm'bɪlɪk(ə)l, ʌm'bɪ-

'laɪk(ə)] *adj.* kindik ..., kindikka

oid; - **cord** kindik, kesilmagan

kindik.

**umbrage** *n.* ozor, alam, ranj, xalalik; take - ranjimoq, ozor topmoq, xala bo'lmoq, alam chekmoq.

**umbrella** [ʌmˈbrɛlə] *n.* zont, kichik soyabon; - stand soyabon uchun tirgak.

**umpire** [ʌmpaɪə(r)] *n.* sudya, qozi, hakam; *v.* sud qil(in)moq.

**UN** *abbr.* (of *United Nations Organization*): the ~ BMT, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

**unabashed** [ʌnəˈbæʃt] *adj.* saro-simaga luhmagan, dovdiramagan; hech qanday xijolat lormagan. **unabated** *adj.* bo'shashmagan, quvvatsizlanmagan. **unable** *adj.*: be - to qila olmaslik. **unabridged** *adj.* qisqartirilmagan, qisqartirishsiz. **unaccompanied** *adj.* hamrohsiz; (*mus.*) jo'rtiksiz. **unaccountable** *adj.* (*inexplicable*) bayon qilib bo'lmaydigan, tushunib bo'lmaydigan, tushuntirib bo'lmaydigan. **unaccustomed** *adj.* odatlanmagan, o'rganilmagan, odat qilinmagan, ko'nikilmagan. **undulterated** *adj.* hozirgi, shu vaqtdagi, shu kungi; soxtalashtirilmagan, buzib ko'rsatilmagan. **unaffected** *adj.* samimiy, soddil, soddadil, sodiq, ochiq (*chln*) ko'ngilli; (*not affected*) shikastlanmagan, zarar tegmagan,

buzilmagan. **unaided** *adj.* yordamdan mahrum; birovning yordamsiz, mustaqill. **unalloyed** *adj.* cheksiz, sardadsiz, lo'nda. **unalterable** *adj.* o'zgar-maydigan, o'zgarmas, doimiy. **unambiguous** *adj.* aniq, tushunarli, lo'nda.

**unanimity** [juːnəˈnɪmɪti] *n.* yakdillik, birdamlik, hamjihatlik. **unanimous** [juːˈnænɪməs] *adj.* yakdillik, birdamlik bilan qilingan.

**unanswerable** *adj.* (*irrefutable*) rad (*inkor*) qilib bo'lmaydigan. **unapproachable** *adj.* yaqin borib bo'lmaydigan, erishib bo'lmaydigan; (*unmatched*) tengi yo'q, tengsiz, bemsol. **unarmed** *adj.* qurol-yarog'siz, aslahasiz. **unashamed** *adj.* nomussiz, uyatsiz, insofsiz, vijdotsiz. **unasked** *adj.* ko'ngilli, ixtiyoriy. **unassailable** *adj.* qo'l yetmaydigan, yetishib bo'lmaydigan; (*irrefutable*) rad (*inkor*) qilib bo'lmaydigan. **unassuming** *adj.* kamtar, kamsuqim, odobli, qanoatli. **unattainable** *adj.* erishib bo'lmaydigan, yetishib bo'lmaydigan. **unattended** *adj.* (*unaccompanied*) jo'r bo'lib bo'lmaydigan, birga borib bo'lmaydigan. **unattractive** *adj.* yoqimsiz, jozibasiz, xunuk. **unauthorized**

*adj.* hal etilmagan, bir yoqli qi-  
linmagan; (*person*) haqqi (hu-  
quqi) yo'q. *unavailable adj.* hozir  
bo'lmagan, bor bo'lmagan; yaqi-  
niga borib bo'lmaydigan, qim-  
mat; *be* ~ naqd bo'lmalik. *un-  
availing adj.* befoyda, behuda.  
*un-avoidable adj.* muqarrar, tur-  
gan gap. *unaware pred.: be* ~  
of anglamaslik, tushunmaslik,  
bilmaslik. *unaware adv.* to'-  
saldan, birdaniga, bexosdan;  
qo'qqisdan. *unbalance v.*  
(*psych.*) ruhiy xotirjamlikni  
(tinchlikni) yo'qolmoq. *unbalan-  
ced adj.* (*psych.*) tuturiqsiz, be-  
layin. *unbearable adj.* chidab  
(toqat qilib) bo'lmaydigan, juda  
og'ir. *unbeatable adj.* (*unsur-  
passable*) eng mukammal, eng  
yaxshi bo'la olmagan; (*invin-  
cible*) yengilmas. *unbeaten adj.*  
(*unsurpassed*) lengi bo'lmagan,  
mislisiz. *unbecoming adj.* (*inap-  
propriate*) nobop, nomuvofiq,  
noloyiq; (*unseemly*) odobsiz,  
chakki, nojo'ya; *be* ~ yarash-  
maslik. *unbelief n.* ishonmas-  
lik, umidsizlik. *unbelievable adj.*  
aqlga to'g'ri kelmaydigan, aql-  
ga sig'maydigan. *unbeliever n.*  
dahriy, xudoga, dinga ishon-  
maydigan. *unbend v.* (*straight-  
en*) to'g'ri(n)moq, rosila(n)-  
moq; qaddini tikla(t)moq; *v.* (*be-*

*come affable*) xushmuomala  
bo'lmoq. *unbending adj.* mato-  
nalli, mahkam, sabotil, qat'iy.  
*unbias(s)ed adj.* betaraf, odil,  
xolis. *unblemished adj.* dog'  
tegmagan, benuqson, aybsiz.  
*unblushing adj.* uyatsiz, hayo-  
siz, beor, beadab, surbet. *un-  
bolt v.* ochmoq. *unborn adj.* hali  
tug'ilmagan. *unbosom v.:* ~  
o.s. dardini lo'kmoq, dilidagini  
ochmoq, yuragini bo'shatmoq.  
*unbound adj.* (*free*) ozod, er-  
kin, hur; (*book*) muqovalanma-  
gan, muqova qilinmagan. *un-  
bounded adj.* (*not limited*) chek-  
lanmagan, cheksiz; (*joy*) be-  
had; (*infinite*) chagarasiz, be-  
poyon. *unbreakable adj.* sin-  
maydigan. *unbridled adj.*  
sulug'i chiqarigan (*of*). *unbro-  
ken adj.* (*intact*) sinmagan, bu-  
tun; (*continuous*) uzluksiz, mut-  
tasil, to'xtovsiz; (*horse*) minil-  
magan, minib o'rgatilmagan.  
*unbuckle v.* tugmani yechmoq,  
bog'ichni yechmoq, ilgagini chi-  
qarmoq. *unburden v.:* ~ o.s.  
dardlashib (hasratlashib) ko'ngil  
yozmoq, yuragini bo'shatmoq.  
*unbutton v.* lugmani yechmoq,  
bog'ichni yechmoq, ilgagini chi-  
qarmoq.

*uncalled-for* [An'ko:ldfo:(r)] *adj.*  
o'rinsiz, chakki, nojo'ya, noma'-

qul. **uncanny** *adj.* g'ayritabiiy, odatdan tashqari. **uncared-for** *adj.* tashlandiq. **unceasing** *adj.* uzluksiz, muftasil, to'xtovsiz. **unceremonious** *adj.* takallufsiz, adabsiz; dag'al, qo'pol. **uncertain** *adj.* (*not certainly known*) aniqligi ma'lum emas, noaniq; (*indecisive, hesitating*) ishonmaydigan, qal'iyatsiz, ikkilanuvchi; (*changeable*) o'zgaruvchan, beqaror; **be ~** (*not know for certain*) aniq bilmalik. **uncertainty** *n.* noma'lumlik; ikkilanish; o'zgaruvchanlik, beqarorlik. **unchain** *v.* zanjirdan yechib yubormoq; kishandan bo'shalmoq. **unchallenged** *adj.* e'tiroz bildirmaydigan. **unchangeable** *adj.* o'zgarmaydigan, doim bir holda bo'ladigan. **unchanged** *adj.* o'zgarmas, doimiy, hamishagi. **uncharacteristic** *adj.* xos emas, xos bo'lmagan. **uncharitable** *adj.* rahmsiz, shalqatsiz, beg'ritosh, loshko'ngil. **uncharted** *adj.* (*fig.*) tekshirilmagan, o'rganilmagan. **unchecked** *adj.* (*unrestrained*) o'zboshimcha, tiyib bo'lmaydigan. **uncivil** *adj.* qo'pol, to'ng, dag'al, qo'rs. **uncivilized** *adj.* madaniyatsiz. **unclaimed** *adj.* talab qilib olinmagan. **unclassified** *adj.* klassifikatsiya qilinmagan, taanif-

lanmagan, turkumlanmagan; (*not secret*) nomaxfiy, sir lutilmagan.

**uncle** [ʌŋk(ə)] *n.* to'g'a, amaki. **unclean** [ʌn'kli:n] *adj.* (*not clean; bibl. of food*) nopok, kir, iflos; harom. **unclear** *adj.* noaniq, tushunib bo'lmaydigan. **uncoll** *v.* chuvatmoq, chuvaimoq, yoz-(il)moq, tort(il)moq. **uncomfortable** *adj.* o'ng'aysiz, noqulay, nobop, noo'rin; (*awkward*) beso'naqay, qo'pol, qovushmagan, o'ng'aysiz. **uncommon** *adj.* (*unusual, remarkable*) odatdan tashqari, favqulodda, juda yaxshi, ajoyib, juda go'zal, hayron qoldiradigan; (*rare*) nodir, kamyob, kamdan-kam uchraydigan. **uncommunicative** *adj.* kamgap, indamas. **uncomplaining** *adj.* indamas, sabrii. **uncompleted** *adj.* tugallanmagan, bilkazilmagan, chala, bitmagan. **uncomplimentary** *adj.* yaxshi emas, noma'qul topilgan. **uncompromising** *adj.* murosaga kelmaydigan, kelishib bo'lmaydigan; (*inflexible*) matonatli, mahkam, sabotli, qal'iy. **unconcealed** *adj.* maxfiy bo'lmagan, aniq, ochiq. **unconcern** *n.* (*freedom from anxiety*) beg'amlik, beparvolik; (*indifference*) e'tiborsizlik, loqaydlik,



ahamiyatsizlik. **unconcerned** *adj.* beg'am, beparvo; loqayd. **unconditional** *adj.* so'zsiz, e'tirozsiz. **unconfirmed** *adj.* tasdiqlanmagan, isbotlanmagan. **unconnected** *adj.* - with bog'lanmagan. **unconquerable** *adj.* yangilmaz. **unconscionable** *adj.* uyatsiz, betsiz; (*excessive*) chegarani bilmaydigan, haddan oshadigan. **unconscious** *adj.* (*also unintentional*) ong'siz, g'ayrishiuriy; *pred.* g'ayrishiuriylik; (*unintentional*) beixtiyor, ixtiyorsiz; *be - of* fahmlamaslik; *n.* ong osti. **unconsciousness** *n.* behushlik holali; g'ayrishiuriylik. **unconstitutional** *adj.* qomusga asoslanmagan, konstitutsion bo'lmagan. **unconstrained** *adj.* erkin, bemalol, bahuzur. **uncontrollable** *adj.* to'xtatib bo'lmaydigan, shiddatli, qattiq. **uncontrolled** *adj.* (*unbridled*) o'zboshimcha, boshvoqsiz, tlyib bo'lmaydigan. **unconventional** *adj.* noan'anaviy, g'ayrioddiy. **unconvincing** *adj.* ishonitrolmaydigan, ishonib bo'lmaydigan, asossiz. **uncooked** *adj.* xom, g'o'r, pishmagan, qaynamagan. **uncooperative** *adj.* ilkkatsiz, loyqayd, be'araf. **uncork** *v.* ochmoq, tiqini ni chiqarib olmoq. **uncouple** *v.*

bir-blridan ajratmoq, ulovdan ochib yubarmoq. **uncouth** [ʌn'ku:θ] *adj.* qo'rs, qo'pol, dag'al. **uncover** *v.* (*remove cover from*) qopqoqni ochmoq; (*reveal*) ochmoq, ochib yubarmoq, ochib qo'ymoq; (*disclose*) oshkor (fosh) qilmoq. **uncovered** *adj.* yopilnagan, ochiq, ochilgan. **uncritical** *adj.* tanqidiy bo'lmagan.

**unction** [ʌŋkʃ(ə)n] *n.* (*ceremony*) taxtga minadigan podshoning peshonasiga cherkovda «muqaddas» yog' surish marosimi; (*process*) moy surtib singdirish, moy ishqab yedinish; (*ointment*) maz, surkaydigan dori, moy; (*balm*) mumiyo, zaytun yog'i (*nasroniylar ibodatxonalarida ishlatiladigan moy*); (*piety*) xudojo'ylik, dindorlik, namozxonlik. **unctuous** *adj.* yog'li, moyli.

**uncultivated** [ʌn'kʌlti'veɪtɪd] *adj.* (*land*) haydalmagan, ekilmagan; (*talent*) qoloq, iqtidorsiz; (*uncultured*) madaniyatsiz. **uncultured** *adj.* madaniyatsiz. **uncurl** *v.* rivojlan(tir)moq, taraqqiy etlimoq (qilmoq). **uncurl** *adj.* (*unabridged*) qisqartirilmagan, qisqartirishsiz.

**undamaged** [ʌn'dæmɪtɪdʒd] *adj.* shikastlanmagan, buzilmagan.

undaunted *adj.* qo'rqmas, dadil, botir, mard, dovyurak. *undecide* *v.* xato yo'ldan qaytarish, ko'zini ochmoq. *undecided* *adj.* (*not settled*) hal etilmagan, bir yoqli qilinmagan; (*irresolute*) qat'iyatsiz, lanj, jur'atsiz. *undemanding* *adj.* talabchan emas, ozga ko'nikadigan, qanoatli. *undemocratic* *adj.* xalqparvar emas, xalqchil bo'lmagan, antidemokratik. *undemonstrative* *adj.* o'zini tutar bilgan, og'ir, vazmin. *undeniable* *adj.* shakshubhasiz, aniq va ravshan. *under* [*ʌndə(r)*] *prep.* (*position*) tagiga, ostiga; (*direction*) ostida, -da, soyasida; (*less than*) ozroq, pastroq; (*according to*) bo'yicha, muvofiq, yuzasidan, qarab, binoan, ko'ra, bilan, -cha; (*in the reign, time of*) huzurida, qoshida, vaqtida, davrida, chog'ida, -da; ~ *repair* ta'mirda; *from* ~ ostidan, (lubidan, tagidan); *adv.* (*position*) ostda, pastda; (*direction*) pastga, lubanga; (*less*) ozroq; *adj.* pasikl, quyi; (*subordinate*) eng kichik. *underage* *adj.* vnyaga (baioq'alg) yetmagan, bo'yi yetmagan. *undercarriage* [*ʌndə,kæərɪdʒ*] *n.* shassi (*avtomobilning kuzovdan tashqari hamma qismi va mexanizmi*), *underclothes*, *under-*

*clothing* *n.* ichki kiyim, *undercoat* *n.* (*of paint*) gruntlash (*rasm solinadigan narsa ustiga bir karra bo'yoq surtib qotirish*), *undercover* *adj.* maxfiy, sirli, *undercurrent* *n.* suv osti oqimi; (*fig.*) yashirin moyillik, plihona intilish, *undercut* *v.* (*cut away*) kesmoq, qirqmoq; (*price*) narxlarni tushirmoq (pasaytirmoq), kamroq narxni belgilamoq *underdeveloped* *adj.* yetilmagan, o'smay qolgan, o'qada qolgan; (*phot.*) chala proyavka qilingan (*fotosurat*), *underdog* *n.* omadsiz.

*underdone* [*ʌndə'dʌn, 'ʌn-*] *adj.* yaxshi qovurilmagan, lobiga yetkazib pishirilmagan. *underemployment* *n.* ish bilan to'la band bo'lmalik, to'la mashg'ul bo'lmalik. *underestimate* *v.* yetari baho bermaslik, qadriga yetmaslik, kamsilmoq; *n.* kam baho berish, qadriga yetmaslik. *underexpose* *v.* yetaricha ush-lamaslik, tutib turmaslik *underfed* *adj.* yetari oziqlantirilmagan, to'la boqilmagan. *underfelt* *n.* gilamning birinchi qatlam bo'yog'i (grunli). *underfloor* *adj.* pol tagida joylashgan. *underfoot* *adv.* oyoq ostidagi. *undergarment* *n.* Ichki kiyim predmeti. *undergo* [*ʌndə'gəʊ*] *v.* duchor

bo'lmoq, uchramoq; (*endure*) boshdan kechimoq, chekmoq. **undergraduate** *n.* biror shadagi yosh (tajribasiz) odam. **underground** *n.* (*rail.*) metro (*shahar yer osti temir yo'li*); (*fig.*) yashirin (maxfiy) ish; *adj.* yer ostidagi, yer osti; (*fig.*) yashirin, maxfiy; *adv.* yer ostida, yer tagida; (*fig.*) yashirin tarzda, maxfiyona; *go* ~ maxfiy ishga kirmoq. **undergrowth** *n.* o'rmondagi butalar (*yelimagan daraxtlar*). **underhand** *adj.* yashirin, maxfiy. **underline** *v.* (*fig.*) biror narsaga asos bo'lmoq. **underline** *v.* ostiga (tagini) chizmoq; ta'kidlamoq, uqlirib o'lmoq. **underling** *n.* vazifasi jihatdan biror kishiga bo'ysunuvchi odam. **undermanned** [*Ande'mænd*] *adj.* ish kuchida tanqislikni sezayotgan. **undermentioned** *adj.* quyida eslatib o'tilgan. **undermine** *v.* biror joyning tagini kaviamoq; (*wash away*) tagidan yuvib ketmoq; (*authority*) zarar (ziyon, putur, shikast) yetkazmoq, yo'qotmoq, tushirmoq; (*health*) portlatmoq, qo'pormoq, vayron qilmoq. **underneath** [*Ande'nli:θ*] *adv.* (*position*) pastda; (*direction*) pastga; *prep.* (*position*) tagida, ostida, tublida; (*direction*) -da; *n.*

pastki qism; *adj.* pastki. **undernourished** *adj.* yetarli ozqinlanilirmagan (*ovqatlanilirmagan*); *be* ~ yarim och yurmoq, to'yib ovqat yemasdan yurmoq. **undernourishment** *n.* yarim ochlik.

**underpaid** [*Ande'peid*] *adj.* juda kam maosh to'lanadigan. **underpants** *n.* erkaklar kalta ishtonl. **underpass** *n.* tunnel (*yer yoki tog' tagidan o'tkazilgan yo'l*). **underpin** *v.* paydevor qurmoq. **underpopulated** *adj.* aholisi kam. **underprivileged** *adj.* huquqlari cheklangan; (*poor*) kambag'al, nochor. **underrate** *v.* qadriga yetmaslik, yetarli baho bermaslik. **undersecretary** *n.* vazir o'rinbosari.

**undersell** [*Ande'sel*] *v.* arzon sotmoq. **undersigned** *adj.* (*n.*) quyida qo'l qo'ygan, quyida imzo chekkan. **under-sized** *adj.* kichik o'lchamli, standart bo'lmagan; (*dwarfish*) kichkina, mittil, paka-na. **undershirt** *n.* ichki yubka. **understaffed** *adj.* ishchi kuchi bilan yetarlicha ta'minlanmagan.

**understand** [*Ande'stænd*] *v.* tushunmoq, anglamoq, fahmlamoq, payqamoq, bilib o'lmoq; (*have heard say*) eshitmoq, tinglamoq. **understandable** *adj.*

- tushunarli. **understanding** *n.* tushunish; (*intellect*) aql, fahm, zehn, idrok; (*mutual -*) hamfikrik, bir-birini tushunish; (*agreement*) bilim, shartnoma; (*harmony*) rozilik, unash; *adj.* (*sympathetic*) mehribon, shafqatli.
- understate** [ˌʌndəˈsteɪt] *v.* kichraytirib (kamaytirib) ko'rsatmoq.
- understatement** *n.* kichraytirish, kamaytirib ko'rsatish, ahamiyatsiz deb hisoblash.
- understudy** [ˌʌndəˈstʌdi] *n.* dublyor (*bir rolni ijro etishda artistga o'rinbosarlik qiluvchi ikkinchi artist*); *v.* rolni takrorlamoq.
- undertake** [ˌʌndəˈteɪk] *v.* (*engage in, enter upon*) ish boshlamoq, tashabbus qilmoq; (*responsibility*) o'ziga olmoq, o'z bo'yniga olmoq; va'da bermoq, majburiyat olmoq, so'z bermoq; (*guarantee*) kafil turmoq, ishonlirmoq. **'undertaker** *n.* tobutchi, tobutsoz.
- undertaking** *n.* boshlangan ish, tashabbus; (*obligation*) majburiyat, va'da.
- undertone** [ˌʌndəˈteʊn] *n.* (*half-tint*) nimrang, xira rang (*rasmda sekin-sekin balandlashib ketadigan ochiq rang*); (*nuance*) nozik farq, o'zgalik; **speak in -** sekin gapirmoq, yarim ohangda gapirmoq, pichirlamoq.
- undertow** *n.* chuqurlikdagi oqim,

- suv osti oqimi. **underwater** *adj.* suv ostidagi, suv tagida yuradigan. **underwear** *n.* ichki kiyim.
- underworld** *n.* (*myth.*) jahannam, do'zax; (*criminals*) jinoyat olami. **underwrite** *v.* (*sign*) qo'l qo'yimoq, imzo chekmoq; (*accept liability for*) tavakkaliga o'z bo'yniga olmoq; (*guarantee*) kafil bo'lmoq. **underwriter** *n.* yoziluvchi, obunachi; sug'urta qiluvchi kishi yoki idora.
- undeserved** [ˌʌndɪˈzɜːvd] *adj.* o'rinsiz, asossiz, noloyiq, nohaq. **undeserving** *adj.* arzimaydigan, noloyiq. **undesirable** *adj.* yoqmaydigan, yoqimsiz, o'rinsiz, chakki; *n.* yoqimsiz bashara. **undeveloped** *adj.* rivojlanmagan, taraqqiy elmagan; (*land*) ishlov berilmagan. **undignified** *adj.* noloyiq, nomunosib, arzimaydigan. **undiluted** *adj.* suyultirilmagan, suv qo'shilmagan. **undisciplined** *adj.* intizomsiz, bebosh. **undiscovered** *adj.* ochilmagan, yopiq; (*unknown*) noma'lum. **undiscriminating** *adj.* billib bo'lmaydigan, tanib bo'lmaydigan. **undisguised** *adj.* ochiq, ochilgan, ochiq ko'rinib turgan. **undismayed** *adj.* cho'chimaydigan, qo'rqmaydigan, dahshatga tushmaydigan. **undisputed** *adj.* shubhasiz, aniq,

ravshan. **undistinguished** *adj.* mashhur emas, atoqli bo'lmagan. **undisturbed** *adj.* (*untouched*) tegilmagan; (*peaceful*) tinch, yuvosh; (*peaceful*) hamma narsa joyida. **undivided** *adj.* (*unanimous*) yakdillik (birdamlik) bilan qilingan; *give* - *attention* bor kuchini bag'ishlamoq. **undo** *v.* (*open*) ochmoq; (*untie*) yechmoq; (*unbutton, unhook, unbuckle*) tugmani yechmoq, bag'ichni yechmoq, ilgagini chiqarmoq; (*destroy, cancel*) yo'q qilmoq, yo'q qilib yubormoq, mahv qilmoq; (*be the ~ing of*) nobud qilmoq, halok etmoq, zarar yetkazmoq. **undoing** *n.* (*ruin, downfall*) halokat; (*destruction*) yo'q qilish, yo'qotish, bitirish, barbod qilish. **undoubted** *adj.* shubhasiz, shaksiz. **undoubtedly** *adv.* albatta. **undress** *v.* yechin(tir)moq. **undrinkable** *adj.* ichishga yaroqsiz, ichib bo'lmaydigan. **undue** *adj.* haddan tashqari, haddan ortiq, juda, juda ham. **unduly** *adv.* haddan ortiq.

**undulate** [*ʌndjʊ,leɪt*] *v.* mav] urmoq, to'qinlanmoq. **undulating** *adj.* to'qinli; laram-laram, jingalak. **undulation** *n.* to'qinlilik; jingalaklik; (*motion*) to'qinsimon harakat.

**undying** [*ʌn'daɪɪŋ*] *adj.* (*eternal*) mangu, abadiy.

**unearned** [*ʌn'a:nd*] *adj.* ishlov berilmagan, ishlab layyorlanmagan; (*undeserved*) o'rinsez, asossiz, noloyiq, nohaq; - *income* mehnatsiz daromad. **unearth** *v.* (*dig up*) yerdan qazib chiqarmoq; (*fox etc.*) indan quvib chiqarmoq; (*fig.*) qidirib topmoq, izlab topmoq. **unearthly** *adj.* g'aroyib, notabiiy; (*inconvenient*) juda noqulay. **uneasiness** *n.* (*anxiety*) vahima, tashvish, xavotir; (*awkwardness*) noqulaylik, o'ng'aysizlik, o'salilik. **uneasy** *adj.* xavotirli, tashvishli, hayajonli; noqulay, o'ng'aysiz. **uneatable** *adj.* yeb bo'lmaydigan. **uneconomic** *adj.* iqtisodiy jihatdan foydasiz. **uneconomical** *adj.* (*car etc.*) sarf-xarajati ko'p; (*person*) tejamkorlikni bilmaydigan. **uneducated** *adj.* ma'lumotsiz, ilmsiz, bilimsiz. **unemployed** *adj.* ishsiz; (*unoccupied*) bo'sh, xoli; (*unused*) ishlatilmagan, foydalanilmagan. **unemployment** *n.* ishsizlik; - *benefit* ishsizlik nafaqasi (yordam puli). **unending** *adj.* cheksiz, benihoya, bepoyon. **unenlightened** *adj.* o'qimagan, ma'rifatsiz; (*uninformed*) bexabar, bilmaydigan, xabarsiz. **unenterprising** *adj.* tashab-

buskor bo'lmagan, apchil, uddaburon emas, harakatsiz. **unenviable adj.** ko'rimsiz, xunuk. **unequal adj.** teng emas, baravar emas, tengsiz, nomutanosib; (*of - value*) qimmatli teng bo'lmagan; (*unjust*) haqqoniyatsiz, adolatsiz, nohaq; (*inadequate*) bab-barobar bo'lmagan, aynan o'xshamagan; ~ to -ga noloyiq. **unequaled adj.** tengi bo'lmagan, mislsiz, eng mukammal, eng yaxshi. **unequivocal adj.** muayyan, tayinli, to'ppa-to'g'ri, aniq, dangal. **unerring adj.** xaloiz, yanglishsiz. **uneven [ʌn'v(ə)n] adj.** notekis, past-baland, egri-bugri, g'adirbudir. **uneventful adj.** hodisalariga boy bo'lmagan, linch, osoyishta. **unexceptionable adj.** kam-ko'atsiz, benuqson. **unexceptional adj.** oddiy, jo'n. **unexpected adj.** kutilmagan, tasodifiy; (*sudden*) baxosdan, qo'qqisidan bo'lgan. **unexplainable adj.** tushuntirib bo'lmaydigan. **unexplored adj.** tekshirilmagan, tadqiqot ishlarini olib borilmagan. **unexpurgated adj.** senzura qilinmagan, hech narsa tushirib qoldirilmagan. **unfalling [ʌn'fɛlɪŋ] adj.** o'zgarmas, dolmiy; (*faithful*) sadoqatli, vafoli; (*reliable*) ishonchli, isho-

narli; (*inexhaustible*) bitmasluganmas, behad.

**unfair adj.** haqqoniyatsiz, adolatsiz, nohaq; (*dishonest*) noinsof, vijdonsiz, g'imom. **unfaithful adj.** noto'g'ri, xato, yanglish; (*treacherous*) xiyonalkor, xiyonalkorona, xoinona. **unfamiliar adj.** noqonuniy, qonunga zid; (*unknown*) noma'lum, allaqanday. **unfashionable adj.** urf bo'lmagan, modadan chiqqan. **unfasten v.** yechmoq, yechib olmoq; bo'shatmoq. **unfathomable adj.** (*immeasurable*) cheksiz, hadsiz, hisobsiz, juda katta, bepoyon; (*incomprehensible*) aqlga sig'maydigan, tushunib bo'lmaydigan. **unfavourable adj.** noqulay, nobop, o'ng'aysiz, buzuc, yomon; (*not approving*) iltifotsiz, muruvvatsiz. **unfeeling adj.** rahmsiz, shafqatsiz, bag'ri tosh, beparvo. **unfeigned adj.** haqiqiy, chin, asl, toza, qalbaki emas, sof. **unfinished adj.** tugallanmagan; (*crude*) ishlov berilmagan. **unfit adj.** yaroqsiz, nobop, nomuvofiq; (*unhealthy*) sog' emas, kasal. **unfix v.** yechmoq, yechib olmoq, bo'shatmoq; ko'chirmoq. **unflagging adj.** bo'shashmaydigan, quvvatsizlanmaydigan. **unfledged adj.** qanot chiqarmagan, pati o'sma-

gan; yosh, g'o'r, tajribasiz. **unfold** *v.* yoy(il)moq, yoz(il)moq, och(il)moq; (*open up*) och(il)moq, ochilib ketmoq, ochib yubormoq **unforeseen** *adj.* o'ylanmagan, oldindan o'ylab qo'yilmagan, tasodifiy, kutilmagan. **unforgettable** *adj.* unutib bo'lmaydigan, unutilmas. **unforgivable** *adj.* kechirib bo'lmaydigan, kechirilmas. **unfortunate** *adj.* baxtsiz; (*regrettable*) omadsiz; *n.* baxtsiz, omadsiz (kishi). **unfortunately** *adv.* baxtga qarshi, afsuski. **unfounded** *adj.* asoslanmagan, isbot etilmagan. **unfreeze** *v.* erit(il)moq. **unfriendly** *adj.* dushmanlarcha, adovat bilan, g'araz bilan, to'ng. iltifotsiz, sovuq, yoqimsiz. **unfrock** *v.* diniy unvondan mahrum qilmoq. **unfruitful** *adj.* unum-siz, hosilsiz, samarasiz. **unfulfilled** *adj.* (*promise etc.*) bajarilmagan; (*hopes etc.*) amalga oshirilmagan. **unfurl** *v.* yoy(il)moq, yoz(il)moq, och(il)moq. **unfurnished** *adj.* jihozlanmagan uy, mebelsiz uy.

**ungainly** [ʌn'ɡeɪnli] *adj.* bichimsiz, beso'naqay, qo'pol, qovushmagan, o'ng'aysiz. **ungentlemanly** *adj.* nomard, himmatsiz, qo'pol, qo'rs. **ungodliness** *n.* xudoasizlik, dahriylik. **ur.godly**

*adj.* (*also outrageous*) vijdensiz, hayosisiz, uyatsiz; yaramas. **un-governable** *adj.* o'zboshimcha, boshvoqsiz, liyib bo'lmaydigan. **ungracious** *adj.* illifotsiz, be-mehr, to'rs, qo'pol. **ungrammatical** *adj.* grammatik jihatdan noto'g'ri. **ungrateful** *adj.* nonko'r, ko'rmamak, yaxshilikni bilmaydigan, nontepki. **unguarded** *adj.* (*incautious*) ehtiyotsiz, beparvo, qo'pol.

**unguent** [ʌŋɡwɛnt] *n.* noy dori, malham, maz,

**unhappiness** [ʌn'hæpɪnɪs] *n.* baxtsizlik, kulfat, ofat, falokat. **unhappy** *adj.* baxtsiz, tolasiz. **unharmful** *adj.* baxli qora, sho'rik. **unharmful** *adj.* zararsiz, ziyonsiz, ziyon yelmagan; omon-esson, sog'salomat. **unhealthy** *adj.* (*in var. senses*) nosog', kasal, betob; (*harmful*) zararli, ziyonli, yomon. **unheard-of** *adj.* quloq eshitmagan, mislsiz. **unheaded** *adj.* sezilmay qolgan, ko'rinmay qolgan. **un-heeding** *adj.* e'tiborsiz, diqqatsiz, parvosiz, beparvo. **unhelpful** *adj.* befoyda, behuda. **unhesitating** *adj.* dadil, jasur, jur'atli, yurakli. **unhealtily** *adv.* ikkilanmay. **unhinge** *v.* xafa qilmoq, ranjitmoq, dilini siyoh qilmoq. **unholy** *adj.* (*impious*) gunohkor, murad, belav-

- fiq; (*awful*) qo'rqinchli, dahshatli; vahimali. **unhook** *v.* (eshik) ilgagini chiqarmoq; tugmani yechmoq, bog'ichni yechmoq; (*uncouple*) bir-biridan ajratmoq. **unhoped-for** *adj.* kutilmagan, tasodifiy. **unhorse** *v.* otdan tushirmoq. **unhurt** *adj.* zararsiz, ziyonsiz, ziyon yelmagan.
- unicorn** [ju:nɪ,kɔ:n] *n.* atsonaviy bir shoxli ot.
- unification** [ˌju:nɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n.* birlashtirish, qo'shish, uyushtirish, unifikatsiya, bir shaklga keltirish, bir me'yorga solish (*also standardization*).
- uniform** [ju:nɪˈfɔ:m] *n.* forma, formal kiyim; *adj.* bir xil, bir xildagi, bir-biriga o'xshash; (*homogeneous*) bir jinsli, bir xil; (*of-*) formal. **uniformity** *n.* bir xillik, o'xshashlik, hamshakllik.
- unify** ['ju:nɪˈfaɪ] *v.* birlashtirish, qo'shish, uyushtirish; unifikatsiya qilish, bir shaklga keltirish (*also standardize*).
- unilateral** [ju:nɪˈlætə(ə)l] *adj.* bir yoqlama, bir tarafdama, bir yuzlama, bir tomondama.
- unimaginable** [ˌʌnɪˈmædʒɪnəb(ə)l] *adj.* aqlga sig'maydigan, tasavvur qilib bo'lmaydigan, haddan tashqari. **unimaginative** *adj.* tasavvur etishdan, hayol qilishdan mahrum bo'lgan, oddiy.
- unimpeachable** *adj.* beayb, benuqson, kam-ko'stsez. **unimportant** *adj.* ahamiyatsiz. **uninformed** *adj.* (*ignorant*) biror sohada bilimsiz, bexabar, biror sohadan ma'lumotsiz; (*ill-informed*) bilmagan, bilmaydigan. **uninhabitable** *adj.* yashab bo'lmaydigan, yashash uchun yaroqsiz. **uninhabited** *adj.* odam yashamaydigan. **uninitiated** *adj.* tajribasiz, uquvsiz, malakasiz. **uninspired** *adj.* siyqa, bema'ni, bema'ni. **unintelligible** *adj.* bilib bo'lmaydigan, tanib bo'lmaydigan. **unintentional** *adj.* bag'araz, beixtiyor, atayin (jo'rttaga) qilinmagan. **unintentionally** *adv.* ongsiz revishda, bilmasdan. **uninterested** *adj.* biror narsaga qiziqmagan, qiziqish yo'q. **uninteresting** *adj.* qiziq bo'lmagan, jo'n. **uninterrupted** *adj.* uzluksiz, muttasil, to'xtovsiz.
- uninviting** *adj.* yoqimsiz, jozibasiz, xunuk.
- union** [ju:njən, -nɪən] *n.* (*alliance*) uyushma; (*joining together, alliance*) ittifoq, birlik; (*combination*) birlashma; (*marriage*) oila qurish; (*harmony*) rozirizochilik. **unionist** *n.* kasaba uyushma a'zosi.
- unique** [ju:'nɪ:k, ju:'ni:k] *adj.* bir-



dan-bir, yagona, tanho, yolg'iz, kamdan-kam uchraydigan.

**unison** [ˈjuːnɪs(ə)n] *n.* (*mus.*) unison (*bir balandlikdagi ovozlarning mosligi, jo'rligi*); (*fig.*) rozilik, unash, ma'qullash; *in. ~* (*mus.*) mos ovoz bilan; (*fig.*) ma'qullab turmoq; ko'r-ko'rona ergashmoq.

**unite** [ˈjuːnɪt] *n.* birlik, o'lchov birligi; (*mil.*) bo'linma, qism.

**unite** [ˈjuːnɪt, juː-] *v.* qo'sh(ish)moq, birlash(tir)moq, qo'shilib, birlashib kelmoq, qo'shib, birlashilib yubormoq. **united** *adj.* birlashgan, uyushgan; qo'shma; **U- Kingdom** Birlashgan Qirollik; **U- Nations** Birlashgan Millatlar Tashkiloti; **U- States** Amerika Qo'shma Shtatlari. **unity** [ˈjuːnɪti] *n.* birlik, birdamlik, hamjihatlik; (*cohesion*) jipslashganlik, mustahkam birlik; (*math.*) «1» soni, birlik.

**universal** [ˈjuːnɪvɜːs(ə)] *adj.* (*general*) umumiy; (*world-wide*) butun dunyoga, butun jahonga oid, olamshumul; (*many-sided*) universal, har tomonlama, har yoqlama, har xil ishni (sifatni) o'z ichiga olgan. **universe** *n.* olam, dunyo; (*cosmos*) fazo.

**universality** [ˈjuːnɪvɜːsɪti] *n.* universalitet; *abbr.* universitetga oid.

**unjust** [ʌnˈdʒʌst] *adj.* haqqoniyat-

siz, adolatsiz, nohaq. **unjustifiable** *adj.* oqlab bo'lmaydigan. **unjustified** *adj.* asossiz, o'rinsiz.

**unkempt** [ʌnˈkɛmpt] *adj.* taralmagan, to'zg'igan; (*untidy*) iflos, irkit, isqirt. **unkind** *adj.* jahli yomon, badjahl, shafqatsiz, yovuz.

**unknown** *adj.* noma'lum, ma'lum bo'lmagan.

**unlace** [ʌnˈleɪs] *v.* (*oyoq kiyimining*) bog'ichini bo'shatmoq, ipni yechmoq. **unlawful** *adj.* noqonuniy, qonunga zid, qonunga to'g'ri kelmaydigan. **unleaded** *adj.* qo'rg'oshin bilan ishlov berilmagan. **unlearn** *v.* bilgani esidan chiqarib qo'ymoq, unutib qo'ymoq; esdan chiqarmoq. **unleash** *v.* (*dog*) bo'shatilib qo'yib yubormoq, bo'shatmoq; (*also fig.*) keng yo'l ochib bermoq, yo'lga solib yubormoq. **unleavened** *adj.* oshirilmagan, chuchuk, la'imsiz, luzsiz.

**unless** [ʌnˈles, ənˈles] *conj.* agar (bordi-yu, mabodo) ...masa.

**unlike** [ʌnˈlaɪk] *adj.* o'xshamagan, bosh-qacha; (*in contradistinction to*) ...ga qaraganda, ...ga nisbatan. **unlikely** *adj.* haqiqatdan yiroq, boshqacha; *it is - that* ehtimol, dargumon, shubhali. **unlimited** *adj.* (*unrestricted*) cheklanmagan, cheksiz, chek qo'yilmagan; (*boundless*) che-

- garasiz, bepoyon. **unlined adj.** (*clothing*) astarsiz. **unload v.** (*remove load from*) yukdan bo'shatmoq, yukni tushirmoq; (*remove load from, remove from*) yuk bo'shatmoq, yuk tushirmoq; (*gun*) o'qini chiqarib olmoq. **unlock v.** ochmoq. **unlucky adj.** baxtsiz; (*unsuccessful, unfortunate*) omadsiz.
- unmake** [An'metk] *v.* (*destroy*) yo'q qilmoq, yo'q qilib yubormoq, mahv qilmoq; (*annul*) bekor qilmoq, yo'qqa chiqarmoq; (*depose*) pasaytirib qo'ymoq, kamaytirmoq, tushirmoq. **unmanageable adj.** qiyin boshqariladigan, boshqarib bo'lmaydigan; (*of child*) qiyin, og'ir. **unmanly adj.** benomus (*yaramas*) kishi. **unmarketable adj.** sotuvga yaroqsiz, sotib bo'lmaydigan. **unmarried adj.** (*of man*) bo'ydoq, uylanmagan; (*of woman*) turmushga chiqmagan, ersiz. **unmask v.** (*fig.*) fosh qilmoq, sirini ochmoq. **unmentionable adj.** to'xtab o'tilmaydigan, muhokama qilinmaydigan, muzokara qilib bo'lmaydigan. **unmerciful adj.** shafqatsiz, rahmsiz. **unmerited adj.** o'rinsiz, asossiz, noloyiq, nohaq. **unmethodical adj.** muntazam bo'lmagan, doimiy emas, rejasiz, tartibsiz.
- unmindful adj.** e'tiborsiz, diqqatsiz, parvosiz, beparvo. **unmitigable adj.** shubhasiz, shaksiz, aniq, ravshan. **unmitigated adj.** yumshatilmagan, muloyimlashtirilmagan, dag'al; (*absolute*) tamomila, to'la, mutlaq; (*thorough*) ashaddiy, o'takatgan, unmoved *adj.* (*indifferent*) beparvo, bee'tibor; (*adamant*) matonalli, mahkam, sabotli, qat'iy.
- unnatural** [An'nætʃar(ə)] *adj.* g'ayritabiiy, yasama, sun'iy. **unnecessary adj.** keraksiz, no-karak. **unnerved v.** kuchsizlantirmoq, quvvatsizlantirmoq, madorsiz qilmoq; asabini buzmoq. **unnoticed adj.** sezilmagan, bilinmagan, ko'rinmagan.
- unobjectionable** {An'ob'dʒekʃənəb(ə)l} *adj.* maqbul, ma'qul, muvofiq keladigan, yaroqli. **unobservant adj.** e'tiborsiz, diqqatsiz, parvosiz, beparvo. **unobserved adj.** sezilmagan, bilinmagan, ko'rinmagan. **unobtainable adj.** yaqiniga borib bo'lmaydigan, yaqin kelib bo'lmaydigan, egallab bo'lmaydigan; qimmat. **unobtrusive adj.** o'ziga tortmaydigan, e'tiborni jalb etmaydigan. **unoccupied adj.** bo'sh, xoli, band bo'lmagan; (*uninhabited*) odam yashamaydigan. **unofficial adj.** g'ayri

rasmiy, rasmiylashtirilmagan.  
**unopposed** *adj.* qarshiliksiz, qarshilikka uchramagan, to'liqqa uchramagan. **unorthodox** *adj.* g'ayrioddiy, g'alati.  
**unpeck** [ʌn'peɪk] *v.* ochmoq. **unpaid** *adj.* (not receiving pay) haq olmagan; (work) bepul, tekln.  
**unpalatable** *adj.* mazasiz, bemaza, ta'msiz; (unpleasant) ko'ngilsiz, yoqimsiz. **unpardonable** *adj.* kechirib bo'lmaydigan, kechirimsiz. **unpin** *v.* ushatib olmoq, sindirib olmoq.  
**unpleasant** *adj.* yoqimsiz, sovug, to'ng, kufatsiz. **unpleasantness** *n* jazibasizlik, xunuklik, yoqimsizlik; (also occurrence) ko'ngilsizlik, ko'ngilsiz voqea; (quarrel) janjal, g'avg'o. **unpopular** *adj.* mashhur emas, hech kim bilmaydigan. **unprecedented** *adj.* ko'z ko'rib, quloq eshitmagan. **unpredictable** *adj.* oldindan taxmin qilib bo'lmaydigan. **unprejudiced** *adj.* xolis, beg'arez, odil, bataraf. **unpremeditated** *adj.* oldindan o'ylab (staying) qilinmagan, qasddan qilinmagan. **unprepared** *adj.* tayyorlanmagan, tayyor bo'lmagan. **unprepossessing** *adj.* jozibasiz, xunuk, sovug, yoqimsiz. **unpretentious** *adj.* oddiy, kamtar, da'vosiz. **unprincipled** *adj.*

maqsad-maslaksiz, futuriqsiz, betayin; (immoral) axloqsiz, odobsiz. **unprintable** *adj.* taqiqlangan, senzura talablariga to'g'ri kelmaydigan. **unproductive** *adj.* samarasiz, bafoyda, natijasiz. **unprofitable** *adj.* foydasiz, bafoyda. **unpromising** *adj.* bironla yaxshi narsani va'da bermaydigan. **unpronounceable** *adj.* aytilmaydigan, talafuz etib bo'lmaydigan. **unpropititious** *adj.* noqulay, nobop, o'ng'aysiz, buzuq, yomon. **unprotected** *adj.* (defenceless) homiysiz, himoyasiz, bechora, g'arib, miakin; (area) ochilgan, ochiq. **unproven** *adj.* iebotlanmagan. **unprovoked** *adj.* kutilmagan, bexosdan ro'y bergan; ig'vogarona, unpublished *adj.* chop etilmagan, nashrdan chiqmagan. **unpunctual** *adj.* o'z vaqtida kelmaydigan (qilinmaydigan), juda aniq emas. **unpunished** *adj.* jazolanmagan.  
**unqualified** [ʌn'kwɔ:lɪfɪd] *adj.* hunarsiz, malakasiz; (unconditional) so'zsiz, e'tirozsiz, hech bir shartsiz. **unquenchable** *adj.* qondrib bo'lmaydigan, qonmaydigan; (fig.) so'nmas, o'chmas, abadiy. **unquestionable** *adj.* shubhasiz, shaksiz. **unquestionably** *adv.* albatta. un-

questioned *adj.* shubha keltir-  
maydigan.

unravel [ʌn'ri:v(ə)] *v.* yech(il)-  
moq, chigalni yozmoq, chigali  
yozilmoq; (*solve*) topmoq, yech-  
moq; payqab olmoq, bilib olmoq.  
unread [ʌn'red] *adj.* (*book etc.*)  
o'qilmagan. unreadable *adj.* (*illeg-  
ible*) bilib bo'lmaydigan, tanib  
bo'lmaydigan; (*boring*) zerikar-  
li, unready *adj.* tayyor bo'lma-  
gan; (*slowwitted*) ahmoq, be-  
fahm, befarosat. unreal *adj.*  
haqiqiy emas, yolg'ondakam, aql  
bovar qilmaydigan, g'ayritabiiy.  
unrealistic *adj.* noreal, real bo'l-  
magan, xayoliy. unreasonable  
*adj.* (*unwise*) aqsiz, yengiltak;  
(*excessive*) haddan tashqari,  
haddan ortiq; (*expensive*) had-  
dan tashqari qimmat, juda qim-  
mat; (*of price*) haddan tashqari  
baland; (*unfounded; of demand*)  
asossiz, asoslanmagan, dalil-  
siz. unreasonable *adj.* o'ylab (fikr-  
lab) qilinmagan, aqsiz. unrea-  
soning *adj.* fikr yurgizmaydigan,  
fikrlamaydigan. unreceptive  
*adj.* zehni past, idroksiz, be-  
fahm. unrecognizable *adj.* tanib  
bo'lmaydigan. unrecognized  
*adj.* tanilmagan, e'tirof etilma-  
gan, tan olinmagan. unrefined  
*adj.* tozalanmagan; (*manners  
etc.*) qo'pol, qo'rs. unrelenting

*adj.* (*ruthless*) shafqatsiz, rahm-  
siz, ayamasi; (*unremitting*) doi-  
miy, qattiq; (*not abating*) kamay-  
tirilmaydigan, kichraytirilmaydi-  
gan, ozaytirilmaydigan. unreli-  
able *adj.* ishonchsiz, ishonib  
bo'lmaydigan, belayin. unre-  
mitting *adj.* doimiy, qattiq; (*in-  
cessant*) betinim. unremuner-  
ative *adj.* foydasiz, befoyda.  
unrepeatable *adj.* (*unique*) misli  
yo'q, yagona, olamda bitta, to-  
pilmas; (*indecent*) kelishmagan,  
noloyiq, odobsiz, chakki, nojo'-  
ya. unrepentant *adj.* lavba qil-  
maydigan, pushaymon bo'l-  
maydigan. unrepresentative  
*adj.* xaraktersiz, o'ziga xos  
emas, irodasiz. unrequited *adj.*  
~ love javobsiz muhabbat, bir  
tomonlama muhabbat. unre-  
served *adj.* (*full*) to'la, to'liq, lim-  
lim to'lgan, to'la-to'kis; (*open*)  
samimiy, rostgo'y, ochiq ko'n-  
gilli, sofdil; (*unconditional*) so'z-  
siz, e'tirozsiz, hech bir shartsiz;  
~ seats band qilib qo'yilmagan  
joylar. unrelating *adj.* qarshilik  
ko'rsalmaydigan. unrest *n.* be-  
zovtalik, nolinchlik, tashvish,  
xavotirlik; (*pol.*) tartibsizlik, be-  
saranjomlik, alg'ov-dalg'ov. un-  
restrained *adj.* o'zini tuta bil-  
magan, o'ziga kuchi yetmagan.  
unrestricted *adj.* cheksiz, chek-

lanmagan. **unripe** *adj.* yetilmagan, pishmagan, xom, g'o'r, dumbul. **unrivalled** *adj.* mislsiz, lengsiz. **unroll** *v.* yoy(il)moq, yoz(il)moq, och(il)moq. **unruffled** *adj.* (*smooth*) tekis, silliq; (*calm*) tinch, jimjit, xotirjam, osoyishla; yuvosh. **unruly** [An'ru:l] *adj.* (*wild*) tez, qattiq, shiddatli; (*disobedient*) sho'x, bebosh, to'polonchi.

**unsafe** [An'seif] *adj.* qo'rqinchli, xavfli, xatarli, tahlikali; (*insecure*) ishonchsiz, ishonib bo'lmaydigan. **unsaid** [n'sed] *adj.*: *leave* ~ indamay qolmoq, jim bo'lmoq, jim turmoq. **unsaleable** *adj.* sotilmaydigan. **unsalted** *adj.* tuzlanmagan, luzsiz. **unsatisfactory** *adj.* qoniqarli emas. **unsatisfied** *adj.* qoniqmagan, qanoatlanmagan. **unsatisfying** *adj.* qoniqlirmaydigan, qondirmaydigan; (*food*) to'yimsiz. **unsavoury** *adj.* mazasiz, bema'za, ta'imsiz; (*distasteful*) jirkanch, nafratli, qo'lansa, yaramas. **unscathed** *adj.* zararsiz, ziyonsiz, ziyon yelmagan; (*fig.*) omon-eson, sog'-salomat. **unscheduled** *adj.* navbatdan tashqarigi. **unscientific** *adj.* ilmiy bo'lmagan, fanga xilof; g'ayri ilmiy. **unscrew** *v.* burab chiqarmoq. **unscrupulous** *adj.*

maqsadi yo'q, tuturiqsiz, belayin; xudbin, ichiqora. **unseasonable** *adj.* mavsumdan tashqari, mavsumda bo'lmagan; (*Inopportune*) vaqtsiz, bema'hal, bemavrid. **unseasoned** *adj.* (*food*) ziravor solinmagan; (*unaccustomed*) odatlanmagan. **unseat** *v.* (*of horse*) egardan (Irg'itib) tushirmoq; (*parl.*) parlament mandatidan mahrum qilmoq. **unseemly** *adj.* uyatsiz, adabsiz, yuzsiz, beor. **unseen** *adj.* misli ko'rilgan, mislsiz; ~ *translation* qog'ozdan tarjima. **unselfish** *adj.* beg'araz, xolis, o'z manfaatini ko'zlamaydigan. **unserviceable** *adj.* yaroqsiz, yaramaydigan. **unsettle** *v.* tartibni buzmoq; (*upset*) zarar yetkazmoq, ziyon keltirmoq, buzmoq; to'zg'itib yubormoq, tartibsiz holga kellirmoq. **unsettled** *adj.*: *the weather is* ~ ob-havo aniqlanmagan. **unshakeable** *adj.* og'ishmaydigan, mahkam, mustahkam, sabotli, barqaror. **unshaven** *adj.* soqoli olinmagan. **unshathe** *v.* g'ilofdan tortib chiqarmoq, g'ilofga solinmagan. **unship** *v.* (*cargo*) yuk bo'shatmoq, yuk tushirmoq; (*passenger*) qirg'oqqa tushirmoq. **unightly** *adj.* ko'rimsiz, xunuk, badbashara, badburih.

unskilful *adj.* no'noq, noshud, *apsiz. unskilled adj.* hunarsiz, malakasiz. *unsociable adj.* odamovi, suhbatga qo'shilmaydigan. *unsold adj.* solilmagan. *unsolicited adj.* so'ralmagan, talab qilinmagan. *unsolved adj.* hal etilmagan, bir yoqli qilinmagan. *unsophisticated adj.* oddiy, tabiiy, sun'iy bo'lmagan. *unsound adj. (unhealthy, unwholesome)* nosog', kasal, ziyonli, zararli; (*rotten. also fig.*) chirk, chirigan, yiring boylagan, buzilgan, sasigan, irlgan; zax, nam; (*unreliable*) ishonchalz, ishonib bo'lmaydigan, betayin; (*unfounded*) asosisiz, asoslanmagan, dalilsiz; (*faulty*) nuqsonli, illatli; *of - mind* ruhiy kasal, asabiy kasal. *unsparing adj. (lavish)* saxiy, qo'll ochiq; (*merciless*) shafqatsiz, rahmsiz, be-rahm, ayovsiz. *unspeakable adj. (Inexpressible)* ifodalab bo'lmaydigan, aytib bo'lmaydigan, tavsif qilib bo'lmaydigan; (*very bad*) jirkanch, qabih, xunuk, iflos, juda yomon. *unspecified adj.* nomi'lum, nolayin, noaniq, belgisiz, mujmal, dudmol. *unspoilt adj.* buzilmagan, shikaslanmagan. *unspoken adj.* aytilmagan, izhor etilmagan. *unstable adj.* omonat

turgan, qaltis; (*emotionally*) tulinqsiz, betayin. *unsteady adj.* omonat, qaltis. *unsuccessful adj.* muvaffaqiyatsiz. *unsuitable adj.* nobop, nomuvofiq, noloyiq. *unsulted adj. (incompatible)* zid, xilof. *unsullied adj.* dog' tushmagan, toza. *unsupported adj.* ko'tarib turlilmagan, saqlab (suyab, ushlab, tulib) turlilmagan. *unsure adj.* ishonmaydigan (*of o.s.* o'ziga), qat'iyatsiz, ikkilanuvchi. *unsurpassed adj.* tengi bo'lmagan, mialsiz, eng mukammal, eng yaxshi. *unsuspected adj.* shubhaga solmaydigan; (*unforeseen*) o'ylanmagan, oldindan o'ylab qo'yilmagan, lasoddiy, kutilmagan. *unsuspecting adj.* gumon qilmayotgan, shubhalanmayotgan. *unswatened adj.* shakar solinmagan, shirin qilinmagan. *unswerving adj.* og'lishmaydigan, mahkam, mustahkam, sabotli, barqaror. *unsymmetrical adj.* simmetriyaga ega bo'lmagan, simmetriyali emas. *unsympathetic adj.* xayrixoh bo'lmagan, tarafdorlik qilmagan; (*unattractive*) ko'rim-siz, yoqimsiz, xunuk. *unsystematic adj.* rejasiz, tartibsiz, sistemalik emas.

*untainted adj.* buzilmagan, shikaslanmagan. *unskilful adj.*

iqidorasiz, qobiliyatsiz. **untameable** *adj.* o'rgatib bo'lmaydigan, qo'lga o'rganmaydigan; (*indomitable*) sarkash, tiyiqsiz, el bo'lmaydigan. **untapped** *adj.*: - resources foydalanilmagan boyliklar (boylik manbalari). **untarnished** *adj.* xiralashmagan, xira bo'lmagan; (*fig.*) dog' legmagan, aybsiz, nuqsonsiz. **untenable** *adj.* kambag'al, faqir. **unthinkable** *adj.* (*inconceivable*) aqlga sig'maydigan, fasavvur qilib bo'lmaydigan, haddan tashqari; (*unlikely*) aqlga to'g'ri kelmaydigan, aqlga sig'maydigan. **unthinking** *adj.* kalla o'ylaydigan; yengiltak, beandisha. **unthread** *v.* ipni ...dan chiqarmoq. **untidiness** *n.* ifloslik, laqirlik; (*disorder*) tartibsizlik, besaranjomlik, alg'ov-dalg'ov. **untidy** *adj.* iflos, isqirt; (*in disorder*) tartibsiz, besaranjom. **untie** *v.* yechmoq, ochmoq; (*set free*) bo'shatmoq, bo'shatib qo'ymoq.

**until** [an'til, an-] *prep.* -gacha, qadar, vaqtgacha; - then -gacha, -guncha.

**untimely** [an'taimli] *adj.* (*premature*) erta, bemahal, bevaqt; (*inappropriate*) o'rinsiz, chakki, nojo'ya, noma'qul. **untiring** *adj.* charchamas, hormas, tolmaz.

**untold** *adj.* (*innumerable*) hisob-siz, son-sanoqsiz, cheksiz, bitmas-tuganmas; (*inexpressible*) ifodalab bo'lmaydigan, aylib bo'lmaydigan, tavsif qilib bo'lmaydigan. **untouched** *adj.* (*also pure*) tegilmagan, toza; (*indifferent*) beparvo, bea'tibor. **untoward** [an'le'wo:d, an'le'bo:d] *adj.* (*unfavourable*) noqulay, nobop, o'ng'aysiz, buzuq, yomon; (*refractory*) bosh egmaydigan bo'ysunmaydigan, itoatsiz, o'jar, qaysar. **untrained** *adj.* o'rgatilmagan. **untranslatable** *adj.* tarjima qilib bo'lmaydigan. **untried** *adj.* sinalmagan, boshdan kechirilmagan, noma'lum. **untroubled** *adj.* jlmjit, xotirjam, osoyishta; yuvosh. **untrue** *adj.* noto'g'ri, xato, yanglish; vafosiz, ahdi yo'q, xoin. **untrustworthy** *adj.* ishonchsiz, ishonib bo'lmaydigan, betayin. **untruth** *n.* noto'g'ri, yolg'on. **untruthful** *adj.* yolg'onchi, aldanchi, yolg'on, soxta.

**unusable** [an'ju:zeb(s)] *adj.* yaroqsiz, yaramaydigan, yaramas, nobop. **unused** *adj.* (*not employed*) ishlatilmagan; (*not accustomed*) ko'nikmagan. **unusual** *adj.* odatdan tashqari, favqulodda. **unusually** *adv.* ajoyib, odatdan tashqari. **unutter-**

**able** *adj.* ifodalab bo'lmaydigan, aytib bo'lmaydigan, tavsif qilib bo'lmaydigan.

**unvarnished** [ʌn'vɑ:nɪʃt] *adj.* (*fig.*) chin, haqiqiy, bo'yab ko'rsatilmagan. **unvarying** *adj.* o'zgar-mas, barqaror. **unveil** *v.* choy-shabni olib tashlamoq (olmoq); (*statue*) tantanali ravishda ochmoq; (*disclose*) ochmoq, ochilmoq. **unversed** *adj.* biror sohada bilimsiz, bexabar, biror sohadan ma'lumotsiz; (*inexperienced*) tajribasiz, malakasiz.

**unwanted** [ʌn'wɒntɪd] *adj.* xush ko'rilmagan (kelmaydigan), istalmagan, ko'ngildagidek emas, yoqimsiz. **unwarranted** *adj.* (*unjustified*) asossiz. **unwary** *adj.* ehtiyotsiz, beparvo, qo'pol. **unwavering** *adj.* og'ishmaydigan, mahkam, mustahkam. **unwelcome** *adj.* yoqmaydigan, yoqimsiz, o'rinsiz, chakki. **unwell** *adj.* nosog', kasal, betob. **unwholesome** *adj.* zararli, ziyonli, yomon, nosog'. **unwieldy** *adj.* beso'nacaq, qo'pol, qovushmagan, o'ng'aysiz. **unwilling** *adj.* moyil emas, ko'ngil bermagan, havasi bo'lmagan. **unwillingly** *adv.* istar-istamas, xohlamay, beixtiyor, xohlamasdan. **unwillingness** *n.* xohlamaslik, istamaslik, ko'ngil tortmaslik, oyoq tortmas-

lik. **unwind** *v.* chuvatmoq, yozmoq, tortmoq; (*rest*) dam olmoq, istirohat qilmoq, orom olmoq. **unwieldy** *adj.* noma'qul, aqlsiz, yengil. **unwitting** *adj.* beixtiyor, ixtiyorsiz, bexosdan. **unwittingly** *adv.* beixtiyor ravishda, ixtiyorsiz tarzda, bexosdan. **unwonted** [ʌn'wɒntɪd] *adj.* odat qilinmagan, o'rganilmagan, ko'nikilmagan, g'alati. **unworkable** *adj.* qo'llab bo'lmaydigan, tadbiiq etib (ishlatib) bo'lmaydigan. **unworldly** *adj.* samoviy, ilohiy, yerga xos bo'lmagan. **unworthy** *adj.* noloyiq, nomunosib, arzimaydigan. **unwrap** *v.* yoymoq, yozmoq, ochmoq. **unwritten** *adj.*: ~ law yozilmagan qonun.

**unyielding** [ʌn'ji:lɪdɪŋ] *adj.* sabotli, yo'llidan qaytmaydigan.

**unzip** [ʌn'zɪp] *v.* (yoqa, karmon va sh.k.larga tutiladigan zanjirsimon yopqich - molniyani) yechmoq.

**up** [ʌp] *adv.* (*motion*) yuqoriga, ustga, tepaga; (*position*) yuqorida, ushda, tepada; ~ and down tepaga va pastga, (*back and forth*) orqaga va oldinga; - to (*towards*) -ga, ka, -qa, tomon, tomoniga, oldiga, yoniga, qarata; (*time*) ...ga qadar; - to now shu vaqtgacha, shu choqqacha;



- shu yergacha, shungacha; be - against bilan ish tutmoq; not - to much ahamiyatsiz; what's -? nima bo'ldi?; tinchlikmi?; your time is - sizning vaqtingiz tugadi; - and about oyoqda; he isn't - yet u hali turmadi; he isn't - to this job u bu ishga yaramaydi; **up-and-coming** *adj.* tirishqoq, serg'ayrat, sabotli, matonatli, qaytmas, g'ayir, katta istiqbolga ega bo'lgan.
- upbraid** [ʌp'breɪd] *v.* so'kmoq, hoyimoq, urushmoq.
- upbringing** [ʌp'brɪŋɪŋ] *n.* tarbiya.
- update** [ʌp'deɪt] *v.* modernizatsiyalashirish, yangilash, zamonaviylashtirish; (*book*) qo'shmoq, to'ldirmoq, tugallamoq, ilova qilmoq.
- upgrade** [ʌpɡreɪd] *v.* ko'tarmoq, oshirmoq (*lavozimda*).
- upheaval** [ʌp'hi:v(ə)l] *n.* siljitish, surish, o'rnidan qo'zg'atish; (*revolution*) to'nlarish, keskin burilish, keskin o'zgarish; (*geol.*) qatlamning siljishi.
- uphill** [ʌp'hɪl] *adj.* loqqa chiquvchi; (*fig.*) og'ir; *adv.* tepaga, yuqoriga.
- uphold** [ʌp'həʊld] *v.* yordam qilmoq, himoya qilmoq, qo'llab-quvvatlamoq, madad bermoq; - a view fikriga tarafdor bo'lmoq.
- upholder** *n.* tarafdor, yoqlovchi.
- upholster** [ʌp'həʊlsta(r)] *v.* qoplamoq, uslidan yopishtirmoq.
- upholsterer** *n.* oboychi (*mebel qoplovchi usta*).
- upholstery** *n.* qoplash.
- upkeep** [ʌpki:p] *n.* (*maintenance, support*) asrash, boqish, parvarish; (*repair(s)*) ta'mir, remont, tuzalish, butlash.
- upland** [ʌplənd] *n.* mamlakatning tog'li qismi, tog'li mamlakat; *adj.* tog'li joyda, balandlikda (*tepalikda*) joylashgan; (*inland*) davlat ichida joylashgan.
- uplift** [ʌp'lɪft; 'ʌplɪft] *v.* ko'tarmoq, ko'tarib qo'ymoq; *n.* g'ayrat, zavq-shavq, ruhlanish, ko'larinkilik.
- upon** [ə'pən] *prep.* ustida, ustiga; *see on*
- upper** [ʌpe(r)] *adj.* ustki, balanddagi, ustidagi, tepasidagi, yuqorigi; (*socially, in rank*) yuqori, oliy; *gain the - hand* ustun kelmoq; - *crust* yuqori labaqalar (*boshqaruvchilar*); *the U- Ho-* use yuqori palata; *n.* aravaning old tomoni. **uppermost** *adj.* eng yuqori, oliy, bosh.
- upplish** [ʌpɪʃ] *adj.* manman, oriq darajada takabbur.
- upright** [ʌpraɪt] *n.* tirgovuch, tirgak, tamba; *adj.* vertikal, tik; (*straight*) lo'g'in; (*honest*) odil; rostgo'y, ochiq; - piano piani-

- no; adv. vertikal, to'g'ri.*
- uprising** [ʌpˈraɪzɪŋ] *n.* qo'zg'olon, layon.
- uproar** [ʌpɹɔ:(r)] *n.* shovqin, shovshuv, to'polon, g'avg'o, g'alva.
- uproarious** *adj.* serahovqin, shovqini zo'r.
- uproot** [ʌpˈru:t] *v.* ildizi bilan suq'urib olmoq: (*eradicate*) ildizini qurilmoq, tuxumini qurilmoq, bitirimoq.
- upset** [ʌpsɛt] *n.* (*disorder, confusion, decomposition*) tartibsizlik, beboshlik; pachavalik, chatoqlik; xafalik, ko'ngil g'ashlik, dilsiyohlik; *v.* (*disorder, decompose, spoil (plans etc.)*) to'zg'ilib yubormoq, tartibsiz holga keltirmoq; ziyon keltirmoq, buzmoq; xafa qilmoq, ranjilmoq, (*overturn*) ag'na(1)moq, yiqitmoq, yiqilmoq, qula(1)moq; ag'darilib kelmoq, ag'darib yubormoq, qulab lushmoq, qulalib lushirmoq, to'nkat(1)moq; *adj.* (*miserable*) xafa, ta'bi xira, ko'ngli g'ash: - stomach me'da buzillshi.
- upshot** [ʌpʃɒt] *n.* pirovard, nali-ja, oqibat.
- upside-down** [ʌpsaɪd 'daʊn] *adj.* ostin-ustin qilingan; *adv.* alg'ovdalg'ov, ostin-ustun, to'ntarilib; (*in disorder*) tartibsiz holga keltirilgan.
- upstairs** [ʌpˈsteəz] *adv.* (*position*) tepada; (*motion*) tepaga; *n.* yuqori qavat; *adj.* yuqori qavaldagi joylashgan.
- upstart** [ʌpˈstɑ:t] *n.* mahmadona, bilar-bilmas hamma narsaga bumini suqadigan odam.
- upstream** [ʌpˈstri:m] *adv.* oqimga qarshi.
- upsurge** [ʌpsɜ:ɟ] *n.* o'sish, ko'tarilish, yukealish.
- uptake** [ʌpteɪk] *n.:* ba quik on the - darrov lushunmoq (anglamoq, fahmlamoq).
- up-to-date** [ʌptə'deɪt] *adj.* zamonaviy; (*fashionable*) modaga old, moda bo'lgan, rasm bo'lgan.
- upturned** [ʌptɜ:nd] *adj.* (*face etc.*) tepaga ko'tarilgan; (*inverted*) ag'darilgan, to'ntarilgan.
- upward** [ʌpweɪd] *adj.* tepaga yo'naltirilgan, tepaga harakatlanayotgan. **upwards** *adv.* tepaga, yuqoriga; - of tepadan, yuqoridan. **upwind** *adv.* shamolga qarshi.
- Ural** [ˈjʊər(ə)lɪz] *n.* Ural tog'ları.
- uranium** [ˈɹeɪnɪəm] *n.* uran (*radioaktiv kimyoviy unsur*); *attr.* uranli, uranga oid.
- urban** [ˈz:bən] *adj.* shahar ..., shaharga oid, xos.
- urbane** [ˈz:bɛɪn] *adj.* odobli, xushmuomala, xushxulq, xushfe'l.

**urbanity** [ɜ:'bæ:nɪtɪ] *n.* odoblilik, xushf'ellik.

**urchin** [ɜ:'tʃɪn] *n.* yosh bola, g'o'dak, g'o'r.

**urge** [ɜ:'dʒ] *n.* (*incitement*) undash, mayl qildirish, rag'bat; (*desire*) lilak, islak, orzu, xohish; *v.* (*impel*, - *on*) qlstovga solmoq, tezlatmoq, jadallatmoq; (*induce*, *prompt*) undamoq, majbur qilmoq; (*give as reason*) -ga e'tibor bermoq. **urgency** *n.* (*also insistence*) qatllilik, qat'iylik; (*immediate importance*) kechiktirilmaslik, paysaiga solmaslik; **a matter of great** - zarur ish. **urgent** *adj.* zarur; (*also insistent*) qat'iy, qatliq; (*absolutely essential*) nihoyatda zarur, juda kerakli. **urgently** *adv.* tez, shoshilinch ravishda, oshig'ich, darhol, darrov.

**uric** [j'œrɪk] *adj.* siydik ..., siydikka oid. **urinal** [j'œ'rɪn(ə)l, j'œrɪn(ə)l] *n.* hojatxonadagi kichik hojat uchun maxsus idish. **urinate** *v.* siymoq, bo'shanmoq. **urination** *n.* siyish, siydik chiqarish. **urine** [j'œrɪn] *n.* siydik.

**urum** [ɜ:'n] *n.* axlat idishi.

**USA** *abbr.* (*of United States of America*) AQSh, Amerika Qo'shma Shlallari; *adj.* amerikaga oid, amerikaga xos.

**usable** [ju:'zəb(ə)l] *adj.* iste'mol-

ga yaroqli. **usage** [ju:'eɪdʒ] *n.* qo'llanish, ishlatish, sarf qilish, iste'mol qilish; (*custom*) urfodat, taomil, raam, qoida; (*treatment*) aylantirish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish. **use** *n.* (*also benefit*) foyda, naf; (*application*) qo'llash, ishlatish, sarf qilish, iste'mol qilish; **It is of no** ~ befoyda; **make** - of foydalanmoq, ishlatmoq ishga solmoq; *v.* qo'llamoq, ishlatmoq, sarf qilmoq, iste'mol qilmoq; **be**, **get**, **-d to** ... ga o'rganib qolmoq (*ko'nikmoq*, *odatlanib qolmoq*); **- up** sarflamoq, xarjlamoq, xarajat qilmoq. **used** *adj.* (*second-hand*) ishlatilgan, eski. **useful** *adj.* foydali; **come in** ~, **prove** ~ yaramoq, asqatmoq, kerak bo'lib qolmoq. **useless** *adj.* befoyda, behuda, hech nimaga yaramaydigan. **user** *n.* iste'molchi, iste'mol qiluvchi. **user-friendly** *adj.* ishlatishga qulay.

**usher** ['ʌʃə(r)] *n.* (*door-keeper*) shveysar (*darbon*); (*theatr.*) chipta tekshiruvchi; *v.* (*lead in*) kiritmoq, olib kirmoq; (*proclaim*, - *in*) e'lon qilmoq, tantanali ravishda xabar qilmoq. **usherette** *n.* chipta sotuvchi ayol.

**usual** [ju:'zuel] *adj.* odatdagi, kuniga bo'lib turadigan; **as** ~ har doimgiday, odatdagidek. **usually**

- adv.* odatda, rasmida.
- usurer** ['ju:ʒərə(r)] *n.* sudxo'r, foydaxo'r. **usu-rious** [ju:'ʒuəriəs] *adj.* sudxo'rlik bilan.
- usurp** [ju:'zə:p] *v.* uzurpatsiya qilmoq, zo'rlik bilan qo'lga olmoq, qonunga xilof ravishda egallab olmoq. **usurper** *n.* uzurpator (*hakimiyatni yoki biror huquqni zo'rlik bilan o'z qo'lga olgan kishi*), bosqinchi, bosib oluvchi, tortib oluvchi.
- usury** [ju:'ʒəri] *n.* sudxo'rlikka oid.
- utensil** [ju:'tens(ə)] *n.* asbob, qurol; buyumlar, asbob-anjom; (*kitchen -s*) idish-ovoq.
- uterine** ['ju:te,raɪn, -rɪn] *adj.* bachadon ..., bachadonga oid; (*of one mother*) bir qorindan lug'ilgan. **uterus** *n.* bachadon.
- utilitarian** [ju:til'itəriən] *adj.* manfaatparast, faqat foyda olishga intiladigan. **utilitarianism** *n.* utilitarizm (*axloqning asosi «foйда», «manfaat» ekanligini o'rgatadigan ta'limot*). **utility** [ju:'tɪlɪtɪ] *n.* foyda, naf; *adj.* manfaatparast, faqat foyda olishga intiladigan; (*practical*) ishbilarmon, tajribakor. **utilize** [ju:'tɪl,laɪz] *v.* qo'llamoq, ishlatmoq, foydalanmoq, foydali suratda ishlatmoq.
- utmost** ['ʌlmeɪst] *adj.* (*extreme*) oxirgi, keyingi; (*furthest*) eng chetdagi, chekkadagi; *this is of*
- the - importance to me bu narsa men uchun juda muhim; n.:* *do one's - qo'ldan kelgan hamma ishni qilmoq.*
- Utopia** [ju:'təʊpiə] *n.* xomxayol, amalga oshmaydigan orzu, utopiya. **Utopian** *adj.* xayoliy, amalga oshmaydigan; *n.* xayolparast, xomxayolchi.
- utter** ['ʌtə(r)] *str.* to'la-to'kis, mukammal, absolyut, mullaq; (*out-and-out*) ashaddiy, o'lakelgan. *v.* talaffuz etmoq, aytmoq; (*let out*) e'lon qilmoq, chiqarmoq. **utterance** *n.* (*uttering*) aylish, talaffuz etish, so'zlash; (*pronouncement*) fikr aylish, gapirish, fikr bayon qilish, aytilgan gap, fikr; (*diccion*) diksiya (*aniq, ravshan, burro gapirish*); (*pronunciation*) talaffuz; **gift of - notiqlik**; **give - to** so'z bilan ifoda etmoq. **utterly** *adv.* haddan tashqari, juda.
- U-turn** [ju:'tɜ:n] *n.* burilish, aylanish; (*fig.*) 180° burilish, g'ird teskari tomonga o'zgarish.
- uvula** [ju:'vju:lə] *n.* lakluk, tilcha.
- Uzbek** [ʌzbe'k'uz-] *n.* o'zbek; *adj.* o'zbek ..., O'zbekistonga, o'zbeklarga oid. **Uzbekistan** [ʌzbe'k'ɪstə:n, 'uz-] *n.* O'zbekiston.

## V

v. *abbr.* (of volt(s)) *V.*, volt: (of versus) qarshi; **England - France** Angliya Fransiyaga qarshi.

**vacancy** [vækənsɪ] *n.* (for job) vakansiya, bo'sh o'rin, xizmat o'rni, vazifa: (at hotel) bo'sh xona; (emptiness) bo'shlik, xolilik; (apathy) beparvolik, e'tiborsizlik, loqaydlik; (absentmindedness) parlashonxolirlik. **vacant** *adj.* (post) vakant, bo'sh ish o'rni; (empty) ichi bo'sh, kovak; (look) parlashon. **vacantly** *adv.* parlashon holda, parlashonlik bilan. **vacate** [və'keɪt, veɪ-] *v.* bo'shatmoq, bo'shatib qo'yimoq; tashlab chiqib ketmoq, tashlab ketmoq. **vacation** *n.* (school, univ.) ta'til; (leave) mehnat ta'tili; (vacating) qulqarish, ozod qilish; ozod bo'lish, qutulish.

**vaccinate** [væksɪ'neɪt] *v.* emlatmoq. **vaccination** *n.* eqtlash. **vaccine** [væksɪ:n] *n.* ziddi zahar, vaksina (yuqumil kasalliklarning oldini olish va davolash uchun ishlatiladigan em dan).

**vacillate** [væsi'leɪt] *v.* tebranmoq, silkinmoq, qimirlamoq, hilpiramoq; ikkilanmoq, taraddudlanmoq. **vacillation** *n.* tebranish,

dirillash, qimirlash; (inconstancy) o'zgaruvchanlik, subutsizlik, luturiqsizlik.

**vacuity** [vækju:ɪtɪ] *n.* bo'shlik, xolilik. **vacuous** [vækjuəs] *adj.* ichi bo'sh, kovak; (foolish) bema'ni, farosatsiz. **vacuum** *n.* vakuum (berk idish ichidagi havoning yoki gazning siyraklashgan holati); (fig.) bo'shlik, xolilik; - cleaner changyutgich, chang tozalagich; - flask termos (ichidagi issiq yoki sovuq narsani deyari bir holalda saqlaydigan idish). **vacuum-clean** *v.* changyutgich bilan tozalamoq. **vade-mecum** [vɑ:dɪ'meɪkəm, veɪdɪ'mɪ:kəm] *n.* yo'l ko'rsatkich, sa-yohatnoma.

**vagabond** [vægə'bɒnd] *n.* daydi, darbadar, sang'ib yuruvchi; *attr.* beqaror, beorom; ko'chmanchi. **vagabondage** *n.* darbadarlik, daydilik. **vagabondize** *v.* daydib yummoq, sang'ib, kezib yummoq, darbadar bo'lib yummoq.

**vagary** [veɪgəri] *n.* injqlik, erkalik, xarxasha.

**vagina** [və'dʒaɪnə] *n.* qin (ayollar jinsiy a'zosi).

**vagrancy** [veɪgrənsɪ] *n.* darbadarlik, daydilik, sarsonlik, sargardonlik. **vagrant** *adj.* beqaror, beorom; sayoq; *n.* daydi, dar-

badar, sang'ib yuruvchi.

**vague** [veɪg] *adj.* (*indeterminate, uncertain*) notayin, mujmal, dudmol; (*unclear*) noaniq, g'ira-shira, xira; (*absent-minded*) parishon, parishonxotir. **vague-ness** *n.* nomi'lumlik, noaniqlik, belgisizlik; betayinlik; (*absent-mindedness*) parishonxotirlik, parishonlik.

**vain** [veɪn] *adj.* (*futile*) foydasiz, ma'nosiz, bekor, behuda; (*empty*) ichi bo'sh, kovak; (*conceited*) o'ziga bino qo'ygan, o'zini yaxshi ko'radigan; **in** = bekor-ga, behudaga. **vainglorious** *adj.* shuhratparast, mag'rur, maqtanchoq, maqtanchoqlik bilan ayitgan. **vain'glory** *n.* shuhratparastlik, manmanlik, mag'rurlik, maqtanchoqlik.

**valance** [væləns] *n.* burma, parda, to'r hoshiya.

**vale** [veɪ] *n.* vodi, voha.

**valadiction** [væli'dɪkʃ(ə)n] *n.* xayrlashish, xo'shlashish, vidolashish. **valadictory** *adj.* xayrlashuv.

**valency** [vælɪənsɪ] *n.* valentlik (*biror unsur atomining muayyan miqdordagi vodород atomlari bilan qo'shila olishi*).

**valentine** [vælən'teɪn] *n.* (*sweet-heart*) ma'shuq, mahbub, yor; (*card*) ishqiy maktub.

**valerian** [væltəriən] *n.* valeryan o'simligi (*bu o'simlik ildizidan dor tayarlanadi*); (*med.*) valeryan dorisi, valeryanka.

**valet** [vælət, -ləɪ] *n.* kamerdiner, xizmatkor, qarol, kamerdiner.

**vallant** [vælənt] *adj.* bolir, mard, jasur.

**valid** [vælid] *adj.* haqiqiy, chin, kuchini yo'qotmagan, amaldagi; (*weighty*) vazni og'ir, tarozi bosadigan. **validate** *v.* (*ratify*) tasdiqlamoq, tasdiq qilmoq; (*declare valid*) kuchini yo'qotmaganligini e'lon qilmoq. **validity** [væ'lɪdɪtɪ] *n.* haqiqiylik, yaroqlik.

**valise** [væ'lɪz] *n.* sakvoya (*buyum solib yuritiladigan jamadonsimon sumka*), jamadon.

**valley** [væli] *n.* vodi, voha.

**valorous** ['vælərəs] *adj.* shonli, shavkatli, jasur. **valour** *n.* botirlik, jasorat, qahramonlik, mardlik; shon-shavkat, shon.

**valuable** ['væljəb(ə)l] *adj.* qimmatli, qimmatbaho; (*costly*) qimmat; qimmatbaho narsalar. **valuation** *n.* baho; baho qo'yish. **value** *n.* qimmatbaho narsa; (*cost, worth*) baho, narx; (*significance*) ahamiyat, qiymat; (*math.*) kattalik, miqdor; (*mus.*) uzoqlik, cho'zqlik, uzoqqa cho'zilish; ~ **judgement** sub'ektiv baho; *v.* (*estimate*) baho qo'y-

moq, baholamoq; (*hold dear*) qadriamoq, qadriga yetmoq. **value-added**: - tax qo'shimcha qiymat solig'i. **valueless** *adj.* befoyda, behuda, hech narsaga arzimaydigan. **valuer** *n.* baholovchi, narx qo'yuvchi.

**valve** [vælv] *n.* (*tech., med., mus.*) klapan, qopqoq, qopqoqcha; (*tech.*) ventily (mashina, to'p va sh.k. larning rezina kamerasiga havo yuborish uchun ishlatiladigan jo'mrak singari kichkina trubka); (*radio*) elektr lampasi.

**vamp'** [væmp] *n.* (*of shoe*) poyabzaining oid qismi; (*patched-up article*) pala-partish tuzatilgan maqola; (*mus.*) tayyorgarliksiz jo'r bo'lib chalish; *v.* (*repair*) tuzatmoq, yamamoq.

**vamp'** [væmp] *n.* (*flirt*) yo'ldan ozdiruvchi, vasvasa qiluvchi.

**vampire** [væmpaɪə(r)] *n.* (*also fig.; also - bat*) qonxo'r, vampir (*afsonaviy maxluq, go'yoki u odamzol qoni bilan oziqlanar emish*).

**van'** [væn] *n.* (*road vehicle, caravan*) furgon, soyavon arava; (*rail*) yuk (*luggage*), tovar (*goods*), xizmat (*guard's*) vagoni.

**van'** [væn] *n.* (*vanguard*) avangard, ilg'or, oldingi.

**vandal** [vænd(ə)] *n.* vandal (*madaniy yodgorliklarni xarob qiluvchi, johil, nodon*), bezoril.

**vandalism** *n.* vandalizm (*madaniy yodgorliklarni, boyliklarni vahshiyarcho xarob elish, yemirib tashlash*), yovvoyilik, zolimlik. **vandalize** *v.* buzmoq, vayron qilmoq.

**vane** [veɪn] *n.* (*weathercock*) flyuger (*shamol qaysi tomondan esishini ko'rsatadigan temir parrak*); (*of windmill*) parrak.

**vanguard** [væŋɡə:d] *n.* avangard, ilg'or, oldingi.

**vanilla** [ve'nɪlə] *n.* vanil (*xushbo'y o'simlik*); *attr.* vanil ..., vanilli, vanilga oid.

**vanish** [væniʃ] *v.* yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq, g'oyib bo'lmoq.

**vanity** [væni'ti] *n.* (*fullity*) behuda ishlar, ovoragarchilik, besaranjomlik; (*vainglory*) shuhratparastlik, manmanlik, kekkayish.

**vanquish** [væŋkwɪʃ] *v.* (*enemy*) yengmoq, g'olib kelmoq; (*fig.*) bartaraf qilmoq, yo'qolmoq, bosmoq.

**vantage** [vɑ:ntɪdʒ] *n.* a'zallik, ustunlik, orliqlik; imtiyoz; - point manfaatli vaziyat; (*for observation*) kuzatuv punkti.

**vapid** [væpɪd] *adj.* mazasiz, be-maza; (*also fig.*) chuchmal, luzsiz; (*fig.*) zeriktiradigan, yurakni qizitadigan.

**vaporize** [veɪpə,raɪz] *v.* bug'lan-

(tir)moq, bug'ga aylan(tir)moq, quri(t)moq. **vaporizer** *n.* bug'lantirgich (*qozontarni suv bilan ta'min etish uchun suvni oldindan tozalab beradigan qurilma*). **vaporous** *adj.* bug'simon; (*vague*) noaniq, qorong'i, noravshan. **vapour** *n.* (*steam etc.*) bug'; (*mist, haze*) luman.

**variable** [veəriəb(ə)] *adj.* o'zgaruvchan, beqaror, subutsiz, tuturiqsiz, betayin; (*weather*) o'zgaradigan; (*also math.*), o'zgaruvchi; *n.* (*math.*) o'zgaruvchi miqdor. **variance** *n.* (*disagreement*) kelishmovchilik, ixtilof; (*change*) o'zgartirish; o'zgarish; (*disparity*) mos emaslik, muvofiq bo'lmaslik, to'g'ri kelmaslik; *be at - with* fikrlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi. **variant** *n.* variant, tur, xil; *adj.* har xil, turli, boshqa-boshqa. **varl'atlon** *n.* (*varying*) o'zgarish, o'zgartirish; (*variant*) variant, nusxa, har xillik, farq; (*variety*) variant, tur, xil (*bir asarning har xil shaklda bo'lishi*); (*mus., math.*) variatsiya (*musiqqa mavzuining turli shaklda ishlanishi; ayrim qismlarning turli shaklda bo'lishi*).

**varicose** [veəri,keus] *adj.*: - vein vena qon tomirlarining kengayishi.

**variegate** [veəri,geɪt, -riə,geɪt] *v.* rang-barang qilmoq; (*diversify*) xilma-xil qilmoq, turli tusga kiritmoq, rang-barang qilmoq, turli shakl bermoq. **variegated** *adj.* rang-barang, turli rangdagi, ola, ola-bula. **variety** [ve'riəti] *n.* rang-baranglik, har xillik; (*sort*) tur, xil; (*multitude*) ko'p; talay, allaqancha; - *show estrada konserti*. **various** *adj.* (*of several kinds*) turli, har xil, xilma-xil; (*different, several*) boshqa-boshqa; (*diverse*) turli-tuman, rang-barang.

**varnish** [vɑ:nɪʃ] *n.* lak, lak bo'yoq; (*fig.*) yaltiroq, jilo, sayqal; *v.* laklamoq, lak bilan pardoz bermoq. **varnishing** *n.* laklash, pardozlash.

**vary** [veəri] *v.* xilma-xil qilmoq, turli tusga kirdlmoq, o'zgartmoq; (*change*) o'zgarimoq; (*differ*) farq qilmoq, boshqa bo'lmoq, ayilib tumoq; (*disagree*) rozi bo'lmaslik.

**vase** [vo:z] *n.* guldon.

**vaseline** ['væsi,li:n] *n.* vazelin (*libbiyot, texnika va pardozda ishlatiladigan maxsus moy*).

**vassal** [væs(ə)] *n.* vassal (*o'ra aslarda yirik feodal, hukmdorga qaram bo'lib, uning buyrug'ni bajarishga majbur bo'lgan katta yer egasi; qaram kishi yoki*



- qaram davlat).
- vaal** [vo:st] *adj.* juda katta, ulkan, keng. ko'p. *vastly adv.* ancha, anchagina, birtalay, ko'pgina.
- vastness** *n.* kenglik, kattalik, ko'plik.
- VAT** *abbr.* (of *value added tax*) qo'shimcha qiymat solig'i.
- vat** [væɪ] *n.* chan (yog'och yoki metallidan yasalgan katta bochka), bak (suyuqlik solib qo'yiladigan katta metall idish).
- Vatican** [ˈvætɪkən] *n.* Vatikan.
- vaudeville** [ˈvo:deɪvɪl, 'vœv-] *n.* vodevil (odatda ashula aytib o'ynaladigan kichik hajviy pesa).
- vault** [ˈvo:lt, vɒlt] *n.* (leap) sakrash, irg'ish, sapchish; *v.* sakrab o'tmoq, irg'ib (hallab) o'tmoq; sakramoq, irg'imoq. **vaulting-horse** *n.* gimnastika oti (*mas'iq asbabi*).
- vault**<sup>2</sup> [ˈvo:lt, vɒlt] *n.* (arch, covering) gumbaz; qubba; (*cellar*) yer to'la; (*burial* -) yer ostidagi sag'ana; *v.* ustidan gumbaz solmoq. **vaulted** *adj.* gumbaz (qubba) shaklidagi, gumbazsimon.
- VCR** *abbr.* (of *video cassette recorder*) videomagnitofon.
- VD** *abbr.* (of *venereal disease*) tanosil kasalligi.
- VDU** *abbr.* (of *visual display unit*) display, ekran.

- veal** [vi:t] *n.* buzoq go'shli; *attr.* buzoqqa oid.
- vector** [ˈvektə(r)] *n.* (*math.*) vektor (miqdor va yo'nalishga ega bo'lgan kattalik; *shunday kattalikni ko'rsatuvchi kesma*); (*carrier of disease*) infeksiya tarqatuvchi.
- veer** [viə(r)] *v.* (*change direction*) yo'nalishni o'zgartirmoq; (*turn*) aylantirmoq, buramoq, burmoq, o'girmoq; - *away from* o'zini orqaga lashlamoq, o'zini olib qochmoq.
- vegetable** [ˈvedʒɪtəb(ə)l, 'vedʒɪ-  
teb(ə)l] *n.* sabzavot; *adj.* o'simliklarga oid; (*of vegetables*) sabzavotli. **vegetarian** [ˈvedʒɪ-  
teəriən] *n.* vegetarian (*go'sht yemay, faqat sabzavot va mevalardan tayyorlangan ovqatlarni iste'mol qiluvchi*); *attr.* vegetarlan ..., go'shtsiz, nuqul sabzavotlardan tayyorlangan. **vegetarianism** *n.* go'sht yemaslik, go'sht yemasdan sabzavot va mevalarni iste'mol qilish. **vegetate** *v.* o'smoq; (*fig.*) xor-zor bo'lmoq, foydasiz yashamoq, bema'ni kun kechirmoq. **vegetation** *n.* o'simliklar; (*fig.*) xor-zor bo'lish, bema'ni kun kechirish. **vegetative** *adj.* o'simliklarga oid; (*biol.*) vegetativ, o'stiradigan (*organizmning o'sishi, ko'payishi*)

va *urchishi haqida*); (*fig.*) bema'ni kun kechiradigan.

**vehemence** [vi:eməns] *n.* (*force*) kuch, quvvat; (*passion*) qoni qaynoqlik, ehtiroslik. **vehement** *adj.* (*forceful*) kuchli, zo'r, quvvatli, qattiq; (*passionate*) hirsli, ehtiroqli, serzavq, qizg'in.

**vehicle** [vi:k(ə)l, 'vɪk(ə)l] *n.* transport vositasi; (*motor* -) avtomobil; (*medium*) vosita. **vehicular** [vi:tʃkj(ə)l(r)] *adj.* (*conveying*) tashish ..., tashiydigan, ko'chiradigan; (*of motor transport*) avtomobilga oid.

**veil** [veɪl] *n.* vual, to'r, choyshab; (*fig.*) parda, niqob; (*pretext*) bahona, va; *v.* to'r (choyshab, yopinchiq) bilan yopmoq; (*fig.*) yashirmoq, bekitmoq.

**vein** [veɪn] *n.* vena, ko'k tomir (*qonni yurakka olib keladigan tomirlar*); (*of leaf; streak*) qon tomiri, kichkina tomir; taram; *in the same* - shu tarzda. **veined** *adj.* yozib (chizib) taram qilib tashlangan, dog'-dug' qilib yuborilgan.

**vellum** [velem] *n.* (*parchment*) yupqa pergament (*moy va nam o'tkazmaydigan yupqa qog'oz*); (*paper*) yaltiroq, qalin, a'lo navli qog'oz.

**velocity** [vi'ləstɪ] *n.* tezlik, sur'at.

**velour(s)** [ve'lʊə(r)] *n.* velyur (ma-

to); (*attr.*) velyurli, velyurdan tikilgan.

**velvet** [velvɪt] *n.* duxoba, baxmal (*malto*); *adj.* duxobadan, baxmaldan tikilgan. **velveteen** *n.* velvel, ipduxoba (*duxobaga o'xshagan ip-gazlama*). **velvety** *adj.* baxmalga o'xshash, baxmalimon, baxmalday.

**venal** [vi:n(ə)l] *adj.* soliladigan; sotqin, sotilgan. **venality** [vi:'nəli:ti] *n.* sotqinlik.

**vend** [vend] *v.* solmoq, sotib birmoq. **vending-machine** *n.* sotuv avtomati. **vendor** [vendə(r), -dɔ:(r)] *n.* soluvchi, mol soluvchi xodim.

**vendetta** [ven'deta] *n.* qasos, xun.

**veneer** [vi:nə(r)] *n.* qoplama, tana; (*fig.*) sayqal, pardoz.

**venerable** [venerəb(ə)l] *adj.* hurmatli, muhtaram, hurmatga loyiq. **venerate** *v.* izzat-hurmat qilmoq, qadrdamoq, ehtiroq qilmoq; ixlos qo'ymoq. **veneration** *n.* izzat-hurmat qilish, qaddash, aziz ko'rish. **venerator** *n.* hurmatlovchi, qadrdovchi, izzat qiluvchi.

**veneral** [vi'nɪərəl] *adj.* tanosi kasali.

**venetian blind** [vi'nɪ:(ə)n] *n.* jalyuzi, chiy parda (*derazaga tutladigan chiy parda*).

**vengeance** [vɛndʒ(ə)ns] *n.* o'ch, qasos, xun, o'ch olish, qasos olish, qasd olish; *take ~* o'ch olmoq, qasos olmoq; *with a ~* lom ma'nosi bilan (butunlay, mullaqo); (*with might and main*) asloylidil, zo'r berib. **vengeful** *adj.* o'ch oluvchi, qasos oluvchi.

**venial** ['vi:nɪəl] *adj.* kechirimli, kechirsa bo'ladigan.

**Venice** [vɛnɪs] *n.* Venetsiya.

**venison** ['vɛnɪs(ə)n, -z(ə)n] *n.* bug'u go'shli.

**venom** [vɛnəm] *n.* zahar. **venomous** *adj.* zaharli, og'uli.

**vent'** [vɛnt] *n.* (*opening*) chiqish; chora, tadbir, iloj (*also fig.*) teshik, yoriq, tuynuk, tirqish; (*air-hole*) havoni tortadigan teshik, mo'ri, tuynuk; *v.* (*feelings*) yuragini bo'shalmoq, izhor etmoq; (*smoke etc.*) chiqarmoq; (*opinion*) aytilmoq, bayon etmoq.

**vent'** [vɛnt] *n.* (*slit*) kesik, yoriq. kesilgan joy; kesma; kesish, qirqish, qiyish.

**ventilate** [vɛntɪlət] *v.* shamollatmoq, havoni yangilamoq; (*fig.*) muhokama qilmoq, muzokara qilmoq, fikr alishmoq. **venti'lation** *n.* ventilyatsiya (*bin*) havosini yangilash uchun o'rnatilgan ventilyator va quvurlar tizimi). **ventilator** *n.* ventilyator, shamolparrak.

**ventral** [vɛntr(ə)] *adj.* qoringa, qursoqqa oid.

**ventricle** [vɛntrɪk(ə)] *n.* qorincha (*yurak qorinchasi, miya qorinchasi*).

**ventriloquism** [vɛn'trɪlə,kwɪ-z(ə)m], **ventriloquy** *n.* og'izni ochmasdan gapirish, ichdan gapirish. **ventriloquist** *n.* og'izni ochmasdan gapira oladigan kishi, og'izni ochmasdan gapiruvchi. **ventriloquize** *v.* og'izni ochmasdan gapirmoq.

**venture** [vɛntʃə(r)] *n.* tavakkal ish; (*speculation*) spekulyatsiya, olib sotarlik, chayqovchilik; *at a ~* taxminan, lavakkal qilib, tusmollab; *v.* (*hazard, dare*) jur'at qilmoq, jasoral ko'rsalmoq; (*risk*) xavf ostiga qo'yimoq, qo'rqinchli ishga kirishmoq; lavakkal qilmoq; - *an opinion, guess* fikrini aytishga jur'at qilmoq. **venturesome** *adj.* (*person*) qo'rqmas, dadil, jasur; (*enterprise*) qo'rqinchli, xavfli, xetarli.

**venue** [vɛnju:] *n.* uchrashuv joyi. **veracious** [vɛ'reɪʃəs] *adj.* rostgo'y, samimiy. **veracity** [vɛ'ræsɪtɪ] *n.* rostgo'ylik, samimiylik.

**veranda(h)** [vɛ'rændə] *n.* pashayvon, raven.

**verb** [vɜ:b] *n.* fe'l. **verbal** *adj.* og'zaki; (*gram.*) fe'ldan yasalgan. **verbalize** *v.* so'z bilan ifodala-

moq; ko'p so'zli (sergap, ezma) bo'lmoq. **verbatim** [vɜ:'beɪtɪm] *adj.* aniq, to'g'ri, raso, so'zmaso'z, aynan; *adv.* aynan, so'zmaso'z, harfma-harf. **verblage** *n.* ko'pso'zlik, gapni cho'zib yuborish, ezmalik, gapni ko'paytirish. **verbose** [vɜ:'beɪs] *adj.* ko'pso'zli, ortiqcha gapli ko'p, ezma. **verbosity** [vɜ:'bɔ:sɪtɪ] *n.* gapni cho'zib yuborish, ezmalik, gapni ko'paytirish.

**verdant** [vɜ:'d(ə)nt] *adj.* yashil, ko'k.

**verdict** [vɜ:'dɪkt] *n.* hukm, qaror, to'xtam; (opin-ion) o'y, fikr; muhaza.

**verdigris** ['vɜ:'dɪgrɪs, -grɪ:s] *n.* zangor bo'yoq, yashil bo'yoq.

**verdure** [vɜ:'dʒə(r)] *n.* ko'kalamzor, maysazor, o'simliklar, barglar; ko'kal, sabzavol.

**verge**<sup>1</sup> [vɜ:'dʒ] *n.* (also *fig.*) chet, chek, chekka; (of road) yo'l chetl, yo'l chekkasi; (*fig.*) had, chegara; (*ecccl.*) aso, hassa; on the ~ of yoqasida; he was on the ~ of telling all sai bo'lmasa u hammasini aytib berardi.

**verge**<sup>2</sup> [vɜ:'dʒ] *v.* egilmoq, bukilmoq; ~ on chegaradosh bo'lmoq, yondosh bo'lmoq.

**verger** [vɜ:'dʒə(r)] *n.* cherkov xodimi, ruhoni.

**verification** [vɜ:'fɪ:kəɪʃ(ə)n] *n.*

tekshirish, sinash; (*confirmation*) tasdiqlash, ta'kidlash, isbotlash. **verify** [vɜ:'faɪ] *v.* tekshirmoq, sinamoq; (*confirm*) tasdiqlamoq, isbotlamoq. **verisimilitude** [vɜ:'zɪ:'mɪlɪ,tju:d] *n.* haqiqatga o'xshashlik. **'veritable** *adj.* chin, asl, haqiqiy. **'verity** *n.* haqiqat.

**vermicelli** [vɜ:'mɪ'sɛlɪ, -ʃɛlɪ] *n.* vermishel (quritilgan ugraning bir turi).

**vermilion** [vɜ:'mɪljən] *adj.* to'q qizil; *n.* kinovar (qizil rangli mineral va undan qilingan rang, bo'yoq).

**vermin** [vɜ:'mɪn] *n.* zararkunandalar; (*fig.*) tashlandiq, razillar, pallidlar. **verminous** *adj.* zararkunandalar bilan to'lib-toashgan; (*fig.*) jirkanch, qabih, juda yomon.

**vermouth** [vɜ:'məθ, vɜ:'mu:θ] *n.* vermüt (musallasning bir turi).

**vernacular** [vɜ:'nækjələ(r)] *adj.* (*native, of language*) qarindosh, qondosh, o'z; (*local, of dialect*) tub joyga oid; yerli, mahalliy; (*national, folk*) xalq ..., xalqqa oid; (*colloquial*) so'zlashuv ..., so'zlashuvga oid; *n.* ona tili; mahalliy sheva; (*homely language*) xalq tili, so'zlashuv tili.

**vernal** [vɜ:'n(ə)l] *adj.* bahorgi, ko'klamgi.

**verruca** [və'ru:kə] *n.* so'gal.

**Versailles** [vɜ:'seɪ] *n.* Versal.

**versatile** [vɜ:'sɑ:təl] *adj.* ko'p yoqli; har narsadan xabardor, ko'p narsani biladigan; (*flexible, of mind*) qayishqoq; uddaburon, moslashuvchan, epchil. **versatility** *n.* ko'p yoqlik; har narsadan xabardorlik; qayishqoqlik; uddaburonlik.

**verse** [vɜ:'s] *n.* (*also bibl.*) nazm, she'r; (*stanza*) bayt, she'r bandi; (*poetry*) poeziya, she'riyat, nazm. **versed** *adj.* tajribali, usta, mohir, ma'lumotli. **versify** [vɜ:'sɪfaɪ] *v.* she'r yozmoq; *v.* she'rga solmoq.

**version** [vɜ:ʃ(ə)n] *n.* (*variant*) variant, tur, xil (*bir asaming har xil shaklda bo'lishi*); (*interpretation*) naql, rivoyat (*bir narsa yoki bir voqea to'g'risidagi turlicha xabar*); (*text*) matn.

**versus** ['vɜ:səs] *prep.* qarshi, qarshida, qarshisida, ro'parada.

**vertebra** ['vɜ:tɪbrə] *n.* umurtqa, orqa suyak; umurtqa pog'onasi.

**vertebral** *adj.* umurtqali. **vertebrate** *n.* umurtqali hayvonlar.

**vertex** [vɜ:'teks] *n.* ush, bosh, tepa, uch, cho'qqi; (*anat.*) boshning qoq o'rtasi, miya. **vertical** *adj.* vertikal, tik.

**vertiginous** [vɜ:'tɪdʒɪnəs] *adj.* (*dizzy*) boshni aylantiradigan,

esankiraladigan, gangitadigan; (*rotating*) aylanadigan. **vertigo** [vɜ:'lɪ,ɡeɪ] *n.* bosh aylanish, esankirash, miya aynishi, gangush.

**verve** [vɜ:v] *n.* g'ayrat, shavq-zavq, ko'tarlilik, lashabbus.

**very** [vɜ:] *adj.* (*that - same*) xuddi o'zi, xuddi o'sha; (*this - same*) xuddi shu; *at that - moment* xuddi o'sha paytda, shu paytda; (*precisely*) aynan, xuddi, rosa; *you are the - person I was looking for* aynan sizni qidirgan edim; *the - (even the) hallo, hattoki, ham*; *the - thought frightens me* hatto bu haqda o'ylashning o'ziyoq meni dahshatga soladi; (*the extreme*) eng; *at the - end* oxirida, oqibatda, xullas, natijada; *adv.* juda; *~ much* nihoyatda, juda ham; *~ first* eng birinchi; *~ well* (*agreement*) yaxshi, durust, ko'p, ma'qul; *not ~ unchalik* emas.

**vesicle** [vɜsɪk(ə)] *n.* pufakcha.

**veppers** ['vespeɪ] *n.* kochki ibodat (*nasroniyterda*).

**vessel** [vɜs(ə)] *n.* idish; (*ship*) kema.

**vest** [vest] *n.* mayka (*yengsiz trikotaj ko'ylak*); (*waistcoat*) nimcha, yengsiz kalta kiyim.

**vest** [vest] *v.* (*with power*) ega bo'lmoq, bermoq; (*rights*) taq-

- dim etmoq. **vested** *adj.*: - **Inter-est** shaxsiy manfaatdorlik (foyda, qiziqish); - **Interests** (*property rights*) mol-mulk huquqlari; (*entrepreneurs*) yirik korxonaga'lari (sohibkor); - **rights** mutlaq huquqlar.
- vestibule** [vɛstɪbju:l] *n.* veslibyul (*məktab, kino, teatr binolarining eshikdan kirishdagi katta dahlizi*).
- vestige** [vɛstɪdʒ] *n.* (*trace*) iz, asar; (*sign*) belgi, ishora, lamg'a, nishon, alomat.
- vestments** [vɛstməntz] *n.* kiyim, kiyim-kechak, ust-bosh; (*ecccl.*) ruhoniylarning ibodat vaqtilida kiyadigan kiyimi. **vestry** *n.* riznitsa (*cherkov yonida rizalarni va cherkov asbob-anjomlarini saqlaydigan bino*).
- Vesuvius** [visu:vɪəs]: Mt ~ **Ve-zuviy vulqoni**.
- vet** [vɛt] *n.* veterinar, mol shifokori; *v.* (*fig.*) tekshirmoq, tekshirib chiqmoq.
- vetch** [vɛtʃ] *n.* vika, xashaki no'xat.
- veteran** [vɛtərən] *n.* faxriy, xizmat ko'rsatgan; *adj.* qari, keksa, chol.
- veterinary** [vɛtərɪnəri] *adj.* veterinar yaga oid; *n.* veterinar, mol shifokori.
- veto** [vi:təu] *n.* veto, taqiq (*biror qonunni yoki qarorni taqiqlash, man qilish*); *v.* biror narsani taqiq-lamoq; man qilmoq, taqiq-lamoq.
- vex** [vɛks] *v.* alam qildirmoq, af-suslantirmoq, ranjiltmoq, azob bermoq. **ve'xation** *n.* alam, xo'rlik, xafallik, o'kinch, afsus.
- vexed** *adj.* (*annoyed*) ranjigan, xafa bo'lgan, dili og'rikan; (*ques-tion*) janjall, hal qillnmagan, chigal. **ve'xatious, vexing** *adj.* alam qiladigan, achinari, afsusli, pushaymonli.
- vial** [vaɪə] *prep.* dan, ustidan.
- viable** [vaɪəb(ə)l] *adj.* yashashga qobil, yashovchan, tirikchilik yo'l-larini bilgan; (*practicable*) amal-ga oshirib bo'ladigan, yuzaga chiqarsa bo'ladigan, bajarib bo'ladigan.
- viaduct** [vaɪə,dʌkt] *n.* viaduk (*te-mir yo'l, yo'l, tog' oralig'i va sh.k. ustidan solingan ko'prikl*).
- vial** [vaɪəl] *n.* pufakcha.
- vibrant** [vaɪbrənt] *adj.* (*vibrating*) dirillaydigan, titraydigan, tebranadigan; (*resonating*) aks sado beradigan, rezonans beradigan; (*trem-bling*) titraydigan, qaltiraydigan. **vibrat** *v.* dirillamoq, tit-ramoq, qaltiramoq, zillamoq; (*to sound*) tovush chiqarmoq, yang-lamoq; (*make -*) vibratsiyani (tebranishni) keitirib chiqarmoq.

vibration *n.* vibratsiya, tebratlash, litrash.

vicar [v'ika(r)] *n.* biron cherkovga qarashli mahalla (qavm) ruhoniysi. vicarage *n.* ruhaniy uyi.

vicarious [v'ikeer'ee] *adj.* (*deputizing for another*) bironing vazifasini bajarib turadigan (o'rnini bosadigan); (*indirect*) bivosita, bilvosita, chetdan keltirilgan.

vica' [v'at] *n.* (*evil*) buzulqik, illat, nuqson, kamchilik.

vice' [v'at] *n.* (*tech.*) gira, iskanja, taxlakach.

vice- [v'at] *in comb.* vitse- (*qo'shma so'zlamning o'rinbosar, yordamchi, ma'nosida ishlatiladigan birinchi qismi*), o'rinbosar, muovin; - admiral vitse-admiral (*harbiy dengiz flotida oliy qo'mondonning o'rinbosari*).

vice-chairman *n.* rais o'rinbosari.

vice-chancellor *n.* (*univ.*) prorektor, rektor yordamchisi.

vice-president *n.* vitse-prezident (*prezident yordamchisi*).

vice versa [v'at] 'v'is:se] *adv.* teskarisiga, aksincha; qaytaga.

vicinity [v'isintri] *n.* atrof, levarak, qo'shnilik, qo'shnichilik, yaqinlik; *in the* - yaqin atrofda.

vicious [v'ifes] *adj.* xulqi yomon, axloqsiz, beadab; (*spiteful*) badjahl, serjahl; yomon niyatli,

kekil, yovuz; (*cruel, brutal*) rahmsiz, shafqatsiz, bag'ritosh, toshko'ngil. viciousness *n.* xulqi yomonlik, axloqsizlik; rahmsizlik, shafqatsizlik.

viciousness [v'itsis:tu:d, var-] *n.* buzulqik, yolg'onlik, haqiqatga terslik, egrilik.

victim [v'iktim] *n.* qurbon, qurbon qilish. victimisation *n.* ta'qib etish, payiga tushish. victimize *v.* (*harass*) uchun qiynamoq; (*persecute*) ketidan quvmoq, paviga (izlga) tushmoq, ta'qib qilmoq.

victor [v'ikta(r)] *n.* yenguvchi, g'alib, zo'r chiqqan.

Victorian [v'ikt'o:rian] *adj.* eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan; modadan qolgan, urf bo'lmagan.

victorious [v'ikt'o:ri:es] *adj.* (*army*) g'alibona, g'alaba keltiruvchi, g'alabali, muzaffar, (*procession etc.*) yangishga, g'alabaga oid. victory [v'iktari] *n.* g'alaba, yengish, zafar.

victual [v'it(a)] *v.* oziq-ovqat bilan ta'minlamoq. victualer [v'it-le(r)] *n.* mol yetkazib beruvchi, mol bilan ta'minlab turuvchi. victuals *n.* ovqat, oziq, taom.

vide [v'idei, 'vi:-, 'vaidi] *impar.* qara, boq, tomosha qil.

video (recorder) *n.* videomag-

- nitofon**; ~ **cassette** videokasseta; ~ **recording** video-yozuv; **v.** (videoga) yozib olish. **videotape** *n.* videolasma; videoyozuv.
- vla** [vat] *v.* raqobat qilmoq; tenglashmoq, baravar bo'lmoq.
- Vienna** [vi'ene] *n.* Vena (shahar).
- Vietnam** [vjet'nəəm] *n.* Vyetnam (davlət).
- view** [vju:] *n.* (*prospect, picture*) manzara; ko'rinish; (*opinion*) fikr, nuqtayi nazar, mulohaza, nazar; (*viewing*) ko'rib (qarab) chiqish, ko'zdan kechirish, ko'z yugurtirib chiqish; (*inspection*) ko'rik, qarab chiqish, ko'zdan kechirish; **in** ~ **of** sababli, uchun; **on** ~ ko'rgazmaga qo'yilgan; **with** a ~ **to** maqsad bilan; *v.* (*pictures etc.*) qaramoq, ko'zdan kechirmoq; televizor ko'rmoq. **viewer** *n.* tomoshabin; (*for slides*) proektor (*kinematografiyada* qo'llaniladigan proeksiya apparati). **viewfinder** *n.* videoiskatel (*fotoapparatda* olinadigan tasvimi aniqlab beruvchi, ramkaga o'xshash asbob). **viewpoint** *n.* nuqtayi nazar.
- vigil** [vidʒɪl] *n.* bedor bo'lish, hushyor bo'lish, uxlamay yotish; **keep** ~ bedor bo'lmoq, hushyor bo'lmoq, uxlamay yotmoq, navbatchilik qilmoq, navbatda turmoq. **vigilance** *n.* hushyorlik, ogohlik, sergaklik. **vigilant** *adj.* hushyor, sergak. **vigilante** [vidʒɪlənt] *n.* drujinachi, drujina a'zosi.
- vignette** [vi:'net] *n.* vinetka (*kitob boblarining boshi yoki oxiriga* chizilgan gul).
- vigorous** [vɪgərəs] *adj.* kuchli, zo'r, quvvatli, g'ayratli, serharsat, qizg'in, keskin. **vigour** *n.* kuch, quvvat, g'ayrat.
- vile** [vaɪl] *adj.* (*base*) pastkash, razil, yaramas, qabih, past, tuban; (*disgusting*) jirkanch, qabih, juda yomon. **vileness** *n.* pastkashlik, razillik, qabihtlik; juda yomonlik, jirkanchlik. **villfy** [vɪl,faɪ] *v.* qaralamoq, badnom qilmoq, yomon otlq qilmoq.
- villa** ['vɪlə] *n.* villa (*shahardan tashqerida* chiroyli binolari bo'lgan katta uy).
- village** [vɪlɪdʒ] *n.* qishloq, katta qishloq; *attr.* qishloqqa oid, qishloqi, qishloqdagi. **villager** *n.* qishloqlik, qishloqda turuvchi.
- villain** ['vɪlən] *n.* jinoyatchi, yomon, yovuz (odam). **villainous** *adj.* jinoyatga oid, yovuzlikka oid; yovuzlarcha. **jinoyatkorona, jinoyiy;** (*foul*) yaramas, yomon, iflos, jirkanch. **villainy** *n.* yovuzlik, jinoyilik.
- Vilnius** [vɪlnɪəs] *n.* Vilnyus (shahar).



**vim** [vɪm] *n.* energiya, quvvat; g'ayrat, qat'iyat.

**vinalgrette** [vɪn'ɪgrɛt] *n.* (*dress-ing*) sirka va zaytun yog'idan qayla.

**vindicate** [vɪndɪ'keɪt] *v.* (*justify*) oqlamoq, aybsiz deb topmoq; (*stand up for*) himoya qilmoq, saqlab olmoq. **vindication** *n.* (*justification*) aybsiz topish, lo'g'ri deb topish, oqlab hukm chiqarish; (*defence*) mudofaa, yoqlash, saqlash, himoya qilish.

**vindictive** [vɪn'dɪktɪv] *adj.* o'ch oluvchi, qasos oluvchi.

**vine** [vaɪn] *n.* tok novdasi.

**vinegar** [vɪnɪ'ge(r)] *n.* sirka; *attr.* sirkali, sirkadan tayyorlangan. **vinegary** *adj.* nordon, qimizak, achchiq.

**vineyard** ['vɪnjɑ:d, -jɑd] *n.* tok, lokzor.

**vintage** [vɪntɪdʒ] *n.* hosil, uzumni yig'ish (to'plash, terish); (*wine*) ma'lum bir yilda terib tayyorlangan sharob (may, musallas); *attr.* (*wine*) markali, saralangan, navli; (*car*) eski, minilgan.

**viola** [vaɪə'leɪ] *n.* (*mus.*) alt (*skripkadan kattaroq musiqasobibi*).

**violate** [vaɪə'leɪt] *v.* (*treaty, privacy*) buzmoq; (*grave*) harom qilmoq, murdor qilmoq, bulg'atmoq, iflos qilmoq; (*rape*) majbur qilmoq, zo'ravonlik qilmoq, zo'r-

lamoq, jabr etmoq. **vio'lation** *n.* buzlash; harom qilish, bulg'ash; zo'rlik, zulm, jabr. **violator** *n.* buzuvchi, qoidaga xilof ish qiluvchi.

**violence** [vaɪələns] *n.* (*physical coercion, force*) zo'rlik, zulm, jabr; (*strength, force*) kuch, darmon, quvvat. **violent** *adj.* (*person*) rahmsiz, yovuz; (*storm etc.*) kuchli, shiddalli, qattiq; (*quarrel*) qattiq, beshafqat; (*pain*) kuchli, qattiq; (*epoch*) jo'shqin, og'ir; (*death*) zo'rlik bilan qilingan, zo'raki, majburiy. **violently** *adv.* qattiq, mahkam, juda.

**violet** [vaɪələt] *n.* (*bot.*) binafsha, gunafsha; (*colour*) gunafsha rang, binafsha rang; gunafsha. **violin** [vaɪə'lɪn] *n.* skripka. **violinist** *n.* skripkachi, skripka chaluvi.

**VIP** *abbr.* (*of very important person*) baland martabali shaxs, yuqori mavqeli mehmon.

**viper** ['vaɪpə(r)] *n.* zaharli qora ilon; (*fig.*) tili achchiq, tili yomon, zahar, yovuz (*odam*). **viperous** *adj.* zaharli, og'uli.

**virago** [vɪ'rɑ:geɪ, -reɪgeɪ] *n.* zahar xotin, hech kim bilan chiqishmaydigan xotin, shallaqi.

**viral** [vaɪə(r)əl] *adj.* virusli.

**virgin** ['vɜ:dʒɪn] *n.* iftali qiz,

bokira; **V-** Mary Bibl Maryam; *adj.* (*also fig.*) qo'l tekklzilma-gan; - lands, soil qo'riq. **virginal** *adj.* iflatli, ma'sum, sof, pok; (*innocent*) sodda, soddadil; be-gunch. **virginity** *n.* iflat, qizlik. **Virgo** ['vɜ:ɡəʊ] *n.* Sunbula (*burj*).

**virile** ['vɪrɪl] *adj.* (*mature*) balog'atga (voyaga) yetgan, bo'yi yetgan; (*manly*) mard, bolir, jasur, dovyurak, mardonavor, qahramonona. **virility** [vɪ'rɪlɪtɪ] *n.* balog'atga (voyaga) yetganlik, yetuklik; mardlik, botirlik, qahramonlik, jasorat.

**virtual** ['vɜ:tʃʊəl] *adj.* faktik, fakt-ga asoslangan. **virtually** *adv.* asida, haqiqatda. **virtue** ['vɜ:tʃu:, -tʃu:] *n.* (*ex-cellence*) ezgulik, yaxshilik, himmat; (*merit*) qadr-qimmat, obro', e'tibor, fazilat; loyqlik; **by** - of vositasi bilan, yordami bilan, orqali, sababli, -ga ko'ra, soyasida, orqasida. **virtuosity** *n.* mohirlik, omilkorlik, ephillik. **virtuoso** [vɜ:tʃu:'əʊ-səʊ, -zəʊ] *n.* virtuoz (o'z ishi-ning, san'atining ustasi). **virtuous** *adj.* fazilali, xislatli, yaxshi, ezgu, xayrixoh; (*chaste*) to'g'ri, ma'sum, sof, iffalli, po-kiza.

**virulence** ['vɪrələns, 'vɪrɪ-] *n.* (*toxicity*) zaharlilik, zahari

bolishlik; (*power*) kuch, quvvat; (*med.*) virulentlik (*mikroblarning kasalliklarni qo'zg'atish xususiyati*); (*fig.*) kek, gina, adovat, g'azab, qahr. **virulent** *adj.* (*poisonous*) zaharli, og'uli; (*of disease*) xavfli, xatari, tahlikali; (*fig.*) badjahl, serjahl; yomon niyatli, kekli, yovuz.

**virus** ['vaɪərəs] *n.* virus (yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi).

**visa** ['vɪ:zə] *n.* viza (*chet mam-lakatga borish yoki undan qay-lish uchun pasportga yoziladi-gan ijozat belgisi*); *v.* viza qo'y-moq, ruhsat (ijozat) bermoq.

**visage** ['vɪzɪdʒ] *n.* kishi, shaxs; qiyofa; (*aspect*) ko'rinish, tus, rang.

**vis-à-vis** [vi:zə:'vi:] *adv.* betma-bet, yuzma-yuz, ro'para; *n.* ro'paradagi, qarshidagi; *prep.* (*with regard to*) munosabatda; (*opposite*) ro'parada, qarshi to-monda, betma-bet.

**viscera** ['vɪsərə] *n.* ich, qorin, ichak-chavaq.

**viscose** ['vɪskəʊz, -kəʊs] *n.* visko-za (*sun'iy ipak qilish uchun sel-lyulozadan tayyorlangan quyuc yopishqoq modda*).

**viscosity** [vɪ'akəsɪtɪ] *n.* yopish-qoqlik, yelimshaklik.

**viscount** ['vaɪkəʊnt] *n.* vikont (*Angliya, Fransiya va ba'zi*

- boshqa memlekatlarda baron bilan graf o'rtasidagi asl-zodalik unvoni). viscountess *n.* vikont xonim.
- viscous [ˈvɪskəs] *adj.* yopishqoq, yelimshak.
- visibility [ˌvɪzɪ'bɪlɪtɪ] *n.* ko'rinish; tus, surat. 'visible *adj.* ko'rinib turgan, ko'zga ko'rinadigan. 'visibly *adv.* ochiq ko'rinib turgan, oshkor, yaqqol, baralla.
- vision [ˈvɪʒ(ə)n] *n.* (sense) ko'rish, ko'z, nazar; (apparition) xayol, xayolda, ko'zga ko'ringan narsa; (insight) serfahmlilik, farosatlilik, zlyraklik; (foresight) oldindan ko'rish, payqash, kelajakni ko'rish; (on television screen) tasvir. visionary *adj.* (spectral; illusory) xayoliy, xayoldagi; (imaginary, fantastic) fantastik, aqlga sig'maydigan, odam lshonmaydigan, xayoliy; (impracticable) amalga oshirib bo'lmaydigan, yuzaga chiqarib bo'lmaydigan; (given to having visions) gallyusinatsiya (yo'q narsalarning ko'inishi, eshtilishi, sezilishi)ga moyil; *n.* (dreamer) xayol suruvchi, xayolparast.
- visit [ˈvɪzɪt] *n.* borib ko'rish, zlyoratl qilish, qatnash, davomat; (trip) safar, sayohat, biror yerga borib qaytish; *v.* borib ko'rmoq, yo'qlamoq; (call on) kirmoq, kirib chiqmoq, kirib o'lmoq; mehmonga barmoq; ba -ling mehmonda bo'lmoq. visitation *n.* (official visit) rasmiy tashrif; (ecc.) xudoning jazosi. visiting-card *n.* vizit kartochkasi. visitor *n.* mehmon, keluvchi, qatnovchi, kalib-kelib turuvchi.
- visor [ˈvaɪzə(r)] *n.* (of cap) soyabon (bosh kiyimda), qosh; (of helmet) sipar (dubulg'aning urush paytida yuzga tushirib qo'yiladigan niqabi).
- vista [ˈvɪstə] *n.* bir narsaning uzoqdan ko'rinishi, manzarasi.
- visual [ˈvɪʒ(ə)l, ˈvɪz-] *adj.* (of vision) ko'rishga oid; (graphic) ko'rgazmali; - alds ko'rgazmali o'quv qurollari. visualize *v.* tasavvur qilmoq.
- vital [ˈvaɪt(ə)l] *adj.* (also fig.) hayotga; tiriklikka, tumushga oid, hayotiy; (fig.) muhim, korakli; (lively) tirik, jonli. vitality [ˌvaɪtælɪtɪ] *n.* yashash qobiliyati, yashovchanlik; (liveliness) chaqqonlik, epchillik, ziyraklik.
- vitalize *v.* jonlantirmoq, qizitmoq, g'ayrallanlirmoq. vitals *n.* yashash uchun muhim a'zolar.
- vitamin [ˈvɪtəˌmɪn, ˈvaɪt-] *n.* vitamin, darmondori (odamning hayoli uchun zarur bo'lgan murakkab, azolli modda; shunday moddalardan tayyotangan don).

**vltlate** [vɪtˌleɪt] *v.* buzmoq, buzib qo'ymoq, shikast bermoq; (*invalidate*) kuchini yo'qotmoq, bekor (o'tmaydigan) qilmoq. **vltl'ation** *n.* buzish, xarob qilish, ishdan chiqarish; buzilish, xarob bo'lish, ishdan chiqish; (*leg.*) kuchini yo'qotish; kuchini yo'qotganligini (bekor qilinganligini) e'tirof qilish.

**vlticulture** [vɪtˌkʌltʃə(r)] *n.* tokchilik, uzumchilik.

**vltreous** [vɪtrəs] *adj.* oynasimon, shishaga o'xshagan; (*of glass*) shishadan qilingan. **vltlify** [vɪtɪˌfaɪ] *v.* oynaga, oynasimon moddaga aylan(tir)moq.

**vltrol** [vɪtnel] *n.* kuporos (*sulfat kislotasuzlarining texnikadagi nomi*); (*fig.*) achchqlik, zaharlik, zaharxandalik. **vltrollic** [vɪtr'olɪk] *adj.* kuporosga oid, kuporosli; (*fig.*) achchiq, zaharli, kinoyali, kinoyaomuz.

**vltuperate** [vɪˈtjuːpeɪrɪt, vaɪ-] *v.* so'kmoq, koyimoq; urishmoq, qarg'amoq. **vltuperation** *n.* so'kish, so'kinish.

**vltacious** [vɪˈveɪʃəs] *adj.* chaqqon, tetik, ildam. **vltacity** [vɪˈvæstɪ] *n.* chaqqonlik, epchillik, ziyraklik.

**viva voce** [ˌvɑːvə ˈvoʊtʃɪ, ˈvoʊsɪ] *adj.* og'zaki; *n.* og'zaki imtihon.

**vltvid** [vɪvɪd] *adj.* (*bright*) rangdor,

yorqin, chiroyli, ma'noli; (*lively*) tirik, jonli; (*imagination*) qizg'in. jo'shqin, yuragida o'ti bor. **vltldness** *n.* porloqlik, ravshanlik; chaqqonlik, epchillik, ziyraklik; jo'shqinlik, qizg'inlik.

**vltvity** [vɪvɪˌfaɪ] *v.* jonlantirmoq.

**vltvisection** [ˌvɪvɪˈseɪʃ(ə)n] *n.* *vltviseksiya* (*ilmiy maqsad bilan tirik hayvonni yorib tekshirish*).

**vltvixen** [ˌvɪks(ə)n] *n.* urg'ochi tulki; (*fig.*) shallaqi, zahar, hech kim bilan chiqishmaydigan xotin.

**vltviz** [vɪz] *adv.* ya'ni, aynan, aniq qilib aytganda.

**vltvzler** [vɪˈzɪə(r), ˈvɪzɪə(r)] *n.* vazir.

**V-neck** [vɪˈnek, ˈviː-] *n.* V harfi shaklidagi o'miz, yoqa o'mli.

**vltvocabulary** [ˌvɒkəˈbjuːləri] *n.* lug'at; (*range of language*) so'z boyligi; (*of a language*) lug'at tarkibi.

**vltvocal** [ˌvəʊk(ə)l] *adj.* tovush ..., ovoz ..., tovushga oid, ovozga oid; (*mus.*) vokalga oid, vokalga xos, xonandalikka xos; (*noisy*) sershovqin, shovqinli zo'r; - *chord* tovush pardasi.

**vltvocalist** *n.* xonanda, ashulachi.

**vltvocation** [ˌvəˈkeɪʃ(ə)n] *n.* mayl, rag'bat; iste'dod, layoqat; (*profession*) kasb, hunar. **vltvocational** *adj.* kasbiy, kasabga oid.

**vltvocalive** [ˌvəʊkətɪv] *adj.* undash, atov; *n.* undash (atov) kelishi

(*murojaatni ifodalovchi ol shakli*).

**vociferate** [ve'ɪsɪfə'reɪt] *v.* baqirmoq, qichqirmoq, dadlamoq. **vociferous** *adj.* vaqildoq, vag'vag', sershovqin, shovqini zo'r, chinqiroq.

**vodka** [vɒdkə] *n.* aroq.

**vogue** [veɪg] *n.* moda, urf, rusum; (*popularity*) mashhurlik, dang-dorlik; *in* - modada, urf bo'lgan.

**voice** [vɔɪs] *n.* tovush, ovoz, sado; (*gram.*) nisbat, fe'l nisbati; *v.* (*express*) ifodalab bermoq, bildirmoq. **voiced** *adj.* (*phon.*) jarangli. **voiceless** *adj.* (*phon.*) jarangsiz.

**void** [vɔɪd] *n.* bo'shlik, xolilik; *adj.* ichi bo'sh, kovak; (*invalid*) chin emas, haqiqiy emas, soxta, qalbaki, bekor qilingan, o'tmaydigan; - *of* mahrum bo'lgan; *v.* (*render invalid*) bekor qilmoq, o'tmaydigan qilmoq; (*excrete*) bo'shatmoq, xoli qilmoq.

**volatile** [vɒlə'taɪl] *adj.* (*chem.*) uchuvchan, tez uchib ketadigan; (*inconstant*) subulsiz, tuturiqsiz, betayin; (*elusive*) tutqich bermaydigan. **volatility** *n.* uchuvchanlik; o'zgaruvchanlik, subutsizlik, tuturiqsizlik.

**vol-au-vent** ['vɒləʊ,vɒ] *n.* qatiama samsa.

**volcanic** [vɒl'kænɪk] *adj.* vulqon-

ga aid, vulqondan chiqqan; (*fig*) to'liqlik, jo'shqin, kuch-g'ayratga to'lib-toshgan. **volcano** [vɒl'keɪnəʊ] *n.* vulqon, yonar tog'.

**vole** [vəʊl] *n.* (*zool.*) cho'lsichqon.

**Volga** [vɒlɡə] *n.* Volga daryosi.

**volition** [vɒlɪʃ(ə)n] *n.* istak, irada, xohish, ixtiyor; *of one's own* - o'z ixtiyori bilan.

**volley** [vɒli] *n.* (*missiles*) zalp, bir yo'la o'tish (*hamma miltiq yoki zambaraklardan baravariga o'q uzish*); (*fig.*) *of arrows etc.*) juda ko'p; do'l, jala; (*sport*) uchib ketayotganda urish (zarb berish). **volleyball** *n.* voleybol (*sport fun*).

**volt** [vɒlt] *n.* volt (*elektr kuchlanishining o'lchov birligi*). **voltage** *n.* kuchlanish.

**volte-face** [vɒl'fɑ:s] *n.* (*fig.*) keskin o'zgarish; orqaga burilish.

**volubility** [vɒljʊ'bɪlɪtɪ] *n.* so'zamollik, sergaplik. **'voluble** *adj.* sergap, so'zamol; xushchaqchaq.

**volume** [vɒljʊ:m] *n.* (*book*) tom, jild; (*capacity, bulk; also fig.*) hajm, o'lcham; miqdor; (*loudness*) balandlik (ovoz); (*mus., strength*) kuch. **voluminous** [vɒ'lju:mɪnəs, vɒ'lju:-] *adj.* (*bulky*) keng, kalta, ko'p; (*of writer*) serunum; (*of many volumes*) ko'p jildli.

**voluntary** [vɒləntəri] *adj.* ko'ngilli, ixtiyoriy; (*deliberate*) qasddan qilingan, ataylab qilingan, bila turib (ongli ravishda) qilingan; *n.* (*mus.*) musiqa asarini yakka organda ijro etish (*organ* – *bir turli musiqa asbobi*). **volun'teer** *n.* ko'ngilli, talabgor, ixtiyoriy; *v.* taklif qilmoq, taqdim qilmoq, buyurmoq; (*offer*) talabgor bo'lib chiqmoq, istak bildirmoq; (*mil.*) o'z xohishiga ko'ra.

**voluptuary** [vɒl'ʌptʃʊəri] *n.* shahvatparast (odam). **voluptuous** *adj.* shahvatparast, shahvatga berilgan. **voluptuousness** *n.* shahvatparastlik, shahvatga berilish.

**vomit** [vɒmɪt] *n.* qusish, ko'ngil aynish, qayt qilish; *v.* qusmoq, ko'ngli aynimoq; *he was* ~ing blood u qon qusgan edi; (*fig.*) otib chiqarmoq, chiqarib tashlamoq.

**voracious** [və'reɪʃəs] *adj.* yeb to'ymas, xo'ra, suq, ochko'z; (*fig.*) ziqna, haris. **voraciously** [və'reɪʃiəsli] *n.* suqlik, ochko'zlik, yeb to'ymaslik, ziqnalik.

**vortex** [vɔːtɛks] *n.* (*whirlpool*; also *fig.*) girdob, aylanma; alg'ov-dalg'ov; (*whirlwind*; also *fig.*) girdob; uyurma, qyun.

**votary** [vəʊtəri] *n.* hurmatlovchi, qadrovchi, izzat qiluvchi; taraf-

dor, yoqllovchi.

**vote** [veɪt] *n.* (*poll*) ovozga qo'yish, saylash, ovoz berish; (*individual* –) ovoz; *the* – (*suffrage*) ovoz berish huquqi, saylash huquqi; (*resolution*) votum, fikr bildirish (*majlisda*, *parlamentda* ovoz berish yo'li bilan); ~ of no confidence ishonchsizlik bildirish; ~ of thanks tashakkur bildirish; *v.* ovoz bermoq, saylamoq; *v.* (*grant by* –) mablag' ajratmoq, pul chiqarmoq; (*deem*) ... deb topmoq, hisoblamoq, bilmoq; *the film was* ~d a failure film muvaffaqiyatsiz deb tan olindi. **voter** *n.* saylovchi, ovoz beruvchi. **voting-paper** *n.* saylov byulleteni.

**votive** *adj.* nazr sifatida bajarilgan; – offering qurbon (nazr) qilingan.

**vouch** [vaʊtʃ] *v.:* – for kafil turmoq, ishonlirmoq. **voucher** *n.* (*receipt*) tilxat; (*coupon*) talon. **vouchsafe** *v.* sazovor qilmoq, munosib ko'rmoq (*person to whom granted* +s.).

**vow** [vaʊ] *n.* qasam, ont, va'da, ahd; *v.* ont ichmoq, qasamyod qilmoq, qasam ichmoq.

**vowel** [vaʊəl] *n.* ochiq, ashkora.

**voyage** [vɔɪɪdʒ] *n.* sayohat, safar; *v.* sayohat qilmoq, safarda yurmoq.

**V-sig'n** ['vi:sərn] *n.* (*victory*) g'alaba nishoni.

**vulgar** ['vʌlgə(r)] *adj.* dag'al, qo'pol, bachkana, bemaza, aiyqa; (*of the common people*) avom xalq ... avomlarcha.

**vulgarism** *n.* vulgarizm (*adabiy tilda uchraydigan beadab so'z yoki ibora*). **vulgarity** ['vʌlgærɪtɪ] *n.* bachkanalik, pastkashlik, razillik, yaramaslik, bemazalik. **vulgarization** *n.* qo'pollashtirish, soxtalashtirish, ma'nosini buzib talqin qilish, mohiyatini buzib ko'rsatish. **vulgarize** *v.* qo'pollashtirmoq, soxtalashtirmoq, ma'nosini buzib talqin qilmoq, mohiyatini buzib ko'rsatmoq.

**vulnerable** ['vʌlnərəb(ə)] *adj.* qaltis, zaif, nozik.

**vulture** ['vʌltʃə(r)] *n.* kalxal, qoraqush (*katta yirtqich qush*); (*fig.*) yirtqich, qonxo'r (*odamga nisbatan*).

**vulva** ['vʌlvə] *n.* tashqi jinsiy lablar.

## W

**wad** [wɒd] *n.* momiq paxta bo'lagi; (*in gun*) plj (*mitiqni o'qtaganda dari bilan o'q orasiga va*

*o'q ustidan bosib shibbalanadigan latta, jun va sh.k.*); – of money bir dasta qog'oz pul; *v.* (*stuff with wadding*) paxta tiqmoq, paxta bilan to'ldirmoq, wadding momiq paxta, momiq; (*padding, packing*) to'ldirish.

**waddle** ['wɒd(ə)] *v.* lapanglab yurmoq.

**wade** [weɪd] *v.* (*river*) suv kechib o'tmoq, kechib o'tmoq; – through (*mud etc.*) kirib o'tmoq, yarib o'tmoq; (*sth. boring etc.*) bartaraf etmoq, daf etmoq, yengmoq. **wader** *n.* (*bird*) botqoq qushi; (*boat*) botqoqda kiyiladigan elik.

**wafel** ['wɛfə(r)] *n.* vafli (*katakakataq yupqa pechene*); kapsula, g'ilof (*achchiq dorilarni o'rab yutish uchun yasalgan g'ilof*).

**waffle<sup>1</sup>** ['wɒf(ə)] *n.* (*dish*) vafli (*shinnlik turi*).

**waffle<sup>2</sup>** ['wɒf(ə)] *n.* (*blather*) ortiqcha gap-so'zlar, safсата; *v.* lof urmoq, yolg'on gapirmoq.

**waft** [wɒft, wɔ:ft] *v.* tarqalmoq, tarqalmoq.

**wag<sup>1</sup>** [wæɡ] *n.* (*wave*) silkish, silkitish; (*of tail*) likillatish; *v.* (*tail*) likillatmoq, jilpanglatmoq; (*finger*) po'pisa qilmoq; silkinmoq, tebranmoq, qimirlatmoq.

**wag<sup>2</sup>** [wæɡ] *n.* (*joker*) hazilkash. **wage<sup>1</sup>** [weɪdʒ] *v.* – war ish haqi

uchun olib borilgan urush.

**wage**<sup>2</sup> [weɪdʒ] *n.* oylik maosh, ish haqi; ~ freeze maoshlarni bermay qo'yish; living ~ kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori. **wage-earner** *n.* ishchi; (*bread-winner*) boquvchi.

**wager** [ˈweɪdʒə(r)] *n.* garov, bas; (*stake*) dov (*qimorda*); *v.* bas bog'la(n)moq, -ga garov o'ynat(mo)q

**wages** *n.* see **wage**<sup>2</sup>

**waggish** [ˈwæɡɪʃ] *n.* to'polonchi, sho'x.

**wag(g)on** [ˈwæɡən] *n.* (*carriage*) arava; (*car*) to'rt g'ildirakli arava; (*rail.*) vagon-platforma (*Angliyada*); (*van*) furgon, soyavon arava; (*trolley*) vagonetka, vagoncha. **wag(g)oner** *n.* aravakash, yuk tashuvchi, kirakash.

**wagtail** [ˈwæɡteɪl] *n.* jibljajbon.

**wail** [weɪl] *n.* qarovsiz bola; daydi.

**wail** [weɪl] *n.* chinqiriq, nola; *v.* chinqirmoq, nola qilmoq.

**wainscot** [ˈweɪnskɒt] *n.* panel (*devorlarning pastki qismini yog'och-taxta bilan qoplash yoki shu rang-ga bo'yab qo'yish*); *v.* panel bilan qoplamoq.

**walst** [weɪst] *n.* bel; kiyimning bel qismi. **walstband** *n.* belbog', kamar. **walstcoat** *n.* nimcha.

**waist-deep** *n.* (*adv.*) belgacha. **waistline** *n.* bel.

**wait** [weɪt] *n.* kutish; *lle in* - piatirmada bo'lmoq, kimnidir poylab turmoq; *lle in* ~ (*for*) kutib turmoq, poylamoq; *v.* kutmoq; (*be a -er, -ress*) ofitsiant bo'lmoq; ~ *on* xizmat qilmoq. **waiter** *n.* ofitsiant. **waiting** *n.* kutish. **waiting-list** *n.* nomzodlar ro'yxati. **waiting-room** *n.* qabulxona; (*rail.*) kutish zali. **waitress** *n.* ofitsiant (*qiz*).

**waive** [weɪv] *v.* voz kechmoq, bekor qilmoq.

**wake**<sup>1</sup> [weɪk] *n.* (*at funeral*) ma'raka oshi.

**wake**<sup>2</sup> [weɪk] *n.* (*naut.*) kilvater (*kemaning o'z ortidan qoldirib borayotgan izi*); *iz*; *in the* - of ketidan, izma-iz, izidan.

**wake**<sup>3</sup> [weɪk] *v.* (*also* ~ *up*) uyg'otmoq; (*also* ~ *up*) uyg'otmoq. **wakeful** *adj.* (*sleepless*) uyqusiz; (*vigilant*) ogoh, hushyor. **wakefulness** *n.* ogohlik, hushyorlik. **waken** see **wake**<sup>3</sup>

**Wales** [weɪlz] *n.* Uells.

**walk** [wɔ:k] *n.* (*walking*) yurish, yo'l; (*gait*) yurish, qadam tashlash; (*stroll*) yayov yurish, sayr qilish; (*path, avenue*) so'qmoq yo'l, yolg'izoyoq yo'l, xiyobon; **ten minutes'** - from here bu yerdan 10 daqiqali yo'l; **go for a**



~ aylangani chiqmoq, sayrga chiqmoq; *from all -s of life* jamiyatning barcha qallamlaridan; *v. aylangani ketmoq*; ~ *away, off* ketmoq; ~ *in* kirmoq; ~ *out* chiqmoq; (*traverse*) aylanib o'tmoq; (*take for ~*) aylantirgani olib chiqmoq. **walker** *n.* piyoda yuruvchi, piyoda. **walkie-talkie** [ˈwɑ:kɪˈtɔ:kɪ] *n.* ko'chma ratsiya (*aloqa vositasi*). **walking** *n.* yurish; *adj.* sayr qiladigan; (*med*; *encyclopedia*) yuradigan, yura oladigan. **walking-stick** *n.* hassa.

**Walkman** [ˈwɔ:kmen] *n.* (*prop.*) audiopleer, vokmen (*savdo belgisi*).

**walk-out**: ~ *part* so'zsiz ijro etiladigan rol. **walk-out** *n.* (*strike*) ish tashlash; (*exit*) namoyishkorona kelish. **walk-over** *n.* osonlik bilan erishilgan g'alaba.

**wall** [wɔ:l] *n.* devor; (*of object*) g'ov; *attr.* devor ...; devorga osib (ilib) qo'yadigan; devoriy; *v.* devor bilan o'rarmoq; ~ *up* (*door, window*) bekitib tashlamoq; (*brick up*) urib (berkitib, suvab) tashlamoq.

**wallet** [ˈwɒlɪt] *n.* hamyon.

**wallflower** [ˈwɔ:lˌflaʊə(r)] *n.* sariq fiol (*gul*).

**wallop** [ˈwɒləp] *n.* qattiq zarba; *v.* qattiq zarba bermoq; urmoq.

**wallow** [ˈwɒləʊ] *v.* ag'namoq, dumalamoq; ~ *in* (*give o.s. up to*) -ga berilmoq.

**wallpaper** [ˈwɔ:lˌpeɪpə(r)] *n.* gulgog'oz.

**walnut** [ˈwɔ:lˌnʌt] *n.* grek yong'og'i; (*wood, tree*) yong'oq daraxti, yong'oq yog'ochi.

**walrus** [ˈwɔ:lɪrəs, ˈwɒl-] *n.* moj (*shimol dengizlarida yashaydigan so'yloq tishli uzun mo'ylovli sut emizuvchi hayvon*).

**waltz** [ˈwɔ:ls, ˈwɔ:lɪs, ˈwɒ-] *n.* vals (*raqs turi*); *v.* valsga tushmoq.

**wan** [wɒn] *adj.* (*pale*) rangsiz, oqargan, xira, nursiz.

**wand** [wɒnd] *n.* (*of conductor, magician*) tayoqcha; (*of official*) aso (*podsholik yoki yuqori martaba alomati*).

**wander** [ˈwɒndə(r)] *v.* tentiramoq, izg'imoq, daydimoq; (*also of thoughts etc.*) chalg'imoq, qochmoq (*fikr, xayol haqida*); ~ *from the point* mavzudan chetga chiqmoq. **wanderer** *n.* musafir, darvash, darbadar. **wandering** *adj.* daydi; sang'i, darbadar.

**wane** [weɪn] *n.* kamayish; *v.* kamaymoq; (*diminish*) kichraymoq; (*weaken*) zaiflashmoq, dardsinsizlanmoq, kuchsizlanmoq.

**wangle** [ˈwæŋg(ə)l] *v.* aldamoq, chuv tushirmoq.

**want** [wɒnt] *n.* (lack) kamchilik, yetishmovchilik; (need) ehtiyoj, zarurat; (requirement) talab; (desire) xohish, istak; *v.* xohlamoq, istamoq; (need) biror narsaga muhtoj bo'lmq; I - you to come at six siz oldida kelishingizni xohlayman. **wanting** *adj.* (absent) kelmagan, yo'q bo'lgan, qalmashmagan; be ~ yetmaslik, yo'q bo'lish; **experience is -** tajriba yetishmaydi.

**wanton** ['wɒnt(ə)n] *adj.* (licentious) buzuc, axloqsiz, sayoq; (senseless) ma'nosiz; (luxurious) qulurgan.

**war** [wɔ:(r)] *n.* urush; (*attr.*) harbiy (*in - crime, - correspondent, - debts, - loan etc.*); at - urush holatida; - cry jangovar chaqiriq; - dance jangovar raqs; - memorial urushda halok bo'lganlar haykali; *v.* jang qilmoq, urushmoq.

**warble** ['wɔ:b(ə)l] *n.* sayrash (qushlarga nisbatan ishlatiladi); *v.* sayramoq.

**ward**<sup>1</sup> [wɔ:d] *n.* (hospital) kasalxona bo'lma (xona)si; (child etc.) vasiylikdagi; (district) shaharning ma'muriy rayoni; saylov okrugi.

**ward**<sup>2</sup> [wɔ:d] *v.:* - off qaytarmoq, oldini olmoq (*zabonning, xavfning*).

**warden** ['wɔ:d(ə)n] *n.* (prison) boshliq; (college) direktor.

**warder** [wɔ:de(r)] *n.* qamoqxona nazoratchisi (xizmatchisi, soqchisi).

**wardrobe** ['wɔ:drɒb] *n.* garderob, kiyimlar osig'liq turadigan joy, javon.

**warehouse** [weəhaus] *n.* ombor, pakgauz (qisqa muddatga yuk saqlanadigan ombor). **wares** [weəz] *n.* mahsulotlar, mollar.

**warfare** [wɔ:feə(r)] *n.* urush. **wargame** *n.* urush-urush o'yini. **warhead** *n.* jangovar kallak. **warhorse** *n.* jangovar ot.

**warily** [weəri:lɪ] *adv.* ehtiyotkorona. **wariness** *n.* ehtiyotkorlik.

**warlike** [wɔ:lɪk] *adj.* jangovar.

**warm** [wɔ:m] *n.* iliqlik; *adj.* (also *fig.*) do'stona; *v.* isitmoq, isirimoq; ~ up (*food etc.*) ili(t)moq (*ovqat va sh.k.*); isinib (isitib) olmoq; (*liven up*) jontlanmoq; (*sport*) qizlashib olmoq; (*mus.*) avjga chiqmoq. **warmth** *n.* ilqlik, issiqlik; (*cordiality*) samimiylik, dildashlik.

**warmonger** ['wɔ:mɒŋgə(r)] *n.* urush qo'zg'atuvchi, urush olivini yoquvchi.

**warn** [wɔ:n] *v.* ogohlantirmoq. **warning** *n.* ogohlantirish.

**warp** [wɔ:p] *n.* (of cloth) asos; (of wood) egi(lli)sh, qayril(tir)ish;

v. (*wood*) eg(ili)moq, qayirilmoq; (*pervert, distort*) buzmoq, buzib ko'rsatmoq.

**warpaint** ['wɔ:pəɪnt] *n.* jangdan oldin tanani bo'yash. **warpath** *n.* (*fig.*): be on the - jangovar ruh (kayfiyat)da bo'lmoq.

**warrant** ['wɒrənt] *n.* (*for arrest etc.*) order, ruxsatnoma: (*justification*) oqlash, oqlanish; (*proof*) isbot, dalil; v. (*justify*) oqlamoq; (*guarantee*) kafolat bermoq; kafli bo'lmoq, kafilligini olmoq. **warranty** *n.* (*basis*) asos; (*guarantee*) kafolat.

**warren** ['wɒrən] *n.* quyonxona (*uy quyonini asrash, ko'paytirish uchun qunigan maxsus joy*).

**warrior** ['wɒriə(r)] *n.* jangchi, askar.

**Warsaw** ['wɔ:zɔ:] *n.* Varshava.

**warship** ['wɔ:ʃɪp] *n.* harbiy kema.

**wart** [wɔ:t] *n.* so'gal. **wart-hog** *n.* cho'chqalar oilasiga mansub hayvon.

**wartime** ['wɔ:ləɪm] *n.*: In ~ urush paytida.

**warty** ['wɔ:tɪ] *adj.* so'galli, so'gal bo'gan.

**wary** ['weəri] *adj.* ehtiyokkor, hushyor.

**wash** [wɒʃ] *n.* yuvish; (*thin layer*) yupqa qatlam; (*bath*) malham; (*surf*) to'lqinning qirg'oqqa urilishi; (*backwash*) hamroh (zarur

tomonga yo'nalgan) oqim; **at the -** kir yuvishda; **have a -** yuvinmoq; v. (*clothes*) (kir) yuvmoq; (*of sea*) yuvmoq (qirg'oqni); (*clothes*) yuvilmoq; - **ashore**: the body was -ed ashore murda qirg'oqqa qalqib urildi; - **away, off, out** yuvilib ketmoq; (*carry away*) oqizib ketmoq; - **out** (*rinse*) chayqamoq; - **up** (*dishes*) yuvmoq (*idishlarni*); ~ **one's hands** (*of it*) javobgarlikni o'zidan soqit qilmoq. **washbasin** *n.* bel-qo'l yuvadigan jihoz. **washed-out** *adj.* (*exhausted*) charchagan. **washer** *n.* (*tech.*) shayba (*gayka ostiga qo'yiladigan metall halqa*). **washer-woman** *n.* kir yuvuvchi ayol, kirchi. **washing** *n.* (*of clothes*) kir yuvish; (*clothes*) yuviladigan kirlar. **washing-machine** *n.* kir yuvish mashinasi. **washing-powder** *n.* kir yuvish kukuni.

**Washington** ['wɒʃɪŋt(ə)n] *n.* Vashington.

**washing-up** ['wɒʃɪŋ'ʌp] *n.* (*action*) idish-lovoq yuvish; (*dishes*) kir idishlar. **wash-house** *n.* kirxon. **wash-out** *n.* (*fiasco*) barbod bo'lish, yiqilish. **washroom** *n.* bel-qo'l yuvadigan xona, yuvinish xonasi. **washtub** *n.* kir tog'ora, jomashov.

**wasp** [wɒsp] *n.* ari; -'e nest an uyasi. **wasplish** *adj.* (irritable) serjahl, jizzaki; (caustic) zaharxanda, achchiq.

**wastage** [wɛstɪdʒ] *n.* isrofgarchilik. **waste** *n.* (desert) cho'l, desht, sahro; (refuse) chiqindi, axlat; (of time, money etc.) (befoyda) sarf; go lo - bekor, behuda ketmoq; - pipe oqova quvuri, oqar suv o'tadigan quvur; *adj.* (desert) sahroga xos, sahroyi; (superfluous) keraksiz; (uncultivated) haydalmagan, ekilmagan; lay - talon-laroj qilmoq; - paper keraksiz qog'ozlar; (for recycling) makulatura; - products chiqitlar, sarqitlar; *v.* sarf qilmoq; (time) yo'qotmoq; (weaken) sillasini quritmoq, sillasi qurmoq; - away sog'ligini yo'qotmoq, zaiflashmoq. **wasteful** *adj.* isrofgar, sovurib yuboruvchi. **wasteland** *n.* xarobazor, obod qilinmagan joy. **waste-paper**: - basket (keraksiz) qog'ozlar uchun savat. **wastrel** *n.* (idler) bekorchi, yalqov.

**watch** [wɒtʃ] *n.* (timepiece) qo'l soati; (duty) navbalchilik; (naut.) vaxta, kemada navbalchilik; **keep - over** kimnidir kuzatmoq; (guard, - over) qo'riqlamoq; (look after) -ga qarab tumoq; - television, a film televizor

ko'rmoq, kino tomosha qilmoq; - outl ehtiyot bo'ling! **watch-chain** soat uchun zanjir. **watch-dog** qo'riqchi (poyloqchi) it. **watchful** *adj.* ogoh. **watchmaker** soatsoz. **watchman** *n.* (tungi) qorovul. **watch-spring** soat prujinasi. **watch-tower** soqchilar minorasi. **watchword** *n.* shior.

**water** [wɔ:tə(r)] *n.* suv; *attr.* suvga oid, xos, suvli; - bird suv qushi; - bottle suv uchun grafin; - bus daryo tramvayi (shahar ichidagi daryoda qatnaydigan yo'lovchi paroxod yoki kater); - jump suv g'ovi, suvli to'siq; - lily suv nilufari (tolagullitarga mansub dekorativ o'simlik); - main asosiy vodoprovod; - melon tarvuz; - polo suv polosi (o'yin); *v.* (flowers etc.) quymoq, sug'ormoq; (animals) ichirmoq, suv bermoq; (irrigate) sug'ormoq, suv quymoq; (eyes) yoshlanmoq (ko'z); (mouth): my mouth -s so'laklarim oqib ketdi; - down aralashtirmoq, qo'shmoq. **water-butt** *n.* yomg'ir suvi uchun bochka. **water-closet** pardozxona, hojalxona. **water-colour** *n.* akvarel (suvda qaratilgan bo'yoq; shunday bo'yoqlar bilan solingan rasm). **water-course** *n.* (brook) soy, anhor,

ariq, jilg'a; (*bed*) o'zan; (*channel*) kanal. **watercross** *n.* suv kressi (*krestgullilar oltasiga mansub o'simlik*). **waterfall** *n.* sharshara. **waterfront** *n.* shaharning qirg'oqqa tulashtirilgan qismi. **water-heater** *n.* suv qaynalgich. **water-hole** *n.* (*in desert*) buloq, chashma. **watering-can** *n.* gulchelak (*suv sochadigan jo'mrakli chelak*). **water-level** *n.* suv sathi. **waterline** *n.* vaterliniya (*kemaning suvga botish chizig'i*). **waterlogged** *adj.* botqoqlangan, botqoqlikka aylangan; suvga bo'ktirilgan. **watermark** *n.* (*in paper*) qog'ozdagi suv belgi (*qayoshga, yorug'ga tulganda ko'rinadigan surat, raqam, belgi*). **water-mill** *n.* suv tegirmoni. **water-pipe** *n.* vodoprovod quvuri. **water-power** *n.* gidroenergiya. **waterproof** *adj.* namlik o'tmaydigan, nam o'tkazmaydigan; *n.* nam o'tkazmaydigan plashch. **water-rat** *n.* suv kalamushi. **watershed** *n.* suv ayirg'ich. **waterside** *n.* qirg'oq, sohil. **water-ski** (*n.*) suv chang'isi. **water-supply** *n.* suv bilan ta'minlash, suv ta'minoti. **watertight** *adj.* suv (nam) o'tkazmaydigan; (*hermetic*) germetik, zich yopilgan. **water-tower** *n.* suv bosimi hosil qiladigan minor, suv minorasi.

**waterway** *n.* suv yo'li. **water-weed** *n.* suv o'tlari. **water-wheel** *n.* suv parragi. **waterworks** *n.* vodoprovod qurilmalari. **watery** *adj.* suvli, sersuv; (*pale*) rangsiz, oqargan.

**watt** [wɒt] *n.* vatt (*elektr quvvati o'lchov birligi*).

**wattle** [wɒt(a)] *n.* (*fencing*) chelak devor; *attr.* lo'qilgan.

**wave** [weɪv] *v.* (*hand etc.*) silkilmoq (*qo'lni, ro'molni*); (*hair*) jingalaklamoq, jingalak qilmoq; (*flutter*) hilpiramoq; (*rock, swing*) tebranmoq, chayqalmoq, silkinmoq; - *aside* (*spum*) tad qilmoq, qaylarmoq; - *down* to'xtash uchun imo qilmoq; *n.* (*in var. senses*) to'lqin; (*of hand*) silkilish, siltash, qoqish, siltam; (*in hair*) jingalak qilish. **wavelength** *n.* to'lqin uzunligi. **waver** *v.* (*also fig.*) ikkilanmoq, taraddudlanib qolmoq; (*flicker, flutter*) hilpiramoq, tebranmoq. **wavy** *adj.* to'lqinli, to'lqinsimon.

**wax** [wæks] *n.* mum; (*in ear*) quloq klin; *attr.* mum..., mumga oid, mumdan yasalgan; *v.* mumlamoq. **waxen, waxy** *adj.* mum..., mumga oid, mumdan yasalgan; (*like wax*) mumsimon. **waxwork** *n.* mum haykal; mumdan yasalgan haykallar galereyasi.

**way** [weɪ] *n.* (*road, path, route*);

*fig.*) yo'l; (*manner*) shakl; (*method*) yo'sin, yo'l, tariqa; (*condition*) holat, ahval; (*respect*) munosabat; (*habit*) odat; *by the* - (*fig.*) ha aytgancha, aytganday, darvoqe; *on the* - yo'l-yo'lakay; *this* - (*direction*) bu yerga, buyoqqa; (*in this* -) shunday qilib, shu yo'sinda; *the other* - round aksi, teskarisi; *under* - ketayotib; *be in the* - lo'sqinlik qilmoq; *get out of the* - yo'ldan nari ketmoq; *give* - (*yield*) biror narsa ta'sirida oson o'zgaradigan bo'lmoq; (*collapse*) ag'darilmoq; *go out of one's* - to bor kuchi bilan urinmoq, firashmoq; *have it one's own* - o'z ixtiyoricha harakat qilmoq; *make* - yo'l bermoq. **wayfarer** *n.* yo'lchi. **waylay** *v.* (*lie in wait for*) poylab kutmoq, yashrinib turgan holda kutmoq; (*stop*) yo'lda ushlab (tutib, to'xtatib) qolmoq. **wayside** *n.* yo'l chekkasi (cheti); *adj.* yo'l chetidagi, yo'l ustidagi.

**wayward** [ˈweɪwəd] *adj.* o'jar, qaysar, ters, injiq. **waywardness** *n.* o'jarlik, qaysarlik, terslik, injiqlik. **WC** *abbr.* (*of water-closet*) hojatxona.

**we** [wi:, wɪ] *pron.* biz.

**weak** [wi:k] *adj.* (*in var. senses*) nimjon, kuchsiz, zaif; (*indec-*

*sive*) jur'atsiz, qat'iyatsiz; (*unconvincing*) ishonari bo'lmagan, ishontirmaydigan. **weaken** *v.* kuchsizlantirmoq, darmonsizlashtirmoq, zaiflashtirmoq; sustlashmoq, zaiflashmoq. **weaking** *n.* kuchsiz, zaif odam. **weakness** *n.* kuchsizlik; *have a* - for -ga o'ch bo'lmoq.

**weal** [wi:l] *n.* (*mark*) chandiq, tiriq. **wealth** [welθ] *n.* boylik; (*abundance*) mo't-ko'llik, seroblik. **wealthy** *adj.* boy, badavlat.

**wean** [wi:n] *v.* ko'krakdan ajratmoq; (*fig.*) tashlatmoq, zada qilmoq.

**weapon** [ˈwepən] *n.* qurol. **weaponless** *adj.* qurolsiz. **weaponry** *n.* qurollanish, qurol.

**wear** [weə(r)] *n.* (*wearing*) kiyish; (*clothing*) kiyim; (- *and tear*) yeyilish, eskirish; *v.* kiyimoq; kiyilmoq; - *off* (*cease to have effect*) ta'siri yo'qolmoq; - *out* (*clothes*) kiyilib eskirmoq; (*exhaust, become exhausted*) sil-lasi qurimoq, sarflanib tamom bo'lmoq.

**weariness** [ˈwiəriːnɪs] *n.* (*tiredness*) charchaganlik, toliqqanlik, charchash, toliqish; (*tedium*) zeriktiradiganlik. **wearing** [ˈweəriŋ], **wearisome** *adj.* charchatadigan, zeriktiradigan, toliqtiradigan. **weary** *adj.* charchagan,

toliqqan; *v.* toliq(tir)moq.

**weasel** [wiz(ə)] *n.* larcha.

**weather** [wede(r)] *n.* ob-havo; -

forecast ob-havoni oldindan aylish; - *station* meteorologiya stansiyasi; *v.* (*storm etc.*) chidamoq; (*expose to atmosphere*) atmosfera ta'sirlariga duchor qilmoq. **weather-beaten**

*adj.* dovul, bo'rontalardan ahikast

olgan; (*of face*) shamollar ta-

sirida dag'allashgan, yonilgan,

quruqshagan, g'adir-budur; (*of*

*person*) toblangan, chiniqqan.

**weather-chart** *n.* sinoptiklar xa-

ritasi. **weather-cock**, **weather-**

**vane** *n.* flyuger (*shamolning*

*yo'nalishi va tezligini ko'rsata-*

*digan, aniqlaydigan asbob*). **we-**

**atherman** *n.* meteorolog, mete-

orologiya mutaxassisi.

**weave**<sup>1</sup> [wi:v] *v.* (*fabric*) to'qi(l)-

moq; (*fig.*; *also wreath etc.*)

chalkashlirmoq, yolg'on-yashiq

to'qimoq; to'qimoq, o'rmoq; *n.*

mato naqshi, **weaver** *n.* to'quv-

chi, to'quvchi ayol. **weaving** *n.*

(*the art of -*) to'quvchilik; (*the -*)

to'qish, to'qilish.

**weave**<sup>2</sup> [wi:v] *v.* (*sway*) tebranmoq.

**web** [web] *n.* (*cobweb*, *gossa-*

*mer*; *fig.*) o'rgimchak to'ri va

uning har tolasi; girdob; (*mem-*

*brane*) parda; (*tissue*) mato,

gaziama; (*fig.*) chalkash-chul-

kash narsa. **webbed** *adj.* par-

dasi bor, pardali. **webbing** *n.*

yashirin tasma, uqa, jiyak,

lo'qilgan tasma.

**wed** [wed] *v.* (*of man*) uylanmoq;

(*of woman*) turmushga chiq-

moq; (*unite*) birga qo'shmoq,

birga qo'shilmog; *v.* uylanmoq,

erga tegmoq, nikoh ahidini ras-

miylashtirmoq. **wedded** *adj.* er-

xotinga oid; - *to* (*fig.*) sodiq.

**wedding** *n.* to'y, uylanish, ni-

koh ahdi; - *cake* to'y forti; - *day*

to'y kuni; - *dress* to'y libosi; -

*ring* nikoh uzugi.

**wedge** [wedʒ] *n.* qoziq; *v.* (- *open*)

qoziqlamoq; - *in*(*to*) ponadek

qoq(il)moq, suqib kirgizmoq,

suqilib kirmoq.

**wedlock** ['wedlɒk] *n.* nikoh, er-

xotinlik; *born out of* - nikohsiz

lug'ilgan.

**Wednesday** ['wenzdeɪ, -di] *n.*

chorshanba.

**weed** [wi:d] *n.* begona o't; *v.*

o'tamoq, o'toq qilmoq; - *out* yo'q

qilmoq. **weed-killer** *n.* gerbitsid

(*begona o'tlarni yo'qoladigan*

*kimyoviy modda*). **weedy** *adj.*

begona o'tlar bilan qoplangan;

(*person*) oriq.

**week** [wi:k] *n.* hafta. **weekday** *n.*

oddiy kun, ish kuni, bogim kuni.

**weekend** *n.* shanba va yak-

shanba, haftaning dam olish

- kunlari. **weekly** *adj.* haftalik; (*wage*) bir haftalik; *adv.* haftada bir marta; har hafta; *n.* haftalik, haftada bir chiqadigan jurnal.
- weep** [wi:p] *v.* yig'lamoq; ~ **over** aza lutib yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq. **weeping** *n.* yig'i; *adj.* ~ willow majnuntol. **weepy** *adj.* yig'loqi, seryig'i.
- weevil** [wi:vil] *n.* uzuntumshuq (*zararkunanda qo'ng'iz*).
- weft** [weft] *n.* arqoq (*to'qimachilikda*).
- weigh** [wei] *v.* (*also fig.*) mulohaza qilmoq, o'ylab ko'rmoq; (*so much*) belgili og'irlikka ega bo'lmoq; ~ **down** og'irlashtirmoq, malollik keltirmoq; ~ **on** og'irlik keltirmoq; ~ **out** tortib bermoq; ~ **up** (*appraise*) baholamoq, baha bermoq. **weight** *n.* (*also authority*) salobat, obro', vazn; (*load, also fig.*) yuk, og'irlik, qiyinlik; (*sport*) qadoqtosh, girya, shtanga; (*influence*) ta'sir; **lose** ~ ozmoq; **put on** ~ semirmoq; **vazni oshmoq**; *v.* (*make heavier*) og'irlashtirmoq. **weightless** *adj.* vaznsiz, vazni yo'q. **weightlessness** *n.* vaznsizlik. **weightlifter** *n.* tosh ko'taruvchi polvon, tosh bilan mashq qiluvchi og'ir atletikachi, shtangachi. **weightlifting** *n.* og'irlik ko'tarish. **weighty** *adj.* (*also fig.*) jiddiy, asosli, qat'iy; (*heavy*) og'ir; (*important*) muhim.
- weir** [wia(r)] *n.* to'g'on, g'ov, ariqni to'kish, to'g'on.
- weird** [wiəd] *adj.* (*strange*) ajoyib, g'alati.
- welcome** ['welkəm] *n.* (*greeting*) salomlashish; (*reception*) qabul; *adj.* tilangan, istalgan, kutilgan, ko'ngildag; (*pleasant*) yoqimli, xush keladigan; **you are** ~ (*don't mention it*) arzimaydi, marhamat; **you are** ~ **to use my bicycle** velosipedim sizning xizmalingizda; **you are** ~ **to stay the night** biznikida tunashingiz mumkin; *v.* qutlamoq, salom bermoq; *inf.* xush kelibsiz!
- weld** [weld] *n.* payvand, chok; *v.* payvandlab binktir(il)moq; (*fig.*) jipslashtirmoq, mustahkam bir-lashtirmoq. **welder** *n.* payvandlovchi. **welding** *n.* payvandlash.
- welfare** ['welfeə(r)] *n.* farovonlik, mo'l-ko'lichilik, xotirjamlik; **W-State** ommaviy farovonlik davlati; ~ **work** ijtimoiy ta'minot bo'yicha ish.
- well<sup>1</sup>** [wel] *n.* quduq; (*for stairs*) zina xonasi (*katta binolarda*).
- well<sup>2</sup>** [wel] *v.*: ~ **forth**, **up** burqirab chiqmoq, olilib (*qaynab*) chiqmoq (*suyuqlik haqida*); shə-rillab oqmoq.
- well<sup>3</sup>** [wel] *adj.* (*healthy*) sog'lam;



**fael** - o'zini yaxshi, sog'lom his qilmoq; **get** - tuzalmoq; **look** - yaxshi ko'rinmoq; **all is ~ hammasi** joyida; **Int.** xo'shi; **adv.** yaxshi; (*very much*) juda yaxshi; **as ~ ham;** **as ~ ae** (*in addition to*) -dan tashqari; **It may ~ be true** ehtimol shundaydir; **very ~ I** yaxshil; **~ done!** barakalla!; **~ done** (*cooked*) (yaxshi) qovurilgan. **well-advised** *adj.* o'ylab ish qiladigan, aqlli, dono, mulohazali. **well-balanced** *adj.* og'ir, vazmin, bosiq. **well-behaved** *adj.* odobli, axloqli, xushfe'l. **well-being** *n.* eson-omonlik, xotirjamlik. **well-bred** *adj.* xushaxloq, tarbiyali. **well-bullt** *adj.* mahkam. **well-defined** *adj.* ravshan, aniq. **well-disposed** *adj.* xayrixoh, moyil, ko'ngli yaqin, iltifolli, mehribon, oqko'ngil. **well-fed** *adj.* yaxshi boqilgan, boqib samirtirilgan. **well-groomed** *adj.* (*person*) pahlavonlik parvarish qilingan, avaylab-asralgan. **well-grounded** *adj.* asosli, asoslar (dalillar) bilan tasdiqlangan; (*versed*) bilimli, ma'lumotli, bilimdon. **well-informed** *adj.* (yaxshi) biladigan, xabardor. **well-known** *adj.* mashhur, taniqli. **wellington** (*boot*) [*weɪlɪŋ(ə)n*] *n.* rezina etik. **well-mannered** [*weɪ mənəd*] *adj.*

tarbiyali, odobli. **well-meaning** *adj.* yaxshi niyatli. **well-nigh** [*welnəɪ*] *adv.* deyarli. **well-paid** *adj.* yaxshi to'lanadigan, yaxshi haq beriladigan. **well-preserved** *adj.* yaxshi saqlangan. **well-proportioned** *adj.* proporsional, mutanosib. **well-read** *adj.* ko'p o'qigan, o'qimishli. **well-spoken** *adj.* bejab gapirishga usta. **well-timed** *adj.* mavridida, o'z vaqtida. **well-wisher** *n.* boshqalarga yaxshilik istovchi odam, xayrixoh. **well-worn** *adj.* (*fig.*) siyqasi chiqqan.

**welsh**<sup>1</sup> [*welʃ*] *v.*: **~ on** (*swindle*) aldamoq, firib bermoq; (*fail to keep*) turmaslik, tura olmaslik (*so'zida, va'dasida*).

